



“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIIY-TADQIQOT INSTITUTI

# MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in  
Central Asia*  
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в  
Центральной Азии*  
международный научный рецензируемый журнал

**2023/4 (9)**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e‘lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

**DOI: 26739/2118-9998**

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

#### TAHRIR HAY'ATI RAISI:

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

#### TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*  
**SAIDOVA Galina Karimovna** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich** – *psixologiya fanlari doktori, professor.*  
**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**BEKMURADOV Adham Sharipovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna** – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*  
**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*  
**RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**SAIDOV Akmal Xolmatovich** – *yuridik fanlari doktori, professor.*  
**YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna** – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*  
**TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna** – *tibbiyot fanlari nomzodi.*  
**UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**ZIYAYEV Azamad Xamidovich** – *tarix fanlari doktori, professor.*  
**ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li** – *psixologiya fanlari doktori.*  
**TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

#### ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

#### ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Нарбаева Танзила Камаловна** – *доктор социологических наук, профессор.*  
**Саидова Галина Каримовна** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Шоумаров Гайрат Бахрамович** – *доктор психологических наук, профессор.*  
**Абдураманов Хамид Худайbergenovich** (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Бекмуратов Адхам Шарипович** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Маъруфова Гулнора Махмудовна** – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиси по вопросам женщин и гендерного равенства.*  
**Мусурманова Айниса Мусурмановна** – *доктор педагогических наук, профессор.*  
**Рахимова Нигина Хайруллаевна** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Саидов Акмал Холматович** – *доктор юридических наук, профессор.*  
**Якубжанова Дилобар Батировна** – *доктор педагогических наук, доцент.*  
**Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна** – *кандидат медицинских наук.*  
**Умирзаков Баходир Хамидович** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Зияев Азамат Хамидович** – *доктор исторических наук, профессор.*  
**Абдусаматов Хасанбой Усмонжон угли** – *доктор психологических наук.*  
**Туракулов Улугбек Холбутаевич** – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

#### THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna**  
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

#### MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*  
**Saidova Galina Karimovna** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Shoumarov Ghayrat Bakhramovich** – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*  
**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Bekmuradov Adkham Sharipovich** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Marufova Gulnora Makhmudovna** – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*  
**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*  
**Rakhimova Nigina Khayrullayevna** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Saidov Akmal Kholmatovich** – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*  
**Yakubjanova Dilobar Batirovna** – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*  
**Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna** – *Candidate of Medical sciences.*  
**Umirzakov Bakhodir Khamidovich** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Ziyayev Azamad Khamidovich** – *Doctor of Historical sciences, Professor.*  
**Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli** – *Doctor of Psychological Sciences.*  
**Torakulov Ulugbek Holbutayevich** – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

#### XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

**Doktor Rashmini Koparkar,**  
*Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti*  
*Xalqaro tadqiqotlar maktabi,*  
*Javoharlal Neru universiteti,*  
*Nyu-Dehli, Hindiston*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna,**  
*Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,*  
*pedagogika fanlari doktori, professor*

**Doktor Priti Kesavan,**  
*Texnologiya fakulteti boshlig'i,*  
*London biznes va moliya maktabi,*  
*Singapur*

#### МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Доктор Рашмини Копаркар,**  
*Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,*  
*Школа международных исследований,*  
*Университет Джавахарлала Неру,*  
*Нью-Дели, Индия*

**Артамонова Екатерина Иосифовна,**  
*Челябинский государственный институт культуры,*  
*доктор педагогических наук,*  
*профессор*

**Доктор Прити Кесаван,**  
*Руководитель Технологического факультета*  
*Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур*

#### INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

**Dr. Rashmini Koparkar**  
*Assistant Professor*  
*Centre for Russian and Central Asian Studies*  
*School of International Studies*  
*Jawaharlal Nehru University*  
*New Delhi, India*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna**  
*Chelyabinsk State Institute of Culture*  
*Doctor of Pedagogical Sciences,*  
*Professor*

**Dr. Preethi Kesavan**  
*Head, School of Technology*  
*London School of Business and Finance, Singapore*

*SOTSILOGIYA*

<b>Xonturayev B.</b> Xalqaro gender indeks reytinglarida O‘zbekiston o‘rnini mustahkamlash masalalari .....	4
<b>Nurullayeva U.N.</b> Ijtimoiy kayfiyat fenomeni sotsionomika nazariyasi yondashuvi talqinida .....	13

*OILA VA JAMIYAT*

<b>Norqulov H. Nurmonova Z.</b> Oilalar mustahkamligini ta’minlashda moddiy qadriyatlarning ahamiyati .....	19
<b>Yaxyoyeva S.A.</b> Gender tenglikka erishish strategiyasini amalga oshirish mexanizmlari .....	24
<b>Inagamova F.X.</b> Qadriyatlarning o‘zgarishi va yosh oilalar barqarorligi o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik .....	29

*PSIXOLOGIYA*

<b>Abduraxmanova Z.E.</b> Baynalmilal oilalarda voyaga yetayotgan o‘smirlarda etnik identiklik shakllanishining ijtimoiy-psixologik jihatlari .....	34
<b>Abdusamatov X.U.</b> Oilani psixologik qo‘llab-quvvatlashning tizimli modeli .....	42
<b>Narmetova Y.K.</b> Psixosomatik kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarning hayot sifatini baholashda yosh va jins xususiyatlari .....	48
<b>Ismaylova R.</b> Oilaviy zo‘ravonlik vaziyatida intervensiya konsepsiyasi .....	54
<b>Mahkamova D.B.</b> Xotin-qizlarning davlat xizmatlariga ijtimoiy moslashuvining psixologik omillari .....	66
<b>Аскарова Г., Эркинова Р.</b> Проблемы развития практической психологии в Узбекистане .....	73
<b>Во‘riyeva M.</b> Migrant oilalarda nikohdan qoniqish darajasining psixologik xususiyatlari .....	78
<b>Султанова А.А.</b> Проблема гендерного суицида в Узбекистане .....	83
<b>Khodjayeva D.Dj.</b> Psychological characteristics of organizing the educational process with academically talented students .....	90
<b>Raximova X.</b> Shaxsda moddiy yetishmovchilik hissining ontogenez xususiyatlari .....	96
<b>Yangiboyeva D.R.</b> Ko‘p bolali oilalardagi o‘smir farzandlarning rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar .....	101
<b>Мусаева М.И.</b> Эволюция взглядов на расстройство аутистического спектра: меняющиеся международные диагностические критерии и отношение общества .....	107

*PEDAGOGIKA*

<b>Egamberdiyeva N.M.</b> Oilada bolalarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlikning oldini olishning pedagogik choralari .....	112
<b>Джураев З., Курбанов М.</b> Обеспечение внутреннего качества в вузах в Узбекистане .....	118
<b>Nomozova O‘.A.</b> Oilada muloqot madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mohiyati .....	125
<b>Nazarova R.S.</b> Bolaga nisbatan zo‘ravonlik munosabatlarining shakllanish bosqichlari .....	130
<b>Tojibayeva N.K.</b> Jamoada ishlash kompetensiyasi kollobrativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida .....	134
<b>Bayjonov F.B.</b> O‘zbekiston Respublikasida gender tenglik masalasi va oilada gender madaniyatni shakllantirish .....	139
<b>Kurbanova B.N.</b> Role and significance of independent education of students in the higher education system .....	144
<b>Raimdjanov M.T.</b> Sharq allomalari asarlarida shaxs kommunikativ xulq-atvori masalalarining o‘rganilishi .....	150

*ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR*

<b>Suvankulov M., Abdibosifov A.</b> Maktablarda mobil telefon va smartfonlardan foydalanish tartibi va huquqiy asoslari: qiyosiy-huquqiy tahlil .....	155
<b>Илхамова З.В.</b> Развитие системы высшего образования в Узбекистане .....	163



**B. Xonturayev,**

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
e-mail: idmon.88@gmail.com

## XALQARO GENDER INDEKS REYTINGLARIDA O‘ZBEKISTON O‘RNINI MUSTAHKAMLASH MASALALARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada gender tengligini ta’minlash sohasida xalqaro shartnomalar, gender jihatlarni hisobga olgan indekslar va ularning turkumlanishi, reyting, indeks, indikatorlar, gender indikatorlariga miqdoriy va sifatiy yondashuvlar, “ayollar, biznes va qonun”, “global ayollar, tinchlik va xavfsizlik”, “gender tengsizlik”, “gender ijtimoiy normalar”, “gender rivojlanish”, “inklyuziv internet”, “global gender gap”, “ijtimoiy institutlar va gender” kabi indekslar o‘rganilgan.

**Tayanch so‘zlar:** gender, indekslar, indikatorlar, ayollar, biznes va qonun, global ayollar, tinchlik va xavfsizlik, gender tengsizlik, gender ijtimoiy normalar, inklyuziv internet, global gender gap, ayollar tadbirkorligi, ijtimoiy institutlar.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены международные соглашения в области гендерного равенства, индексы, учитывающие гендерные аспекты и их категоризация, рейтинг, индексы, индикаторы, количественные и качественные подходы к гендерным индикаторам, «женщины, бизнес и право», «глобальные женщины, мир и безопасность», «гендерное неравенство», «гендерные социальные нормы», «гендерное развитие», «инклюзивный интернет», «глобальный гендерный дискурс», «социальные институты и гендер».

**Ключевые слова:** гендер, индексы, индикаторы, женщины, бизнес и право, глобальные женщины, мир и безопасность, гендерное неравенство, гендерные социальные нормы, инклюзивный Интернет, глобальный гендерный дискурс, женское предпринимательство, социальные институты.

**Annotation.** This article considers international agreements in the field of gender equality, indexes considering gender aspects and their categorization, rating, indexes, indicators, quantitative and qualitative approaches to gender indicators, «women, business and law», «global women, peace and security», «gender inequality», «gender social norms», «gender development», «inclusive Internet», «global gender discourse», «social institutions and gender».

**Key words:** gender, indices, indicators, women, business and law, global women, peace and security, gender inequality, gender social norms, inclusive internet, global gender discourse, women’s entrepreneurship, social institutions.

**Kirish.** Gender ijtimoiy jarayonlarning kechish oqimini o‘rganish va tahlil qilishda eng muhim vosita sanaladi. Gender munosabatlari orqali inson ravnaqi ko‘rsatkichlarini baholash, kamchilik va oqsashlarni aniqlash mumkin. Genderni ma’lum bir o‘lchovda baholash o‘ta murakkab, shu sababli xalqaro darajada genderga oid bir qator standartlar, normalar va alohida olingan

o‘lchovlar genderga oid mavjud holatni baholash, muammolarni aniqlash, mos ravishda yechimlarni topish hamda taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Maqsad va uni asoslash.** Bugungi kunda jahon mamlakatlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniyat kabi sohalardagi rivojlanish darajasini, global taraqqiyotdagi o‘rnini belgilash

muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, turli ko'rsatkichlar bo'yicha mamlakatlarning bir-biriga nisbatan egallagan o'rnini ko'rsatish maqsadida tuziladigan reyting va indekslar orqali tegishli sohalar bo'yicha istalgan davlatdagi holatga baho berish imkoniyati mavjud. Dunyo bo'yicha hozirda turli xalqaro tashkilot, tadqiqot markazlari tomonidan gender xususiyatlarini aniqlash maqsadida ham ko'plab indeks va reytinglar tuzilib, ular turli yo'nalishlar bo'yicha mamlakatlarda erkaklar va ayollar uchun yaratilgan sharoitlarning gender paritetga moslik darajasini o'lchashga xizmat qiladi. Xususan, gender tenglikni ta'minlash sohasida xalqaro standartlar asosida milliy qonunchilikni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. So'ngi yillarda sohaga oid 40 dan ortiq qonunchilik hujjatlari va muhim konseptual hujjatlar qabul qilindi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarni taqdim etib kelmoqda.

2010-yilda tashkil etilgan "Xalqaro ishlar bo'yicha Rossiya Kengashi" nodavlat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, butun dunyoda mamlakatlarning o'rnini belgilab beruvchi, eng muhim xalqaro tashkilotlar va yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari, institutlari tomonidan tuziladigan 60 ta hisobotlar va statistikalar, 24 ta xalqaro indeks hamda 20 ta xalqaro reyting mavjud. AQShning mashhur Janubiy Karolina Universiteti tomonidan global reyting va indekslar tasniflanishi asosida dunyodagi barcha davlatlar kirishi lozim bo'lgan 23 ta reyting va indekslar ajratib ko'rsatilgan. Bugungi kunda mamlakatimizning barcha yo'nalishlar bo'yicha xalqaro reyting va indekslar, jumladan, gender masalalari bo'yicha reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash masalasiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Shu bilan birga, olib borilayotgan islohotlarga qaramasdan, mamlakatda tegishli yo'nalishlar bo'yicha milliy reytinglarni yuritishga yordam beradigan, amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro mezonlar va standartlarga muvofiqligini ta'minlashda va xalqaro tashkilotlar tomonidan

o'tkazilayotgan so'rovlarda aksariyat islohotlar o'z aksini topmayotgani oqibatida ustuvor xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasi quyi pog'onalarda qolmoqda.

Shu bois ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini jadal amalga oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi ko'rsatkichlarini yaxshilashga yo'naltirilgan islohotlarni amalga oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishga mamlakat ilmiy salohiyatini keng jalb etish maqsad qilib qo'yilgan.

### Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Ko'pgina mamlakatlarda ayollar erkaklarga nisbatan gender tengligiga ko'proq ahamiyat berishadi. Biroq ayollar erkaklarga qaraganda o'z mamlakatlaridagi ayollar kelajakda tenglikka erishadi, degan umidda emas va erkaklar ayollardan ko'ra yaxshiroq ahvolda deb aytishadi<sup>1</sup>.

Jahon bankining "Ayollar, biznes va qonun – 2022"<sup>2</sup> hisobotiga ko'ra, mehnatga layoqatli yoshdagi qariyb 2,4 milliard ayol teng iqtisodiy imkoniyatlarga ega emas va 178 mamlakatda ularning iqtisodiy hayotda to'liq ishtirok etishi uchun qonuniy to'siqlar mavjud. 86 mamlakatda ayollar mehnat faoliyati bilan bog'liq cheklolarga duch kelishadi, 95 mamlakatda teng ish uchun teng haq to'lanishi kafolatlanmagan.

Dunyo miqyosida ayollar hali ham erkaklarga berilgan qonuniy huquqlarning atigi to'rt dan uch qismiga ega – 100 balldan 76,5 ball, ya'ni to'liq huquqiy tenglik mavjud. Hisobotga ko'ra, global pandemiya ayollar hayoti va turmush tarziga nomutanosib ta'sir ko'rsatishiga qaramay, 2021-yilda 23 ta mamlakat o'z qonunlarini isloh qilib, ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish bo'yicha zarur choralarni ko'rgan.

Gender tengligi va ayollar huquqlari bo'yicha erishilgan yutuqlarning yangi global tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yilda o'ta qashshoqlik o'sib borgan va uni bartaraf etish yo'lidagi muvaffaqiyatlar teskari tomonga o'zgargan. Dunyo bo'ylab, taxminan, 435 million nafar ayol va qizlar

<sup>1</sup> <https://www.pewresearch.org/global/2020/04/30/worldwide-optimism-about-future-of-gender-equality-even-as-many-see-advantages-for-men/>

<sup>2</sup> <https://wbi.worldbank.org/en/wbi>

o'ta qashshoqlikda yashamoqda. Pandemiya davrida gender va oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha global tafovut keskin oshib, ko'p xotin-qizlar ochlikda qolib ketgan. Ayollar uchun oziq-ovqat xavfsizligi darajasi 2020-yilda erkaklarnikiga qaraganda 10 foizga, 2019-yildagi 6 foizga yuqori bo'lgan. COVID-19 tufayli asosiy tibbiy xizmatlardagi uzilishlar ayollar va qizlar uchun fojiali oqibatlariga olib kelmoqda. Pandemiyaning birinchi yilida daromadi past va o'rtacha bo'lgan mamlakatlarda 1,4 millionga yaqin istalmagan homiladorlik qayd etilgan. Pandemiya bir yarim yil o'tib, dunyo mamlakatlari va hududlarining 42 foizida maktablar qisman yoki to'liq yopiqligicha qolmoqda. Maktablarning yopilishi qizlar uchun imkoniyatlarni yo'qotib, zo'ravonlik, ekspluatatsiya va erta turmush qurish xavfini oshirgan.

Toza energiya va kam uglerodli yechimlarga talab ortib borayotgani energetika sohasida misli ko'rilmagan o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ammo ayollar bundan mustasno. Ayollar qayta tiklanadigan energiya manbalarining atigi 32 foizini egallamoqda.

2020-yilda ishlayotgan ayollar soni 54 millionga kamayib, shundan 45 million nafar ayol mehnat bozorini butunlay tark etgan. Ayollar erkaklarnikiga qaraganda ko'proq ish yo'qotishlariga duch kelishmoqda, shuningdek, uyga g'amxo'rlik qilishning to'lanmagan yuki ortmoqda. Hali ham fan, texnologiya, muhandislik va matematika yo'nalishidagi bitiruvchilarning uchdan bir qismidan ko'prog'ini ayollar tashkil etmoqda.

Dunyo bo'ylab 1 milliarddan ortiq odam norasmiy aholi punktlari va xarobalarda yashaydi. Ko'pincha aholi zich joylashgan ushbu hududlarda ayollar va qizlar oddiy suv va kanalizatsiya, sog'liqni saqlash va transport vositalaridan foydalanish imkoniyatining mavjud emasligidan aziyat chekmoqda.

Faol ayollar, olimlar va tadqiqotchilar iqlim inqirozini yengish uchun qattiq mehnat qilmoqdalar, lekin ko'plab ayollar o'z bilim va ko'nikmalarini baham ko'rish uchun erkaklarniki kabi o'z platformalariga ega emaslar. Xalqaro okean ilmiy konferensiyalaridagi ma'ruzachilarning atigi 29 foizini ayollar tashkil qilmoqda. Qaror qabul qilishda ayollar sonining yetarli emasligi COVID-19 pandemiyasi va boshqa ofatdan keyingi tiklanish

harakatlarining ta'sirini cheklamoqda. Mojarolardan jabr ko'rgan mamlakatlarda ayollar parlamentdagi o'rinlarning 18,9 foizini egallaydi, bu global miqyosda o'rtacha 25,6 foizdan ancha past<sup>3</sup>.

O'zbekiston xotin-qizlarga erkaklar bilan teng huquqlar berilishi borasida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida birinchilardan bo'lib qator tadbirlarni amalga oshirdi. 1995-yilda O'zbekiston xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi kovensiyani (CEDAW) ratifikatsiya qildi. Dunyoning 189 ta davlati tomonidan ratifikatsiya qilingan. Uning qator moddalari (30 moddadan iborat) qonunchilikka kiritildi. Yangi davr pallasiga yuz tutgan Yangi O'zbekistonda gender tengligi masalasi chuqur isloh etilmoqda.

Darhaqiqat, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish barqaror taraqqiyot jarayonini tezlashtirishning muhim omillaridan biri sanaladi. Bugungi kunda jahon mamlakatlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy hamda madaniy sohalaridagi rivojlanish darajasi hamda global taraqqiyotdagi o'rnini belgilash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, turli ko'rsatkichlar bo'yicha mamlakatlarning bir-biriga nisbatan egallagan o'rnini ko'rsatish maqsadida tuziladigan reyting va indekslar orqali tegishli sohalar bo'yicha istalgan davlatdagi holatga baho berish imkoniyati mavjud.

Mamlakatlarning o'rnini belgilovchi reyting va indekslar juda ham ko'p bo'lib, ular turli kriteriyalar bo'yicha davlatlarning o'rnini belgilab beradi. Xususan, gender masalalari bo'yicha dunyo mamlakatlaridagi holatni baholovchi ko'plab reyting va indekslar mavjud bo'lib, ularga to'xtalib o'tishdan oldin jahon mamlakatlarini baholab boruvchi turli reyting va indikatorlar haqida to'xtalib o'tish lozim.

2010-yilda tashkil etilgan "Xalqaro ishlar bo'yicha Rossiya Kengashi" nodavlat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, butun dunyoda mamlakatlarning o'rnini belgilab beruvchi, eng muhim xalqaro tashkilotlar va yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari hamda institutlari tomonidan tuziladigan 60 ta hisobot va statistikalari, 24 ta xalqaro indeks hamda 20 ta xalqaro reyting mavjud<sup>4</sup>. AQShning mashhur Janubiy Karolina Universiteti tomonidan global reyting va indekslar

<sup>3</sup> <https://www.unwomen.org/en/news/stories/2021/10/feature-what-does-gender-equality-look-like-today>

<sup>4</sup> <https://russiancouncil.ru/library/stat/>

tasniflanishi asosida dunyodagi barcha davlatlar kirishi lozim bo'lgan 23 ta reyting va indekslar ajratib ko'rsatilgan<sup>5</sup>.

“Global observatoriya” ilmiy markazi (IPI Global Observatory) tomonidan 2016-yilda tuzib chiqilgan indeks va reytinglar katalogi 9 guruhdan iborat jami 200 dan ortiq indeks va reytinglarni o'zida birlashtirgan. Mazkur reyting va indeksning 30 ga yaqini u yoki bu darajada gender mavzusiga daxldor bo'lib, alohida guruhga ajratilgan<sup>6</sup>.

1-jadval

### GENDERGA OID REYTING VA INDEKSLARNING GURUHLANISHI

№	Genderga oid reyting va indeks nomi	Qaysi tashkilot tomonidan yuritiladi
BEVOSITA GENDER MASALASIGA TAALLUQLI INDEKS VA REYTINGLAR		
1	Global gender tafovutlar indeksi	Jahon iqtisodiy forumi
2	Gender rivojlanish indeksi	BMTning Taraqqiyot dasturi (UNDP)
2	Gender tengsizlik indeksi	BMTning Taraqqiyot dasturi (UNDP)
3	Gender ijtimoiy normalar indeksi	BMTning Taraqqiyot dasturi (UNDP)
4	Gender imkoniyatlarini kengaytirish o'lchovi	BMTning Taraqqiyot dasturi (UNDP)
5	Gender maqom tengligi indeksi	UNESCO
6	Ayollar, biznes va qonun indeksi	Jahon Banki
7	Ayollar, tinchlik va xavfsizlik indeksi	AQShning Jordjtaun instituti
8	Milliy parlamentlarda ayollar	Parlamentlararo ittifoq
9	Ijtimoiy institutlar va gender indeksi	Yevropa iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD)
10	Ayollarning iqtisodiy imkoniyatlari indeksi	Economist (The Economist Intelligence Unit) jurnali
11	Ayollar imkoniyatlari indeksi	N26 xalqaro banki
12	Global ayollar yetakchiligi tashabbusi	“Wilson Center” ilmiy markazi

<sup>5</sup> <https://libguides.usc.edu/c.php?g=234935&p=5813462>

<sup>6</sup> <https://theglobalobservatory.org/2016/09/catalogue-indices/>

13	Gender tenglik indeksi	Gender tengligi bo'yicha Yevropa instituti (Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun)
14	Gender tenglik indeksi	Afrika taraqqiyot bank guruhi (Afrika mamlakatlari uchun)

Mazkur ro'yxatdagi ko'rsatkichlarning barchasi ham mustaqil indeks va reyting emas, balki boshqa indeks va reytinglar, yaxlit hisobot, statistik to'plamlar tarkibidagi subko'rsatkich, indikator hisoblanadi.

Umuman olib qaraganda, bugungi kunda gender tengligiga erishish, mamlakatlardagi gender tengligi holati haqida ko'plab alohida reyting va indekslar hamda boshqa reytinglar tarkibida subindeks va indikatorlar yuritib kelinmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha yo'nalishlar bo'yicha xalqaro reyting va indeksleri, jumladan, gender masalalari bo'yicha reyting va indekslaridagi o'rnini yaxshilash masalasiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. So'nggi yillarda mazkur masala bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ushbu hujjatlarda turli reyting va indekslar qatorida genderga oid reyting va indekslardagi O'zbekistonning o'rnini yaxshilash bo'yicha mas'ullar belgilangan, chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Ijtimoiy ko'rsatkichlar tizimida gender tengsizlikni baholash vositasi sifatida foydalaniladigan gender ko'rsatkichlari haqli ravishda o'z o'rnini egalladi. Gender ko'rsatkichlar ma'lumotlarni jinsi, yosh guruhi va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari bo'yicha ajratadi. Ular ma'lum bir jamiyatda, ma'lum bir davrda ayollar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarda sodir bo'lgan o'zgarishlarni ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Shuningdek, indikatorlar gender tengligiga erishishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonini baholash vositasi hisoblanadi. Bunday yondashuv ijtimoiy adolat, kamsitish, inson huquqlarining buzilishi nuqtayi nazaridan loyiha va dasturlarni samarali monitoring qilish hamda baholash imkonini beradi. Gender ko'rsatkichlar jamiyatdagi ayollar va erkaklarning maqomi, rolidagi o'zgarishlarni ko'rsatadigan o'zgarishlarni ochib beradi.

Umumiy olib qaralganda, gender ko'rsatkichlari muayyan vaqt davomida jamiyatda yuzaga keladigan

gender o'zgarishlarini aks ettirish uchun sifatli va miqdoriy ko'rsatkichlardan foydalanadigan ko'rsatkichlardir.

Gender ko'rsatkichlari ayollarning muayyan tartibga solish standartiga nisbatan to'g'ridan to'g'ri ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi. Ular davlat faoliyatining natijalarini ham umumiy loyihalarda, ham ijtimoiy-jinsiy aholining manfaatlarini hisobga olishga qaratilgan mamlakatda amalga oshirilayotgan maxsus tashabbuslarda o'lchash uchun boshqa baholash texnikasi bilan birgalikda zarur va foydali komponent hisoblanadi<sup>7</sup>.

Indikatorlar – bu o'zgarishlarni baholash mumkin bo'lgan mezonlar yoki o'lchovlar. Ular muayyan sharoitlardagi o'zgarishlarni yoki muayyan maqsadlar sari olg'a siljishini bildirish uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar, faktlar, raqamlar, fikrlar yoki in'ikoslar bo'lishi mumkin<sup>8,9</sup>.

“Genderga javob” (gender-responsive), “genderga sezgir” (gender-sensitive) yoki shunchaki “gender” (gender) ko'rsatkich vaqt o'tishi bilan gender bilan bog'liq o'zgarishlarni o'lchaydi.

Gender indikatorlari, masalan, erkaklar va ayollar uchun alohida savodxonlik ko'rsatkichlarini ta'minlovchi jinslar bo'yicha ajratilgan statistik ma'lumotlarga asoslangan miqdoriy ko'rsatkichlarga murojaat qilish mumkin. Gender ko'rsatkichlari sifat o'zgarishlarini ham qamrab olishi mumkin, masalan, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish darajasining oshishi yoki gender tengligiga munosabatning o'zgarishi.

Gender tengligi o'lchovlari erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlardagi o'zgarishlarni, ayollar va erkaklar uchun muayyan siyosat, dastur yoki faoliyat natijalarini yoki erkaklar va ayollarning holati yoki holatidagi o'zgarishlarni, masalan, qashshoqlik yoxud ishtirok etish darajasini ko'rib chiqishi mumkin.

<sup>7</sup> Юкина И.И. Введение в гендерные исследования. Учебно-методическое пособие для студентов вузов. – Санкт-Петербург: Изд-во Невского ин-та языка и культуры, 2008.

<sup>8</sup> Imp-Act “Choosing and Using Indicators for Effective Social Performance Management”, Imp-Act Practice Notes No. 5, Brighton: IDS, 2005 // [http://www.ids.ac.uk/impact/publications/practice\\_notes/PN5\\_Indicators.pdf](http://www.ids.ac.uk/impact/publications/practice_notes/PN5_Indicators.pdf)

<sup>9</sup> Canadian International Development Agency (CIDA) (1997) Guide to Gender-Sensitive Indicators, Canada: CIDA // [http://www.acdi-cida.gc.ca/INET/IMAGES.NSF/vLUIImages/Policy/\\$file/WID-GUID-E.pdf](http://www.acdi-cida.gc.ca/INET/IMAGES.NSF/vLUIImages/Policy/$file/WID-GUID-E.pdf)

Gender indikatorlariga miqdoriy va sifatli yondashuvlar mavjud bo'lib, miqdoriy ma'lumotlarni yig'ish usullari miqdoriy natijalarni keltirib chiqaradi, shuning uchun ular parlamentdagi ayollar va erkaklar foizi, erkaklar va ayollar uchun ish haqi stavkalari yoki qizlar va o'g'il bolalar uchun ro'yxatga olish stavkalari kabi hisoblash mumkin bo'lgan masalalarga e'tibor qaratadi. Miqdoriy ma'lumotlar vaqt o'tishi bilan gender tengligidagi o'zgarishlarni ko'rsatishi mumkin, masalan, tez-tez ishlatiladigan miqdoriy ko'rsatkich o'g'il bolalarga nisbatan maktabdagi qizlar soni bunga misol bo'la oladi.

Sifatli ma'lumotlarni yig'ish usullari – odamlarning tajribalari, fikrlari, munosabati va his-tuyg'ularini qamrab oladi, masalan, norasmiy sektorda ishlashning cheklovlari yoki foydalari haqidagi ayollar tajribasi yoki erkaklar va ayollarning oiladagi zo'ravonlik sabablari va oqibatlari haqidagi qarashlari. Ko'pincha sifat ko'rsatkichlari uchun ma'lumotlarni to'plashda fokus-guruh muhokamalari va ijtimoiy xaritalash vositalari kabi ishtirokchi metodologiyalar qo'llanadi. Sifatli ma'lumotlarni his-tuyg'ular va fikrlarni o'lchaydigan so'rovlar asosida ham to'plash mumkin.

Miqdoriy va sifat usullarining kombinatsiyasi ma'lumotlarni o'zaro tekshirish yoki natijalarni “uchburchak” qilish uchun solishtirish imkonini beradi. Miqdoriy ma'lumotlarni sifatli talqin qilish yanada nozik tahlilni ta'minlashi mumkin, bu esa natijalar va xulosalarning noaniqlik ehtimolini kamaytiradi. Muhimi, sifatli tahlil nima uchun ma'lum savollar paydo bo'lganligini so'rashga imkon beradi.

Sifatli ma'lumotlarni to'plashda ishtirok etish usullari samaralidir. Ishtirok etish usullari erkaklar va ayollar o'z rivojlanishining agenti bo'lishi, nimani o'lchash va qanday ko'rsatkichlardan foydalanish to'g'risida qaror qabul qilishda yordam berish va tadqiqotda o'zlari ishtirok etish tamoyillariga asoslanadi. Nima uchun jins va ko'rsatkichlarga e'tibor berish kerak? Chunki o'lchangan narsaga ustunlik berish ehtimoli ko'proq va ko'rsatkichlar bo'yicha to'plangan dalillar gender masalalariga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatishga yordam beradi.

Tadqiqot doirasida institut tomonidan Jahon bankining “Ayollar, biznes va qonun” indeksi,



Jahon iqtisodiy forumining “Global gender tafovuti” indeksi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining “Gender tengsizlik” indeksi, “Gender rivojlanish” indeksi, “Gender ijtimoiy normalar” indeksleri, Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti Rivojlanish Markazining “Ijtimoiy institutlar va gender” indeksi hamda “Global ayollar, tinchlik va xavfsizlik” indekslarining baholash metodologiyalarini o‘rganib, O‘zbekistonning o‘rnini tahlil qilib chiqdik. O‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra:

1. Yurtimiz “AYOLLAR, BIZNES VA QONUN” indeksining asosiy indikatorlari bo‘yicha 2020-yilda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo‘yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritilib, 5 pog‘onaga yuqorilab, O‘zbekiston dunyo davlatlar orasida 134-o‘rinni egalladi. Biroq “Ayollar, biznes va qonun” indeksining 2021, 2022 va 2023-yillardagi hisobotlarida O‘zbekiston 190 ta davlatlar orasida 70,6 ball bilan qayd etgan holda o‘zgarishsiz qolib kelmoqda.

Ushbu indeks tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston “Ish joyi” ko‘rsatkichi bo‘yicha 50 ball, “Oylik to‘lov” ko‘rsatkichi bo‘yicha 25 ball, “Nikoh” ko‘rsatkichi bo‘yicha 80 ball, “Pensiya” ko‘rsatkichi bo‘yicha 50 ball, “Ota-onalik” ko‘rsatkichi bo‘yicha 60 ball, qolgan “Harakatchanlik”, “Tadbirkorlik”, “Ko‘chmas mol-mulk” kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha esa 100 balldan iborat natija ko‘rsatgan.

O‘zbekiston ish joy ko‘rsatkichi bo‘yicha 4 ta savol asosida 50 ball to‘plagan. Jahon banki ushbu 4 savoldan 2 tasi, ya‘ni “Ishda jinsiy zo‘ravonlikka qarshi qonun bormi?” hamda “Ishda jinsiy zo‘ravonlik uchun jinoiy jazo yoki fuqarolik choralari bormi?” kabi savollarga qoniqarli javob ololmagan.

Yurtimiz “Oylik to‘lov” ko‘rsatkichi bo‘yicha 25 ball to‘plagan. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha 4 ta savol qo‘yilgan bo‘lib, O‘zbekiston 4 ta savoldan 3 tasiga, ya‘ni “Qonun teng qiymatdagi ish uchun teng haq to‘lashni talab qiladimi?”, “Ayol ham erkak kabi xavfli hisoblangan ishda ishlashi mumkinmi?” va “Ayol ishlab chiqarishda erkak kabi ishlay oladimi?” kabi savollarga bo‘yicha Jahon banki qoniqarli javob ololmagan.

Mamlakatimiz nikoh ko‘rsatkichi bo‘yicha umumiy 80 ball to‘plagan. Ushbu ko‘rsatkich

bo‘yicha umumiy 5 ta savol qo‘yilgan bo‘lib, ular orasidan “Oilaviy zo‘ravonlikka qarshi maxsus qonunchilik mavjudmi?” kabi savolga Jahon banki kerakli javob ololmagan.

Oilaviy zo‘ravonlikka qarshi maxsus qonunchilik mavjud emasligi bo‘yicha 2014-yildagi “Ayollar, biznes va qonun” indeksi hisobotida (179-bet) O‘zbekiston salbiy reytingga egaligi keltirib o‘tilgan. Shuningdek, “Ayollar, biznes va qonun” indeksining 2018-yildagi hisobotida ham 189 mamlakatdan 45 tasida oiladagi zo‘ravonlik qonunlari mavjud emasligi qayd etilgan bo‘lib, ular qatoriga Afrika, Armaniston, Afg‘oniston, Gaiti, Mikroneziya Federativ davlatlari, Myanma, Rossiya va O‘zbekiston kiritilgan.

O‘zbekiston ota-onalik ko‘rsatkichi bo‘yicha 60 ball to‘plagan. Ota-onalik ko‘rsatkichi bo‘yicha 5 ta savol qo‘yilgan bo‘lib, ular orasidan “Davlat tomonidan tug‘uruq ta‘tilining 100 foizi to‘lanadimi?” va “Otalar uchun haq to‘lanadigan ta‘til bormi?” kabi savollar bo‘yicha Jahon banki kerakli javob ololmagan.

Shuningdek, pensiya ko‘rsatkichi bo‘yicha 50 ball to‘plagan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha 4 ta savol qo‘yilgan. Ushbu savollar orasidan “Erkaklar va ayollar to‘liq pensiya ta‘minoti bilan nafaqaga chiqishlari mumkin bo‘lgan yosh bir xilmi?” hamda “Erkaklar va ayollar qisman pensiya ta‘minoti bilan nafaqaga chiqishlari mumkin bo‘lgan yosh bir xilmi?” kabi savollarga Jahon banki qoniqarli javob ololmagan.

2. “GLOBAL AYOLLAR, TINCHLIK VA XAVFSIZLIK” indeksining asosiy indikatorlari sifatida Parlamentdagi ayollar ulushi (28,7%), Ayollarning bandligi (48,7%), Ayollarning moliyaviy xizmatlardan foydalanish qamrovi (36%), Ayollarning ta‘lim olishining o‘rtacha davomiyligi (11,6 yil), Ayollarning uyali telefonlardan foydalanish darajasi (76,5%), Ayollarga nisbatan huquqiy diskriminatsiyaning yo‘qligi (70,6 ball), Diskriminatsion normalarning mavjudligi (32%), Yaqin hamkor tomonidan zo‘ravonlik (7,3%), Jamoat xavfsizligi (85,7%) kabilar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi dunyo mamlakatlari orasida 74-o‘rinni egallagan.

3. “GENDER TENGSIZLIK” indeksi. Inson taraqqiyoti indeksi tarkibidagi kompozit indekslardan biri hisoblanuvchi “Gender tengsizlik indeksi”da

O‘zbekiston Respublikasi Gender tengsizlik indeksi (GII) 2021/2022-yilgi ko‘rsatkichlari bo‘yicha 170 mamlakat ichida umumiy 56-o‘rinni egallagan bo‘lib, mamlakatimizning Gender tengsizlik indeksi (GII) ko‘rsatkichi 0,227 ni tashkil etgan. Markaziy Osiyo mamlakatlari kesimida ko‘radigan bo‘lsak, Qozog‘iston gender tengsizlik indeksi (GII) ko‘rsatkichi 0,161 ni tashkil etgan holda 170 mamlakat ichida 41-o‘rinni, Turkmaniston gender tengsizlik indeksi (GII) ko‘rsatkichi 0,177 ni tashkil etgan holda 170 mamlakat ichida 43-o‘rinni, Tojikiston gender tengsizlik indeksi (GII) ko‘rsatkichi 0,285 ni tashkil etgan holda 170 mamlakat ichida 68-o‘rinni egallagan. Qirg‘iziston esa mazkur indeks (GII) ko‘rsatkichi bo‘yicha 0,370 ni tashkil etgan holda 170 mamlakat ichida umumiy 87-o‘rinni egallagan.

4. “GENDER IJTIMOIIY NORMALAR” indeksi. Gender ijtimoiy normalar indeksi (GSNI) 2023-yil hisobotiga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O‘zbekistondan tashqari Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg‘iziston mamlakatlari Gender ijtimoiy normalar indeksining 7-to‘lqini (2017–2022)da ishtirok etgan. O‘zbekiston Jahon qadriyatlarini tadqiqotining faqat 6-to‘lqini (2010–2014)da ishtirok etgani sababli Gender ijtimoiy normalar indeksi (GSNI)gagina kiritilgan, o‘zgarish tendensiyalari bo‘yicha ro‘yxatga kiritilmagan. O‘zbekistonda 2010–2014-yillardagi ijtimoiy normalarning gender tengligiga ta‘sirini, jamiyatda gender tengligiga salbiy ta‘sir etishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy qarashlarni aniqlashi mumkin, lekin mazkur qarashlarning o‘zgarib borish dinamikasini ko‘rishning imkoniyati mavjud emas. Gender ijtimoiy normalar indeksi (GSNI) bo‘yicha O‘zbekistonning ko‘rsatkichi – 97,93 foizni tashkil etgan. Ya‘ni so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning shuncha foizi tomonidan kamida bitta ko‘rsatkich bo‘yicha salbiy gender qarash aks ettiruvchi javoblar berilgan.

5. “GENDER RIVOJLANISH” indeksi. Gender rivojlanish indeksi (GDI)ning 2021/2022-yilgi hisobotiga Markaziy Osiyo mamlakatlari kesimida Qozog‘iston gender rivojlanish indeksi ko‘rsatkichi 0,998 ni tashkil etgan holda 191 mamlakat ichida 56-o‘rinni, Turkmaniston gender rivojlanish indeksi ko‘rsatkichi 0,956 ni tashkil etgan holda 91-o‘rinni egallagan, O‘zbekiston GDI

ko‘rsatkichi 0,944 ni tashkil etgan holda 101-o‘rinni egallagan, Qirg‘iziston gender rivojlanish indeksi ko‘rsatkichi 0,966 ni tashkil etgan holda 118-o‘rinni, Tojikiston gender rivojlanish indeksi ko‘rsatkichi 0,909 ni tashkil etgan holda 122-o‘rinni egallagan. O‘zbekiston GDI 3 guruhiga, ya‘ni ayollar va erkaklar o‘rtasidagi Inson taraqqiyoti indeksi (HDI – The Human Development Index) yutuqlari bo‘yicha o‘rta darajada tenglikka ega mamlakat sifatida qayd etilgan. 2021/2022-yillar hisobot davri uchun O‘zbekistonda ayollar Inson taraqqiyoti indeksi (HDI) 0,703, erkaklar Inson taraqqiyoti indeksi (HDI) esa 0,744 etib belgilangan. Umr ko‘rish davomiyligi ayollar uchun 73,4 yosh, erkaklar uchun esa 68,3 yoshni tashkil etgan. Ta‘lim indeksining tarkibiga kiruvchi ikki indikator ham ayollar ko‘rsatkichi erkaklarinikiga nisbatan pastroq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, kutilayotgan maktab yillari xotin-qizlar uchun 12,4 yil, erkaklar uchun esa 12,6 yil etib belgilangan. 25 yosh va undan kattalar uchun o‘rtacha o‘qish yillari esa mos ravishda ayollar uchun 11,7 yil, erkaklar uchun esa 12,1 yil ko‘rsatkichga ega. Eng oxirgi indikator bo‘lgan aholi jonboshiga taxminiy YIM (yalpi ichki mahsulot) (2017 PPP \$) ko‘rsatkichi ayollarda 5427 AQSh dollari, erkaklarda esa 10 403 AQSh dollariga teng bo‘lgan.

6. “INKLYUZIV INTERNET” indeksida O‘zbekiston 2022-yilda 120 mamlakat orasida 66-o‘rinni egalladi. Ushbu indeksning asosiy indikatorlari sifatida Internetga kirishda gender farqi ko‘rsatkich bo‘yicha O‘zbekiston 2022-yilda (13,3% bilan) 72-o‘rinni, Mobil telefondan foydalanishda gender farqi ko‘rsatkich bo‘yicha esa (9,6% bilan) 83-o‘rinni egallagan.

7. “GLOBAL GENDER GAP” indeksi. Gender tenglikni mamlakatlar kesimida baholab beruvchi muhim indekslardan yana biri “Global gender tafovuti” hisoblanadi. Ushbu indeks mamlakatlarning gender tengligini o‘lchash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Jahon iqtisodiy forumi tomonidan 2006-yildan buyon nashr etib boriladi. Gender tafovut indeksi bo‘yicha Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O‘zbekiston va Turkmaniston keltirilib o‘tilmagan. Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida faqatgina Qozog‘iston (0,721), Qirg‘iziston (0,700) va Tojikiston (0,672) tilga olingan.

9. “IJTIMOIY INSTITUTLAR VA GENDER” indeksi. Ijtimoiy institutlar va gender indeksida O‘zbekiston 2014-yilda “o‘rta” toifa davlati sifatida tasniflangan bo‘lsa, 2019 va 2023-yilgi indeks hisobotlarida barcha indikatorlar bo‘yicha to‘liq baholanmagani uchun asosiy toifalangan davlatlar qatoriga kirmagan va boshqa ko‘plab xalqaro gender indeks ko‘rsatkichlarida O‘zbekistonning o‘rni aks etmagan.

**Yakuniy qism.** O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi xulosa va tavsiyalar ilgari suriladi:

- Xalqaro Mehnat Tashkilotining 100 yillik mehnat istiqbollari Deklaratsiyasi va Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga muvofiq to‘liq, samarali va erkin tanlangan bandlikni, barcha uchun munosib mehnatni va gender tengligini ta‘minlash masalalarini makroiqtisodiy siyosatning asosiy yo‘nalishlariga kiritish;

- ayollarning fikr-mulohazalari va tashvishlarini inobatga olgan holda inklyuziv ijtimoiy muloqot yo‘li bilan gender tengligiga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- strategiyada norasmiylikning omillari, xususiyatlari, sabablari va sharoitlarini to‘g‘ri baholash va diagnostika qilish kerak. U norasmiy iqtisodiyotda ishlaydigan ayollar va erkaklarni qamrab olgan uch tomonlama ijtimoiy muloqot asosida rivojlanishi lozim;

- oxirgi va rejalashtirilgan islohotlarning iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va geografik hududlarida norasmiy iqtisodiyot hajmi va xususiyatiga ta‘sirini baholash;

- barcha toifadagi xodimlarning samarali huquqiy va ijtimoiy himoyaga ega bo‘lishini ta‘minlash, muayyan toifalarning ehtiyojlariga alohida e‘tibor berish;

- ishchi ayollar, shu jumladan, qishloq xo‘jaligi ishchilari, qishloq ishchilari, ko‘cha sotuvchilari, uy ishchilari, mehnat muhojirlari va nogironlar, turli toifadagi ishchilarga nisbatan gender va boshqa stereotiplarni yengish maqsadida jurnalistlar hamda boshqa OAV xodimlari uchun materiallar ishlab chiqish;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun vaqtinchalik mehnat guvohnomalarining joriy etilishini munosib mehnat va gender tengligiga ta‘siri nuqtayi nazaridan baholash;

- norasmiy iqtisodiyotda ishlaydigan xodimlarga kasaba uyushmalari va kooperativlar kabi boshqa bo‘linmalarni jamoaviy tashkil etish imkoniyatini berish;

- norasmiy iqtisodiyotda band ayollar va erkaklarni ijtimoiy muloqot orqali rasmiy iqtisodiyotga o‘tishga ko‘maklashish bo‘yicha izchil va kompleks strategiyani ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

- barcha toifadagi ishchilar, jumladan, qishloq xo‘jaligi ishchilari, ko‘chada savdo qiluvchi ayollar, uy ishchilari, mehnat migrantlari hamda nogironligi bo‘lgan ishchi-xizmatchilarning samarali huquqiy va ijtimoiy himoyaga ega bo‘lishini ta‘minlash;

- XMTning ratifikatsiya qilingan Konvensiyalariga, xususan, 1951-yilgi “Erkaklar va ayollar uchun teng qiymatdagi mehnat uchun teng haq to‘lash to‘g‘risidagi Konvensiya” (№ 100) va 1958-yilgi “Diskriminatsiya (mehnat va kasb-hunar) to‘g‘risidagi Konvensiya”ga muvofiq milliy tenglik siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish (№ 111);

- XMTning “Ishlayotgan ayollar va erkaklar uchun teng munosabatlar hamda teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatga ega ishchilar to‘g‘risida”gi (1981-yil 23-iyundagi 156-sonli); “To‘liqsiz ish kuni to‘g‘risida”gi (1994-yil 24-iyundagi 175-sonli); “Kasanachilik to‘g‘risida”gi (1996-yil 4-iyundagi 177-sonli); 2011-yildagi “Uy ishchilarining munosib mehnat sharoitlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi (№ 189) va 2019-yildagi “Mehnat munosabatlarida zo‘ravonlik va ta‘qiblar to‘g‘risida”gi Konvensiya (№ 190)larining ratifikatsiya masalasini ko‘rib chiqish va qo‘llash;

- mehnat migratsiyasi orqali xorijiy mamlakatlarda ishlash uchun ketgan xotin-qizlarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlari muhofazasini kuchaytirish. Xususan, O‘zbekiston migrant ayollarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha Xalqaro Mehnat Tashkiloti, Xalqaro migratsiya tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning Konvensiyalari va tavsiyalarini (xususan, XMTning 102, 118, 121, 128, 130, 157, 168 va 183-raqamli Konvensiyalari) ratifikatsiya qilish hamda amaliyotda qo‘llash talab etiladi. Mazkur hujjatlardagi tegishli normalarni qabul qilinish bosqichida bo‘lgan “Tashqi mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi Qonun loyihasiga qo‘shish;

- adolatli mehnat vositachiligini, shu jumladan, XMTning umumiy tamoyillari va adolatli ishga qabul qilish tartib-taomillari bo‘yicha operatsion yo‘riqnomalariga muvofiq “Xususiy bandlik

agentliklari to'g'risida"gi Qonunni qayta ko'rib chiqish orqali rag'batlantirish hamda XMTning 88 va 181-sonli Konvensiyalarini ratifikatsiya qilish masalasini ko'rib chiqish;

– adolatli migratsiyani rag'batlantirish hamda XMTning 97 va 143-sonli Konvensiyalarini va barcha mehnat migrantlari hamda ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi

xalqaro Konvensiyani ratifikatsiya qilish masalasini ko'rib chiqish;

– akademik institutlar bilan hamkorlikda iqtisodiyot, biznes boshqaruvi, huquq va davlat boshqaruvi kabi fanlar bo'yicha xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga daxldor iqtisodiyot bo'yicha o'quv materiallari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.pewresearch.org/global/2020/04/30/worldwide-optimism-about-future-of-gender-equality-even-as-many-see-advantages-for-men/>
2. <https://wbi.worldbank.org/en/wbi>
3. <https://www.unwomen.org/en/news/stories/2021/10/feature-what-does-gender-equality-look-like-today>
4. <https://russiancouncil.ru/library/stat/>
5. <https://libguides.usc.edu/c.php?g=234935&p=5813462>
6. <https://theglobalobservatory.org/2016/09/catalogue-indices//>
7. Юкина И.И. Введение в гендерные исследования. Учебно-методическое пособие для студентов вузов. – Санкт-Петербург: Изд-во Невского ин-та языка и культуры, 2008.
8. Imp-Act "Choosing and Using Indicators for Effective Social Performance Management", Imp-Act Practice Notes No. 5, Brighton: IDS, 2005 // [http://www.ids.ac.uk/impact/publications/practice\\_notes/PN5\\_Indicators.pdf](http://www.ids.ac.uk/impact/publications/practice_notes/PN5_Indicators.pdf)
9. Canadian International Development Agency (CIDA) (1997) Guide to Gender-Sensitive Indicators, Canada: CIDA // [http://www.acdi-cida.gc.ca/INET/IMAGES.NSF/vLUIImages/Policy/\\$file/WID-GUID-E.pdf](http://www.acdi-cida.gc.ca/INET/IMAGES.NSF/vLUIImages/Policy/$file/WID-GUID-E.pdf)
- 10.
11. <https://giwps.georgetown.edu/country/uzbekistan/>
12. <https://uis.unesco.org/>
13. <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/f3ee545aac6879c27f8acb61abc4b6f8-0050062022/original/Findex-2021-Methodology.pdf>
14. [https://www.ilo.org/shinyapps/bulkexplorer8/?lang=en&segment=indicator&id=SDG\\_0852\\_SEX\\_AGE\\_RT\\_A](https://www.ilo.org/shinyapps/bulkexplorer8/?lang=en&segment=indicator&id=SDG_0852_SEX_AGE_RT_A)
15. <https://www.ipu.org/our-impact/gender-equality>
16. <https://reliefweb.int/report/world/uppsala-conflict-data-program><https://uis.unesco.org/>
17. <https://uis.unesco.org/en/country/uz>
18. <https://www.uzedu.uz/>
19. <https://data.egov.uz/uzbKr/spheres/>
20. <https://www.mitc.uz/uz/stat/4>
21. <https://www.ipu.org/our-impact/gender-equality>
22. <https://data.ipu.org/women-ranking?month=11&year=2022>
23. [https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---europe/---ro-geneva/---sro-moscow/documents/publication/wcms\\_713439.pdf](https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---europe/---ro-geneva/---sro-moscow/documents/publication/wcms_713439.pdf)



**Nurullayeva Umida Nuriddinovna,**  
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti  
tayanch doktoranti  
[nurullayevaumida649@gmail.com](mailto:nurullayevaumida649@gmail.com)

## IJTIMOY KAYFIYAT FENOMENI SOTSIONOMIKA NAZARIYASI YONDASHUVI TALQINIDA

**Annotatsiya.** Sotsionomika zamonaviy G'arb jamiyatida mashhur bo'lib borayotgan yo'nalishlardan biri bo'lib, ko'p jihatdan aholi va ma'lum toifalarning ijtimoiy kayfiyatiga nisbatan sezuvchan bo'lgan ijtimoiy hodisa va jarayonlarni, jumladan, moliyaviy bozordagi xulq-atvor harakatlarini va ularning o'zaro aloqadorligini tadqiq qiladi. Mazkur maqolada yuqorida sotsionomika nazariyasining kelib chiqishi hamda ijtimoiy kayfiyat sotsionomika nazariyasi yondashuvida qay tarzda tahlil qilinishi, sotsiometrlar sifatida qabul qilingan ko'rsatkichlar borasida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** ijtimoiy kayfiyat, sotsionomika, moliyaviy bozor, fond bozori, Elliot to'lqini, sotsiometr, ijtimoiy kayfiyat indkatori, ijtimoiy xulq-atvor.

**Аннотация.** Соционика одно из направлений, набирающее популярность в современном западном обществе, изучающее социальные явления и процессы, чувствительные к социальному настроению населения и отдельных категорий, в том числе поведенческие действия на финансовом рынке, и исследующее их взаимосвязь. В данной статье обсуждается происхождение теории соционимики и способы анализа социальных настроений в подходе теории соционимики, а также индикаторы, принятые в качестве социометров.

**Ключевые слова:** социальное настроение, соционимика, финансовый рынок, фондовый рынок, волна Эллиота, социометр, индикатор социальных настроений, социальное поведение.

**Annotation.** Socionomics is one of the areas that is gaining popularity in modern Western society, studying social phenomena and processes that are sensitive to the social mood of the population and individual categories, including behavioral actions in the financial market, and exploring their relationship. This article discussed the origin of the theory of socionomics and ways of analyzing social sentiments in the approach of the theory of socionomics, as well as indicators adopted as sociometers.

**Keywords:** social sentiment, socionomics, financial market, stock market, Elliot wave, sociometer, social sentiment indicator, social behavior.

**Kirish.** Jamiyatdagi barqaror ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy sohalaridagi rivojlanishning asosi hamda indikatori hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichlarni nazorat qilish hamda baholash bevosita aholining ijtimoiy kayfiyatini tadqiq etishni taqozo qiladi. Shu nuqtayi nazardan ijtimoiy kayfiyatni tadqiq etishda o'ziga xos yondashuvlar shakllangan. Sotsionomika shunday

yondashuvlardan biri bo'lib, bunda ijtimoiy kayfiyatning kelib chiqish sababidan ko'ra oqibatlarini hamda ijtimoiy xulq-atvorning o'zgarishlariga e'tibor qaratiladi. Shu bilan birgalikda, ijtimoiy kayfiyatning kelib chiqish sabablari to'lqin nazariyasiga asoslangan holda talqin qilinadi.

**Maqsad va uni asoslash.** Jamiyatda kuzatilayotgan turli o'zgarishlar barobarida ularning aholiga o'z ta'sirini ko'rsatishi barobarida

ijtimoiy jarayonlarni belgilashi masalasini o'rganish dolzarblashib bormoqda. Ijtimoiy kayfiyat sotsial fenomenini tadqiq qilishda an'anaviy hamda yangi yondashuvlar shakllanayotgani kuzatilmoqda. Sotsionomika shunday yo'nalishlardan biridir. U psixologiya, iqtisod, sotsiologiya, biologiya va tarix kabi fanlarning chegaralarini kesib o'tuvchi fanlararo tadqiqot sohasidir. Uning asosiy g'oyasi jamiyatda hukmron bo'lgan ijtimoiy kayfiyat, ijtimoiy xatti-harakatlarni aniqlashi va motivatsiya qilishidan iborat. Mazkur yondashuv tarafdorlari moliya, makroiqtisodiyot, siyosat, jamoatchilik xulq-atvori kabi sohalardagi o'tmish, hozir va kelajakdagi tendensiyalarni modellashtiradilar.

#### Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Sotsionomikaning asoschisi *Robert Prechter* o'z g'oyasini XX asrning 1970-yillarda rivojlantira boshlagan. 1985-yilda *Barron's* jurnalidagi maqolasidan so'ng uning g'oyasi ommalashdi. R.Prechter sotsionomika nazariyasini taklif qilgan ilk davrlarda uni tushuntiruvchi ikkita kitob (*"Ijtimoiy xulq-atvor dinamikasidagi moliyaviy/iqtisodiy dixotomiya: ijtimoiy istiqbol"*, *"Ijtimoiy kayfiyat, fond bozori faoliyati va AQSh prezidentlik saylovlari: ijtimoiy istiqbol. Ovoz berish natijalari"*)<sup>1</sup> va hamkasblari bilan shu yo'nalishda ilmiy maqolalar chop qildi.

Sotsionomika gipotezasining mohiyati shundan iboratki, ijtimoiy kayfiyatidagi tebranishlar – ko'tarinki hamda tushkun kayfiyat to'lqinlari – insonlar uyushmasining tabiiy natijasi bo'lib, ularning ijtimoiy faoliyatida oqibatlariga sabab bo'ladi. Mazkur nazariya ijtimoiy kayfiyatni ongsiz, irratsional va subyektiv reaksiya tarzida talqin qiladi, shuningdek, oqibatlarini tadqiq qiladi. Boshqa aksariyat olimlar "deyarli hamma ijtimoiy hodisalarning tabiati ijtimoiy kayfiyatni belgilaydi", degan nuqtayi nazarni qo'llab-quvvatlashsa, sotsionomikada sabab va oqibatning teskariligiga alohida urg'u berilganini ko'rish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy kayfiyat ijtimoiy faollik xarakterini belgilaydi, uning yuzaga kelish sababi esa ichki – endogen omillarga bog'liq bo'lgan holda

bir yo'nalishli xarakterga ega hamda voqealarning ijtimoiy kayfiyatga aloqasini inkor etadi. Voqealar qisqa emotsional reaksiyalarni keltirib chiqaradi, lekin ular tez o'tadi, shuningdek, ijtimoiy kayfiyatga bog'liq bo'lmaydi. Sotsionomika tarafdorlarining aynan mana shu g'oyasi ko'plab olimlar tomonidan tanqid qilingan.

R.Prechterning nazariyasiga ko'ra, faoliyatning fond bozori kabi ayrim sezuvchan sohalari ijtimoiy kayfiyatni darhol ifodalash uchun ideal hisoblanadi. Fond bozorining shu kabi sezuvchanligi investorlarning deyarli bir vaqtda sotish va sotib olish xatti-harakatlarini bajarishida yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu xatti-harakatlar ularning kayfiyatidagi o'zgarishlarni ifodalaydi. Hatto odamlar tinglash uchun tanlaydigan musiqa yoki kiyim borasidagi aniq ma'lumotlar ham yaxshi "*sotsiometr*" (ijtimoiy kayfiyat indikator) bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ijtimoiy kayfiyatdagi tendensiyalarga javoban amalga oshirilgan harakatlarning namoyon bo'lishi, shuningdek, qayd etilishi uchun ma'lum vaqt talab qilinadi. Shu o'rinda ishbilarmonlarning ijtimoiy his-tuyg'ularini ifodalashning namunasi sifatida o'z faoliyatini kengaytirishi yoki aksincha, qisqartirishga qaror qilishlari holatlarini misol qilib keltirish mumkin. Ammo bunday rejalarni amalga oshirish uchun vaqt talab qilinadi. Shuning uchun makroiqtisodiy faollikdagi o'zgarishlar fond bozoridagi o'zgarishlardan ancha keyin sodir bo'lishi kuzatilgan. Xuddi shu narsa ko'p konsensus talab qiladigan hamda ijtimoiy kayfiyatdagi tendensiyalardan sezilarli darajada orqada qoladigan siyosiy harakatlar davomida ham kuzatiladi. O'z navbatida, yetakchi harakatlar orqada qolgan sohalarni kutish holati kuzatilishini sotsionomika tarafdorlari sababiy bog'liqliklarni keltirgan holda isbotlashga harakat qilishadi.

Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, sotsionomika alohida tadqiqot sohasi sifatida ijtimoiy hodisalarning mohiyatini va tendensiyasini bashorat qiladi. U ma'lum bir shaxslarning harakatlarini aniq bashorat qila olmaydi, uning vazifasi katta ehtimol bilan jamiyatda yuz beradigan harakatlarni prognoz qilishdan iborat. Jamiyatda har doim ijobiy va salbiy xatti-harakatlarning kombinatsiyasi mavjud bo'lishi tabiiy holat. Sotsionomika maktabi tarafdorlari jamoat kayfiyatiga qarab aynan mana shu xatti-harakatlarning soni va intensivligidagi o'zgarishini tadqiq qilishga harakat qilishadi.

<sup>1</sup> Prechter R. The Financial/Economic Dichotomy in Social Behavioral Dynamics: The Socionomic Perspective. <https://www.researchgate.net/journal/Journal-of-Behavioral-Finance-1542>; Prechter R. Social Mood, Stock Market Performance and U.S. Presidential Elections: A Socionomic Perspective on Voting Results. October-December 2012: 1–13 DOI: 10.1177/2158244012459194 <http://sgo.sagepub.com>

Ijtimoiy kayfiyatning yorqin tarzda namoyon bo'lish tendensiyasi odatda xatti-harakatlar to'liqlinining oxirida kuzatiladi. To'liqlinlar nazariyasiga ko'ra, ijtimoiy kayfiyatning ko'lami va davomiyligi eng katta yakuniy to'liqlinning darajasiga to'g'ri keladi. Biror obyektiv sabab tufayli yuzaga kelgan ijtimoiy munosabatlarning an'anaviy formulasi yuqorida keltirilgan holatga teskari qoidaga ko'ra talqin qilinadi. Masalan, rahbarlar ijtimoiy kayfiyatga ta'sir qilmaydi, aksincha, uning to'liqlinlari qaysi rahbar tanlanganiga, u o'zini qanday tutishiga va qanday qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatadi.

Sotsionomika nazariyasi insonning individual tarzda jamoat kayfiyatidan kelib chiqadigan impulsarga zid ravishda harakat qilishini tan olgan holda katta guruhlarning ijtimoiy kayfiyatdan mustaqil harakat qila olmasligini alohida ta'kidlaydi. Chunki jamoat kayfiyati ijtimoiy hodisalarning tabiatini boshqaradi, ya'ni ularni ijobiy yoki salbiy ko'rinishda bo'lishini ta'minlaydi. Ijtimoiy kayfiyat ijobiy tendensiyalarni belgilab bergan davrlarda bozor narxlarining ko'tarilishi, amaldagi prezidentlarning qayta saylanishi, tinchlik davri, tartibga solishning kuchayishi va insonlar kiyimlaridagi yorqinroq ranglar kabi bir qator ijtimoiy hodisalar kuzatiladi. Salbiy ijtimoiy kayfiyat davrlarida esa narxlarining tushishi, yetakchilarni ag'darish, turli kelishmovchiliklar, tartibga solish hamda nazoratning kuchayishi, to'q ranglarning urf bo'lishi kabi elementlar namoyon bo'ladi.

Tahlil qilinayotgan qarashga ko'ra, jamiyatdagi ijtimoiy kayfiyat hodisalarini boshqarsa-da, o'zi ijtimoiy hodisalaridan mustaqil ravishda shakllanadi, o'zgaradi, rivojlanadi. Boshqacha qilib aytganda, jamoat kayfiyati qay yo'nalishda harakatlansa, voqealar tabiati ham unga ergashgan holda o'sha yo'nalishda davom etadi, ammo voqealarning o'zi ijtimoiy tuyg'u yo'nalishiga ta'sir ko'rsatmaydi. Bu yerda sotsionomika nazariyasining eng o'ziga xos jihati namoyon bo'ladi va ijtimoiy kayfiyat ijtimoiy hodisalarini boshqarsa, unda uni (ijtimoiy kayfiyatni) nima boshqaradi degan o'rinli savol yuzaga keladi. Prechter nazariyasiga ko'ra, *Elliott to'liqlini* tamoyili (prinsipi) ijtimoiy kayfiyatning shakllanishi, o'zgarishi, davomiyligi va intensivligini belgilab beradi.

*Ralf Nelson Elliott* bir xil fraktallarning kattaroq versiyasini yaratish uchun strukturaga

ega bo'lgan narx harakati to'liqlinlarini bir-biriga qanday bog'langanini tasvirlab bergan. Unga ko'ra, moliyaviy bozor narxlarini fraktalni tashkil qiladi. U fraktal tuzilmalarning tarkibiy qismlarini batafsil bayon qildi va moliyaviy bozorlarni bashorat qilish uchun uning modelidan qanday foydalanish mumkinligini ko'rsatdi. Bozor harakatining takrorlanishi haqidagi g'oya o'nlab yillar davomida juda ziddiyatli bo'lib kelgan, ammo so'nggi ilmiy kashfiyotlar srukturaga ega bo'lish murakkab tizimlar, jumladan, moliyaviy bozorlarning asosiy xususiyati ekanligini aniqladi. Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining kuzatishlari shuni ko'rsatadiki, baxtli va optimist odamlar qimmatli qog'ozlarni sotib olishadi, pessimistlar esa qimmatli qog'ozlarni sotadilar. Narxlarining ko'tarilishi va omma kayfiyatidagi o'zgarishlar, ishbilarmonlik faolligi ko'rsatkichlari va omma kayfiyatidagi o'zgarishlar o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud<sup>2</sup>. Shunga ko'ra, ijtimoiy kayfiyat to'liqlin prinsipiga asosan moliyaviy bozorlarda narx harakati modelini belgilab beradi.

Ijtimoiy kayfiyat va jamiyatdagi hodisalarning o'zaro bog'liqligi sotsionomika nazariyasi hamda an'anaviy fan nuqtayi nazaridan farqlarini aniqroq anglab yetish uchun quyidagi jadval hamda unda yoritilgan fikrlarni ko'rib chiqish o'rinli bo'ladi (*1-jadval*):

*1-jadval*

**Sotsionomika nazariyasi va an'anaviy yondashuvdagi asosiy farqlarning qiyosiy tahlili**

An'anaviy yondashuv	Sotsionomika nazariyasi
Ijtimoiy kayfiyat ekzogen sabablarga ko'ra yuzaga keladi	Ijtimoiy kayfiyat endogen omil ta'sirida yuzaga keladi
Ijtimoiy hodisalar ommaviy kayfiyatning ohangini belgilaydi	Ijtimoiy kayfiyat ijtimoiy hodisalarning xarakterini belgilaydi
Turg'unlik tadbirkorlarni ehtiyotkor bo'lishga majbur qiladi	Tadbirkorlarning ehtiyotkorligi tanazzulga sabab bo'ladi
Iqtidorli yetakchilar aholini xursand qiladi	Baxtli aholi uchun rahbar qobiliyatli ko'rinadi

<sup>2</sup> Prechter R. (2003). *Pioneering Studies in Socionomics*. pp. 66-75.

Epidemiyalar odamlarni qoʻrquv va tushkunlikka soladi	Depressiyaga uchragan va qoʻrqib ketgan odamlar epidemiyalarga osongina berilishadi
Qimmatli qogʻozlar bozorining oʻsishi odamlarni yanada optimistik qiladi	Odamlarning optimizmini oshirish qimmatli qogʻozlar bozorining oʻsishiga olib keladi
Mojarolar odamlarni gʻazablantiradi	Gʻazablangan odamlar janjallarni sodir qilishadi
Urush odamlarni qoʻrqitadi va gʻazablantiradi	Qoʻrquv va gʻazabdagi insonlar urushga sabab boʻladi
Quvnoq musiqa odamlarni tabassum qildiradi	Tabassum qilishni xohlaydiganlar quvnoq musiqani tanlaydilar
Yadro quroli sinovi odamlarni asabiylashtiradi	Xavotirga tushgan odamlar yadroviy qurol sinovlarini boshlaydilar

Bugungi kunda tadqiqotchilar sotsionomika gipotezani turli ijtimoiy hodisalarni, jumladan, saylov natijalari, ommaviy madaniyat tendensiyalari, epidemiyalar va pandemiyalarning boshlanishi, taqiqlarning paydo boʻlishi, moliyaviy maniyalar (ruju qoʻyish) va halokatlarni tushuntirish uchun qoʻllashmoqda. 2010-yilda matematik *Jon Kasti*<sup>3</sup> ushbu mavzu boʻyicha mashhur “Mood Matters” nomli kitobini nashr etdi. Ushbu asarda musiqa va sanʼatdagi modadan tortib sivilizatsiyalarning yuksalishi hamda qulashigacha boʻlgan barcha ijtimoiy voqealar jamiyatning kelajakka nisbatan munosabati bilan bogʻliqligini taʼkidlaydi. Ijtimoiy kayfiyat ijobiy boʻlsa, odamlar kelajakka intilsa, jamiyat (pessimistik holatdan) butunlay boshqacha xarakterdagi voqealar sodir boʻladi. Kitobda ushbu dalilni tasdiqlovchi hayotning har bir sohasidan koʻplab misollar keltirilgan. Bundan tashqari, turli vaqtlarda nima boʻlishi mumkinligini yoki yuz bermasligini bashorat qilish uchun ijtimoiy kayfiyatni oʻlchash va u asosida kelajakni loyihalashtirish usullari berilgan. J.Kasti yozganlarini oʻqish zavq bagʻishlaydi va uning mazmuni koʻplab voqealarning mazmunini anglash imkonini beradi. Unda nazariy tamoyillar taqdim etilganidan soʻng ularni muayyan holatlarda qoʻllashga bagʻishlangan bir necha boblar keltirilgan. U moda, kino va musiqa bilan boshlanadi, keyin urushlar, iqtisodiy sikllar hamda siyosiy inqirozlarga, buyuk davlatlarning yuksalishi va qulashi jarayonlarining atroflicha talqini bilan yakunlanadi. Barcha holatlarda J.Kasti

<sup>3</sup> John Casti. Mood Matters, 2010.

ijtimoiy his-tuygʻularning sikllari oʻrganilayotgan ijtimoiy hodisalarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ekanligini koʻrsatishga harakat qiladi. Umumlashtirganda ijtimoiy kayfiyat tarixning yashirin dvigateli sifatida talqin qilinadi.

Ammo sotsionomika nazariyasi bir qator olimlar tomonidan tanqidga uchragan. Jumladan, *Giyom Deffyan* J.Kasting kitobi va sotsionomika nazariyasini tanqid qildi. U kitobning baʼzi qismlari jasur, noanʼanaviy fikrlashlari bilan juda qiziqtirgan boʻlsa-da, juda murakkab hodisalarning kelajagini haddan tashqari soddalashtirilgan vositalar yordamida va hech qanday ilmiy qatʼiyiksiz bashorat qilish mumkinligi haqidagi daʼvolar bilan umumiy taassurotlar buzilganini taʼkidlagan<sup>4</sup>. Jumladan, taqrizchi ushbu nazariyani Kopernik nazariyasiga qiyoslagan holda, yaʼni jamiyatdagi voqealar ijtimoiy kayfiyatdagi oʻzgarishlarning sababi emas, aksincha, harakatda yuzaga kelishiga urgʻu berilgan. Albatta, ayrim holatlarda sotsionomikaning gʻoyasi oʻta jozibador va ishonchli tuyuladi. Masalan, mashhur *Enron bankrotligi*<sup>5</sup> jarayoni tahlili bir qarashda nazariyaning haqqoniyligini isbotlaydi. Koʻpgina kuzatuvchilar, Enron mojarosi investorlarni qoʻrqitib, bozorning tushishiga sabab boʻlganiga ishonishdi. Ammo maʼlumotlarga diqqat bilan qarash shuni koʻrsatadiki, bozor Enron mojarosidan, taxminan, bir yil oldin tushib ketgan edi. Shuning uchun aksiya bahosining pasayishi firmaning kredit liniyalarini tugatdi va keyinchalik uning qulashiga olib keldi. Qolaversa, negativ jamoatchilik kayfiyati aybdorni topishni talab qildi va Enron bu jarayonda ideal nomzod edi. Shunday qilib, Enron mojarosiga sabab aynan negativ ijtimoiy kayfiyat boʻlganini koʻrish mumkin. Boshqa misollar: hatto 11-sentyabr yoki AQSh prezidenti Kennedining oʻldirilishi kabi voqealar ham Dow Jones Industrial Average (DJIA) yoki Standard and Poor’s 500 indekslari tomonidan oʻlchanadigan ijtimoiy kayfiyatga aniq

<sup>4</sup> Mood Matters: From Rising Skirt Lengths to the Collapse of World Powers. Reviewed by Guillaume Deffuant. <https://www.jasss.org/14/1/reviews/3.html>

<sup>5</sup> Enron korporatsiyasi 2001-yilda bankrot boʻlgan Amerika energetika kompaniyasi. Kompaniyaning bosh qarorgohi Texas shtatining Xyuston shahrida joylashgan edi. Kompaniya aksiyalari Nyu-York fond birjasida ENE belgisi ostida sotilgan. Bankrotlikdan oldin Enron 40 mamlakatda, taxminan 22 000 kishini ish bilan taʼminlagan va energiya ishlab chiqarish, gaz tashish, tabiiy gaz taqsimlash, aloqa va sellyuloza-qogʻoz ishlab chiqarish sohalarida dunyodagi yetakchi kompaniyalardan biri boʻlgan.



ta'sir ko'rsatmaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda voqealar muhim emas, faqat ijtimoiy kayfiyat muhim degan g'oya bir qarashda ishonchli tuyuladi. Lekin ijtimoiy kayfiyat dinamikasi borasida keltirilgan fikrlar noaniqligi tufayli qattiq tanqidga uchraydi. Unga ko'ra, ijtimoiy kayfiyat odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar orqali o'rnatiladi. U oddiygina endogen tarzda aniqlanadi hamda siklik (davriy, to'lqin) ravishda sodir bo'ladi. Umid hamda ishonch jamiyatdagi kayfiyatni cho'qqiga (g'ururga) yetguncha ko'taradi, qo'rquv bilan umidsizlik esa pastga tushishiga sabab bo'ladi. Sotsionomika ushbu to'lqinlar qanday sodir bo'lishi borasidagi savolga aniq javob bera olmagan hamda ushbu muhim mexanizmning aniq izohi berilmagan.

Sotsionomika nazariyasi tarafdorlarining ishlari va fikrlarini jamlagan holda uning beshta tamoyili mavjudligi borasida xulosa berish mumkin:

*Birinchidan*, ijtimoiy kayfiyat ijtimoiy hodisalarni rag'batlantiradi, aksincha emas.

*Ikkinchidan*, ijtimoiy kayfiyat tashqi kuchlar tomonidan emas, balki endogen tarzda (ichki omillar ta'sirida) tartibga solinadi.

*Uchinchidan*, jamoatchilik kayfiyati Elliott to'lqin modeli deb ataluvchi robust fraktalga (ishonchli, mustahkam) muvofiq tuzilgan bo'ladi. Mazkur fraktallar miqdoriy jihatdan o'zgaruvchan, ammo o'z tuzilishiga ega bo'ladi.

*To'rtinchidan*, ijtimoiy kayfiyat ongsiz, xotirasiz va doimo o'zgaruvchan xarakterga ega bo'ladi.

*Beshinchidan*, ijtimoiy kayfiyat to'lqinlari odamlar ijtimoiy aloqada bo'lganda yuzaga keluvchi olamonning instinkti bilan bog'liq va aloqdor hisoblanadi.

Ushbu tamoyillar ijtimoiy "hodisalar" ijtimoiy kayfiyatning o'zgarishiga olib keladi degan an'anaviy taxmini rad etadi. Chunki ularning nazarida mazkur keng tarqalgan xato ijtimoiy tendensiyalar va harakatlarni muvaffaqiyatli bashorat qilishning imkonini cheklaydi. Sotsionomika esa aynan shu imkoniyatdan foydalanadi. Shu nuqtayi nazardan, sotsionomika – o'tmish hamda ijtimoiy prognozlashtirish haqidagi fan. Bu insonning endogen ijtimoiy dinamikasining kelib chiqishi hamda oqibatlarini o'z ichiga olgan to'lqin prinsipi deb ataladigan tadqiqot sohasi, ijtimoiy kayfiyat va ijtimoiy o'zaro ta'sirning murakkab tizimini boshqaruvchi taraqqiyot (progress), shuningdek,

tanazzulning (regress) belgilangan ketma-ketligidir. U bozor va ijtimoiy tendensiyalarning tabiati jamoaviy inson psixologiyasining mahsuli bo'lib, ongsiz olomon impulslariga asoslanishini ilgari suradi.

Bugungi kunda sotsionomika nazariyasi bir qator kamchiliklarga ega bo'lsa-da, o'z tarafdorlari tomonidan rivojlantirilmoqda. Jumladan, Sotsionomika instituti (Socionomics Institute) har yili sotsionomikadan o'tkaziladigan konferensiyalarga mezbonlik qiladi, unda akademik va tegishli amaliy kasblardan ma'ruzachilar qatnashadilar. Konnektikut shtatidagi Delaver universitetida sotsionomika kursi mavjud. Bu soha tobora ko'proq olimlar va tadqiqotchilarni jalb qilmoqda, shuning uchun mazkur ro'yxatni yana to'ldirish mumkin. R.Prechter va uning izdoshlari nazariya hamda uning qo'llanishi bo'yicha bir qator kitoblar, ilmiy maqolalar chop qilishgan. Sotsionomlar ilmiy anjumanlarda, shuningdek, London Iqtisodiyot maktabi, Massachusetts texnologiya instituti, Georgia Tech, SUNY, Kembrij universiteti, Oxford universiteti kabi oliy ta'lim muassasalarida ma'ruzalar qilishadi.

Bundan tashqari, Sotsionomika Jamg'armasi hamda Sotsionomika Instituti yosh olimlar, talabalarni ijtimoiy fanlarni sotsionomika nuqtayi nazardan o'rganishga jalb qilish orqali ijtimoiy xulq-atvor bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilishini qo'llab-quvvatlaydi<sup>6</sup>. Sotsionomika instituti iqtisod, siyosat, san'at, musiqa, moda, biznes, sport, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, ommaviy madaniyatning boshqa sohalarida muammolarni hal qilish hamda prognozlashtirishda ijtimoiy tahlilni amaliy qo'llashga yordam beradi.

Bugungi kunda sotsionomika konsepsiyasi nafaqat G'arb mamlakatlari, balki MDH olimlari tomonidan o'rganilgan holda ayrim jihatlari qabul qilinganini ko'rish mumkin. Jumladan, Sharkov F.I. ijtimoiy davlatda sotsionomika konsepsiyasining genezisini tahlil qilgan<sup>7</sup>. Uning fikriga ko'ra, mazkur nazariya istiqbolda integral gumanitar fan maqomini olish ehtimoli yuqori.

<sup>6</sup> <https://perfumero.livejournal.com/217402.html>

<sup>7</sup> Шарков Ф.И. Соционика как научная основа разработки концепции развития социального государства. Уровень жизни населения регионов России. №2 (212). 2019. – С. 85–90. <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsionomika-kak-nauchnaya-osnova-razrabotki-kontseptsii-razvitiya-sotsialnogo-gosudarstva>

**Yakuniy qism.** Jamiyatdagi barqarorlikni saqlash hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inqirozli vaziyatlarni oldindan bashorat qilish ehtiyoji tufayli jamiyatdagi insonlarning ijtimoiy kayfiyati va xulq-atvorini o'rganish, baholash hamda bashorat qilish yo'nalishida an'anaviy hamda sotsionomika konsepsiyalari o'z yondashuviga ega. XX asrning 70-yillarida shakllangan hamda bugungi kunga qadar bir qancha tarafdorlariga ega bo'lgan sotsionomika nazariyasi o'z yutuq va kamchiliklariga ega. Mazkur konsepsiya tadqiqotning o'ziga xos yondashuvi sifatida beshta muhim tamoyilga asoslanadi. Bular ijtimoiy kayfiyatning ijtimoiy hodisalarni rag'batlantirishi; ichki omillar ta'sirida tartibga solinishi; Elliott to'liqiniga muvofiq tuzilishi; ongsiz, xotirasiz va doimo o'zgaruvchan bo'lishi hamda ijtimoiy kayfiyat to'liqlari odamlar ijtimoiy aloqada bo'lganda yuzaga keluvchi olomonning instinkti bilan bog'liq va aloqdor hisoblanishidir. Mazkur tamoyillar ijtimoiy hodisalar ijtimoiy kayfiyatning o'zgarishiga olib keladi degan an'anaviy taxmini

rad etadi hamda unga teskari bo'lgan g'oyani ilgari suradi. Chunki sotsionomlarning nazarida mazkur keng tarqalgan xato ijtimoiy tendensiyalar va harakatlarni muvaffaqiyatli bashorat qilishning imkonini chegaralaydi. Sotsionomika esa o'tmish hamda ijtimoiy prognozlashtirish haqidagi fandır. Bu insonning endogen ijtimoiy dinamikasining kelib chiqishi hamda oqibatlarini o'z ichiga olgan to'liqin prinsipi deb ataladigan tadqiqot sohasi, ijtimoiy kayfiyat va ijtimoiy o'zaro ta'sirning murakkab tizimini boshqaruvchi progress va regressning belgilangan ketma-ketligidir. U bozor hamda ijtimoiy, siyosiy, madaniy, moliyaviy, iqtisodiy tendensiyalarning tabiati jamoaviy inson psixologiyasining mahsuli sifatida ongsiz olomon impulslariga asoslanadi degan xulosani beradi. Bugungi kunda sotsionomika nazariyasi bir qator kamchiliklarga ega bo'lsa-da, o'z tarafdorlari tomonidan rivojlantirilmoqda. Ba'zilar uning integral gumanitar fan sifatida shakllanishini bashorat qilishmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Prechter R., Parker W. D. (2007) The Financial/Economic Dichotomy in Social Behavioral Dynamics: The Socionomic Perspective. *Journal of Behavioral Finance*, Vol. 8, No. 2, pp. 84-108.
2. Prechter R., Goel D., Parker W.D., Lampert M. (2012) Social Mood, Stock Market Performance and U.S. Presidential Elections: A Socionomic Perspective on Voting Results. 42 p. [https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=1987160](https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=1987160)
3. Casti J. *Mood Matters*. Springer-Verlag: Berlin, 2010. <https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-642-04835-7>
4. Шарков Ф.И. Соционика как научная основа разработки концепции развития социального государства. *Уровень жизни населения регионов России*. – № 2. 2019. – С. 85–90 // <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsionomika-kak-nauchnaya-osnova-razrabotki-kontseptsii-razvitiya-sotsialnogo-gosudarstva>



**Norqulov Husniddin,**  
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot  
 instituti bo‘limi boshlig‘i v.b., pedagogika fanlari  
 nomzodi, dotsent.*



**Nurmonova Zebo,**  
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot  
 instituti kichik ilmiy xodimi*

## OILALAR MUSTAHKAMLIGINI TA‘MINLASHDA MODDIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Maqolada moddiy qadriyatlar tushunchasi, oilada milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvozanati, oilaviy farovonlik, moddiy qadriyatlarining farzandlar tarbiyasi hamda oilalar mustahkamligida tutgan o‘rni tahlil qilingan.

**Tayanch so‘zlar:** oilaviy qadriyatlar, moddiy qadriyat, oilaviy farovonlik, farzand tarbiyasi, qadriyatlar transformatsiyasi.

**Аннотация.** В статье анализируются понятие материальных ценностей, баланс национальных и общечеловеческих ценностей в семье, семейное благополучие, роль материальных ценностей в воспитании детей и прочность семьи.

**Ключевые слова:** семейные ценности, материальные ценности, семейное благополучие, воспитание детей, трансформация ценностей.

**Annotation.** The article analyzes the concept of material values, the balance of national and universal values in the family, family well-being, the role of material values in the upbringing of children and the strength of the family.

**Keywords:** family values, material values, family well-being, parenting, transformation of values.

**Kirish.** Oila ijtimoiy hayotning abadiyligini, kavlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta‘minlaydigan, kelajak nasl qanday bo‘lib yetishishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadigan ijtimoiy makon va pedagogik omil vazifasini o‘taydi. Inson oilada shakllanadi. Oila – muhabbat, hurmat, birdamlik va mehribonlik manbayi. Aynan shu qadriyatlarga har bir rivojlangan jamiyat suyanadi.

Darhaqiqat, asrlar davomida o‘z e‘tirofini topgan va diniy-axloqiy qadriyatlar darajasiga ko‘tarilgan oilaviy munosabatlarda halol yashash, mehnat qilish, farzand tarbiyasi ijtimoiy hayot tarzini rivojlantirish manbayidir. Sharqona tarbiyada shaxsning umummadaniy dunyoqarashining shakllanish asosi oiladan boshlanadi.

**Maqsad va uni asoslash.** So‘nggi paytlarda oilalarni mustahkamlash va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan tizimli islohotlarga qaramasdan,

jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan oila instituti turli muammolar bilan yuzlashmoqda. Oilalar barqarorligiga putur yetmoqda. Xususan, oila miqyosida: er-xotin nizolari, rollar taqsimoti, shaxslararo munosabatlar, ajrimlar, suitsid, turli tazyiq va zo‘ravonlik holatlari; jamiyat miqyosida: ijtimoiy tabaqalanish, boqimondalik kayfiyati, mahalliychilik, korrupsiya, jinoyatchilik va boshqalar. Shu bois ushbu muammolar oilalardagi qadriyatlar bilan qay darjada bog‘liqligini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, oila ijtimoiy tizim sifatida munosabatlarning bir necha turlarini qamrab oladi. Ular ijtimoiy-biologik, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy, psixologik va estetik munosabatlarga bo‘linadi. O‘z navbatida, ushbu munosabatlar barqarorligiga ta‘sir qiluvchi o‘ziga xos omillar ham mavjud. Shulardan biri moddiy (qadriyat) omillar. Bu, ayniqsa, asosiy mavzuyimiz hisoblangan iqtisodiy munosabatlarda

o'z aksini topadi. Iqtisodiy munosabatlar esa uy xo'jaligi, oila byudjetiga rioya qilish, vazifalarni taqsimlash va hokazolarni tashkil etadi.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.**

Ma'lumki, zamonaviy jamiyatda oila alohida davrlarni boshdan kechirmoqda. Xususan, milliy davlat loyihalaridan birining asosiy g'oyasi yosh oilalarni asrab-avaylash, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun davlat barcha turdagi moddiy yordam va kompensatsiyalarni taklif qiladi. Albatta, moddiy baza har qanday korxonaning, xususan, oilaning muhim tarkibiy qismidir. Biroq mustahkam oila yaratish nafaqat moddiy asosning mavjudligi, balki ma'lum qadriyatlar va me'yorlarni shakllantirish bilan ham shartlangan bo'lishi kerak<sup>1</sup>.

Shunday ekan, butun dunyoda insonlarning qadriyatlar tizimida kuzatilayotgan turli o'zgarishlar, global jarayonlarning ta'siri va jamiyatimizda kechayotgan barcha sohalardagi yangilanishlar aholining hayotiy maqsadlari, qadriyatlar va yo'nalishlarining o'zgarishiga qay darajada ta'sir ko'rsatishini o'rganishning dolzarbligini asoslaydi.

Ma'lumki, moddiy qadriyatlarning asosini jamiyatimizning moddiy texnika bazasi tashkil qiladi. Insoniyat jamiyatining har biri o'ziga xos moddiy texnika bazasiga ega. Ular bir-biridan sifat jihatidagina emas, balki miqdor jihatidan ham farq qiladi. Tosh va yog'ochdan yasalgan sodda qurollarni ishlatish, yoyning ixtiro qilinishi va ov qilish, olovdan foydalanishning kashf etilishi, metallardan mehnat qurollarini yasash va boshqa shu kabilar hammasi ibtidoiy jamiyat moddiy-texnika bazasi uchun xarakterlidir. Biroq takomillashgan mehnat qurollarini dehqonchilik, hunarmandchilik va qurilish ishlarida qo'llash, og'ir jismoniy mehnat talab qiladigan barcha sohalarda qullarning mehnatidan shafqatsizlarcha foydalanish quldorlik jamiyatining moddiy texnika bazasi uchun xos belgilardir. Shamol va suv tegirmonlaridan foydalanish, metallarni eritish va ularni qayta ishlash yo'llarini yaxshilash feodal jamiyatga taalluqli moddiy texnika bazasidir. Yirik va kuchli yutuqlaridan keng foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda mexanizatsiyalashtirish, yangi texnologiyani joriy etish, tabiiy, moddiy va

mehnat resurslaridan har tomonlama foydalanish industrial jamiyatning moddiy texnika bazasini tashkil etadi. Respublikamizda taraqqiy etayotgan mashinasozlik, metallurgiya, kimyo, issiqlik energiyasi, transport va aloqa, kapital qurilish, yengil, oziq-ovqat, agrar sanoati va boshqa moddiy boyliklar majmuasi mustaqil O'zbekiston xalqining moddiy qadriyatlarini tashkil etadi. Moddiy qadriyatlarning negizini mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-barobar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Moddiy qadriyatlarni o'zbek millati shu makonda yashab ijod qilgan xalqning ijtimoiy madaniy turmush tarzida tutgan o'rni bilan bog'liq ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etish yaxshi natija beradi. Qadriyatlar inson bisotida turli-tuman ehtiyojlarning va his-tuyg'ularning mavjudligidan dalolat beradi, atrofda sodir bo'layotgan voqealarni, hodisalarni turlicha baholashlari uchun zamin yaratadi<sup>2</sup>. Qadriyatlar moddiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qadriyatlarga hamda ijobiy va salbiy, shaxsiy qadriyatlarga bo'linadi. Moddiy qadriyatlar deganda, turli tarixiy davrlarda ijtimoiy ishlab chiqarish usuliga mos, ishlab chiqarish vositalari shaklida rivojlanib, bir oila turmush darajasidan chiqib, butun bir millatning qadriyatlarini darajasigacha ko'tarilib borgan, moddiy va nomoddiy buyum hamda xalq hunarmandchilik na'munalari tushuniladi. Ular bugungi kungacha xalqimiz tomonidan qadrlanib kelinadi.

Haqiqatdan ham, moddiy qadriyatlar (xalq hunarmandchilik namunalari) tushunchasini, mazmun-mohiyatini, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini teran anglash, uni milliy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlari bilan (uyg'un holda) hamohang tarzda, yoshlarda moddiy qadriyatlar integratsiyasi vositasida ishbilarmonlik ko'nikmalarini shakllantirish juda muhim. Buning uchun moddiy qadriyatlarning tarixiy-tadrijiy rivojlanishini, mazmun-mohiyatini bilish, tadqiq etish, ota-bobolarimizning kundalik turmush

<sup>1</sup> Musurmanova O. Oila jamiyat tayanchi: Monografiya /O.Musurmanova. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 252 b.

<sup>2</sup> Nazarov Q. Aksiologiya: Qadriyatlar falsafasi. – T., Ma'naviyat, 1998.

sharoitida, o'sha davr jamiyat taraqqiyotida naqadar beqiyos o'rin tutganini, qadriyat sifatida e'zozlanganini o'rganish, ilmiy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Bu, birinchidan, o'zbek xalqining moddiy qadriyatlarini o'rganishga (boy moddiy merosini) yordam bersa, ikkinchidan, jamiyatda tadbirkorlik va ishbilarmonlikni yanada taraqqiy ettirishga, milliy taraqqiyotga katta hissa qo'shsa, uchinchidan, ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini kuchaytirishdagi, jamiyat a'zolarini, ayniqsa, yoshlarni aniq ijtimoiy mo'ljallar, mezonlar bilan qurollantiradigan, har xil ma'naviy tahdidlar va g'oyaviy xurujlarga nisbatan mafkuraviy immunitet hosil qilishdagi ahamiyatini teranroq tushunish va amalda samaraliroq qo'llash imkonini beradi.

Shuningdek, Xalq og'zaki ijodiyotining barcha janrlarida bolani atrofidagi kishilarga yordamlashish, hamdardlik qilish ruhida tarbiyalash g'oyalari o'rta tashlanganini ko'ramiz. O'zbek xalqi o'rtasida kundalik ehtiyojga aylangan amaliy san'at turlaridan yog'och, ganch va mis o'ymakorligi, zargarlik, zardo'zlik, kashtado'zlik, kulolchilik, milliy liboslarni tikish kabilar o'zbek oilalarida, birinchidan, moddiy ehtiyojni qondirish bo'lsa, ikkinchidan, farzandlarni mehnatga o'rgatishda, bo'sh vaqtdan unumli foydalanishni tarbiyalashda muhim tarbiya vositasi sifatida foydalanib kelingan. Shu sababli oilalar mustahkamligida moddiy qadriyatlarning ahamiyatini o'rganish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning har bir bosqichida dolzarb muammo hisoblanadi. Aholining moddiy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini tahlil qilish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot fonida oilalardagi turli dolzarb masalalarni ochib beradi va mustahkam oilalar yaratish uchun zarur choralarni ishlab chiqishda ko'maklashadi.

Moddiy qadriyatlar – bu qadriyat ahamiyatiga molik bo'lgan tabiiy obyektlar va predmetlar, ya'ni mehnat vositalari va bevosita iste'mol buyumlaridir. Moddiy qadriyatlar jumlasiga inson mehnati natijasida yaratilgan moddiy dunyo predmetlari, shuningdek, o'tmish madaniy merosi predmetlari ham kiradi. Moddiy qadriyatlar – bu tabiiy ne'matlar, mehnat mahsullarining iste'mol qiymati, ijtimoiy hodisalarda mujassamlashgan ijtimoiy ne'matlar, tarixiy voqealar, madaniy meros, axloqiy ezgulik, go'zalik mezonlarini qanoatlantiruvchi estetik hodisalar, diniy ibodat predmetlari yoki o'zining

muayyan ramziy ifodasini topgan diniy g'oyalar va boshqalardir. Moddiy qadriyatlar ongda emas, balki odamlarning hayot faoliyatida amal qiluvchi muayyan narsalar, hodisalar dunyosida mavjud bo'ladi<sup>3</sup>.

Yuqoridagi faktlardan kelib chiqadigan bo'lsak, oilaning rivojlanishi jamiyatning moddiy ishlab chiqarishi va ma'naviy hayoti bilan bog'liqdir. Oila shakllarining o'zgarishi, ibtidoiy jamiyat davridan boshlab barcha tarixiy bosqichlarda moddiy ishlab chiqarish ma'naviyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq ekanligi ilmiy adabiyotlarda keng tahlil etilgan.

Darhaqiqat, oilaning moddiy ta'minlanganlik saviyasi shu oilada voyaga yetayotgan bolaning har tamonlama shakllanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, moddiy ta'minlanganlik asosiy hayot maqsadi emas, balki maqsadga yetishishdagi yaxshi omil vazifasi ekanligini bolalarga yoshlikdan tushuntirishimiz lozim. Oilaviy farovonlikni chuqur o'rganilishining asosiy sababi uning bir nechta ko'rsatkichlarining mavjudligidadir, masalan, moddiy ta'minlanganlik, oiladagi o'zaro munosabat, farzandlarni tarbiyalash, ruhiy barqarorlik, ma'naviy muhit va boshqa ko'rsatkichlar.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, oilaning farovonligi jamiyat farovonligini ta'minlaydi. Shu sababli uzoq yillardan beri "oilaning farovonligini ta'minlash" muammosi olimlar diqqat markazida bo'lib kelgan.

Har qanday oila farovonlikka intiladi, bu aniq ijtimoiy haqiqat, u esa bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi. Oilaning farovonligi oilaviy qadriyatlardan biri erkak va ayol harakati, motivasiyasi asosida ta'minlanadi. Ko'pgina olimlar oilaning farovonligiga iqtisodiy jihatdan yondashadilar. Bir tomondan ularning fikri to'g'ri bo'lib, moddiy qadriyatlarga egalik qilinishi oila farovonligini ta'minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki oilaviy munosabatlardagi kichik nizolar ko'p hollarda aynan moddiyatga borib taqalmoqda. Shahardagi ko'pgina oilalar moddiy texnikaviy jihatdan yaxshi ta'minlangan bo'lib, ularning ko'pchiligining xonadonlarida televizor, dazmol, telefon, kompyuter, kir yuvish mashinasi, muzlatkich kabi bir qancha texnika vositalarini kuzatish mumkin. Shahar oilalarining farovonligini ta'minlashda kundalik

<sup>3</sup> Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. – T.: O'qituvchi, 1999. – 2000 b.

ehtiyodagi birgina texnikaviy ta'minlanganlikka e'tibor berish ushbu muammoga faqat bir tomonlama qarash demakdir. Zero, ovqatlanish, kiyinish kabi kundalik ehtiyojni ta'minlash uchun ham oilaning o'z daromad manbasi bo'lishi va bu oilaviy jamg'armani hosil qilishi lozim. Ko'p hollarda shahardagi oila jamg'armasini to'ldiruvchilari birdek oilaning erkagi va ayoli zimmasida bo'ladi. Biroq ayrim an'anaviy oilalar to'g'risida bunday deya olmaymiz. Chunki ayrim an'anaviy oilalarda erkaklar oilaviy jamg'armaning to'ldiruvchilari hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, shahar ekotizimidagi oilalarni, shuningdek, zamonaviy va an'anaviy oilalar turkumiga bo'lib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Oila farovonligini ta'minlashda oilaviy tarbiyaning ham ahamiyati muhimdir. Bugungi kunda o'zining tarbiyaviy yo'nalishida oila milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zaro uyg'un holda olib bormoqda. Biroq milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlardan ustun biladiganlar ham yo'q emas, albatta. Bu esa shahar boshqaruvida og'riqli nuqta bo'lib, ba'zi hollarda ajrimlarga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumotlarga qaraganda (2019-yil 11-fevral), dunyoning ajrashishlar soni koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan o'n davlatiga quyidagilar kiritilgan: Maldiv, Belorussiya, Belgiya, Rossiya, AQSh, Ukraina, Portugaliya, Chexiya, Shvetsiya, Vengriya. Ushbu davlatlarning aksariyati ajrimlarga oilani erkak kishi moddiy ta'minlamasligi, ya'ni ishsizligi, moddiy qiyinchiliklar tufayli ayollarning erkaklar bilan barobar ishlashi orqali moddiy mustaqillikka erishganliklari va er-xotindan birining surunkali spirtli ichimliklarni iste'mol qilishini asosiy sabab qilib ko'rsatishmoqda.

Mutaxassislar fikricha, ulardagi ajrimlarga nafaqat moddiy yetishmovchiliklar, balki ma'naviy inqiroz ham sabab bo'lmoqda. AQShda so'rov davrida 266 ta oilaviy muammolar bo'yicha shug'ullanadigan maslahatchilar o'rganib ko'rilganda, ularning qayd etishicha, ularga yordam so'rab murojaat qilgan har 10 ta oilaning 9 tasi o'zaro munosabatlarda qiyinchiliklar sodir bo'layotganini tasdiqlaydilar<sup>4</sup>. Mazkur qiyinchiliklardan: kommunikativ qiyinchiliklar – 86,6% ni, bolalar va ularning tarbiyasi bilan bog'liq – 45,7% ni, jinsiy muammolar – 43,7% ni, moliyaviy muammolar – 37% ni, madaniy muammolar – 37,6% ni,

<sup>4</sup> <https://prozakon.uz>

tug'ishganlar bilan munosabat – 28,4% ni, er-xotin o'rtasidagi ishonchsizlik – 26,6% ni, xo'jalik ishlari – 16,7% ni, jismoniy haqoratlash – 15,6% ni va boshqa muammolarni tashkil etadi<sup>5</sup>. Oilaga bo'lgan mas'uliyatsiz munosabat davom etaversa, nafaqat bu va boshqa davlatlarning bugungi kuniga, balki kelajagiga ham ta'sir etmay qolmaydi<sup>6</sup>.

Ma'lumotlarga ko'ra, ajrimlar sonining o'rtacha me'yorini Sharq mamlakatlarida, jumladan, urfodat, an'anlari va o'zligiga sodiq bo'lgan Xitoy davlatida kuzatishimiz mumkin. Xitoyda ajrim koeffitsiyenti 20–29% ni tashkil etadi. Bu Xitoyda moddiy, ma'naviy muammolar bo'lmaydi degani emas. Turmush qurishdan oldin kelin-kuyov tanlashga mas'uliyat bilan, har tomonlama o'ylab yondashish Xitoy xalqining ma'naviy meroslaridan biridir.

Oilada milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'un bo'lishi natijasida oila farzandlari har qanday ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlarda o'zlarini yo'qotib qo'yimasligini ta'minlaydi. Qolaversa, yosh oilalarda moddiy ehtiyojlarini tartibga solish bo'yicha turli choralar ko'rish lozim. Chunki bu narsa oilaviy tinchlikni ta'minlash kafolati sanaladi. Ko'p hollarda oilalarning farovonligini ta'minlashda moliyaviy xayriyalar tashkillashtiriladi. Biroq tekin bilimlar xayriyasini shakllantirish tartibini ko'rib chiqish va ko'paytirish lozim. Zero, ba'zi oilalarda bilim olishga ehtiyoj mavjud, faqatgina moliyaviy tanqislik sababli o'z qobiliyatlarini namoyon etishga qiynalishadi. Bunda ma'rifatparvar jadidchilar mehnatidan o'rnatilgan maqsadga muvofiqdir<sup>7</sup>.

Zamonaviy O'zbekistonda kundan kunga hayot va yashash sharoitimiz yaxshilanib, oila farovonligi uchun yetarli shart-sharoitlarning bo'lishiga qaramay, tashqaridan barcha maishiy muammolari hal bo'lgan yosh oilada ham nimalardir yetishmayotganday tuyulaveradi. Bu, o'z navbatida, o'sha orzu-havaslar, ijtimoiy ehtiyojlarning tobora ortib borayotgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, yosh oilalar oldida ta'lim-tarbiyaviy, ma'naviy, psixologik, moddiy-iqtisodiy, ijtimoiy xarakterdagi muammoli masalalar mavjud.

<sup>5</sup> <https://fayllar.org/oila-diaagnostikasi-va-konsuletaciyasi-hususiyatlari.html>

<sup>6</sup> Babajanova F., Eshonqulova Z. "Oila psixologiyasi" fanidan o'quv-uslubiy majmua. – Guliston, 2015.

<sup>7</sup> Sharipova D. Ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish – jamiyat taraqqiyotining asosi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2002.

Mamlakatimizda yosh oilalarni ma'naviy-moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning uy-joy va turmush shart-sharoitlarini yaxshilash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bir qatorda, ularning bilim darajasini oshirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda, bo'lajak oila quruvchi yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha innovatsion maktablar yaratilmoqda. Ushbu maktablarda xo'jalik-iqtisodiy jihatlar, ya'ni oila byudjeti, turmush tarzi madaniyati, uy xo'jaligini boshqarish qobiliyatlari va bilimlarini mustahkamlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Sababi bu orqali yosh oilalarda katta oilaviy hayotga moslashuv yanada osonroq kechadi.

**Yakuniy qism.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oilada barqaror ijtimoiy-iqtisodiy muhitni ta'minlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Dunyoning barcha taraqqiy etgan davlatlari qatorida yurtimiz yoshlarining ta'lim-tarbiyasi, ularni kasb-hunarga oid bilim va ko'nikmalarni egallashga yo'llash, bolalar mehnatini tashkil etish, oilaviy hayotga tayyorlash muammolari dolzarb masalalardan hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblar. – Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2016.
2. Nazarov Q. Aksiologiya: Qadriyatlar falsafasi. – T.: Ma’naviyat, 1998.
3. Babajanova F., Eshonqulova Z. Oila psixologiyasi fanidan o'quv-uslubiy majmua. – Guliston, 2015.
4. Musurmanova O. Oila jamiyat tayanchi: Monografiya /O.Musurmanova. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 252 b.
5. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. – T.: O'qituvchi, 1999.
6. Sharipova D. Ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish – jamiyat taraqqiyotining asosi. – T.: Fan va texnologiya, 2002.
7. Quronov M. Oila va barkamol avlod tarbiyasi. – T.: Ma'naviyat, 2012. – 134 b.
8. O'zbekistonda yosh oila (ijtimoiy tadqiqotlar natijalari asosida) / D.Tashmuxeimedova, D.Karimova. Ilmiy-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: “Yurist-media markazi”, 2019. – B. 7.



**Yaxyoyeva Sojida Abdurahimovna,**  
*Buxoro Davlat universiteti*  
*mustaqil tadqiqotchisi (PhD)*

## **GENDER TENGLIKKA ERISHISH STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada gender tenglikka erishish strategiyasini amalga oshirish mexanizmlari, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish masalasida amalga oshirilayotgan ishlar haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qaror qabul qilish bilan bog'liq barcha darajalarda ayollar to'liq va samarali ishtirok etishi hamda yetakchilik qilishi uchun teng imkoniyat yaratilayotgani misollar orqali asoslab berilgan.

**Tayanch so'zlar:** gender, gender tenglik, jins, tenglik, teng huquqlilik, xotin-qizlarning huquqi, oila, oilaviy munosabatlar.

**Аннотация.** В данной статье описаны механизмы реализации стратегии достижения гендерного равенства, представлена информация о проводимой работе по достижению равных прав и возможностей женщин и мужчин. Также на примерах обосновано, что устраняется любая форма дискриминации в отношении всех женщин, создаются равные возможности для женщин участвовать и руководить в полной мере и эффективно на всех уровнях, связанных с принятием решений в политической, экономической и социальной жизни.

**Ключевые слова:** гендер, гендерное равенство, пол, равенство, равноправие, права женщины, семья, семейные отношения.

**Annotation.** This article describes the mechanisms of implementation of the strategy for achieving gender equality, the information about the work being done to achieve equal rights and opportunities for women and men. Also, it is justified through examples that the elimination of any form of discrimination against all women, equal opportunities for women to participate and lead fully and effectively at all levels related to decision-making in political, economic and social life are created.

**Keywords:** gender, gender equality, sex, equality, equal rights, women's rights, family, family relations.

**Kirish.** Respublikamizda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirokini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'rovonlikdan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, gender tengligi muammosini hal qilish nafaqat dolzarb, balki alohida ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'ladi. O'zbekiston Prezidenti

Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi". Shuningdek, so'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo'yicha ishlar bir necha yo'nalishlarda olib borilmoqda:



- ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;
- aholining gender tenglik to'g'risidagi xabardorlik darajasini oshirish.

**Maqsad va uni asoslash.** Amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning maqsadi – O'zbekiston Respublikasida jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash, xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilish masalalari bo'yicha mustahkam huquqiy asoslar yaratish. Jumladan, O'zbekistonda 2030-yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilingan. Ushbu hujjatda 2030-yilgacha barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qaror qabul qilish bilan bog'liq barcha darajalarda ayollar to'liq va samarali ishtirok etishi, yetakchilik qilishi uchun teng imkoniyat yaratiladi.

Qarorda oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida aniq vazifalar belgilab berildi:

- jamiyatda oilalarni mustahkamlash, oilaviy munosabatlarda barcha oila a'zolarining mas'ulligini oshirish, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha amaldagi mexanizmlarni takomillashtirish;
- erta nikoh, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh, erta tug'uruq, oilaviy ajralishlarning yuzaga kelish sabablari hamda shart-sharoitlarini tahlil qilish, bu borada ilmiy, amaliy hamda fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash;
- asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar, ijobiy urf-odatlar va an'analar asosida oilalarni mustahkamlash, oilaviy ajralishlarning oldini olishda davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini mustahkamlash;
- oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklarning o'zni haqida jamiyatda shakllangan salbiy qarashlarni o'zgartirish, bu borada ommaviy axborot vositalari ishtirokida targ'ibot-tashviqot ishlarini qo'llab-quvvatlash;
- ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama, intellektual, axloqiy,

estetik va jismoniy rivojlantirishda xotin-qizlar bilan bir qatorda erkaklarning mas'uliyati hamda rolini oshirish;

– oilaviy hayotga oid muammolar, psixologik-pedagogik, huquqiy va boshqa masalalar yuzasidan xotin-qizlar va erkaklar uchun maslahatlar berish tizimini yanada takomillashtirish;

– oilalarni yoshlarning axloqini buzishga olib keladigan, oilaviy qadriyatlarni inkor etadigan, axloqsizlikni targ'ib qiladigan, shuningdek, otanasiga va oilaning boshqa a'zolariga nisbatan hurmatsizlik munosabatini shakllantiradigan, jinslardan birining ustunligi g'oyasiga asoslangan noto'g'ri tasavvurlardan himoya qilish;

– xotin-qizlar va erkaklarning oilaviy munosabatlardagi huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari to'g'risida axborot-ma'rifiy faoliyat samaradorligini oshirish kabi vazifalar shular jumlasidandir<sup>1</sup>.

Ta'kidlash joizki, qabul qilingan normativ-me'yoriy hujjatlar va amaliy chora-tadbirlar O'zbekistonning gender siyosati sohasidagi muhim qadamidir va u qonunchilik hamda amaliyotning xalqaro me'yor va standartlariga to'liq mos keladi, shu bilan birga, ularning bir qismi BMTning inson huquqlari bo'yicha idoralari tavsiyalariga asoslangan. Ayniqsa, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu Qonun ko'p yillik muhokamalardan so'ng qabul qilindi. Qonun oiladagi zo'rvonlik qurbonlariga yordam berish, ularga boshpanalar ajratish, ishonch telefonlari va nafaqat jismoniy zo'rvonlik, balki psixologik yoki iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha majburiy javobgarlikka tortish orqali ayollarni himoya qilish uchun asosdir.

### **Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.**

Gender – shaxsning ijtimoiy-psixologik jinsi, uning psixologik xususiyatlari va ijtimoiy xulq-atvor xususiyatlarining umumiyligi, muloqot va o'zaro ta'sirda namoyon bo'ladi. Ushbu ta'rifdan kelib chiqadiki, biologik jihatdan berilgan jinsdan farqli o'laroq "jins" psixologik va ijtimoiy toifadir, bu ikkala komponent ham inson tarbiyasi natijasida turli darajada rivojlanadi. Gender bevosita yoki

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikai Oliy Majlisi Senatining "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi Qarori. 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV.

bilvosita jamiyatdagi barcha munosabatlarga, adolat tamoyillariga va ijtimoiy jarayonlarga ta'sir qiladi.

Gender – anatomik jinsiga ko'ra erkaklar va ayollar o'rtasidagi farq, ko'pincha anatomik ma'noga asoslangan, ammo har doim ham unga mos kelavermaydigan ijtimoiy bo'linish. Jins biologik xususiyatlarga oid bo'lib, unga ko'ra, odamlar “erkaklar” va “ayollar” toifasiga bo'linadi<sup>2</sup>. Jamiyatshunoslar gender tushunchasiga quyidagicha yondashdilar: “Gender” ijtimoiy, biologik holat bo'lib, erkak va ayolning jinsiy munosabatlari majmuasi hisoblanadi<sup>3</sup>.

Adabiyotlarda gender tushunchasining bir necha xil talqini mavjud. Jumladan, faylasuflar uni quyidagicha tavsiflaydilar: “Gender” inglizcha so'z bo'lib, jinsga mansublikning ijtimoiy jihatlari ma'nosini anglatadi.

Bu tushuncha erkaklar va ayollar o'rtasida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatning jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy tavsiflarning butun majmuyini hisobga oladi. Erkaklar va ayollarga tegishli ijtimoiy bog'liqlik, xulq-atvor va kutilgan natijalarni ifodalaydi”.

Jamiyatshunoslar esa gender tushunchasiga quyidagicha yondashdilar: “Gender” ijtimoiy va biologik holat bo'lib, erkak va ayolning jinsiy munosabatlari majmuasi hisoblanadi”. Ruhshunoslar ham gender tushunchasiga o'ziga xos tarzda yondashganlar: “Psixikaning gender asoslari jins va u bilan bog'liq ijtimoiy stereotiplar, shaxsning psixologik ko'rinishidir”.

Gender tengligi deganda, ayollar va erkaklar teng ravishda inson ekanliklarini tushunishga aytiladi va albatta, ta'lim tizimini tashkil etishda, garchi ularning har biri har xil ehtiyojlarga ega bo'lsa-da, tenglik tamoyiliga amal qilishni anglatadi.

Shuningdek, gender tengligi – bu shaxslar o'zlarining barcha iste'dodlarini to'liq va erkin rivojlantirishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muhitni yaratish hamda bu muhit uchun barcha ijtimoiy va siyosiy to'siqlarni bartaraf etish deb ta'riflanadi.

<sup>2</sup> Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси: Олий ўқув юртлари учун тавсия қилинади//Илмий муҳаррир: проф. У.Абилов; Рус тилидан қисқартирилган таржима: доц. З.Бобоева, З.Усмонова. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – 276 б.

<sup>3</sup> Гидденс Энтони. Социология: Олий ўқув юртлари учун ўқув кўлланма / Тарж. Н.Маматов ва Ж.Бегматов. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 190.

Demak, bu turli jinsdagi shaxslarning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida teng ishtirok etishini anglatadi.

Tenglik, avvalambor, asosiy shartlardan biridir. Bu inson huquqidir. Ushbu huquqni ta'minlamaslik inson huquqlarining buzilishiga asos bo'ladi. Chunki asosiy huquq va erkinliklar sohasida eng muhim narsa erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglikni ta'minlash vazifalaridan biridir. Ayollarning erkaklar bilan tengligini ta'minlash oilada, ta'lim jarayonida, ish faoliyatida, umuman, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ijtimoiy gender asosidagi har qanday kamsitilishning oldini olish, ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar tan olinishi kerak bo'lgan huquqlarga ega bo'lishdir.

Agar odamlar gender me'yorlari, munosabatlari yoki rollarining belgilangan namunalari mos kelmasa, ular ko'pincha kamsitish amaliyoti yoki ijtimoiy chetlanishni boshdan kechiradilar, bularning barchasi insonning sog'lig'iga salbiy ta'sir qiladi. Gender me'yorlari resurslarning mavjudligiga va sog'liqni saqlashning maqbul natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan resurslarni boshqarish qobiliyatiga ta'sir qiladi, jumladan:

- iqtisodiy resurslar (daromad, kredit);
- ijtimoiy resurslar (ijtimoiy tarmoqlar);
- siyosiy resurslar (rahbarlik, siyosiy hayotda ishtirok etish);
- axborot va ta'lim resurslari (sog'liqni saqlash, ta'lim va ilmiy resurslar);
- vaqt (sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish);
- ichki resurslar (o'ziga ishonch / o'zini o'zi qadrlash).

Gender tengligiga erishish strategiyasi jamiyatda gender tengligini targ'ib qilish va gender asosidagi kamsitishlarni kamaytirish uchun foydalaniladigan mexanizmlar majmuasini o'z ichiga oladi.

Ushbu strategiyalarni amalga oshirish gender tengligi haqida xabardorlikni oshirish, gender asosidagi kamsitishning oldini olish va ayollarga jamiyatda ko'proq yetakchi rollarni egallash imkonini beradi. Shunday bo'lsa-da, insoniyat ayol va erkak tengligini ularning huquqi va imkoniyatidan kelib chiqqan holda to'liq ta'minlashi uchun hali ancha ish qilishga to'g'ri keladi. Birinchidan, gender zo'ravonlikning har qanday ko'rinishiga barham berish kerak, ayollar, qizlar va erkaklar hamda

bolalar uchun ta'lim olish, sog'liqni saqlash, iqtisodiy resurslardan foydalanishda birdek sharoit yaratilishi lozim. Bundan tashqari, ularning siyosiy hayotdagi ishtirokida ham teng imkoniyat yaratilishi zarur. Bu xotin-qizlarning ish topishi, rahbarlik lavozimiga tayinlanishi masalasiga ham tegishli.

Gender tengligi strategiyalari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Ta'lim va xabardorlik: jamiyatda gender tengligi haqida xabardorlikni oshirish uchun o'quv dasturlarini tashkil etish va tushuntirish ishlarini o'tkazish.

2. Huquqiy tartibga solish: gender asosidagi kamsitishning oldini olish va ushbu qoidalarning bajarilishini ta'minlashni huquqiy tartibga solish.

3. Ijtimoiy me'yorlarni o'zgartirish: gender rollari va stereotiplarga asoslangan ijtimoiy normalarni o'zgartirish va gender tengligini targ'ib qilish.

4. Ayollarning yetakchilik rollarini qo'llab-quvvatlash: ayollarning rahbarlik lavozimlariga kirishini osonlashtirish hamda qo'llab-quvvatlash bo'yicha siyosat va dasturlarni ishlab chiqish.

5. Gender tengligi uchun resurslarni ta'minlash: gender tengligi strategiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun resurslarni taqsimlash va bu resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash.

Ushbu mexanizmlarning amalga oshirilishi gender tengligiga erishish va jamiyatda gender kamsitishlarini kamaytirish jarayonida muhim rol o'ynashi mumkin. Biroq gender tengligiga erishish uchun uzoq muddatli va barqaror yechimlar talab etiladi.

Har bir shaxs tug'ilganidanoq o'zi yashayotgan jamiyat madaniyati, ijtimoiy tuzilishi va me'yorlari ta'sirida rivojlanadi. Shaxslarga yuklangan qoidalar gender iyerarxiyasi va jamiyatning har bir qatlamida imkoniyatlar tengsizligidan kelib chiqadigan muammolarga olib keladi. Ammo jamiyatdagi har bir shaxs teng imkoniyatlardan foydalanish va o'z shaxsiyatini erkin shakllantirish huquqiga ega.

Dunyodagi ko'plab jamiyatlarning dinamikasi erkak g'oyalari bilan shakllangan. Erkaklik mentaliteti erkaklarni oila va jamiyatning poydevori yoki rahbari sifatida belgilaydi. Gender tengligi ayollar va erkaklarning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida teng ishtirok etish, teng huquq va

imkoniyatlarga ega bo'lishini belgilaydi. Ushbu tenglikni ta'minlash jamiyatda genderga asoslangan noto'g'ri qarashlar va kamsitishlarni yo'q qilishga imkon beradi.

Gender rollarini shakllantirish va saqlashga yordam beradigan omillar oila, ijtimoiy muhit, maktab, ommaviy axborot vositalaridir. Oila bolalarning ijtimoiylashuvi va tashqi dunyo bilan tanishishidagi birinchi qadamdir. Ta'lim va ijtimoiy muhit ham oiladan olingan jamiyat haqidagi tasavvurni shakllantiradi va mustahkamlaydi. Ommaviy axborot vositalari ko'pincha gender rollarini aks ettiruvchi xabarlarini nashr etadilar.

Tadqiqotchilar fikricha, bolalar ikki yoshdan keyin jinslar orasidagi jismoniy farqlarni ajrata oladilar va uch yoshdan boshlab jinslarni muayyan xatti-harakatlar bilan bog'lashlari mumkin ekan. Bu davrda ularning ongida gender rollari shakllana boshlaydi. Shu sababli gender tengligi haqidagi ongni, avvalo, oilada, keyin maktablarda va ijtimoiy muhitda shakllantirish katta ahamiyatga ega.

Bolalarda gender tengligi to'g'risida xabardorlikni oshirishda ota-onalar birinchi o'rinni egallaydi. Ota-onalar o'z farzandlariga gender-neytral faoliyat turlarini taklif qilishlari, muayyan xatti-harakatlarni tushuntirish uchun gender stereotiplarini qo'llashdan qochishlari va ularga ba'zi talablarini yuklamasliklari juda muhimdir. Gender tengligi to'g'risida xabardorlikni ta'minlash uchun hech bir bola o'z jinsi tufayli ba'zi joylarda o'zini noqulay his qilmasligi kerak. Bir so'z bilan aytganda, ota-onalar farzand tarbiyasida xolis va adolatli bo'lishlari kerak. Qizlarni "qo'lidan hech narsa kelmaydi" degan tushunchadan, o'g'il bolalarni esa erkakcha bosimdan himoya qilish kerak.

Gender tengsizligining ayollarga ta'sirini turli misollar bilan izohlaymiz. Dunyodagi 900 millionga yaqin savodsiz odamlarning deyarli 600 millioni ayollardir. Shunga qaramay, dunyo bo'ylab qashshoqlik chegarasida bo'lgan 3,1 milliard odamning, taxminan, 70 foizi ayollardir. Jahon Iqtisodiy Forumi tomonidan e'lon qilingan 2021-yilgi Global gender farqi hisobotiga ko'ra, hisobotga kiritilgan 156 ta mamlakat parlamentida ayollar vakilligi atigi 26,1 foizni tashkil etadi. Gender tengsizligining oqibatlarini biznes olamida

ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. 156 mamlakatda rahbarlik lavozimlarida ishlayotgan ayollar 27 foizni tashkil qiladi.

Bugungi kunda ko‘plab muassasalar, uyushmalar, fondlar va jamoalar kattalar va bolalarning gender tengligi haqida xabardorligini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, qabul qilinayotgan u yoki bu darajadagi hujjatlarning ayollar va erkaklar uchun bir me‘yorda bo‘lishiga erishish maqsadida qonunchilikning gender ekspertizasini o‘tkazish majburiyatini ta‘minlash ham muhimdir.

**Yakuniy qism.** Xulosa sifatida aytish mumkinki, mamlakatimizda gender strategiyasining amalga oshirilishi islohotlari xotin-qizlar va erkaklar

o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalaridagi tengsizlikni bartaraf etish, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi imijini oshirish imkonini bermoqda. Gender strategiyasining asosiy maqsadi irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta‘minlashdan iborat ekanligi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta‘lim, ilm-fan hamda sport munosabatlarida xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ishtirok etishlarini qo‘llab-quvvatlash, qaror qabul qilishda ularning yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni yaratib berdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikai Oliy Majlisi Senatining 28.05.2021-yildagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi SQ-297-IV-sonli Qarori.
2. Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси: Олий ўқув юртлари учун тавсия қилинади//Илмий муҳаррир: проф. У.Абилов; Рус тилидан қисқартирилган таржима: доц. З.Бобоева, З.Усмонова. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – Б. 276.
3. Гидденс Энтони. Социология: Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма / Тарж. Н.Маматов ва Ж.Бегматов. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 190 б.
4. <http://www.edu.uz/>.
5. <http://www.ziyonet.uz/>.



**Inagamova Feruza Xurshitovna,**  
 “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

## QADRIYATLARNING O‘ZGARISHI VA YOSH OILALAR BARQARORLIGI O‘RTASIDAGI DIALEKTIK BOG‘LIQLIK

**Annotatsiya.** Qadriyatlar transformatsiyasi bu jamiyat, uning tarkibidagi turli ijtimoiy birliklar, guruhlardagi yoki alohida bir insondagi mavjud qadriyatlar tizimining tub va tizimli ravishda o‘zgarishi bilan bog‘liq fenomenal jarayon hisoblanadi. Qadriyatlar tizimidagi transformatsion o‘zgarishlar birdaniga sodir bo‘lmaydi, ma‘lum bir qadriyatlarning o‘zgarishi, yangicha mohiyat kasb etishi uchun bir necha yillardan bir necha o‘n yillargacha vaqt o‘tishi talab etiladi. Ushbu maqolada ham ana shu masalalar tahlilga tortiladi.

**Tayanch so‘zlar:** shaxs, oila, nikoh instituti, oila mustahkamligi, qadriyatlar, milliy-ma‘naviy qadriyatlar, qadriyatlar transformatsiyasi.

**Аннотация.** Трансформация ценностей — феноменальный процесс, связанный с радикальным и систематическим изменением существующей системы ценностей в обществе, различных социальных единицах, группах или отдельном человеке. Трансформационные изменения в системе ценностей не происходят внезапно, для того, чтобы отдельные ценности изменились и приобрели новую сущность, требуется от нескольких лет до нескольких десятилетий. Эти вопросы также анализируются в данной статье.

**Ключевые слова:** личность, семья, институт брака, прочность семьи, кадры, национально-духовные ценности, трансформация ценностей.

**Annotation.** The transformation of values is a phenomenal process related to the radical and systematic change of the existing value system in society, various social units, groups or an individual person. Transformational changes in the system of values do not happen suddenly, it takes several years to several decades for certain values to change and acquire a new essence. These issues are also analyzed in this article.

**Keywords:** person, family, institution of marriage, strength of the family, personnel, national and spiritual values, transformation of values.

**Kirish.** Qadriyatlar va ularning turli ijtimoiy omillari ta‘sirida transformatsion jarayonlarga uchrashi jamiyatning har bir a‘zosi hayotida, o‘z navbatida, mazkur jamiyat tarkibidagi turli ijtimoiy birliklar, guruhlar, xususan, oila institutiga ta‘sir ko‘rsatmay qolmaydi. Yosh oilalarning mustahkamligiga qadriyatlar transformatsiyasining qanday ta‘sir ko‘rsatishini tahlil qilishdan oldin, avvalo, qadriyatlarning o‘zi nima ekanligiga qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

Qadriyatlar falsafasi, ularning jamiyat ma‘naviy-axloqiy taraqqiyoti bilan o‘zaro dialektik munosabati azal-azaldan ijtimoiy falsafaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanib kelgan. Bugungi kunda mazkur atamaga oid ko‘plab ta‘riflarni uchratish mumkin. Umuman olganda, har bir faylasuf qadriyatlar masalasiga turlicha yondashadi. Ba‘zi olimlarning fikricha, qadriyat “inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga

xizmat qiladigan hamda ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuyi<sup>1</sup>” bo'lsa, boshqalar qadriyatni voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha<sup>2</sup> sifatida talqin qilinadi. Yoki “qadriyatlardan inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash<sup>3</sup>” maqsadida foydalaniladi, degan yondashuv ham mavjud.

**Maqsad va uni asoslash.** Qadriyatlar kategoriyasi ko'lamining keng ekanligi, har bir ijtimoiy fan sohasi ushbu tushunchaga o'z tadqiqot predmeti nuqtayi nazaridan ta'rif berishi qadriyatlarining tasniflanishida qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Qadriyatlarni tasniflashda ularni, asosan, moddiy va ma'naviy yoki umuminsoniy va milliy qadriyatlar kabi ikki katta guruhga ajratgan holatda tasniflash keng tarqalgan.

Qadriyatlar jamiyatning ma'naviy hayotida katta rol o'ynaydi. Chunki jamiyatda mavjud qadriyatlar tizimi insonlarning dunyoqarashi va xulq-atvori shakllanishida ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Rus faylasufi Y.Larinning fikricha, qadriyatlar insonlarning axloq haqida qarashlari, xususan, jamiyatda nima yaxshi va nima yomon, nima to'g'ri va nima noto'g'ri ekanligi haqidagi tasavvurlar, qarashlar, stereotiplarini belgilaydi hamda shu orqali xatti-harakatlarga ta'sir qila oladi<sup>4</sup>. O'z navbatida, qadriyatlarining ijtimoiy-ma'naviy muhitga ta'siri qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida yangicha mazmun kasb etadi. Shu o'rinda, qadriyatlar transformatsiyasi deganda, aynan nimani tushunish lozimligi haqida fikr yuritsak.

Ba'zida transformatsiya jarayoni ma'lum bir jism, hodisa yoki jarayonning o'z shakl yoki mazmunini har qanday darajada o'zgartirishi sifatida qarash shakllangan. Aslida, har qanday o'zgarish jarayoni transformatsiya hisoblanmaydi. Transformatsiya jarayoni murakkab, strukturaviy

mazmundagi, tub va tizimli o'zgarishlarni talab qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy jarayonlarning transformatsiyasi o'ziga xos fenomenal hodisa bo'lib, bunday transformatsiya aniq bir faoliyat turida, kishilarning dunyoqarashi va xatti-harakatlarida, ular amal qiladigan yoki e'zozlaydigan qadriyatlarining o'zgarishida namoyon bo'ladi<sup>5</sup>. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy hayotdagi transformatsion jarayonlar bevosita qadriyatlar tizimi va ularga nisbatan munosabatning o'zgarishiga bog'liq.

#### **Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.**

Qadriyatlar transformatsiyasi bu jamiyat, uning tarkibidagi turli ijtimoiy birliklar, guruhlardagi yoki alohida bir insondagi mavjud qadriyatlar tizimining tub va tizimli ravishda o'zgarishi bilan bog'liq fenomenal jarayon hisoblanadi. Qadriyatlar tizimidagi transformatsion o'zgarishlar birdaniga sodir bo'lmaydi, ma'lum bir qadriyatlarining o'zgarishi, yangicha mohiyat kasb etishi uchun bir necha yillardan bir necha o'n yillargacha vaqt o'tishi talab etiladi.

Qadriyatlar transformatsiyasi hodisasining sodir bo'lishiga turli omillar sabab bo'lishi mumkin. Masalan, ijtimoiy taraqqiyot, globallashuv, texnologik rivojlanish, jamiyatdagi turli inqirozlar, migratsiya va boshqa omillar qadriyatlarining transformatsiyasiga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy taraqqiyot va qadriyatlarining transformatsiyasi fenomenlari o'zaro chambarchas bog'liq. Ba'zi holatlarda ushbu dialektik bog'liqlikda ikki fenomenal jarayonlarning bir-birini taqozo etishini ham kuzatish mumkin. Jamiyatda qadriyatlarining transformatsion o'zgarishga uchrashi ijtimoiy xulq-atvor va munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi, bu, o'z navbatida, ijtimoiy taraqqiyotning ham ma'lum darajada o'zgarishiga olib keladi. Masalan, jamiyatda qaror topgan ekologik qadriyatlar tizimi o'zgarib, toza muhit va sog'lom turmush tarzi ijtimoiy ideal darajasiga ko'tarilsa, mazkur jarayon hayot sifatining yaxshilanishiga, ijtimoiy qarama-qarshiliklarning kamayishiga, pirovardida esa ijtimoiy rivojlanishga olib kelishi mumkin<sup>6</sup>. Boshqa tomondan esa ijtimoiy

<sup>1</sup> Farmonova M. Qadriyatlar–ma'naviy kamolot asosi/ Ilmiy-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: “Tasvir nashriyot uyi”, 2019. – B. 4.

<sup>2</sup> Tarbiya ensiklopediyasi. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2010. – B. 509.

<sup>3</sup> Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Toshkent: “G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. 2010. – B. 707.

<sup>4</sup> Ларин Ю. Ценности и мировоззрение. – Москва: Логос. 2016. – С. 153.

<sup>5</sup> Норкулов С. Ўзбекистонда фуқаролик жамияти ривожланиши ва ижтимоий онгдаги трансформацион ўзгаришларнинг фалсафий талқини. Дисс. ... фал. фан. док (ДСс). – Тошкент: ЎзМУ, 2018. – Б. 87.

<sup>6</sup> Kistaubaev S. Harmony Of Ecological Outlook and Values // Zien Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 13. – С. 25-28.

taraqqiyot talablari qadriyatlarining yangilanishi, transformatsiyasiga olib kelishi ham mumkin. Jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida ham oila va nikoh masalasi dolzarb masalalar qatorida o'rganildi. Jumladan, fransuz ma'rifatparvari Jan-Jak Russo o'z qarashlarida "Oila eng qadimiy va asli tabiiy bo'lgan jamiyat bo'lagidir", deb fikr bildiradi, shuningdek, faylasuf fikrini davom ettirib, "Oila – kerak bo'lsa, jamiyat siyosiy qiyofasini belgilovchi obraz, bunda yetakchi, rahbar – go'yoki ota misoli, xalq esa – farzandlar kabidir" degan g'oyani ilgari suradi. Bu, aslida, insoniyat tarixida uzoq davrlargacha ustuvor bo'lib kelgan paternalizm tamoyilining jamiyat hayotidagi yaqqol ifodasidir ("patern" – ota, otalik, yetakchilik ma'nosini bildiradi). Bundan ko'rinadiki, kishilik jamiyatida, xususan, oilada otaning yetakchilik roli ancha oldingi davrlardan davom etib kelmoqda.

O'rta asrlarda ham Sharq mutafakkirlari, xususan, Markaziy Osiyo allomalari ham davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib, oila va nikoh munosabatlariga o'z fikrlarini bildirgan. Abu Homid Al-G'azzoliy oilani nikoh asosida tashkil topgan, jamiyat taraqqiyotida muhim ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi ijtimoiy institut sifatida o'rgangan. Al-G'azzoliy oilaning nikoh, qarindoshlik, ma'naviy iqtisodiy va huquqiy munosabatlar asosida insonlarni birlashtiruvchi jamiyatning kichik bir bo'lagi sifatida o'rganar ekan, oilaviy munosabatlar islom dini qoidalari asosida bo'lishiga targ'ib qiladi. Oila va nikoh munosabatlari haqidagi qarashlari mutafakkirning "Uylanish odobi", "Mukoshafatul qulub", "Kimyoyi saodat" kabi asarlarida uchratish mumkin. Masalan, jamiyatda gender tengligi qaror topsa, ayol va erkakning ijtimoiy taraqqiyotdagi roli o'zaro yaqinlashsa, bunday jamiyatda, aytaylik, oila institutida, gender yondashuv asosidagi yangi qadriyatlar tizimi shakllanishi, an'anaviy, konservativ patriarxal qadriyatlar esa yo'qolib ketishi mumkin.

Globallashuv va qadriyatlar transformatsiyasi. Bugungi kunda globallashuv jarayonlarining ta'siri jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, siyosiy, ilmiy, texnologik sohalari qatorida ijtimoiy qadriyatlar tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Aynan globallashuv fenomeni natijasida qadriyatlar transformatsiyasi jarayoni jadallashib, yangicha mohiyat kasb etib bormoqda. Bu esa o'z navbatida globallashuv jarayonlarining asosiy ishtirokchilari

bo'lgan iqtisodiy jihatdan rivojlangan G'arb mamlakatlari madaniyati, ularning ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini dunyoning boshqa qismiga keng yoyish hisobiga ham amalga oshmoqda. Iqtisodiy, madaniy, sivilizatsiyaviy jihatdan G'arbdan farq qiluvchi mintaqalarda, masalan, Afrikada yashaydigan xalqlar, millatlar va elatlar esa globallashuv taqdim etayotgan qadriyatlar transformatsiyasini qabul qila olmayapti<sup>7</sup>. Ba'zi jamiyatlarda esa asrlarda davomida shakllangan konservativ qarashlar, qadriyatlar o'rnini liberal qadriyatlar va ideallar egallab bormoqda. Masalan, konservativ deb hisoblanuvchi arab olamida ijtimoiy qadriyatlar transformatsiyasi, liberallasuvi kuzatilmoqda<sup>8</sup>. Bu ham ma'lum darajada globallashuv va modernizatsiya jarayonlarining ta'siri hisoblanadi.

Texnologik rivojlanish jarayoni ham qadriyatlar transformatsiyasiga bevosita katta ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, to'rtinchi sanoat inqilobi davri sifatida e'tirof etilayotgan bugungi davrda zamonaviy axborot texnologiyalari insonlarning hayoti, ijtimoiy ehtiyojlari, turmush tarziga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi texnologiyalar paydo bo'lishi hamda takomillashib borishi insonlarning hayotga bo'lgan munosabatini, ideallari va qadriyatlar tizimini qaytadan baholab chiqishiga olib kelishi mumkin. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt kabi texnologik yangiliklar insonlarning qadriyatlar tizimining keskin transformatsiyasiga olib kelishi mumkin. Masalan, bugungi kunda Janubiy Koreyada Deepbrain AI sun'iy intellekt kompaniyasi "Rememory" nomli loyiha asosida vafot etgan insonlarning rasmlari, videolari orqali ularning virtual qiyofasini yaratib, ular bilan raqamli simulyatsiya asosida videoqo'ng'iroqda gaplashayotgandek suhbatlashish imkoniyatini taqdim etmoqda<sup>9</sup>. Bu esa, o'z navbatida, mazkur insonlarning o'lim haqidagi qarashlari, vafot etgan insonga nisbatan axloqiy munosabatining ma'lum darajada transformatsiyasiga olib keladi<sup>10</sup>.

<sup>7</sup> Afisi O.T. Globalization and value system // Lumina. – 2009. – T. 22. – №. 2. – C. 1-12.

<sup>8</sup> Abduljaber M. Effects of modernization and globalization on values change in the Arab World // Changing Societies & Personalities. 2018. Vol. 2. Iss. 2. – 2018. – T. 2. – №. 2. – C. 161-182.

<sup>9</sup> <https://rememory.deepbrain.io/en>

<sup>10</sup> Sullins J. Information technology and moral values. – 2012. - <https://plato.stanford.edu/ENTRIES/it-moral-values/>

Texnologik o'zgarishlar insonlarning ularga va borliqqa nisbatan shakllangan qadriyatlar tizimining tezkorlikda o'zgarishiga, qaytadan shakllanishiga olib keladi. Islom ta'limotida oila, nikoh hamda er-xotin munosabatlariga juda katta e'tibor beriladi. Bu masala farz va sunnat darajasiga ko'tarilib, Qur'oni Karim va hadisi shariflarda alohida sura va oyatlar hamda payg'ambar nasihatlarida alohida o'rin berilgan. Shundan kelib chiqib, Imom G'azzoliy: "xotinlarning erlarida haqlari ko'p", deb ta'kidlaydi. Eng avvalo, ularning jins sifatida jismoniy o'zligi, ma'naviy joziba, husn-u malohati ham ularga alohida nazar va marhamat bilan qarash, bergan azoblariga chidash hamda ayrim gunohlarini kechirishni taqozo qiladi.

Xuddi shu fikr Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimning "Niso" surasi 19-oyatida: "Ey mo'minlar, xotinlarga zo'rlik bilan voris bo'lishingiz halol emas. Agar ochiq buzuqlik qilgan bo'lmasalar, bergan mahrlaringizning bir qismini qo'lga kiritish uchun ularni ezmang. Ularga yaxshi muomala qilinglar. Agar ularni yomon ko'rsangiz ham, sabr qiling, sizlar yomon ko'rgan narsada Alloh ko'p yaxshiliklarni qilib qo'ygan bo'lishi mumkin", deyiladi.

Shuningdek, Abu Ali ibn Sino (980–1037) buyuk olim sifatida barcha hodisalarning ilmiy mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Axloqiy tarbiya masalalarida alloma oilaning o'rnini alohida ta'kidlangan. Oila va oilaviy munosabatlar masalasi uning "Tadbiri manzil" asarida o'ziga xos tarzda bayon etilgan.

Antik davr faylasuflari, o'rta asr allomalari ijodida, shuningdek, yangi davrda ham ko'plab tadqiqotchilar va olimlar oila institutiga alohida ahamiyat berib, o'z asarlari hamda ijtimoiy-etnologik qarashlarida ijtimoiy munosabatlarning tabiati, uning namoyon bo'lishi xususiyatini aynan oilaviy munosabatlarning negizidan qidirish lozimligi fikrini yoqlab keldilar.

Taraqqiyotning yangi bosqichida ham oila va nikoh masalalari haqidagi fikrlarni nemis faylasuflari I.Kant va Gegelning mutloq g'oyaga aloqador asarlarida ham ko'rish mumkin. Ular, avvalo, "oila" va "nikoh" tushunchalari o'rtasida bevosita aloqa mavjudligini ta'kidlaydilar. Shu boisdan hozirgi davrda shu ikki tushuncha ko'pincha ma'nodosh so'zlar sifatida yonma-yon qo'llab kelinmoqda.

Shunday bo'lsa-da, tadqiqot markazini tashkil etgan oila masalasi bilan shug'ullanayotgan olimlar bu ikki tushunchaning o'rtasida nafaqat farq borligini, balki ular, aslida, tarixan turli davrlarda paydo bo'lganini ham ko'rsata oldilar. Masalan, rus olimi A.G.Xarchev (1921–1987) o'z kitoblarida bu ikki tushunchani farqlovchi jihatlar aniq belgilab bergan. Xususan, uning talqinida "nikoh erkak va ayol o'rtasidagi tarixan o'zgaruvchan o'zaro munosabatlarni bildirib, shu ijtimoiy munosabat orqali jamiyat ikki jins vakillarining jinsiy hayotlarini tartibga soladi, o'zaro er-xotinlik munosabatlarini hamda farzandlari bilan shakllanadigan munosabatlarni, bu munosabatlarda vujudga keladigan huquq va majburiyatlarni belgilaydi". Oila esa nikohga nisbatan murakkab tabiatli munosabatlarni ifodalaydi. Chunki u nafaqat er va xotinlarning o'zaro munosabatlarini, balki ularning farzandlari, qarindosh-urug'lar, er va xotin uchun yaqin bo'lgan insonlar munosabatlarini, shuningdek, ajdodlar va avlodlar o'rtasida oilaviy an'analar, urf-odatlar va boshqa qadriyatlarini transformatsiya (ajdodlardan avlodlarga o'tkazish) qilish vazifasini ham o'z ichiga oladi. Oila va nikoh masalalariga tarixiy yondashuvni shveysariyalik olim I.Baxoven (1815–1887) ishlarida, ayniqsa, uning "Onalik huquqi" kitobida ham kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari, amerikalik tadqiqotchi L.Morganning (1818–1881) asarlarida ham oilaga nisbatan evolyutsion qarashlar bayon etilgan bo'lib, "Qadimgi jamiyat" kitobi buning yaqqol namunasi hisoblanadi. Bu asarlarda oila institutining bevosita jamiyat tarqqiyoti bilan bog'liqligi, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning takomili oilaning mustahkamligiga bog'liq ekanligi g'oyasi o'z isbotini topgan. Bu o'zgarishlar tarix mobaynida turli jins vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga bog'liq tarzda kechishi ham ta'kidlangan.

Inqirozlar va qadriyatlar o'zgarishi. Jamiyatdagi inqirozlar insonlarning turmush tarzi, qadriyatlar tizimiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi. Jamiyatni bioijtimoiy tizim sifatida talqin etsak, inqirozlar mazkur tizimning qaysidir elementi "buzilib" qolgani tufayli sodir bo'lishi mumkin. Odatda, tabiiy ofatlar tufayli sodir bo'ladigan inqirozlardan tashqari boshqa ijtimoiy inqiroz holatlari jamiyatda mavjud qadriyatlarining yemirilishi sababli sodir bo'ladi yoki qadriyatlar tizimining yemirilishiga olib keladi. Masalan, urushlardan keyin ijtimoiy



qadriyatlar tizimida tinchlik asosiy axloqiy idealga aylanadi, ijtimoiy kayfiyatda, davlatlarning ichki va tashqi siyosatida patsifizm ustuvorlik qiladi. Yoki jamiyatda mavjud iqtisodiy farovonlik, to'kin yashash kabi qadriyatlarga nisbatan noto'g'ri qarashlar iqtisodiy inqirozlar, moliyaviy krizislarga olib kelishi mumkin. Bu esa insonlarning pul va moddiy ne'matlarga nisbatan qadriyatli munosabatlarida o'zgarish bo'lishiga olib keladi.

Migratsiya va qadriyatlar transformatsiyasi. Postindustrial ijtimoiy borliqning o'ziga xos fenomeni bo'lgan migratsiya individual darajada ham, ijtimoiy darajada ham qadriyatlarining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Ya'ni migratsiya jarayonlari ijtimoiy qadriyatlar transformatsiyasida o'ziga xos katalizator vazifasini bajaradi. Xorijda turli ijtimoiy muhit, yangicha qadriyatlar tizimi bilan tanishgan va o'zlarida individual darajada yangi, sinkretik (aralashma) qadriyatlar tizimi shakllangan migrantlar vatanlariga qaytganlarida yoki vatandoshlari bilan turli vositalar orqali muloqot qilganlarida emigrant jamiyatning ma'naviy muhitiga yangi qadriyatlar tizimini olib keladilar<sup>11</sup> hamda qadriyatlarining transformatsiyasi jarayonini tezlashtiradilar. Umuman olib qaraganda,

<sup>11</sup> Alimov S. Aholi migratsiyasi ijtimoiy-axloqiy muhit transformatsiyasi omili sifatida. Fals. fan. bo'y. falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: O'zMU, 2022. – B. 117.

qadriyatlarining transformatsiyasi ijtimoiy-ma'naviy borliqqa daxldor bo'lgani sababli yuqorida tilga olinganidan ham ko'proq omillar tufayli sodir bo'lishi mumkin.

**Yakuniy qism.** Qadriyatlar ular qaror topgan jamiyatning har bir a'zosi, har bir ijtimoiy guruh yoki toifaning hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mavjud qadriyatlarining transformatsiyasi, yangi qadriyatlar shakllanishi jarayoni ko'proq jamiyatdagi yoshlar tomonidan amalga oshiriladi. Chunki aynan yoshlar o'zgaruvchanlikka moyil, shaxs sifatida hali to'liq shakllanib ulgurmagani, shu sababli ular jamiyatning qolgan qismidan ajralib turgan notanish madaniyat va axloq elementlariga ta'sirchanlik, taqlid qilish istagi kuchli bo'ladi. Aynan ular qadriyatlar transformatsiyasida faol ishtirok etishadi, qabul qiluvchi, tashuvchi rollarini bajarishadi. O'z navbatida, bunday yoshlarning taqdiri, ularning shaxslararo munosabatlarda barqaror ekanligi, yosh oilalarning mustahkamligi kabi jihatlarda moddiy, iqtisodiy, axloqiy, ma'naviy qadriyatlar tizimining qanday holatda ekanligi bilan ham bog'liq. Yosh oilalarning mustahkamligida qadriyatlar hamda ularning transformatsiyasi qanday ta'sir ko'rsatishiga to'xtalishdan oldin yosh oila tushunchasiga e'tibor qaratish lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Farmonova M. Qadriyatlar – ma'naviy kamolot asosi / Ilmiy-uslubiy qo'llanma. Toshkent: "Tasvir nashriyot uyi", 2019. – B. 4.
2. Tarbiya ensiklopediyasi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2010.
3. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent: "G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". 2010. – B. 707
4. Ларин Ю. Ценности и мировоззрение. – Москва: Логос. 2016. – С. 153
5. Norqulov S. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishi va ijtimoiy ongning transformatsion o'zgarishlarining falsafiy talqini. Fals. fan. doktori. (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zMU, 2018.
6. Kistaubaev S. Harmony Of Ecological Outlook and Values // Zien Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 13. – C. 25-28
7. Afisi O.T. Globalization and value system // Lumina. – 2009. – T. 22. – №. 2.
8. Abduljaber M. Effects of modernization and globalization on values change in the Arab World // Changing Societies & Personalities. 2018. Vol. 2. Iss. 2. – 2018. – T. 2. – №. 2.
9. <https://rememory.deepbrain.io/en>
10. Sullins J. Information technology and moral values. – 2012. // <https://plato.stanford.edu/ENTRIES/it-moral-values/>
11. Alimov S. Aholi migratsiyasi ijtimoiy-axloqiy muhit transformatsiyasi omili sifatida. Fals. fan. bo'y. falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: O'zMU, 2022.



**Abduraxmanova Zuxra Erkinovna,**  
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
Ijtimoiy psixologiya kafedrası professori, psixologiya fanlari nomzodi  
e-mail: zuxraabduraxmonova@gmail.com

## **BAYNALMILAL OILALARDA VOYAGA YETAYOTGAN O'SMIRLARDA ETNIK IDENTIKLIK SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK JIHLTLARI**

**Annotatsiya.** Hozirda millatlararo nikoh asosida vujudga kelayotgan oilalardagi farzandlarning umumiy turmush sharoitiga ham e'tibor qaratilmoqda. Bunday oilalarda voyaga yetayotgan farzandlarning oiladagi nizolarning yuqori darajasi, madaniy qadriyatlardagi farqlar va muammoli ota-onalik tufayli stress omillariga duchor bo'lishi ularning qarashlarini o'zgartirmoqda. Ko'pmillatli oilalarda etnik-ijtimoiy va etnodemografik jarayonlar boshqa miqyosda sodir bo'ladi hamda psixologik omilning sezilarli ta'siri bilan amalga oshiriladi, chunki etnik guruhlarining vakillari haqiqiy odamlar. Ko'pmillatli oilalarda etnik-madaniy o'ziga xoslik namoyon bo'lishining ko'plab ehtimoliy kombinatsiyalari mavjud bo'lib, ular qaysi etnik guruhlar nikohda birlashganligiga, mahalliy etnik o'zaro munosabatlarning tabiati hamda oilaning yashash joyidagi umumiy etnik vaziyatiga bog'liq. Maqolada ushbu masala yuzasidan olib borilgan empirik tadqiqotlarning natijalari tahlil qilinadi.

**Tayanch so'zlar:** integratsiya, baynalmilal oila, o'smirlar, etnik identiklik, etnodemografik jarayonlar, madaniy differentsiatsiya, etnonigilizm, etnoegoizm, etnik indefferentlik.

**Аннотация.** В настоящее время особое внимание уделяется общим жилищным условиям детей в семьях, рожденных от межнациональных браков. Дети, растущие в таких семьях, подвергаются воздействию стрессоров из-за высокого уровня семейных конфликтов, различий в культурных ценностях и проблемного воспитания, что меняет их мировоззрение. В полиэтнических семьях этносоциальные и этнодемографические процессы происходят в определенном масштабе и осуществляются при значительном влиянии психологического фактора, поскольку представители этнических групп являются реальными людьми. Также в подобных семьях существует множество сочетаний этнокультурной идентичности в зависимости от того, какие этносы соединяются в браке, характер локальных этнических взаимодействий и общей этнической ситуации места проживания семьи. В статье анализируются результаты эмпирических исследований по данному вопросу.

**Ключевые слова:** интеграция, интернациональная семья, подростки, этническая идентичность, этнодемографические процессы, культурная дифференциация, этнонигилизм, этноэгоизм, этническая индеfferентность.

**Annotation.** Currently, special attention is paid to the general living conditions of children in families born from interethnic marriages. Children growing up in such families are exposed to stressors due to high levels of family conflict, differences in cultural values and problematic parenting, which changes their worldview. In multiethnic families, ethnosocial and ethnodemographic processes occur on a certain scale and are carried out under the significant influence of the psychological factor, since representatives of ethnic groups are real people. Also, in such families there are many combinations of ethnocultural identity, depending on which ethnic groups are united in marriage, the nature of local ethnic interactions and the general ethnic situation of the family's place of residence. The article analyzes the results of empirical research on this issue.

**Keywords:** integration, interethnic marriages, adolescents, ethnic identity, ethno-demographic processes, cultural differentiation, ethnonihilism, ethnoegoism, ethnic indifference.

**K**irish. Hozirgi vaqtda aholining ko'pchiligi uchun milliy mansublikdan tashqari etnik o'zini o'zi identifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Etnik urf-odatlarining o'ziga xos xususiyatlarini, millatlararo nikohlardagi dinlararo o'zaro ta'sir ssenariylarini o'rganish aralash nikohdan bo'lgan shaxslarning etnik shakllanish mexanizmlarini tushunish uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyatning demokratlashuvi va integratsiyalashuvining rivojlanishi bilan etnik munosabatlar va o'zaro hamkorlik aloqalari tobora dolzarblashmoqda. Bir tomondan, ular millatlararo keskinlik ko'rinishidagi murosasizlikni keltirib chiqarishi mumkin, lekin ikkinchi tomondan, xalqlar va etnik guruhlarning dinamik mobilligi sharoitida ular ko'p millatli davlatlarning integratsiyasiga hissa qo'shishi mumkin, bu esa birinchi navbatda, milliy munosabatlar sohasida jamiyatda bag'rikenglik muhitini yaratishni davlatlar oldiga ustuvor vazifa sifatida qo'yadi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, inqilobgacha turli din va millat vakillari o'rtasidagi nikohlar ma'qullanmagan, bunday nikohlar diniy muassasalar tomonidan taqiqlangan deb taxmin qilingan. Nikoh bir xil dinga e'tiqod qiluvchi etnik guruhlar vakillari o'rtasida tuzilgan. Agar turli dindagi odamlar turmush qurishgan bo'lsa, unda turmush o'rtoqlardan birining boshqa dinga oldindan o'tishi sodir bo'lgan. Oila va nikoh yer yuzidagi barcha odamlar ishtirok etadigan ijtimoiy institutlardir. Har bir inson u yoki bu tarzda ularga kiritilgan yoki hech bo'lmaganda ular bilan o'z munosabatiga ega. Ular eng qadimiy insoniy ijtimoiy shakllanishlardan biri bo'lib, zamonaviy insonlar kundalik hayotining ajralmas qismi bo'lgan nikoh va oila insoniyat tarixi davomida mutafakkirlar, olimlar va tadqiqotchilarni qiziqtirgan. Bu qiziqish oilaning jamiyatdagi o'rni va rolini, oilaning davlat bilan aloqasini hamda ularning o'zaro ta'sirini tushunish istagi bilan bog'liq. Shuningdek, oilaning inson zotini ko'paytirish, shaxsning eng dolzarb ehtiyojlarini qondirishdek hayotiy va global funksiyasini bajarish zarurati bilan bog'liq<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Безрукова О.Н., Самойлова В.А. Этническая идентичность детей в межэтнических семьях в контексте культуры родительства // *Журнал социологии и социальной антропологии*, 22(3): – С. 113–140. <https://doi.org/10.31119/jssa.2019.22.3.5>

**Maqsad va uni asoslash.** Etnik identiklikni shakllantirish muammosi zamonaviy etnopsixologiyaning nazariyasi va amaliyotida eng dolzarb muammolardan biridir. Xalqlarning ko'p millatliligi, tarixan shakllangan millatlararo munosabatlarining noaniqligi, zamonaviy yoshlar ongida nafaqat moddiy, balki ma'naviy globallashuvga bo'lgan munosabatning faol rivojlanishi shaxsning etnik o'ziga xosligini shakllantirish jarayoniga alohida e'tibor berishga imkon beradi. Etnik identiklik ijtimoiy o'ziga xoslikning bir qismi va shakli bo'lgani uchun ham shaxsning ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir qiladi. Etnik identiklik mexanizmini har tomonlama o'rganish shaxsni ijtimoiylashtirishning yanada muvaffaqiyatli yo'nalishiga, uni uyg'unlashtirish va rivojlantirish yo'lidagi muammolar va qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Umuman olganda, etnik ongni etnos hayotining real hayotdagi etnodifferentsiyalovchi va etnointegratsion belgilarining ongli g'oyalari va baholarining nisbatan barqaror tizimi sifatida tavsiflash mumkin. Bu tizimning shakllanishi natijasida inson o'zini ma'lum bir etnik jamoaning vakili sifatida anglaydi. V.S. Merlin tomonidan taklif qilingan shaxsning o'z-o'zining ongini o'rganishga tizimli yondashuv tamoyiliga asoslanib, etnik o'zini o'zi anglashning quyidagi ko'rinishlari ajratiladi<sup>2</sup>:

1. Etnik jamoaning umumiy etnik madaniyatidan xabardorlik.
2. Etnik jamoaning psixologik xususiyatlarini bilish.
3. O'zining etnopsixologik xususiyatlarini bilish.
4. Etnik jamoa bilan o'zlikni anglash.
5. O'zini etnik jamoa subyekti sifatida anglash.
6. Etnik mansublikning ijtimoiy va axloqiy o'zini o'zi baholashi.

Etnik identiklik shaxsning ijtimoiy o'ziga xosligining tarkibiy qismi bo'lib, uning ma'lum bir etnik jamoaga mansubligini anglashini bildiruvchi psixologik kategoriyadir. Shu bilan birga, birinchidan, etnik o'ziga xoslik va etniklik tushunchalarini bir qator obyektiv belgilarga ko'ra etnik ta'rif bilan bog'liq bo'lgan sotsiologik

<sup>2</sup> Мерлин В.С. Структура личности: характер, способности, самосознание. – Пермь, 1990. – 312 с.

kategoriyadan ajratish kerak: ota-onaning etnik kelib chiqishi, tug‘ilgan joyi, tili, madaniyati va boshqalar. Haqiqiy hayotda etnik o‘ziga xoslik har doim ham rasmiy etnik kelib chiqishiga to‘g‘ri kelmaydi. Ikkinchidan, shuni esda tutish kerakki, etnik o‘ziga xoslik o‘z nomida namoyon bo‘ladigan e‘lon qilingan o‘ziga xoslik (o‘zini etnik jamoaga topshirish) bilan cheklanmaydi va unga mos kelmasligi mumkin.

Etnik identiklik bolaning aqliy rivojlanish bosqichlari bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha bosqichlardan o‘tadi. J.Piaje (1896–1980) birinchilardan bo‘lib bolaning milliy guruhga mansubligini anglashning rivojlanish konsepsiyasini taklif qilib, 1951-yilgi tadqiqotida u “Vatan” tushunchasining shakllanishini, “boshqa mamlakatlar” va “chet elliklar” obrazlarini bir jarayonning ikki tomoni sifatida tahlil qilgan. Shveysariyalik olim etnik o‘ziga xoslikning rivojlanishini “Vatan” tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan kognitiv modellarning yaratilishi deb hisoblaydi va etnik tuyg‘ular, uning fikricha, axloqiy hodisalar haqidagi bilimlarga o‘ziga xos javobdir. J.Piaje etnik o‘ziga xoslikni shakllantirishning uch bosqichini belgilaydi:

1) olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bola o‘z millati to‘g‘risida birinchi parchalangan va tizimsiz bilimga ega bo‘ladi. Bu yoshda u uchun mamlakat va etnik guruh emas, balki oila va yaqin ijtimoiy muhit eng muhim hisoblanadi;

2) sakkiz yoshdan to‘qqiz yoshgacha bo‘lgan bola allaqachon o‘z millatiga mansubligini aniq ko‘rsatsa, identifikatsiya qilish uchun asoslar – ota-onasining millati, yashash joyi, ona tilini ko‘rsatadi, milliy tuyg‘ularni uyg‘otish shu davrda boshlanadi;

3) erta o‘smirlik davrida (10–11 yosh) etnik o‘ziga xoslik to‘liq shakllanadi, chunki bola tarixning o‘ziga xosligini, an‘anaviy kundalik madaniyatning o‘ziga xosligini qayd etadi<sup>3</sup>.

Bugungi kunga qadar butun dunyoda ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ularda etnik o‘ziga xoslik rivojlanish bosqichlarining yosh chegaralari aniqlangan. Etnik guruh bilan diffuz identifikatsiya qilishning birinchi “ko‘rinishi” ko‘pchilik mualliflar tomonidan uch yoshdan to‘rt yoshgacha bo‘lgan bolalarda uchraydi, hatto uch yoshgacha bo‘lgan

bolalar tomonidan ajoyib tashqi farqlarni – terining rangi, sochlarini birlamchi idrok etishi haqida dalillar mavjud. Ammo amalda barcha psixologlar J.Piajening fikriga qo‘shiladilarki, bola o‘z-o‘zini aks ettirish inson uchun eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan erta o‘smirlik davrida “reallashtirilgan” etnik o‘ziga xoslikka erishadi. Etnik o‘ziga xoslik rivojlanishining ketma-ket bosqichlarida ham etnik ong shakllanadi, bu o‘zi va boshqa guruhlar haqidagi bilimlarni, shuningdek, etnik o‘z nomini o‘z ichiga oladi. Etnik xabardorlik tajriba, yangi ma‘lumotlarni o‘zlashtirish va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish bilan ortadi.

Guruhlardagi tafovutlarni etnik ongning o‘sishi muqarrar ravishda o‘zining etnik guruhlardan birining a‘zolari bilan o‘xshashligini hamda boshqa guruhlardan farqini idrok etish, doimiy ravishda o‘ziga to‘g‘ri etnik nom berish qobiliyati bilan bog‘liq. Xuddi shu tadqiqotda O.L.Romanova besh-olti yoshli bolalar va hatto undan kattaroq bolalar ham o‘z millatini, ota-onalarining millatini har doim ham to‘g‘ri nomlay olmadilar, ota-onalarining millati, yashash mamlakati, tili kabi faktlar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlikni o‘rnata olmadilar. Faqat etnik hodisalar haqidagi g‘oyalar tizimini shakllantirgan o‘smirlar etnik farqlovchi xususiyatlarning muhim majmuyi asosida o‘zlarini etnik jamoa bilan aniq belgiladilar<sup>4</sup>.

Etnik identiklik nafaqat etnosning moddiy madaniyati va uning ijtimoiy mavjudligining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Etnik o‘z-o‘zini anglashning muhim tarkibiy qismi bu guruhning o‘zining axloqiy va psixologik birligini anglashidir<sup>5</sup>. Etnik guruhning psixologik hamjamiyatini shakllantirish manbasi ma‘naviy madaniyatning boshqa elementlari bilan bir qatorda urf-odatlar va marosimlar bo‘lishi mumkin. Urf-odatlar ommaviy xulq-atvorning tarixan shakllangan, stereotipik shakllari kiradi, ular uzoq tarixiy vaqt davomida o‘zgarmagan holda takrorlangan standart harakatlardir. Urf-odatlarining namoyon bo‘lish shakli marosim bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda “harakatni amalga oshirish usuli to‘g‘ridan to‘g‘ri maqsadga muvofiq emas va faqat ma‘lum bir ijtimoiy munosabatlarning belgisi

<sup>4</sup> Почебут Л.Г. Психология социальных общностей (толпа, социум, этнос). – Санкт-Петербург: СПбГУ, 2002. – 176 с.

<sup>5</sup> Калмырзаева А.С. Нация и человек. – Алма-Ата. 1992. – 279 с.

<sup>3</sup> Налчаджян А.Н. Национальная идеология и этнопсихология. – Санкт-Петербург: Питер, 1999. – 357 с.

(ramzlari) sifatida (mavjud ijtimoiy tartib, har qanday qadriyatlar yoki hokimiyatni tan olish va hokazo) xizmat qiladi”<sup>6</sup>.

Odatda bunday turdagi harakatlar bevosita maqsadga muvofiq bo‘lgan, biron-bir obyektini amaliy o‘zgartirish va ishlatishga qaratilgan harakatlar bilan birlashtiriladi. Urf-odatlar va marosimlar, etnograflar va sotsiologlar ta’kidlaganidek, guruh integratsiyasini kuchaytirish qobiliyatiga ega. E.Dyurkgeym odat va marosimning bu funksiyasini tahlil qilishga katta e’tibor bergan. “Birdamlik”ni saqlashda u ijtimoiy hayotning barcha shakllari, jumladan, odatlarning asosiy ma’nosi, asoslanishi va tushuntirishini ko‘rgan. “Shubhasiz, – deb yozadi u, – mavhum tarzda bahslashar ekan, jamiyatning o‘zi uchun zararsiz bo‘lgan falon ovqatlardan foydalanishni taqiqlashiga hech qanday asos yo‘qligini mukammal isbotlash mumkin. Ammo bu ovqatdan nafratlanish umumiy ongning ajralmas qismiga aylangandan so‘ng u ijtimoiy rishtalarni zaiflashtirmasdan yo‘qolmaydi. Odatni buzganlik uchun jazo guruhning birligini saqlashga va o‘z-o‘zini anglashni kuchaytirishga yordam beradigan himoya vositasidir”<sup>7</sup>.

Etnik guruhning birligi uning etnik o‘z-o‘zining ongini shakllantirish va mustahkamlashga yordam beradigan turli marosim harakatlarida amalga oshirilishi mumkin. E.Dyurkgeym turli xil marosimlarni (taqlid qilish va ajdodlar xotirasida o‘tkaziladigan, motam va boshqalarni) o‘z ichiga olgan totemizmga sig‘inish amaliyotini tahlil qilar ekan, ular ko‘rinadigan maqsaddan qat’i nazar, har qanday marosimlarning birlashtiruvchi qobiliyatini yuz marosimini belgilaydigan his-tuyg‘ularning tabiati ko‘rsatdi<sup>8</sup>. Oila omili, asosan, etnik identiklikning shakllanishiga ta’sir qiladi. Muayyan ota-onaning obro‘si bolaning etnik guruhga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi, ya’ni oilada ota hokimiyat bo‘lsa, bola uning izidan boradi, agar ona, demak, uning izidan boradi. Ikkinchi omil – bu til. Uning bilimi fikrlash jarayonini boshqaradi. Uchinchi omil tashqi ko‘rinish bilan bog‘liq – bu

<sup>6</sup> Философский энциклопедический словарь / Гл. редакция: Л.Ф.Ильичев, П.Н.Федосеев, С.М.Ковалев. – Москва: Сов. Энциклопедия, 1983. – 840 с.

<sup>7</sup> Аубакиркызы Б. Этнопсихология: Учебное пособие. – Караганды: Издательство КарГУ, 2005. – 97 с.

<sup>8</sup> Этническая психология. Хрестоматия / Под ред. Егоровой А.Н. – Санкт-Петербург, 2003. – 381 с.

bizga ma’lum bir millat bilan munosabatda bo‘lish imkonini beradi, ammo bu yerda istisnolar mavjud, masalan, bola bir millat vakiliga o‘xshab ko‘rinishi mumkin, lekin boshqasiga yaqin bo‘lishi mumkin. Uning shakllanishi jarayonida S.A.Kadikovaning ta’kidlashicha, etnik o‘ziga xoslik bolaning aqliy rivojlanishi bosqichlari bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator bosqichlarni bosib o‘tadi, bu jarayonning natijasi o‘smirlik davrida o‘zining etnik guruhga mansubligini hissiy va baholashdir.

### Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Baynalmilal oila farzandlaridagi etnik identiklik shakllanishining psixologik jihatlarini tahlil qilish bir necha bor empirik tadqiqot mavzusiga aylangan. Biz tomonimizdan turli millatdagi nikohlar asosida tug‘ilgan bolalarda etnik identiklik namoyon bo‘lishining psixologik jihatlarini o‘rganish maqsadida olib borilgan tadqiqotimiz uch bosqichda o‘tkazildi:

1. Aniqlash bosqichi (o‘smirlarning etnik identikligini o‘rganish).
2. Shakllantiruvchi bosqich (o‘smirlardagi etnik o‘ziga xosligini tadqiq etish uchun metodik vositalarni tanlash).
3. Nazorat bosqichi (eksperimental ish natijalarini taqqoslash).

*1-jadval*

### Dj.Finning “Etnik identiklikni o‘rganish” metodikasining tavsiflovchi ko‘rsatkichlari tahlili

Shkalalar	Min	Max	M	σ	Asimmetriya	Ekzess
Kognitiv komponent	1,00	20,00	10,09	5,68	,214	-1,170
Affektiv komponent	1,00	28,00	12,06	7,51	,644	-,521
Integral ko‘rsatkich	15,00	48,00	30,67	9,77	,069	-1,087

Metodika bo‘yicha olingan natjalardan ma’lum bo‘ladiki, kognitiv komponent bo‘yicha o‘rtacha

qiymat 10,09, standart og‘ish 5,68 ni tashkil etib, chap tarafga manfiy ekzess ko‘rsatkichda ekan. Bundan sinaluvchilar savollarga to‘liq va tushungan holda javob bergan deyish mumkin. Ushbu metodikaning affektiv komponenti bo‘yicha minimal qiymat ballni, maksimal qiymat 28 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 12.09 ni, standart og‘ish 7.51 ballni, eksess -0,521 chap tarafga maxfiy og‘ishni ko‘rsatdi. Integral ko‘rsatkich shkalasi bo‘yicha minimal qiymat 15 ballni, maksimal qiymat 48 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 30,67 ni, standart og‘ish 9,77 ballni, eksess -1,087 chap tarafga maxfiy og‘ishni ko‘rsatdi. Yuqorida keltirilgan natijalardan ma‘lum bo‘ladiki, barcha etnik guruhga tegishli o‘smirlarda etnik identiklik namoyon bo‘lishining integral, ya‘ni umumiy ko‘rsatkichi yuqori bo‘lib, bu ularning o‘z millatiga daxldorlik hissi yaxshi rivojlanganidan, deya xulosaga kelishga imkon beradi.

2-jadval

**G.Soldatovanning “Etnik identiklikning namoyon bo‘lishi” metodikasining tavsiflovchi ko‘rsatkichlari tahlili**

Shkalalar	Min	Max	M	σ	Asimetriya	Ekzess
Etnonigilizm	1,00	20,00	8,71	5,32	,512	-,775
Etnik indifferentslik	1,00	20,00	8,22	4,55	,427	-,604
Pozitiv etnik identiklik	1,00	20,00	9,22	5,67	,315	-1,132
Etnoegoizm	1,00	20,00	9,54	6,52	<b>1,169</b>	<b>5,431</b>
Etnoizolyatsionizm	1,00	20,00	9,23	4,54	,204	-,774
Milliy fanatizm	1,00	20,00	9,23	5,45	,263	-1,073

Etnonigilizm shkalasi bo‘yicha minimal qiymat 1 ballni, maksimal qiymat 20 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 8.74 ni, standart og‘ish 5.32 ballni, etnik indifferentslik shkalasi bo‘yicha minimal

qiymat 1 ballni, maksimal qiymat 20 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 8.22 ni, standart og‘ish 4.55 ballni, pozitiv etnik identiklik shkalasi bo‘yicha minimal qiymat 1 ballni, maksimal qiymat 20 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 9.22 ni, standart og‘ish 5.67 ballni, etnoegoizm bo‘yicha minimal qiymat 1 ballni, maksimal qiymat 20 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 9.54 ni, standart og‘ish 6.52 ballni tashkil etdi. Etnoizolyatsionizm shkalasi bo‘yicha minimal qiymat 1 ballni, maksimal qiymat 20 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 9.23 ni, standart og‘ish 4.54 ballni, milliy fanatizm shkalasi bo‘yicha minimal qiymat 1 ballni, maksimal qiymat 20 ballni, o‘rtacha qiymat 9.23 ni, standart og‘ish 5.45 ballni tashkil etib, asimmetriya va ekzess bo‘yicha normal holat mavjudligi kuzatildi.

3-jadval


**O.L.Romanovning “Bolalar va o‘smirlarning etnik identiklik xususiyatlarini o‘rganish” so‘rovnomasi tavsiflovchi ko‘rsatkichlari tahlili**

Shkalalar	Min	Max	M	σ	Asimetriya	Ekzess
O‘z millatiga mansublik hissi	1,00	10,00	5,30	4,93	<b>0,182</b>	<b>4,829</b>
Millatning ahamiyati	2,00	14,00	7,81	2,78	,026	-,657
Etnik ozchilik va ko‘pchilik o‘rtasida munosabat	1,00	13,00	7,17	3,40	-,154	-,996
U yoki bu tildan foydalanish	-2,00	4,00	1,63	1,18	-,630	,535

O.L.Romanovning “Bolalar va o‘smirlarning etnik identiklik xususiyatlarini o‘rganish” so‘rovnomasi tavsiflovchi ko‘rsatkichlari tahlili quyidagicha tus oldi: o‘z millatiga mansublik hissi shkalasi bo‘yicha minimal qiymat 1 ballni, maksimal qiymat 10 ballni tashkil etib, o‘rtacha qiymat 5.30 ni, standart og‘ish 4.93 ballni, millatning ahamiyati shkalasi bo‘yicha minimal qiymat 2 ballni, maksimal qiymat 14 ballni, o‘rtacha qiymat 7.81 ni, standart og‘ish 2.78 ballni tashkil etib, asimmetriya va eksess bo‘yicha normal holat mavjudligi kuzatildi.

Etnik ozchilik va ko'pchilik o'rtasida munosabat shkalasi bo'yicha minimal qiymat 1 ballni, maksimal qiymat 13 ballni tashkil etib, o'rtacha qiymat 7.17 ni, standart og'ish 3.40 ballni, u yoki bu tildan foydalanish shkalasi bo'yicha minimal qiymat -2 ballni, maksimal qiymat 4 ballni, o'rtacha qiymat 1.63 ni, standart og'ish 1.18 ballni tashkil etgan. Ma'lum bo'ldiki, o'smirlarda o'z millatiga mansublik hissini tuyish etnik identiklikning boshqa ko'rinishlariga qaraganda yuqori ahamiyat kasb etishini ko'rish mumkin. Ularning nazdida o'zi yoki yashayotgan millatining tilidan foydalanish etnik identikligining rivojlanishiga to'siq bo'lmaydi.

Etnik identiklikning kognitiv komponenti – shaxs va guruhning etnik xususiyatlari to'g'risidagi bilim va g'oyalar, etnik guruhga mansublikni anglash, etnik avto- va geterostereotiplarning mavjudligini anglatib, mazkur shkala bo'yicha ahamiyatli ishonch darajasidagi farqlar kuzatilmadi ( $F=4,416$ ,  $p<0,613$ ). Ushbu ko'rsatkichlarni barcha o'smirlarda o'z etnik guruhining barcha jihatlarini to'liq bilish, udumlarini o'zlashtirish, guruhidagi g'oyalar, an'analar kabilar haqida tasavvurlar, bilimlar mavjudligi katta farqlarga ega emasligi, shuningdek, ularda etnik o'ziga xoslik teng darajada shakllanganligidan dalolat beradi, degan xulosaga kelishimizga imkon yaratadi. O'zbek-tojik millati asnosida tashkil topgan oilaning o'smir farzandlarida mazkur ko'rsatkich bo'yicha farqlarning qolgan o'smirlarga qaraganda yuqori ko'rinish olganini an'analarga, urf-odatlariga, ajdodlar ruhiga sodiqlik tamoyilining oilaviy an'analar asosi ekanligidan deya xulosalarga kelishimiz mumkin.



**1-rasm. "Etnik identiklikni o'rganish" metodikasining o'rtacha qiymat ko'rsatkichlari**

Etnik identiklikning affektiv komponenti o'zida etnik jamoalarga bo'lgan munosabatni, etnik guruhga mansublikni baholashni, etnik

stereotiplarning yo'nalishini va etnik imtiyozlarni ifodalaydi. Qiziqarli jihati mazkur daraja bo'yicha turli oilaga mansub o'smirlarda ham ishonch darajasidagi ahamiyatga molik farqlarning mavjud bo'lmaganligida ko'rinib ( $F=0,613$ ,  $p<0,608$ ), o'zbek-qirg'iz oilasi vakillarida affektiv komponentning boshqa millat vakili bo'lgan o'smirlarga nisbatan yuqori bo'lishini ulardagi ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan umrboqiy qadriyatlarining oila maskanida mustahkam shakllanishi va targ'ibotning kuchli ifodalanishi bilan ham tavsiflashimiz mumkin. Etnik identiklikning integral ko'rsatkichi – shaxsning ma'lum bir etnik guruhga mansublik tajribasi uning vakillariga xos fazilatlar mavjudligini bilish, ta'lim va faoliyat sohasidagi etnik jihatdan aniqlangan imtiyozlarni baholash kabilarda namoyon bo'ladi, mazkur komponent bo'yicha ham sinaluvchilarimizning natijalari o'rtasida ishonch ko'rinishiga ega bo'lgan ahamiyatli farqlar kuzatilmadi ( $F=1,643$ ,  $p<0,183$ ). Ushbu umumiy ko'rsatkich bo'yicha nisbatan yuqori natijalar o'zbek-tatar millatiga mansub oilalarda ulg'ayayotgan o'smirlarga tegishli bo'lib, fikrimizcha, bu jihatni oila vakillarining etnik xususiyatlari xalqning tarixiy taraqqiyotida shakllangani, ko'chmanchi turmush tarzi tatarlarning etnik xususiyatlarining shakllanishida asosiy shart va omil bo'lgani, ko'chmanchi turmush tarzining ba'zi an'analari saqlanib qolgani va umuman, tatarlar hayotiga, xususan, yosh avlodning ijtimoiylashuviga urug'-aymoqchilik an'analarning ta'siri yuqoriligi kabilar bilan ham xarakterlash kerak.

O'zaro munosabatlar yaqin oila rishtalariga asoslanadi: to'y, dafn va boshqa marosimlarda qarindoshlarga yordam berish va qarindoshlardan yordam kutish, yetim va yolg'izlarga yordam berish, kambag'allarga yordam berish kabilar. Oilaviy munosabatlar insonlarning juda yaqin ijtimoiy munosabatlari bo'lib, o'zbeklar hayotida turli funksiyalarni bajaradi. Qarindoshlik munosabatlarining vazifalaridan biri yosh avlodni ijtimoiylashtirishdir. Shuning uchun ularning oilaviy munosabatlarini an'analar, ijtimoiylashuv vositasi va omili deb hisoblash mumkin.

**O.L. Romanovanning “Bolalar va o‘smirlarning etnik identiklik xususiyatlarini o‘rganish” metodikasining tahlili**

Shkalalar	Millat	O‘rta- cha rang	Statistik qiy- mat	
			H	p
Etnik ozchilik va ko‘pchilik o‘rtasida munosabat	o‘zbek-qirg‘iz	79,85	16,080	0,001**
	o‘zbek-tojik	59,65		
	qirg‘iz-tojik	44,28		
	o‘zbek-tatar	58,22		
U yoki bu tildan foydalanish	o‘zbek-qirg‘iz	58,03	11,900	0,008**
	o‘zbek-tojik	65,58		
	qirg‘iz-tojik	73,50		
	o‘zbek-tatar	44,88		

Izoh: \*\* –  $p < 0,01$

O.L. Romanovanning “Bolalar va o‘smirlarning etnik identiklik xususiyatlarini o‘rganish” metodikasining Kruskal-Uoliss mezoni bo‘yicha ko‘rsatkichlari tahlili quyidagicha ko‘rinish oldi: o‘z millatiga mansublik shkalasi bo‘yicha o‘smirlarning natijalari orasida ahamiyatli farqlar aniqlanmadi ( $H=1,014$ ,  $p < 0,798$ ). Bundan barcha o‘smirlarda u qaysi millatli oila vakili bo‘lmasin, doim o‘z millatiga mansublik hissini tuyib yashar ekan. Olingan natijalardan ma‘lum bo‘lishicha, o‘zbek-tojik millati asnosida tashkil topgan oilaning o‘smir farzandlarida ko‘proq etnik identikligi o‘zi mansub bo‘lgan millatga bog‘lab namoyon qilish istagi kuchli bo‘lar ekan. Ko‘rsatkich sifatida ota yoki onasining tashqi ko‘rinishi, xulq-atvoridagi jihatlar ham rol o‘ynashi mumkin. Millatning ahamiyati shkalasida ham ishonch darajasidagi farqlar mavjud bo‘lmaganini ko‘rish mumkin ( $H=5,533$ ,  $p < 0,137$ ). Shu bilan birga, bir qator masalalarda o‘quvchilar millatchilik kayfiyatiga tushib qolishadi. Shunday qilib, har to‘rttala guruh o‘quvchilarining aksariyati millatlararo har qanday nizolarda inson o‘z millati manfaatlarini himoya qilishi kerak, deb hisoblaydi. Qirg‘iz-tojik millati asnosida tashkil topgan

oilaning o‘smir farzandlaridan iborat respondentlar “Menimcha, faqat o‘z milliy madaniyatini uzviy rivojlantirish va saqlab qolish mumkin” degan fikrda muqimligi bilan ham e‘tiborimizni tortdi.

Metodikadan o‘rin olgan navbatdagi etnik ozchilik va ko‘pchilik o‘rtasidagi munosabat shkalasida ishonch ko‘rinishidagi ahamiyatli farqlar mavjudligi aniqlanib ( $H=16,080$ ,  $p < 0,01$ ), “Menimcha, mahalliy millat vakillari o‘z hududida yashaganliklari uchun ham ular ma‘lum afzalliklarga ega bo‘lishi kerak” kabi savollarga uchta guruh vakillarining ko‘pi rozilik bilan javob berishdi, bu ularning huquqlarning buzilish holatlari muammosiga kamroq e‘tibor qaratishlarini ko‘rsatishi mumkin. O‘zbek-qirg‘iz millati asnosida tashkil topgan oilaning o‘smirlari bunday savollarga ko‘pincha rad javobini berishgan, ehtimol, bu guruh vakillari ko‘proq millat vakillari tomonidan ularga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishlari mumkinligi sababli ham yuqoridagi kabi ko‘rinish olgan. Bu esa ularda intolerant kayfiyat va xulq-atvoriga moyillik mavjud degan xulosalar chiqarishga imkon beradi. Oxirgi u yoki bu tildan foydalanish shkalasida ham ishonchli farqlar aniqlandi ( $H=11,900$ ,  $p < 0,01$ ). Qirg‘iz-tojik millati asnosida tashkil topgan oilaning o‘smir farzandlarida xoh qirg‘iz, xoh tojik tilidan foydalanish ularda diskomfort tuyg‘usini keltirib chiqarmasligini anglatga, ikkinchi tarafdin esa integratsiyalashuvga kirishishda bitta mamlakat hududida bir nechta tillarda muloqot kechishiga qarshi bo‘lmasliklarini namoyon qilishgani xususidagi mulohazalarga mazkur natijalar tahlili olib keladi.

**Yakuniy qism.** Etnik “men”ning chuqurligi, ayniqsa, ijtimoiy identifikatsiyalash tizimlari, shu jumladan, shaxslarning o‘z ijtimoiy guruhlari (sinf, kasbiy, hududiy-joylashuv va boshqalar) haqida xabardorligi intensiv ravishda eroziyasi bo‘lgan tanqidiy, inqirozli davrlarda faol namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, bugungi kunni o‘tmish bilan bog‘lash jarayonining uzluksizligini ifodalovchi etnik o‘ziga xoslik saqlanib qoladi. O‘smirlarda o‘z millatiga mansublik hissini tuyish etnik identiklikning boshqa ko‘rinishlariga qaraganda yuqori ahamiyat kasb etib, ularning nazdida o‘zi yoki yashayotgan millatining tilidan foydalanish etnik identikligining rivojlanishiga to‘siq bo‘lmaydi. O‘zbek-qirg‘iz



millatiga mansub shaxslar o'rtasidagi nikohdan tug'ilgan shaxslarda etnoegoizmning past darajada bo'lishi ularning hududida azaldan ko'p millatli etnoslar mavjudligi va millatlararo, konfessiyalar doirasida muloqotning takrorlanish chastotasi

davriyligi yuqoriligi bilan izohlansa, ahamiyatli farqlar mavjud emasligini esa barcha yetuklikka intilayotgan o'smirlarda "mening xalqim", "mening vatanim" kabi hislarning rivojlanish dinamikasi bir xil shaklda deb ham baholashga zamin yaratadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аубакиркызы Б. Этнопсихология: Учебное пособие. – Караганды: Издательство КарТУ, 2005. – 97 с.
2. Безрукова О.Н., Самойлова В.А. Этническая идентичность детей в межэтнических семьях в контексте культуры родительства. Журнал социологии и социальной антропологии, 22 (3): – С. 113–140.
3. Калмырзаева А.С. Нация и человек. – Алма-Ата. 1992. – 279 с.
4. Мерлин В.С. Структура личности: характер, способности, самосознание. – Пермь, 1990. – 312 с.
5. Налчаджян А.Н. Национальная идеология и этнопсихология. – Санкт-Петербург: Питер, 1999. – 357 с.
6. Свергун О. Управление персоналом: гендерный подход / О. Свергун // Справочник по управлению персоналом. — 2012. — № 6. — С. 21-25.
7. Почебут Л.Г. Психология социальных общностей (толпа, социум, этнос). – Санкт-Петербург: СПбГУ, 2002. – 176 с.
8. Философский энциклопедический словарь / Гл. редакция: Л.Ф. Ильичев, П.Н. Федосеев, С.М. Ковалев. – Москва: Сов. Энциклопедия, 1983. – 840 с.
9. Этническая психология. Хрестоматия / Под ред. Егоровой А.Н. Санкт-Петербург, 2003. – 381 с.



**Abdusamatov Xasanboy Usmonjon o'g'li,**  
*International School of Finance Technology  
and Science instituti dotsenti, psixologiya fanlari doktori*  
e-mail: [habdusamatov@902gmail.com](mailto:habdusamatov@902gmail.com)

## OILANI PSIXOLOGIK QO'LLAB- QUVVATLASHNING TIZIMLI MODELI

**Annotatsiya.** Zamonaviy olimlarning tadqiqotlari asosida oilani psixologik qo'llab-quvvatlashni tashkil etish muammosi kompleks yondashuv nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilgan. Maqolada oilani psixologik qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos tarkibiy to'rtta qo'shimcha dasturdan iborat modeli ishlab chiqilgan holda asoslanib, ularning mazmuni batafsil ochib berilgan va amaliy qo'llash usullari tavsiflangan. Zamonaviy o'zbek jamiyatida oilaning psixologik xulq-atvorining xususiyatlari va unga bo'lgan yondashuvlari ko'rsatilgan.

**Tayanch so'zlar:** oila, tarbiya madaniyati, psixologik yordam.

**Аннотация.** Основываясь на исследованиях современных ученых, проблема организации психологической поддержки семьи рассматривается с точки зрения комплексного подхода. В статье разработана и основана конкретная структурная модель психологической поддержки семьи, состоящая из четырех дополнительных программ. Подробно раскрывается их содержание и описываются практические методы применения. На примере современного узбекского общества показаны особенности психологического поведения семьи и их подходы к нему.

**Ключевые слова:** семья, культура воспитания, психологическая поддержка.

**Annotation.** Based on the research of modern scientists, the problem of organizing psychological support for the family is considered from the point of view of a comprehensive approach. A unique structural model of family psychological support consisting of four additional programs is developed and based in the article. Their content is explained in detail and methods of practical application are described. Features of the psychological behavior of the family in modern Uzbek society and approaches to it are shown.

**Keywords:** family, educational culture, psychological support.

**Kirish.** Zamonaviy hayotning jadal sur'atlari, uning urbanizatsiyasi, ijtimoiy rol mas'uliyatining doimiy ravishda ortib borishi va qat'iyligi, oila rivojlanishining ijtimoiy-psixologik dinamikasidagi noqulay tendensiyalar, oilaviy munosabatlarda ma'naviy va axloqiy tamoyillarning yo'qolishi, ijtimoiy-psixologik madaniyatning pastligi oilalarda munosabatlar tizimi buzilishiga olib kelmoqda.

Nikohning davriyligi qisqarib, uning qiymati o'zgardi. Oila faqat birga yashash, uy-ro'zg'or

ishlarini yuritish, bolalar tug'ilishi kabi noto'liq istaklar maskaniga aylanmoqda. Yoshlarning fikrlarida oila va nikoh munosabatlari o'rtasida bo'linish mavjud. Oilaviy munosabatlar ba'zi hollarda qonuniy nikoh bilan bog'liq emas degan tasavvurlar shakllangan. Jamiyatda shaxsiy erkinlikka nisbatan noto'g'ri tasavvurlar paydo bo'lishi yoshlarda nikohga nisbatan mas'uliyatsizlikni keltirib chiqarmoqda. Natijada rasmiy nikohning obro'si norasmiy nikohdan past darajaga tushib bormoqda. Shaxsiy karyeraning

o'sishi oila va nikoh munosabatlarining mustahkam rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Inson o'zining "men"ini rivojlantirish bilan mashg'ul bo'ladi, oilaviy va nikohning mas'uliyatini turmush o'rtog'iga yuklaydi. Natijada unga qo'yiladigan talablar oshib ketadi.

**Maqsad va uni asoslash.** Bugungi kunda oilalarda shaxslaro munosabatlar turli tomonlarga og'ishganini sezish mumkin. E'tibor berish kerak bo'lgan yana bir omil – oilada onaning bir tomonlama ustunligi ota rolining pasayishiga olib kelishi va natijada o'z farzandlarining rivojlanishidagi shaxsiy muammolarni o'z vaqtida hal qila olmasligi. Doimo ish bilan mashg'ul bo'lish, shaxsning psixologik zo'riqishga uchrashi, ota-onalarning muvaffaqiyatsizligi hamda turli xil ijtimoiy va kasbiy talablar bilan bog'lanib qolishi farzandning ota-onasiga qaraganda ijtimoiy tarmoqlarda ko'proq vaqt o'tkazishiga olib keladi. Oilada xonalarda televizorlar ko'payishi, har bir shaxs uchun alohida shart-sharoitlar yaratilishi avlodlar o'rtasidagi izolyatsiyaning yanada chuqurlashuviga sabab bo'ladi. Bularning barchasi bolalar tarbiyasi va ularning shaxs sifatida shakllanishiga, oila farovonligiga salbiy ta'sir qiladi. Oila a'zolarining bir-biriga nisbatan izolyatsiyasi chuqurlashadi va ular o'rtasida muloqot yetishmasligiga olib keladi<sup>1</sup>.

Yuqoridagi omillarning oldini olishda rasmiy va norasmiy roliklar, bir martalik tadbir va ma'ruzalar bilan chegaralanib qolish kerak emas. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, oilaviy munosabatlar, oilaviy tarbiya va oilaviy hayotdagi munosabatlarda insonlar ishtirokchi bo'lishdan oldin buni qanday tasavvur qilishini aniqlash muhim. Muammoni to'liqroq anglash uchun hududlarda yoshlarning nikohga psixologik tayyorgarligini shakllantirish dasturlarini yaratish, ota-ona va bola munosabatlarini uyg'unlashtirish hamda homilador ayollar uchun psixologik yordam kabi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish kerak.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** Shaxsda oila va nikoh haqidagi qarashlarni to'g'ri shakllantirmasdan turib oilalar farovonligiga erishish qiyin. Oilani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar aynan shundan boshlanishi

<sup>1</sup> Артамонова Е.И., Екжанова Е.В., Зырянова Е.В. Психология семейных отношений с основами семейного консультирования: учеб. пособие для студентов вузов / Под ред. Е.Г.Силыевой. – Москва: ИЦ «Академия», 2002. – 192 с.

kerak bo'ladi. Yaratiladigan dastur universal bo'lishi mumkin emas. Oilaviy munosabatlar va o'zbek an'analarning xilma-xilligini inobatga olgan holda ijtimoiy guruhlarga ajratish mumkin.

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot institutida olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, oilani psixologik qo'llab-quvvatlash uchun quyidagi uch model taklif qilinadi, jumladan

1. O'zbek xalqining qadriyatlari zamonaviy o'zbek yoshlarining oila haqidagi tasavvurlarini to'liq shakllantirishga, oilaning shaxs oldidagi obro'si, turmush o'rtoqlarning mas'uliyati va rollar taqsimoti haqidagi savollarga javob bera olmaydi. Jamiyatimizdagi oila haqidagi munosabatlar hozirgi yoshlarda ota-onalik imidjini shakllantirishga imkoniyat bermaydi. Yosh avlod oldida nikoh va oila munosabatlari muqaddasligini saqlab qolish zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarni eng faol shaxsiy taqdirini belgilaydigan davr talabalik davri hisoblanadi. Aynan shu davrda oilaviy hayot, siyosat, kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan bog'liq muhim qarorlar qabul qilinadi. Talabalik davrida shaxs hayotidagi ideallar, qadriyatlar va yo'nalishlarning tizimi shakllanishi sodir bo'ladi. Talabalik davrining psixologik xususiyatlaridan biri yetarlicha barqaror himoya mexanizmiga ega emasligi ularning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarning imkoniyati maksimal darajada bo'ladi.

Oilani psixologik qo'llab-quvvatlash modelining dastlabki bosqichida talabalarda oilaviy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan ixtiyoriy darslarni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki er-xotin muammolarini bartaraf etish, turmush o'rtoq tanlashning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim va oila a'zolari o'rtasida munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishga qaratilgan ta'lim dasturlari va o'quv qo'llanmalari mavjud emas. Ta'lim tizimida oilaviy tadqiqotlar, oilaviy munosabatlar psixologiyasi kabi oilashunoslik fanlari real hayotdan uzoqroq holatda o'qitiladi<sup>2</sup>.

Talabalarga oilaviy munosabatlarga oid fanlar oilasiga kerak bo'ladigan bilim sifatida emas, balki nazariy bilim sifatida taqdim etiladi. Boshqa odamlarnig misollari talaba hayotida hech narsani o'rgatmaydi. Ular tomonidan taklif qilingan

<sup>2</sup> Чичикин А.Т. Формирование нравственных ценностей студенческой молодежи. – Нижний Новгород: ВГИПА, 2002. – 116 с.

vaziyatlar asosida muammoni tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aniq belgilangan savollar va oldindan ma'lum xulosalar bilan seminarni a'anaviy shaklda o'tkazish oila psixologiyasi fanining maqsadlari va kutilmalariga to'g'ri kelmaydi. Darslarni yanada kreativ shaklda o'tkazish uchun "davra suhbat", "matbuot anjumani", treninglar va hikoya-rolli o'yinlar asosida o'tkazish zarur. Oilaviy muammolar muhokama qilinib, talabalar umumiy xulosaga kelishadi, keyinchalik o'zlarining izlanishlari natijasida yakuniy va individual xulosaga kelishadi.

Barcha OTMLlarda "Oila" nomli tanlov fanni va ixtiyoriy psixologik xizmatni tashkil etish kerak. Bunda mavzular va mashg'ulotlar har bir semestr uchun ishlab chiqilishi va ochiq e'lon qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabalar bilan guruhiy mashg'ulotlar olib boriladi. Ushbu kurs ixtiyoriy amalga oshirilishi talab qilinib, ushbu o'quv yilida qatnasha olmagan talaba keyingi o'quv yilida ham ishtirok etishi mumkin. Oila o'quv dasturi uch qismdan iborat bo'ladi, jumladan:

Nazariy qism. Talabalarda nikoh munosabatlari bo'yicha psixologik bilimlar egallanadi. Bo'lajak turmush o'rtoq, oilaviy farovonlikka erishish mumkin bo'lgan motivlar shakllantiriladi.

Amaliy qism. Talabalarda oilada konstruktiv munosabatlarni o'rnatish, talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratish.

Konsalting qism. Talabalarga o'z "men"ni anglashda va rivojlantirishga yordam beradigan individual maslahatlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu kursning maqsadi talabalarda oila va nikoh oldidagi mas'uliyatini rivojlantirish, oilaviy munosabatlarda konstruktiv yo'lni tanlashga yordam beradigan xususiyatlarni shakllantirishdir. Ushbu loyihani amalga oshirish quyidagi yutuqlarga olib keladi:

- oila qurishdan maqsad, uning faoliyati, shaxsning jamiyatdagi o'rni va hayoti to'g'risida bilimlarni tizimli shakllantiradi;
- oilaga ijtimoiy institut sifatida qarash motivini shakllantiradi;
- talabalarda ota-onalik fenomeni va uning tarkibiy qismlari hamda ota-onalarni psixologik qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi g'oyalari shakllantiriladi;

– turmush o'rtoq bilan muloqot qilish, zaruriy amaliy ko'nikmalarni va er-xotin munosabatida shaxsiy xususiyatlarni shakllantiradi;

– talabalarning o'z-o'zini rivojlantiradi<sup>3</sup>.

Oilalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturda quyidagi psixologik va pedagogik metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

– tanaga yo'naltirilgan terapiya usuli bo'lib, shaxsning dam olish imkoniyati yaratilib, respondentlar salbiy o'z-o'zini baholashdan ijobiy baholashga o'tish imkonini beradi. Bu usulda, asosan, trening ishtirokchilari o'z-o'zini hurmat qilish stereotiplarini yengishga imkon beradigan kreativ jarayonga e'tibor qaratiladi. Oilada shaxslararo munosabatlarda noverbal muloqot, ya'ni muammoni intuiativ shaklda hal qilish verbal muloqotga nisbatan ancha samarali ekanligi o'rgatiladi. "Shu yerda va hozir" nomli psixoterapevtik usul orqali ijodiy tasavvurni shakllantirish natijasida nizoli vaziyatda emotsional xulosa qilish mexanizmi bloklanadi;

– art-terapiya usuli shaxsda va guruhlarda ijodkorlikni oshirish uchun qo'llanadi (akvarel bo'yoqlari bilan ishlash, plastilinlar orqali ota-ona-bola yoki nikoh munosabatlarining ssenariylari bilan ishlash);

– tranzaksion tahlil usuli respondentlarning "meni" holatlarini tuzatish va tahlil qilish, shaxslararo munosabatlarni korreksiyalash uchun ishlatiladi;

– rolli o'yinlar ota-ona va turmush o'rtoq xususiyatlarini xarakterlovchi jihatlarni, oilaviy munosabatlarda psixologik kompetensiya shakllantiriladi va rivojlantiriladi;

– psixoanalizdan foydalanish shaxsni boshqa odamlar bilan munosabatlaridagi patologiyani o'rganishga imkon beradi;

– geshtalt terapiya usuli, shaxslaro munosabatlarni rivojlantirishning paradoks va metofozizm darajasi to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi;

– ekzistensial terapiya usuli hayotning yangi qirralarini kashf etish, istiqbollar va hayot haqiqatini ko'rish qobiliyatini rivojlantirish, hayotda o'zi xohlagan yo'nalishni topishga yordam beradi;

– kognitiv usullar insondagi xulq-avtor siklini aniqlashga yordam beradigan "yo'nalish-tanlash-

<sup>3</sup> Зудилина И.Ю. Формирование психологической готовности студентов к брачным отношениям. Дисс. ... канд. психол. наук. – Самара: СГПУ, 2008. – 254 с.

bajarish” tamoyili asosida o‘z g‘oyalari ochib beriladi;

– ramziy-dramma usuli har qanday ongosti ehtiyojlarning noroziligi, hal qilinmagan shaxsiy muammolarni ochib berishga yordam beradi<sup>4</sup>.

Birinchi mashg‘ulotdan so‘ng talabalardan psixologik xizmat yo‘nalishi bo‘yicha individual konsultatsiyaga yozilishi so‘raladi. Psixologik xizmat yo‘nalishida talabalar turli masalalar bo‘yicha murojaat qilishlari mumkin: oiladagi shaxslaro munosabatlarni korreksiyalash (ota-onalar, opa-singillar, aka-uka va boshqa qarindoshlar bilan), turmush o‘rtoq bilan munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga yordam berish hamda oilaviy munosabatlar bilan bog‘liq masalalarni aniqlashtirish. Talabalarining murojaatidan kelib chiqib, individual yoki guruhviy konsultatsiya shaklda amalga oshiriladi.

Agar respublikamizning barcha ta‘lim muassasalarida oilani qo‘llab-quvvatlash dasturini amalga oshirsak, quyidagi natijalarga erishish mumkin:

– oilaning jamiyatdagi ijtimoiy roli va mavqeyini oshirish;

– oila va oilaviy munosabatlarga ijobiy kayfiyatni shakllantirish va mas‘uliyatli ota-onalikni shakllantirish;

– oilada shaxslaro munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga qaratilgan pedagogik, psixologik va ijtimoiy bilimlarni hamda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish;

– oilada deviant munosabatlarning og‘ish darajasi pasayishga erishish.

2. Oilani psixologik qo‘llab-quvvatlashning modelidagi ikkinchi dastur – bu “homilador ayollarni psixologik qo‘llab-quvvatlash va onalik (otalik)ka tayyorlash” loyihasi bo‘lib, u oilaga yangi maqom kirayotganligi va oilaviy munosabatlarni o‘zgartirishga muammosiz tayyorgarlik ko‘rishga, onalik va otalikning barcha quvonchini anglashga va his qilishga to‘liq yordam beradi.

Har bir millat va elatning o‘ziga xos xususiyati, turmush tarzi va urf-odatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi. Oila insonni psixologik va fiziologik sog‘lom qilib tarbiyalovchi maskan hisoblanadi. Ota-onalik jamiyatda eng muhim kasb singaridir. Chunki ota-onalik kasbi farzandlarga madaniyat,

qadriyatlar translyatsiyasini amalga oshiruvchi mexanizm vazifasini bajarib beradi<sup>5</sup>.

Bola ona qornidagi uch oylik davridan boshlab onaning fikrlari, xatti-harakatlari va xulq-atvori asosida rivojlanadi. Shuning uchun homiladorlik paytida ona o‘z harakatlari va so‘zlarini diqqat bilan kuzatishi, yaxshi musiqa tinglashi, go‘zal xulqli odamlar bilan suhbatlashishi, tabiat go‘zalligidan bahramand bo‘lishi, samimiylilik, adolat, sevgi va quvonch haqida hikoya qiluvchi kitoblarni o‘qishi kerak. Homiladorlik davrida ona bolani sog‘lom dunyoga keltirish uchun ma‘naviy va fiziologik sog‘lomlik bilan hamohang bog‘lanishi kerak. Homiladorlik davridan keyingi psixologik qulaylik tug‘ilgan farzand va ota munosabatlari o‘zaro bog‘lanishiga ta‘sir o‘tkazadi. Har bir qadriyatlar, oilaning an‘analari, muhabbatga tayangan oilani yaratish qobiliyati, keksalar va yoshlarning sog‘lom munosabatlari homiladorlik davridagi onaga psixologik xizmat ko‘rsatishga bog‘liq bo‘ladi.

“Homilador ayollarni psixologik qo‘llab-quvvatlash va onalik (otalik)ka tayyorgarlik” dasturining maqsadi ota-onaning hayotining birinchi kunlaridanoq bolani psixofizik tarbiyalash bo‘yicha bilimlarini kengaytirish, takomillashtirish va tarbiya madaniyatini shakllantirishdan iborat.

Dasturning asosiy vazifalari:

– oilani jamiyatning birligi sifatida mustahkamlash;

– ongli tarbiya tafakkurini shakllantirish;

– oila ichidagi munosabatlarni mustahkamlash;

– turmush o‘rtoqni chaqaloq tug‘ishiga tayyorlash;

– ota-onalarda bolaning rivojlanishida birgalikdagi va teng harakat qilish qobiliyatini shakllantirishdan iborat bo‘ladi.

“Homilador ayollarni psixologik qo‘llab-quvvatlash va onalik (otalik)ka tayyorgarlik” dasturi uchta bo‘limdan iborat bo‘ladi.

Nazariy qism (perenatal psixologiya sohasidagi bilimlarni egallashga, oilaviy munosabatlarda farovonlikni belgilaydigan motivlarni shakllantirishga hissa qo‘shadi). Ushbu bo‘limda quyidagi mavzular orqali savollarga javob topiladi;

1-mavzu. Ota-onalikni shakllantirishning nazariy asoslari. Ota-onalik fenomeni. Ota-

<sup>4</sup> Фридмен Д. Техники семейной психотерапии. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 501 с.

<sup>5</sup> Журавлева Н.А. Динамика ценностных ориентации личности в условиях социально-экономических изменений. Дисс. ... канд. психол. наук. – Москва: МГУ, 2002. – 226 с.

onalikning kompleks komponentlari. Ota-onalikning shakllantiruvchi omillar. Ota-onalikning ayol va erkak modellarining o'ziga xos xususiyatlari. Ota-ona muhabbati psixologik fenomen sifatida. Otalik va onalik muhabbatining o'ziga xos xususiyatlari.

2-mavzu. Onalik psixologiyasi. Onalik fenomeni: ma'daniy-tarixiy, biologik va psixologik aspektlari. Onalik ayol shaxsining tarkibiy qismi sifatida. Onaning bola bilan munosabatini shakllantirish. Deviant onalik.

3-mavzu. Otalik psixologiyasi. Otalikning ta'rifi: filogenetik, tarixiy va ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-psixologik jihatlar. Otalik ijtimoiy rol sifatida. Bolaning rivojlanishida otaning vazifalari. Oilaga otaning psixologik yordami.

4-mavzu. Ota-onalikni psixologik qo'llab-quvvatlash. Tarbiyaning asosiy tushunchalari. Ota-onalikni psixologik qo'llab-quvvatlash modellari. Ota-onalar bilan ishlashning diagnostik va korreksion metodlari.

5-mavzu. Homiladorlik davrida ota-onalarni psixologik qo'llab-quvvatlash. Ayolni onalikka psixologik tayyorlash. Homiladorlikni boshdan kechirish holati. Homilador ayol psixologiyasi. Ota-onalarni bola tug'ilishiga psixologik tayyorlash.

Amaliy qism ota-onalar o'z vazifalari amalga oshirish, bolani sog'lom psixofiziologik rivojlantirish, oilaviy munosabatlarda konstruktiv usulni qo'llay olish, kelajakda ota-onalar uchun bo'lgan ko'nikma, qobiliyat va shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishga qaratiladi. Dasturning ushbu bosqichida guruhdagi faollik va o'zaro ta'sir usullari orqali amalga oshiriladi: psixologik maktablar metodlari, treninglar, sport mashg'ulotlari, rolli o'yinlar va kreativ yondashuv.

Konsalting. Kelajakda ota-onalar shaxsiy xususiyatlarini anglash oilaviy muammolarni hal qilish hamda o'zini o'zi rivojlantirishga ko'maklashuvchi individual maslahatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu bo'limda treninglar ota-onalarning ijtimoiy holatidan kelib chiqib, oflayn yoki onlayn shaklda o'tkazilishi mumkin. Ota-onalar chaqaloq tug'ilishi va uni tarbiyalash uchun manfaatli rejalarini tuzishlari yuzasidan yordam moslashuvchanlikni shakllantirishga qaratiladi.

Ushbu dastur amalga oshirilsa, bolani tarbiyalashda nizolar kamayadi, ota-onalar rollarni to'g'ri taqsimlay oladi, chaqaloq bilan kundalik

hayotni o'tkazish tartibi shakllanadi, homiladorlik qurquvidan xalos bo'linadi.

3. G'amxo'r ota-ona – bu oilani psixologik qo'llab-quvvatlashning modelidagi uchinchi dastur bo'lib, unga bolalar bog'chasiga boradigan yoki unga borishga tayyorlanayotgan bolalarning ota-onalari bilan ishlanadi. Ushbu bosqich uch yo'nalishda amalga oshiriladi: farzandini bolalar bog'chasiga borishiga tayyorlash, oilada bolani psixologik qo'llab-quvvatlash, ota-ona va bola munosabatlarini korreksiyalash. Asosiy maqsad – bolalarni tarbiyalash jarayonida ota-onalarga yordam berish. Dastur quyidagi masalalarni hal qilishda yordam beradi:

1) ota-onalarni bolaga nisbatan o'z pozitsiyasini anglash, bolaning tushunish imkoniyatlarini kengaytirish, ota-onalikning asosiy ko'nikmalarini tahlil qilish;

2) ota-ona va bolaning individual xususiyatidan kelib chiqqan holda kreativ yondashuv asosida ular o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish ko'nikmalarini rivojlantirish;

3) oilada muloqotni faollashtirish.

4. Oilani psixologik qo'llab-quvvatlashning eksperimental modelida “maktab o'quvchisi oilasini psixologik qo'llab-quvvatlash” yakuniy qismi bo'lib, umumiy ta'lim muassasalari amalga oshiriladi. Ijtimoiy-psixologik vaziyatlarda bolaning hissiy farovonligi, muvaffaqiyatli rivojlanishi, tarbiyalash va o'qitish uchun kompleks sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Bunda, asosan, pedagogik aloqalar asosida amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonida bolani maktabda o'qish davrida oila va maktab hamkorligini tizimlashtirish, “o'quvchi-ota-ona”, “talaba-ota-ona” tamoyili asosida ishlarni tashkil etish muhim.

**Yakuniy qism.** Maktab psixologining faoliyatida ota-ona bilan ishlash yo'nalishini kuchaytirish zarur hisoblanadi. Afsuski, bugungi ta'lim tizimida maktab psixologi bilan ota-onaning hamkorlikdagi faoliyati deyarli mavjud emas. Turli vajlar asosida ota-ona tomonidan rad javobi beriladi. Maktab psixologi bolaning kognitiv, konativ va xulq-avtoridagi o'zgarishlarni psixoprofilaktika qilish ota-onaning hamkorligisiz amalga oshmaydi.

“Bolaning ta'limi va tarbiyasiga maktab javobgar” degan ustanovka dominantlik qilmoqda. Agar farzand o'qimasa, o'qituvchi aybdor, bolada deviant xulq-atvor kuzatilsa, maktab aybdor sifatida

ko‘riladi. Ta’lim muassasasidagi psixologning kasbiy faoliyati to‘g‘risida ota-onaning tushunchalari to‘g‘ri emas. Bolalar yetuk shaxs sifatida kamol topishi uchun “ota-ona – psixolog” hamkorligini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Oilani kompleks psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturini amalga oshirish uchun tegishli vazirlik,

tashkilotlar va muassasalar hamkorligini kuchaytirish kerak bo‘ladi. Oilashunos olimlar jamiyatini tashkil etish va ularning ilmiy salohiyatidan foydalangan holda muammolar yechimini izlash eng to‘g‘ri yo‘ldir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Артамонова Е.И., Екжанова Е.В., Зырянова Е.В. Психология семейных отношений с основами семейного консультирования: учеб. пособие для студентов вузов / Под ред. Е.Г.Силаевой. – Москва: ИТС «Академия», 2002. – 192 с.
2. Журавлева Н.А. Динамика сенностных ориентации личности в условиях социально-экономических изменений. Дисс. ... канд. психол. наук. – Москва: МГУ, 2002. – 226 с.
3. Зудилина И.Ю. Формирование психологической готовности студентов к брачным отношениям. Дисс. ... канд. психол. наук. – Самара: СГПУ, 2008. – 254 с.
4. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования: учебное пособие. – Москва: Гардарики, 2004. – 320 с.
5. Минияров В.М. Психология семейного воспитания (диагностико-коррекционный аспект). – Москва: Московский психолого-социальный институт. – Воронеж: Издательство НПО «МОДЕК», 2000. – 256 с.
6. Плешакова О.В. Системно-структурная модель комплексного психологического сопровождения семи // Известия ПГПУ им. В.Г.Белинского. 2010. № 16 (20). – С. 188–196.
7. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога в образовании: учебное пособие. – Москва: Владос, 1996. – 529 с.
8. Ситников В.Л. Образ ребенка в сознании детей и взрослых. – Санкт-Петербург: Химиздат, 2001. – 256 с.
9. Техтелева Н.В. Формирование представлений родителей о характере ребенка – дошкольника. Дисс. ... канд. психол. наук. – Самара: СГПУ, 2008. – 204 с.
10. Фридмен Д. Техники семейной психотерапии. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 501 с.
11. Чичикин А.Т. Формирование нравственных сенностей студенческой молодежи. – Нижний Новгород: ВГИПА, 2002. – 116 с.
12. Эйдемиллер Э.Г., Юститскис В. Психология и психотерапия семи. 3-э изд. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 656 с.



**Narmetova Yulduz Karimovna,**  
*Toshkent tibbiyot akademiyasi*  
*Pedagogika, psixologiya va tillar kafedrasida dotsenti*

## PSIXOSOMATIK KASALLIKLAR BILAN OG'RIGAN BEMORLARNING HAYOT SIFATINI BAHOLASHDA YOSH VA JINS XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Bugungi kunda psixosomatik kasalliklar doirasi kengaytirilib, deyarli barcha kasalliklarning kelib chiqishida psixologik omillar o'rni mavjudligi ma'lum bo'lib bormoqda va bu shifokorlar hamda psixologlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Maqolada psixosomatik kasalliklar bilan og'rigan bemorlarning hayot sifatini baholashda yosh va jins xususiyatlari tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** psixosomatika, hayot sifati, davolash, rehabilitatsiya, samaradorlikni baholash, kasallik prognozi, psixoterapiya, jismoniy faollik, rolli faollik, og'riqning kuchliligi, hayotiy faoliyat, ijtimoiy faollik, emotsional faollik, ruhiy salomatlik.

**Аннотация.** Сегодня круг психосоматических заболеваний расширился, а наличие психологических факторов в возникновении почти всех заболеваний становится известным и это признается врачами и психологами. В статье анализируются возрастные и гендерные особенности при оценке качества жизни пациентов с психосоматическими заболеваниями.

**Ключевые слова:** психосоматика, качество жизни, лечение, реабилитация, оценка работоспособности, прогноз заболевания, психотерапия, физическая активность, ролевая активность, интенсивность боли, жизнедеятельность, социальная активность, эмоциональная активность, психическое здоровье.

**Annotation.** Today, the scope of psychosomatic diseases has been expanded, and the presence of psychological factors in the origin of almost all diseases is becoming known and recognized by doctors and psychologists. The article analyzes age and gender characteristics in the assessment of the quality of life of patients with psychosomatic diseases.

**Keywords:** psychosomatics, quality of life, treatment, rehabilitation, performance evaluation, disease prognosis, psychotherapy, physical activity, role activity, pain intensity, vital activity, social activity, emotional activity, mental health.

**Kirish.** Bugungi kunda psixosomatika nafaqat psixologiyaning, balki barcha insonshunoslik fanlarining diqqat markazida turibdi. Globallashuv jarayonida inson hayot tarzining tubdan o'zgarishi, turli yangi nozologiyalarning yuzaga kelishi psixosomatika yo'nalishining alohida fan tarmog'i sifatida ajralib chiqishiga olib kelmoqda va mazkur sohada tadqiqotlar olib borish tendensiyasi kuchaymoqda. Nafaqat kasalliklarning kelib chiqishida, balki kasallik sharoitida inson psixologiyasida yuzaga keladigan

salbiy o'zgarishlarni profilaktika qilish, davolash hamda rehabilitatsiya jarayonida inson ruhiy himoya zaxiralarini yuzaga chiqarishi bugungi kun tadqiqotlarining dolzarb vazifasiga aylanib bormoqda.

Zamonaviy tibbiyotda "sog'liq bilan bog'liq hayot sifati" atamasi keng qo'llanilib, bu bemorning jismoniy, hissiy, psixologik va ijtimoiy faoliyatini subyektiv baholashiga asoslanadi. Hayot sifati atamasi XX asrning 40-yillarida paydo bo'lgan. JSST ta'rifiga ko'ra, hayot sifati – bu shaxsning o'z



maqsadlari, kutishlari, standartlari va tashvishlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, ular yashayotgan muhitning madaniyati va qadriyatlar tizimi kontekstidagi hayotdagi mavqeyini idrok etishidir<sup>1</sup>.

A.A. Novik va boshqa olimlar 1999-yilda salomatlik bilan bog‘liq hayot sifatini “Sog‘lom yoki bemorning subyektiv idrokiga asoslangan jismoniy, psixologik, hissiy va ijtimoiy faoliyatining ajralmas xususiyati” deya tariflashgan. Hayot sifati ko‘p faktorli tushuncha bo‘lib, hayotning turli jabhalaridan, shu jumladan, kasalliklardan aziyat chekadigan hamda ularni davolashda odamlarning farovonligi va qoniqish darajasini aks ettiradi. Shu munosabati bilan keyingi yillarda jahon va mahalliy amaliyotda salomatlik bilan bog‘liq hayot sifatiga e‘tibor kuchaymoqda. Xorijiy adabiyotlarda hayot sifati tushunchasi kasallikning turli xil zarar yetkazuvchi omillar, funksional stress, psixologik va ijtimoiy ta’sirlar ta’sirida o‘zgarib turadigan bemor idrokiga ta’siri va uni davolashning aksi sifatida talqin qilinadi<sup>2</sup>.

So‘nggi yillar statistik ma’lumotlariga ko‘ra, yurak qon-tomir va qandli diabet kasalliklarida ko‘proq depressiya, xavotirlanish, fobiya uchrashi qayd etilgan<sup>3</sup>. Yurak qon-tomir kasalliklaridan eng ko‘p tarqalganlari – yurak ishemik xastalik va arterial gipertoniya psixosomatik kasalliklari turkumiga kiruvchi kelib chiqishi, klinik kechishi, natijasi psixologik omillarga bog‘liq bo‘lgan kasalliklardir. So‘nggi yillarda psixosomatik kasalliklar qatoriga qandli diabet ham kiritildi. Biroq E. Bernning fikricha, psixosomatik yoki nopsixosomatik tibbiyotning o‘zi mavjud emas, faqat tibbiyot bor, xolos. Chunki har bir bemor shaxs sifatida o‘zida har qanday kasallikning rivojlanishiga psixologik jihatdan befarq qarab tura olmaydi: unda hayotiy qadriyatlarining o‘rin almashinuvi hamda psixologik o‘zgarishlar, albatta, kuzatiladi. Shuning uchun ham psixosomatik tibbiyot tushunchasiga shifokorlar va psixologlarda bir xil munosabat shakllanmagan. Natijada “psixosomatik” termini hozirda mavjud bo‘lgan kasalliklarning xalqaro klassifikatsiyasi

<sup>1</sup> Орлова М.М. Исследование качества жизни как системной характеристики ситуации болезни. Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия Философия. Психология. Педагогика, 2014. 14 (4-1), – 83-89.

<sup>2</sup> Сурмач М. Ю. Качество жизни, связанное со здоровьем, как предмет изучения социологии медицины. 2011.

<sup>3</sup> Абрамова Г. С., Юдчиц Ю.А. Психология в медицине. – М.: «Кафедра-М», 1998.

(МКБ-10)ga kiritilmagan, chunki biron-bir kasallik yo‘qki, uning kelib chiqishi, kechishi va oqibatlari qanday ko‘rinish olishida psixologik omillarning o‘rni bo‘lmasa<sup>4</sup>.

Bugungi kunda somatik kasalliklarning barchasini psixologik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish zarurati barcha klinisist shifokorlar tomonidan e‘tirof etilmoqda. Psixosomatika esa ko‘plab tadqiqotchilar fikricha, psixika va somatika o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaruvchi metodologiyaga aylanib ulgurdi<sup>5</sup>. Inson faqatgina ruhiy va jismoniy salomatlik uyg‘unligi bo‘lgandagina sog‘lom hisoblanadi. Bunda disgarmoniya ichki (biologik, irsiy) va tashqi (psixogen, ijtimoiy) omillar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun ham Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti inson salomatligini uning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy mukammalligi bilan tushuntirishi bejiz emas. Emotsional holatdagi o‘zgarishlarning miokard infarkti bilan og‘rigan bemorlardagi istiqbolga ta’sirini maqsadga yo‘nalgan holda o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, kichik darajadagi depressiyaning o‘zi ham 60% holatlarda o‘lim bilan yakunlanar ekan, katta darajadagi depressiv epizodlar esa bu holatlarni 3 barobarga ko‘paytirishga olib kelishi ham kuzatilgan<sup>6</sup>. Bu degani miokard infarktida bemorlarning koronar o‘limi depressiya darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, shunchalik ko‘p uchraydi. Kasallikdan keyingi depressiya esa uning uzayib ketishi va yillar davomida bemorni bezovta qilishiga olib kelar ekan.

Hech shubhasiz, shuni aytish mumkinki, psixosomatik kasalliklar, jumladan, yurak qon-tomir kasalliklari, qandli diabet va boshqalarda emotsional holat o‘zgarishlarining rivojlanishida murakkab psixologik mexanizmlar ishtirok etadi. Bularga psixogen, somatogen, shaxslilik, farmakogen va bir qator holatlarda esa endogen omillar kiradi. Amaliy faoliyatda juda ko‘p bemorlarda bu omillarning qaysi biri hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi va emotsional soha buzilishlarining nozologik

<sup>4</sup> Александр Ф. Психосоматическая медицина. Принципы и практическое применение/ Пер. с англ. С. Могилевского. – М.: ЭКСМО-Пресс., 2000. – 352 с. Бройтигам В., Кристиан П., Рад М. Психосоматическая медицина. – М.: Гэотар Медицина, 1999. – 376 с.

<sup>5</sup> Михайлов Б.В., Сердюк А.И., Федосеев В.А. Психотерапия в общесоматической медицине (клиническое руководство) / Под общ. ред. Б. В. Михайлова. – Харьков: Прапор, 2002. – 108 с.

<sup>6</sup> Погосова Г.В. Депрессия как новый фактор риска сердечно-сосудистых заболеваний и предиктор коронарной смерти // Кардиология, 2002. № 4. – Б. 86–89.

doirasi qanday ekanligini aniqlash mushkul. Har bir individual holatda bu omillar birlashmasi turlicha bo'lishi va emotsional soha buzilishlarining klinik variantlari turli-tumanligini aniqlab berishi mumkin. Kardiologik amaliyotda ko'pincha atipik xarakterdagi, ya'ni "sokin", "niqoblangan" va somatizatsiyalashgan emotsional buzilishlar hamda depressiyalarga uchraydi va ular somatik shikoyatlar orqasida yashirinadi. Epidemiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, somatizatsiyalashgan depressiya bilan xastalangan bemorlarning faqatgina 3 foizigina psixologik muammolardan shikoyat qiladi, 68,8 foizi faqat somatik xarakterga ega bo'lgan shikoyatlarni bildiradi, qolgan 27,6 foizi bir vaqtning o'zida ham somatik, ham psixologik muammolardan shikoyat qiladi. Bu holat depressiya diagnostikasida bir qator murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Shunisi e'tiborga loyiqki, psixosomatik kasalliklarga chalingan bemorlarning 91 foizi izchil so'rovlarda ham psixologik muammolar borligini inkor etadi. Psixologiyada bemorlarning o'z ruhiy va emotsional kechinmalarini so'z yordamida ifodalay olmasligi – "aleksitimiya" deb ataladi. Ko'pincha bemorlar, ayniqsa, erkaklar o'z psixologik muammolarini tan olmaydilar, ularni xarakterdagi zaifliklar va hayotiy vaziyatlar oqibati deb qaraydilar. Bu aleksitimiya asosida bosh miyaning o'ziga xos tuzilmaviy-funksional birlashmasi bo'lib, bunda o'ng yarimsharlar ustunligi va yarimsharlar orasidagi o'zaro ta'sirning yetishmovchiligi yotadi. Mazkur holatda ayniqsa yurak ishemik kasalliklarida fenomenologik planda depressiya simptomlarini, masalan, stenokardiya xurujlaridan ajratish juda mushkul. Binobarin, ularning ikkalasi ham paroksizmal xarakterga ega bo'lib, qo'rquv, bezovtalanish bilan kechadi. Patologiyaning avj olishida anginoz va psixogen buzilishlar bir-birini to'ldirib, shartli-reflektor mexanizmlari asosida bir-birini mustahkamlaydi va bu bilan xavfli buzg'unchi aylanani tashkil etadi.

Emotsional holatdagi o'zgarishlar, xususan, depressiyaning psixosomatik kasalliklarga ta'siri keyingi yillarda faol o'rganilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda psixosomatik kasalliklar va emotsional holat buzilishlari o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiruvchi bir nechta tadqiqot natijalari e'lon qilingan:

1. Emotsional soha buzilishlari bemorlarda to'qimalar ichidagi mustaqil kalsiyning yuqori darajasi, serotonin va katexolamin retseptorlar sezgiriligining oshishi kuzatiladi, shuning uchun

ham depressiyada vazospazm (tojsimon bosh miya tomirlari spazmi) yengilgina vujudga kelishi mumkin.

2. Bu bemorlarda aterogenez jarayoni tezlashishi mumkin.

3. Emotsional zo'riqishda beta-tromboglobulin giperproduksiyasi kuzatiladi, trombositlar aggregatsiyasi ortadi va tomir yorilishi xavfi kuchayadi.

4. Emotsional sohada o'zgarishlar kuzatilgan bemorlarda neyronal faollik va serotonin darajasining oshishi yurak maromi variabelligining pasayishiga, aritmiyalarning rivojlanishi va to'satdan vafot etish holatlarining ko'payishiga olib keladi.

5. Depressiya shifokor tomonidan hayot tarzi, parhezga amal qilish, harakat faolligi, spirtli ichimliklar va chekishdan voz kechish borasidagi berilgan tavsiyalarni bajarishga xalaqit beradi va boshqa odamlar bilan o'zaro aloqaga kirishishni chegaralaydi va umuman davolash samaradorligini keskin pasaytirib yuboradi.

6. Shu narsa aniqlanganki, davolashga moyillikning pastligi, barcha kasalliklarning noxush yakunlanishiga olib keluvchi o'ta muhim va mustaqil xavfli omilidir.

**Maqsad va uni asoslash.** Klinik amaliyotda hayot sifati tushunchasi davolash va reabilitatsiya usullarining samaradorligini baholash, bemorlar ahvolining og'irligi va kasallikning prognozini aniqlash, yakka tartibdagi terapiyaning tanlash va mehnat qobiliyatini tekshirish, tibbiy yordamning xarajat va samaradorlik nisbatini tahlil qilish va tibbiy auditni o'tkazishda qo'shimcha mezon hisoblanadi.

Yevropa Kardiologiya jamiyatining 2012-yildan boshlab, yurak-qon-tomir kasalliklarining oldini olish bo'yicha so'nggi tavsiyalariga ko'ra, hayot sifati yaxshilash koronar arterial kasalligi bilan og'rikan bemorlarni davolashda bemorlarning prognozini yaxshilash va ularning umrini uzaytirishdan keyingi ikkinchi eng muhim maqsad hisoblanadi<sup>7</sup>.

<sup>7</sup> Погосова Н.В., Юферева Ю.М., & Соколова О. Ю. (2015). Качество жизни больных тремя формами ишемической болезни сердца: состояние проблемы, методы оценки, взаимосвязь с психологическим статусом и прогностическое значение. Профилактическая медицина, 18(6), 97-104; Ware J.E., Snow K. K., Kosinski M., Gandek B. SF-36 Health Survey Manual and Interpretation Guide. Boston, MA: New England Medical Center, The Health Institute. – 1993.

**Ilmiy muammoning tasnifi va yechimi.**

Eksperimental tadqiqotimizda jami 687 nafar sinaluvchi ishtirok etib, ulardan 294 nafari erkak, 393 nafari esa ayollardir. Sinaluvchilar orasida psixosomatik kasallik tashxislari bo'yicha yurak ishemik kasalliklari 191 nafar, qandli diabet 183 nafar, bronxial astma 108 nafar, oshqozon-ichak yara kasalliklari 64 nafar, revmatoid artrit 93 nafar hamda nazorat guruhi 48 nafardan iborat. Sinaluvchilar haqida to'liq ma'lumot quyidagi jadvalda taqdim etilgan.

1-jadval

**Tadqiqotda ishtirok etgan erkak va ayollardagi kasallik turlari haqida ma'lumot (N=687)**

Kasallik turlari	Erkaklar		Ayollar		Jami	
	soni	%	soni	%	soni	%
Yurak ishemik kasalliklari	93	31,6%	98	24,9%	191	27,8%
Qandli diabet	84	28,6%	99	25,2%	183	26,6%
Bronxial astma	34	11,6%	74	18,8%	108	15,7%
Oshqozon-ichak yarasi kasalliklari	31	10,5%	33	8,4%	64	9,3%
Revmatoid artrit	39	13,3%	54	13,7%	93	13,5%
Nazorat guruhi	13	4,4%	35	8,9%	48	7,0%
<b>Jami</b>	<b>294</b>	<b>100,0%</b>	<b>393</b>	<b>100,0%</b>	<b>687</b>	<b>100,0%</b>

Izoh:  $\chi^2=17,781$ ;  $p=0.011$

Tadqiqotimizda 20 yoshdan 81 yoshgacha bo'lgan respondentlar ishtirok etishdi. Tadqiqot ishtirokchilari yosh ko'rsatkichlarining normal taqsimlanish qonuniga mosligini Kolmogorov-Smirnov mezonini qo'llagan holda tekshirilganda quyidagi natijalari 2-jadvalda berilgan:

2-jadval

**Tadqiqot ishtirokchilari yosh ko'rsatkichlarining normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari (Kolmogorov-Smirnov Z mezonini, N=687)**

Shkala	O'rtacha	St.og'ish	Kolmogorov-Smirnov Z	p
Yosh	54,59	11,005	3,871	0,000**

Izoh: \* -  $p<0,05$ ; \*\* -  $p<0,01$

Tadqiqot ishtirokchilari yosh ko'rsatkichlarining normal taqsimlanish qonuniga mos kelmagani kuzatildi ( $z=3,871$ ;  $p<0.000$ ).

Psixosomatik kasalliklar bilan kasallangan bemorlar hayot sifati ko'rsatkichlarining yoshga bog'liqligi o'rganildi. Natijalarni har bir ko'rsatkich bo'yicha tahlil qilamiz.

3-jadval

**Psixosomatik kasalliklar bilan kasallangan bemorlarda hayot sifati ko'rsatkichlarining yoshga bog'liqligini o'rganish natijalari (Spirman mezonini, N=687)**

Shkalalar	Yosh
Jismoniy faollik	-0,246**
Rolli faollik	-0,224**
Og'riqning kuchliligi	-0,141**
Umumiy salomatlik	-0,192**
Hayotiy faollik	-0,130**
Ijtimoiy faollik	-0,122**
Emotsional faollik	-0,192**
Psixik salomatlik	-0,091*
Salomatlikning jismoniy komponenti	-0,247**
Salomatlikning ruhiy komponenti	-0,204**
Hayot sifati	-0,236**

Izoh: \* -  $p<0,05$ ; \*\* -  $p<0,01$

Jismoniy faollik ko'rsatkichi bo'yicha tahlil qilganimizda yoshga bog'liq teskari korrelyatsiya kuzatildi. Demak, yosh kattalashgan sari jismoniy faoliyat ko'rsatkichi pasayaveradi. Yoshi katta bemorlarimizda o'z ehtiyojlari uchun harakatlari, yurish va zinapoyaga chiqishda qiyinchiliklar hamda yuk ko'tarishda cheklanishlar yoshlarga nisbatan ancha ko'proq uchraydi.

Rolli faoliyat ko'rsatkichida ham yoshga bog'liq teskari korrelyatsiya kuzatildi. Yoshi kattalarda kundalik ish vazifalarini bajarishda qiyinchiliklar yoshlarga nisbatan ko'proq uchrashini ko'rsatdi.

Og'riqning kuchliligi ko'rsatkichida ham teskari korrelyatsiya kuzatildi. Yoshi kattalarda tanadagi og'riq tufayli kundalik ish faoliyatining ma'lum darajada pasayishi yoshlarga nisbatan ko'proq kuzatiladi.

Umumiy salomatlik ko'rsatkichida teskari bog'liqlik kuzatildi. Yoshi katta bemorlarimizda yosh bemorlarga nisbatan salomatliklari va tuzalib ketishga ishonch ancha pastligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Hayotiy faollik ko'rsatkichida teskari bog'liqlik kuzatilib, yoshi katta bemorlarda yoshlarga nisbatan ancha charchoq, horg'inlik kuzatildi.

Ijtimoiy faollik ko'rsatkichida ham teskari bog'liqlik kuzatildi. Demak, yoshi katta bemorlarimiz yoshlarga nisbatan shaxslararo munosabatga kirishishlari ancha pasayadi.

Emotsional faollik ko'rsatkichida yoshi katta bemorlarning kundalik ish-yumushlarini bajarashga uzoq vaqt sarflashlari va ish sifatining pasayishini namoyon etdi.

Ruhiiy salomatlik ko'rsatkichida ham yoshga bog'liqlik xususiyatlari aniqlandi. Yosh kattalashgani sari bemorlarimizda ruhiy tushkunlik va tashvishlilik holatlari ham ortadi.

Psixosomatik kasalliklar bilan kasallangan bemorlarda hayot tarziga somatik kasallik ta'sirining yoshga bog'liqligini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, oila va ishda bemorga munosabatning yomonlashuvi, bo'sh vaqt, karyera hamda aloqaning cheklanishi ko'rsatkichida yoshga bog'liq xususiyatlari aniqlanmadi.

Psixosomatik kasalliklar bilan kasallangan bemorlarda hayot sifati ko'rsatkichlaridagi jinsiy tafovutlarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, rolli faollik, og'riqning kuchliligi, hayotiy, ijtimoiy hamda emotsional faollik, shuningdek, salomatlikning ruhiy komponenti ko'rsatkichlarida jinsiy tafovutlar aniqlanmadi (4-jadval).

4-jadval

**Psixosomatik kasalliklar bilan kasallangan bemorlarda hayot sifati ko'rsatkichlaridagi jinsiy tafovutlarni o'rganish natijalari (Mann-Uitni U-mezoni)**

Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar		U	p
	Erkaklar (n=294)	Ayollar (n=393)		
Jismoniy faollik	317,0	364,2	49820	0,002**
Rolli faollik	330,1	354,4	53687,5	0,082
Og'riqning kuchliligi	330,7	354,0	53848,5	0,124
Umumiy salomatlik	325,3	358,0	52274,5	0,032*
Hayotiy faollik	352,5	337,6	55274,5	0,329
Ijtimoiy faollik	333,6	351,8	54699,5	0,220
Emotsional faollik	333,5	351,9	54678,5	0,177

Psixik salomatlik	323,3	359,5	51676,5	0,017*
Salomatlikning jismoniy komponenti	319,8	362,1	50648,5	0,006**
Salomatlikning ruhiy komponenti	328,4	355,7	53185,5	0,075
Hayot sifati	322,8	359,8	51550	0,016*

Izoh: \* - p<0,05; \*\* - p<0,01

Jismoniy faollik ko'rsatkichida esa jinsiy tafovut aniqlandi (U=49820; p<0,01). Demak, erkaklarda ayollarga nisbatan jismoniy faollik past. Erkak bemorlarimizda yurish va zinopoyalarda chiqishlari ayollarga nisbatan ko'proq qiyinchilik keltiradi. Buni ayollarning serharakatligi bilan baholash mumkin.

Umumiy salomatlik ko'rsatkichida jinsiy tafovut aniqlandi (U=0,032; p<0,05). Bu ko'rsatkich ham erkaklarda ayollarga nisbatan past chiqdi. Erkaklar ayollarga nisbatan salomatligini va davolanish samaradorligini past baholaydi.

Psixik salomatlik (U=51676,5; p<0,05), salomatlikning jismoniy komponenti (U=50648,5; p<0,01) va hayot sifati (U=51550; p<0,05) ko'rsatkichlarida ham jinsiy tafovut aniqlandi.

6-jadval

**Bemor hayot tarziga somatik kasallikning ta'siri namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlarni o'rganish natijalari (Mann-Uitni U-mezoni)**

Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar		U	p
	Erkaklar (n=294)	Ayollar (n=393)		
Cheklangan kuch va energiya hissi	358,3	333,3	53563	0,088
Oilada bemorga munosabatning yomonlashishi	339,2	347,6	56370	0,573
Xursandchilikni cheklash	340,7	346,4	56814,5	0,703
Ishda bemorga munosabatning yomonlashishi	347,3	341,6	56812	0,701
Bo'sh vaqtni cheklash	337,8	348,6	55946	0,466
Karyera cheklanishi	363,7	328,4	51699,5	0,018*

Jismoniy jozibadorlikning pasayishi	362,5	330,2	52336	0,029*
Kamchilik tuyg'usini shakllantirish	356,3	334,8	54165,5	0,149
Aloqaning cheklanishi	354,5	336,2	54697	0,220
Moddiy zarar	348,2	340,8	56531,5	0,621

Izoh: \* -  $p < 0,05$ ; \*\* -  $p < 0,01$

Karyera cheklanishi ko'rsatkichi bo'yicha jinsiy tafovut aniqlandi ( $U=51699,5$ ;  $p < 0,05$ ). Demak, erkak bemorlarimizda kasallik tufayli karyeraning cheklanishi ayollarga nisbatan ko'proq uchraydi. Buning sababi sifatida erkaklarning nafaqaga chiqish yoshi kattaligi hamda mas'uliyat ko'tara olmasliklari bilan baholashimiz mumkin.

Jismoniy jozibadorlikning pasayishi ko'rsatkichi bo'yicha ham jinsiy tafovut aniqlandi ( $U=52336$ ;  $p < 0,05$ ). Erkaklar jismoniy ko'rinishlari, harakatdagi cheklanish va kasalliklari bilan bog'liq majburiy holatlaridagi kamchiliklar ayollarga qaraganda ko'proq ekan.

**Yakuniy qism.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bemorlarning yoshi kattalashgan sayin ularda jismoniy faollik, rolli faollik, og'riqning kuchliligi, umumiy salomatlik, hayotiy, emotsional hamda psixik salomatlik, salomatlikning jismoniy va ruhiy komponenti va hayot sifati ko'rsatkichida pasayadi. Erkaklarimiz kasalliklari tufayli ruhiy tushkunlik va jismoniy harakatlarni cheklanishlari ayollarga qaraganda ko'proq uchraydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Орлова М.М. Исследование качества жизни как системной характеристики ситуации болезни. Известия Саратовского университета (2014). Новая серия. Серия Философия. Психология. Педагогика, 14 (4/1).
2. Сурмач М.Ю. Качество жизни, связанное со здоровьем, как предмет изучения социологии медицины (2011).
3. Погосова Н.В., Юферева Ю.М., Соколова О.Ю. Качество жизни больных тремя формами ишемической болезни сердца: состояние проблемы, методы оценки, взаимосвязь с психологическим статусом и прогностическое значение. Профилактическая медицина, 18 (6), (2015).
4. Ware J.E., Snow K.K., Kosinski M., Gandek B. SF-36 Health Survey Manual and Interpretation Guide. Boston, MA: New England Medical Center, The Health Institute, 1993.
5. Александр Ф. Психосоматическая медицина. Принципы и практическое применение / Пер. с англ. С. Могилевского. – Москва: ЭКСМО-Пресс., 2000. – 352 с.
6. Бройтигам В., Кристиан П., Рад М. Психосоматическая медицина. – Москва: Гэотар Медицина, 1999. – 376 с.
7. Михайлов Б.В., Сердюк А.И., Федосеев В.А. Психотерапия в общесоматической медицине (клиническое руководство) / Под общ. ред. Б.В. Михайлова. – Харьков: Прапор, 2002. – 108 с.
8. Погосова Г.В. Депрессия как новый фактор риска сердечно-сосудистых заболеваний и предиктор коронарной смерти // Кардиология, 2002. № 4.



**R. Ismaylova,**

*Nizomiy nomidagi TDPU*

*“Amaliy psixologiya” kafedrasi dotsenti v.b.,  
psixologiya fanlari nomzodi (PhD)*

## OILAVIY ZO‘RAVONLIK VAZIYATIDA INTERVENSIYA KONSEPSIYASI

**Annotasiya.** Maqolada oilada turmush o‘rtoqlar munosabatidagi zo‘ravonlik vaziyatida uning faoliyatining halokatli omillarini hisobga olgan holda intervensiya (aralashuv) konsepsiyasi taklif etiladi. Intervensiyaning maqsadlari muhokama qilinib, oilaviy zo‘ravonlik holatlarida oilalarga yordam berishga ta‘sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar tahlili berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** intervensiya, psixologik yordam, amaliyot, er-xotin, konsepsiya, ijtimoiy psixologik omillar.

**Аннотация.** В статье предлагается концепция вмешательства в ситуацию супружеского насилия в семье с учетом деструктивных факторов ее деятельности. Обсуждаются цели вмешательства, дается анализ социально-психологических факторов, влияющих на помощь семьям в случаях домашнего насилия.

**Ключевые слова:** вмешательство, психологическая помощь, практика, супруги, концепция, социально-психологические факторы.

**Annotation.** The article proposes the concept of intervention in a situation of spousal violence in the family, taking into account the destructive factors of its activity. The goals of the intervention are discussed and an analysis of socio-psychological factors influencing assistance to families in cases of domestic violence is provided.

**Key words:** intervention, psychological assistance, practice, spouses, concept, socio-psychological factors.

**Kirish.** Oiladagi zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga o‘z vaqtida manzilli yordam ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash, himoya qilinishi O‘zbekiston Respublikasi davlati tomonidan alohida nazoratga olingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 11-aprelda “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-829-son Qonunining imzolanishi buning yaqqol dalilidir.

Ma‘lumki, ushbu hujjat bilan xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi huquq va

manfaatlarini amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash masalalarini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini takomillashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

**Maqsad va uni asoslash.** Tadqiqot materiali, asosan, O‘zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish uchun qabul qilingan qonunlar tahlili, psixologik yordam ko‘rsatish sohasida xorijiy va mahalliy ilmiy nashrlar, shuningdek, oilaviy zo‘ravonlik muammosini yorituvchi rasmiy veb-saytlar ma‘lumotlariga murojaat etildi. Kerakli mavzular bo‘yicha ilmiy nashrlar va vebma‘lumotlar tanlab olingandan so‘ng O‘zbekistonda statistik ma‘lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish, zo‘ravonlikdan

jabrlanuvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma va psixologik testlar natijalarining matematik statistik tahlili, oiladagi zo'ravonlik holatlarini aniqlash va unga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar hamda unga qarshi kurashish choralari, shuningdek, uni mamlakatdagi vaziyat bilan taqqoslash usullari qo'llandi.

Oilaviy-maishiy zo'ravonlik va tazyiqni boshidan o'tkazgan xotin-qizlarga professional, huquqiy va ruhiy yordam ko'rsatish maqsadida psixologlar, ijtimoiy ish xodimlari, o'qituvchilar, huquqshunoslar, madaniyat mutaxassislari, psixiatrlar, nevrologlar, jurnalistlar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Ma'lumki, davlatimiz rahbarining 2021-yil 19-maydagi "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida vazirlik qoshida avvalgi markaz negizida Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi va uning hududiy va tumanlararo 29 ta namunali markazi tashkil etildi<sup>1</sup>.

Markazlarning asosiy vazifasi tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan, o'z joniga suiqasd qilishga moyilligi bo'lgan xotin-qizlarga anonim tarzda shoshilinch tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordam ko'rsatishdan iborat. Ushbu yordam ko'rsatuvchi mutaxassislarning har biri o'z profili bo'yicha "ish jabhasi", ya'ni o'zlarining maqsadlari va vazifalari, o'z predmeti va obyekti, ma'lum bir vakolatlarni talab qiladigan va ularning kasbiy imkoniyatlarining ma'lum chegaralarini belgilaydigan o'z texnologiyalari mavjud.

O'z oilasida zo'ravonlikdan aziyat chekkan shaxslar bilan psixologik ish olib borishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Avvalo, zo'ravonlik qurbonlari bilan ishlash niyatida bo'lgan psixologlar uchun zo'ravonlik sabablari va u bilan bog'liq muammolarni tushunish bo'yicha ularning g'oyalari va e'tiqodlaridan xabardor bo'lishlari juda muhimdir hamda zo'ravonlik qo'llashni oqlash muammosiga o'z munosabatini aniqlash kerak. Zamonaviy jamiyatda jabrlanuvchilarga nisbatan qilingan zo'ravonlik uchun ma'lum darajada "o'zi

<sup>1</sup> «Зўрлик ишлатишдан жабр кўрган хотин-қизларни реабилитация қилишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 19.05.2021 йилдаги ПҚ-5116-сон// <https://lex.uz/docs/5426644>. Мурожаат этилган сана: 2.10.2023

aybdor" degan fikr keng tarqalgan. Ko'pincha jamoatchilik oiladagi zo'ravonlikni "shaxsiy" yoki "oilaviy masala" sifatida qaraydi, bunday huquqbuzarliklarning jiddiyligini hisobga olmaydi. Shu bilan birga, qarindoshlar ham, rasmiylar ham ayolni har qanday ko'rinishdagi zo'ravonlik harakatini qo'zg'atganlikda ayblashadi.

Olimlar viktimlik (qurbonlik) xulq-atvori fenomenini "provokatsionlik", "bo'ysunish", "og'riqli bog'liqlik", "boshqalarning muammolari va fikrlari bilan haddan tashqari o'voralik", "buzilgan munosabatlar", "qaramlik", "o'rganilgan narsalar to'plami", "xulq-atvorning buzg'unchi normalari", "o'tkir shaxs ichidagi mojaroga moslashish usuli" deb hisoblashadi. Bunday turli xil pozitsiyalar viktimlikni nafaqat og'riqli qaramlikning namoyon bo'lishi, balki oiladagi o'zaro munosabatlarning buzilishi, uning a'zolarining shaxsiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan disfunktsional oila modelining namunasi sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Buning natijasida ularning o'z-o'zini anglash va shaxsiy o'ziga xoslikka bo'lgan ehtiyojlari qondirilmaydi<sup>2</sup>.

Ma'lumki, oilada ayollar ko'proq zo'ravonlikdan aziyat chekadilar. Lekin bu oilada turmush o'rtoqlar o'rtasida erkaklarga nisbatan zo'ravonlikni e'tiborsiz qoldirish degani emas, albatta. Biroq shuni ham ta'kidlash kerakki, hatto rivojlangan mamlakatlarda ham oilada erkaklarga nisbatan ko'rsatilgan zo'ravonlik ikkinchi darajali muammo bo'lib qolmoqda. Gender tenglik nuqtayi nazaridan qo'shimcha ravishda ayolni yoki erkakni turmush o'rtog'i zo'ravonligining potensial yoki haqiqiy qurboniga aylantiradigan boshqa omillarni chuqur o'rganish va tahlil qilish talab etiladi. Bu kabi omillar psixologik prediktorlardir. Turmush o'rtog'i/sherigi tomonidan oilaviy zo'ravonlik qurboniga aylangan shaxslarning psixologik prediktorlari muammosi bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Zo'ravonlikning psixologik mohiyatida "viktimlik" tushunchasini o'rganish va tahlil qilish talab etiladi. I.Malkina-Pix viktimlik shaxs tomonidan jabrlanuvchi bo'lishga moyil bo'lishi

<sup>2</sup> Нестерова Л.В. Психологическая помощь женщинам, пострадавшим от домашнего насилия. Психологическая газета. <https://psy.su/feed/10068/>. Мурожаат этилган сана: 2.10.2023

mumkin bo'lgan jismoniy, aqliy va ijtimoiy xususiyatlar deb ta'kidlaydi<sup>3</sup>.

Har qanday zo'ravonlik harakati subyekt va obyektning mavjudligini nazarda tutadi. Zo'ravonlik subyekti zo'ravonlik harakatini sodir etgan shaxsdir. Zo'ravonlik obyektini zo'ravonlik harakati sodir etilgan shaxs/shaxslardir. Demak, ular ikkita alohida tadqiqot obyektini hisoblanadi. Zamonaviy psixologiyada zo'ravonlikdan jabrlangan shaxsning xususiyatlarini o'rganishga, psixologik portretini yaratishga kam e'tibor berilgan.

Viktimlik xatti-harakati – bu xatti-harakat, uning xususiyatlari shaxsning jinoyat, vaziyat yoki baxtsiz hodisa qurboni bo'lish ehtimolini oshiradi. Ushakovning izohli lug'atiga ko'ra, jabrlanuvchi – bu kimningdir zo'ravonligiga, g'arazli niyatiga duchor bo'lgan, kimdandir yoki biror narsadan jabrlangan shaxsdir<sup>4</sup>.

Viktimologiya – bu agressiv, jinoyat, zo'ravonlik qurbonlari va ularning shaxsiy va xulq-atvor xususiyatlarini o'rganadigan psixologik bilimlarning alohida sohasidir.

Ilmiy adabiyotlarda jabrlanuvchining jinsi, yoshi, ijtimoiy roli va ijtimoiy mavqeyi bilan bog'liq bo'lgan viktimlikning psixologik jihatlarini ajratib ko'rsatish odatiy holdir. Psixologiyada individual viktimlik ko'proq shaxsning o'ziga xos xususiyati sifatida o'rganiladi, lekin ko'pincha guruhviy viktimlikka e'tibor beriladi (masalan, jinsiy zo'ravonlik uchragan voyaga yetmagan bolalarning xususiyatlarini o'rganish va boshqalar).

E.S.Fominix viktimlikning psixologik mexanizmlarini o'rganib, oilaviy zo'ravonlikka uchragan shaxsda hayotiy barqarorlik yetishmasligi, o'zini shaxsiy mulk sifatida idrok etishi “xulq-atvorda mustahkam o'rinishgan, shaxsning hayotiy salohiyatini bostiradi va to'liq hayot kechirishiga to'sqinlik qiladi” degan xulosaga keladi<sup>5</sup>.

Jabrlanuvchi qanday vaziyatga tushib qolganini o'rganmasdan turib, albatta, zo'ravonlik sodir etish

mexanizmlarini tahlil qilib bo'lmaydi. Vaziyat nafaqat xulq-atvorni tanlashni belgilaydi, balki ba'zi hollarda harakat uchun yangi rag'batlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shunday qilib, to'satdan to'qnashuv ilgari jismoniy zo'ravonlik haqida o'ylamagan odamni, masalan, haqorat ta'sirida sodir etishga olib kelishi mumkin.

Zo'ravonlikka uchragan shaxsning ijtimoiy va huquqiy maqomi, xulq-atvor va ko'pincha jismoniy va ruhiy holati hamda zo'ravonlik bevosita o'zaro munosabatda sodir etilganda jabrlanuvchining holati zo'ravonlik sodir etilgan vaziyatning elementlarini tashkil qiladi.

A.A.Maksimov va A.V.Mayorov oilaviy zo'ravonlikka uchragan shaxsning psixologik jihatlariga e'tibor qaratadi va ularning psixopatik shaxsiy xususiyatlarini, masalan, patologik qo'rqqoqlik va yumshoqlik, isteriya, noadekvat yuqori emotsional holat, rigidlik kabilarni o'rganish kerakligini ta'kidlaydilar<sup>6</sup>.

P.N.Feshenko bugungi kungacha zo'ravonlikdan aziyat chekkan shaxslarning yagona ijtimoiy-psixologik portreti shakllantirilmagani, lekin har xil turdagi jinoyatlar qurbonlarining portretlari shakllantirilgani, masalan, firibgarlikdan jabrlanganlar haddan tashqari ishonuvchan, qotillik qurbonlari esa ehtiyotsiz ekanligini ta'kidlaydi<sup>7</sup>.

A.M.Matusevich va L.V.Kubishko jabrlanuvchilarning quyidagi individual psixologik xususiyatlarini ko'rsatadilar: o'zini o'zi hurmat qilish darajasi, empatiya, subyektiv nazorat darajasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hissi, tashvish, muloqotda jasorat, o'zini o'zi qabul qilish, radikalizm, umidsizlik darajasi va boshqalar.

Jinoyat, zo'ravonlik vaziyatlarining qurbonlari turli xil individual psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslardir. Zo'ravonlikdan jabr ko'rgan shaxs faol yoki passiv, o'z xatti-harakatining tabiati va oqibatlaridan xabardor bo'lish yoki johil, agressor bilan yaqin munosabatda yoki u bilan butunlay notanish bo'lishi, zulmga qarshilik ko'rsatishga qodir yoki qobiliyatsiz bo'lishi mumkin.

Viktimlik ayrim odamlarning taqdiriga bitilgan xususiyat emasligi va hatto kuchli shaxslar ham

<sup>3</sup> Малкина-Пых И.Г. Психология поведения жертвы. – М., 2006. – 756 с.

<sup>4</sup> Толковый словарь Ушакова онлайн [Электронный ресурс]. - <https://ushakovdictionary.ru/> Мурожаат этилган сана:06.09.2023

<sup>5</sup> Фоминых Е.С. Психологические механизмы виктимности // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2014. – № 5 (май). – С. 116–120. – URL: <http://e-concept.ru/2014/14132.htm> Мурожаат этилган сана:6.09.2023

<sup>6</sup> Максимов А.А., Майоров А.В. Психологические аспекты виктимности// Виктимология 4(6)/2015. – С. 26–30. [file:///C:/Users/Пользователь/Downloads/psihologicheskie-aspekty-viktimmnosti%](file:///C:/Users/Пользователь/Downloads/psihologicheskie-aspekty-viktimmnosti%20Murozhaat%20etilgan%20sana%2006.09.2023) Мурожаат этилган сана: 6.09.2023

<sup>7</sup> Фешенко П.Н. Виктимологический аспект социальной напряженности // Виктимология. 2015. № 2(4). – С. 36-41.



nafaqat shaxsiy-psixologik omillar, balki tashqi omillar tufayli ham jinoyat yoki zo‘ravonlik qurboniga aylanishi mumkin. Shu sababli jabrlanuvchining ijtimoiy-psixologik portretini yaratish vazifasi hali ham to‘liq bajarilmagan va uni aniqroq darajada hal qilish uchun muayyan turdagi jinoyat qurbonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini tan olish va tavsiflashga e‘tibor berish kerak.

A.M.Barishpoles va A.Y.Xolodov “o‘z xavfsizligi, passivligi va haddan tashqari ehtiyotkorligi haqida qayg‘urishga moyil bo‘lgan ayollar ko‘pincha zo‘ravonlik qurboni bo‘lishadi” degan xulosaga keladilar. Jabrlanuvchiga aylanish tendensiyasining psixologik prediktori oiladagi zo‘ravonlik itoatkorlikka, passiv hayotiy pozitsiyaga va xatti-harakatlardagi haddan tashqari ehtiyotkorlikka aylanadi, mualliflar buni “xulq-atvorning passiv modeli” deb atashgan<sup>8</sup>.

V.S.Kiselev esa aksincha, odamning biror-bir agressordan jabrlanishi, bir tomondan, qasoskor tajovuz va provokatsiyaga moyillik, o‘zini qurbon qilish tendensiyasi, rivojlangan passivlik hissi va o‘zini hurmat qilishining pastligi bilan bog‘liqligi haqida ta‘kidlaydi<sup>9</sup>.

N.N.Biktina zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxs tanqidiy tafakkurning pastligi bilan ajralib turishini ta‘kidlaydi<sup>10</sup>. Oilaviy zo‘ravonlikni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ayolning tanqidiyligi va sherigidan oilaviy zo‘ravonlikka duchor bo‘lganligi o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi ma‘lumotlar qarama-qarshi deb hisoblanishi kerak. Empirik ma‘lumotlarga qo‘shimcha tushuntirishlar talab qilinadi, ammo turmush o‘rtog‘i tomonidan oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarda tanqidiylikning past darajasiga moyilligi to‘g‘risidagi pozitsiya yanada asosli ko‘rinadi. Taxminlarga ko‘ra, bu

<sup>8</sup> Барিশполев А.М., Холодов А.Ю. Исследование отдельных поведенческих форм, способствующих подверженности женщин насилию // Психология и педагогика: методика и проблемы file:///C:/Users/Пользователь/Downloads/ Мурожаат этилган сана. 10.10.2023.

<sup>9</sup> Киселев В.С. Виктимное поведение жертв домашнего насилия // Молодой ученый. 2019. № 28 (266). – С. 126-128. URL: <https://moluch.ru/archive/266/61630/> Мурожаат этилган сана: 10.10.2023

<sup>10</sup> Биктина Н.Н. К проблеме виктимности личности подростка в современных исследованиях: сущность, виды, факторы возникновения и причины проявления / Н.Н.Биктина, А.Б.Баймешова // Современные проблемы науки и образования. 2015. № 2-2. – С. 542-551.

ayolda vaziyatni tanqidiy ko‘ra olmasligi unga sherigining xatti-harakatining haqiqiy halokatli xususiyatini tushunishga va uning sabablarini aniqlashga, o‘z harakatlarining mumkin bo‘lgan natijalarini bashorat qila olmasligiga imkon bermaydi.

A.B.Orlov oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarda “o‘ziga va dunyoga bo‘lgan ishonchni yo‘qotish, o‘zini o‘zi anglab yetmaslik, xavotirlanish, tushkunlik, agressivlik, kommunikativ qobiliyatsizlik va o‘zini past baholash”<sup>11</sup>, S.S.Konstantinova: “asossiz aybdorlik hissi va muammoni qabul qilmaslik past tanqidiylik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin”<sup>12</sup>, V.A.Malikova “yuqori darajadagi hayotiy barqarorlik zo‘ravonlikka qarshi turish uchun shaxsiy salohiyatga ega bo‘lish va uning muhim tarkibiy qismi bu nazorat”<sup>13</sup>, deb ta‘kidlaydi.

A.S. Zubrinskaya “ayollar, asosan, tashqi nazorat va ular vaziyatning hukmida ekanligiga ishonadilar”<sup>14</sup>, A.A.Semerikov va N.R.Anisimov “ayollar o‘zlarini qurbon qilishga tayyorligini, agressorga sodiqligini, uning xatti-harakatlarini tanqidiy tushunishni xohlamaslik”<sup>15</sup>, E.A.Yeratina, V.A.Yefremova “hayotining aksariyat sohalarida chegaralarni belgilay olmaslik”larini ta‘kidlaydilar<sup>16</sup>.

<sup>11</sup> Орлов А.Б. Психологическое насилие в семье – определение, аспекты, основные направления оказания психологической помощи // Психолог в детском саду. 2000. № 2-3.

<sup>12</sup> Константинова С.С. Психологические особенности виктимной личности // Виктимность и виктимологическая профилактика: Материалы круглого стола по дисциплине «Психология отклоняющегося поведения». – Тверь: Твер. гос. ун-т, 2019. – С. 25-29

<sup>13</sup> Маликова В.А., Аптикиева Л.П., Теоретический анализ проблемы формирования умения противостоять насилию // Вестник ОГУ. 2011. №2 (121). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/> Мурожаат этилган сана:4.10.2023

<sup>14</sup> Зубрицкая А.С. Особенности психологической помощи женщинам, пострадавшим от домашнего насилия // Вестник ТГЭУ. N 3/2009. – С. 77-87.

<sup>15</sup> Семерикова А.А., Анисимова Н.Р. Психологические особенности виктимного поведения женщин в ситуации домашнего насилия // Сервис в России и за рубежом. 2015. №1 (57). URL:<https://cyberleninka.ru/article/> Мурожаат этилган сана:06.10.2023

<sup>16</sup> Ератина Е.А., Ефремова В.А. Психологические особенности женщин с виктимным поведением в семье // Виктимность и виктимологическая профилактика: Материалы круглого стола по дисциплине «Психология отклоняющегося поведения». – Тверь: Твер. гос. ун-т, 2019. – С. 16-21.

Ko'plab xorijiy tadqiqotlar, masalan, A.Gershon, J.R.Leveskiy va boshqalar tomonidan zo'rvonlikka duchor bo'lgan shaxslar o'rtasida olib borilgan tadqiqotlarda erkaklar ayollarga qaraganda ko'proq jismoniy zo'rvonlikka duchor bo'lishini takidlaydilar<sup>17</sup>. Lekin bu oilada emas, balki ko'proq oiladan tashqarida zo'rvonlik bilan bog'liq jinoyatlarda ekanligini ta'kidlash joiz.

Gender farqlarni "jinoyatchi-jabrlanuvchi" juftligidagi munosabatlarning xususiyatlarida ham namoyon bo'lishida ko'rish mumkin. X.Zaykovskiy, L.R.Muftik, R.D.Moreno va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda erkaklar ko'proq notanish kishi tomonidan zo'rvonlik qurboniga aylangan, ayollar esa o'zlari taniydigan odamlar, oila a'zolari, sheriklari va hokazolar tomonidan sodir etilgan harakatlar natijasida qurbon bo'lishlari va bu tendensiya jinsiy zo'rvonlik va qotillik holatlarida ham namoyon bo'lishini ta'kidlaydilar. Chet elda olib borilgan tadqiqotlarda jabrlangan ayollar erkaklarga qaraganda ko'proq giyohvand moddalar yoki spirtli ichimliklarni iste'mol qilishlari haqida dalillar keltirilgan<sup>18</sup>.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar tahlili asosida aytish mumkinki, nikoh munosabatlari tizimida ayollarning jabrlanuvchi xatti-harakatlarining psixologik xususiyatlariga shaxsiy xususiyatlar va holatlarning keng doirasi, shuningdek, ayollarning oilaviy zo'rvonlik qurboni bo'lishga shaxsiy moyilligini belgilaydigan tashqi va ichki omillar majmuyi kiradi. Biroq psixologik tadqiqotlarda keltirilgan ma'lumotlar juda ziddiyatli va bizga oilaviy zo'rvonlikdan jabrlangan ayolning psixologik xususiyatlari haqida to'liq ma'lumotlar bermaydi. Oilaviy zo'rvonlikdan jabrlangan ayollarning turmush o'rtoqlar tomonidan qurbon bo'lish shakllari haqida izchil ma'lumotlar yo'q. Shuningdek, jabrlanuvchi bo'lish tendensiyasi va lokus nazorati hamda tanqidiylik darajasi kabi psixologik xususiyatlar o'rtasida tasdiqlangan korrelyatsiya ham mavjud emas.

Psixologiya sohasidagi ilmiy adabiyotlar va unda keltirilgan ta'riflar tahlili asosida bizning ilmiy ishimizda zo'rvonlik bir shaxsning boshqa shaxsga

zarar yetkazish yoki bo'ysundirish maqsadida qasddan va majburan ta'siri sifatida talqin etiladi.

Oilaviy zo'rvonlik – bu oila tizimida, birga yashaydigan shaxslar o'rtasida sodir bo'ladigan shaxslararo zo'rvonlik turiga kiradi. Shu bilan birga, turmush o'rtoqlar va sheriklar o'rtasidagi munosabatlarda oiladagi zo'rvonlik o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Hamkorlar/turmush o'rtoqlar o'rtasidagi munosabatlarda zo'rvonlikning barcha shakli paydo bo'lishi mumkin: jismoniy, psixologik, emotsional, jinsiy va iqtisodiy. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ayollar sherik tomonidan jismoniy, jinsiy va iqtisodiy zo'rvonlikka ko'proq uchrashadi. Psixologik, emotsional zo'rvonlik esa ayollar va erkaklarga nisbatan bir xil darajada keng tarqalgan.

Mavzuning yuqori darajada dolzarbligiga qaramay, bizning fikrimizcha, oilaviy zo'rvon, zo'rvonlikka duchor bo'lgan ayollarning psixologik xususiyatlarini ochib beradigan tadqiqotlar yetarli emas. Shuningdek, oilada erkaklarning zo'rvonlikka uchrashi va ularning psixologik xususiyatlari ochib berilmagan. Shuning uchun oilaviy zo'rvonlikka uchragan shaxslarning gender xususiyatlarini aniqlash mumkin bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi vaqtda oilada psixologik zo'rvonlik qurbonlarining psixologik xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlar mavjud, ammo bu mavzu haqida gapirishdan oldin zo'rvonlik "jabrlanuvchisi" fenomenini tushunish kerak.

Viktimologiyada qurbon tushunchasi (lot. –victima, ingl. – viktim, frans. – viktime, fan nomining o'zi shu yerdan kelib chiqqan). Biroq maishiy viktimologiyada "qurbon" atamasi bilan bir qatorda dastlab "jabrlanuvchi" atamasi qo'llanadi<sup>19</sup>. Biroq muammo dolzarb bo'lsa-da, hozirgi vaqtda ko'plab savollar to'liq o'rganilmagan. Bu ma'lum fanlarda (kriminologiya, viktimologiya, sotsiologiya) ekvivalent deb hisoblangan "viktim shaxs", "qurbon", "jabrlanuvchi", "jabrdiyda" tushunchalariga taalluqlidir, binobarin, ularni farqlash maqsadga muvofiqdir.

V.E.Xristenko jabrlanuvchi terminiga "biron-bir faoliyat jarayonida boshqa shaxsning unga ta'siri natijasida o'zi uchun muhim bo'lgan qadriyatlarini

<sup>17</sup> Levesque J.R. Sex Differences in the Experience of Child Sexual Victimization // Journal of Family Violence. 1994. Vol. 9, N 4. pp. 357–369.

<sup>18</sup> Zaykovski H., Gyunter W.D. Gender Differences in Victimization Risk: Exploring the Role of Deviant Lifestyles // Violence and Victims. 2013. Vol. 28, N 2. pp. 341–356.

<sup>19</sup> Сухов А.Н. Социальная психология безопасности. Учебное пособие. – М.: Академия, 2010. – 256 с.

yo‘qotgan shaxs, o‘zaro ta’sir ishtirokchisi, odamlar guruhi, muayyan voqea va holatlar” deb ta’rif beradi. Bu yerda muallif, bizningcha, zo‘ravonlik tufayli muhim bo‘lgan qadriyatlarining yo‘qolishi deb bir muncha bo‘rttirib ta’rif bergan. Chunki zo‘ravonlikning shakli va turi, uning shaxsiga ta’sir etish darajasi va nihoyat shaxs o‘ziga nisbatan ko‘rsatilgan zo‘ravonlikni qanday idrok etishiga ham bog‘liq.

D.V.Rivmanning fikricha, jabrlanuvchi, birinchi navbatda, bevosita zarar ko‘rgan shaxsdir<sup>20</sup>. Muallif kriminologiya nuqtayi nazaridan ta’rif bergani uchun ushbu fikr tor doirada bo‘lib qoladi.

Psixologiyada “viktin shaxs” va “jabrlanuvchi” tushunchalari aniq ajratilgan bo‘lsa-da, V.S.Muxina, N.G.Osuxova kabi tadqiqotchilarning ishlarida “jabrlanuvchi – bu baxtsizlik natijasida jabrlangan shaxs, qurbon esa baxtsizlikni boshdan kechirgan va o‘zini qurbon sifatida his qiladigan jabrdiydalar”, deb ta’rif beradilar. Bizningcha, bu ta’rif shunchaki so‘z o‘yini bo‘lib qolgan. Faqat “o‘zini qurbon sifatida his qiladigan” ibora haqida o‘ylab ko‘rish kerak bo‘ladi. Ba’zan doimiy zo‘ravonlik ostida yashab kelayotgan shaxslar, o‘zlariga nisbatan qo‘llangan agressiyani zo‘ravonlik deb emas, balki odatiy hol deb qabul qilishlari, o‘zlarini qurbon sifatida his etmasliklari mumkin.

Shuningdek, hozirgi vaqtda viktimlik (qurbonlik) masalasi munozarali bo‘lib qolmoqda. Bu hodisa tadqiqotda ham turlicha izohlanadi: ma’lum bir barqaror shaxsiy xususiyat<sup>21</sup>, qobiliyat, xulqdagig o‘g‘ish, psixologik buzilish, shaxsning noqulay vaziyatda qurbon bo‘lishga moyilligi deb ham ta’riflanadi.

Qomus ensiklopediyasida “jabrlanuvchi – jinoyat oqibatida yoxud aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida ma’naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar ko‘rgan shaxs”, deb ta’rif berilgan. Ma’naviy zarar fuqaroning ornomusi va insoniy qadr-qimmatini toptashda, uni boshqa fuqarolar oldida kamsitishda, jamoatchilik oldida obro‘isini tushirishda va badnom qilishda ifodalanadi<sup>22</sup>.

<sup>20</sup> Ривман В.Д. Криминальная виктимология. – Санкт-Петербург: Питер; 2002. – 305 с.

<sup>21</sup> Барановский Н.А. Введение в виктимологию: учебно-методическое пособие / Н.А. Барановский. – Мн.: «БИП-С», 2002. – 120 с.

<sup>22</sup> <https://qomus.info/encyclopedia/cat-j/jabrlanuvchi-uz/>  
Мурожаат этилган сана:06.10.2023

S.S.Niyozova jismoniy shaxs sifatida jabrlanuvchini o‘rganadigan “qurbon” tushunchasidan ko‘ra “jabrdiyda” tushunchasi nisbatan ma’qulligi, chunki “qurbon” tushunchasi ko‘proq qurbonlik qilish ma’nosini bildirishi, “jabrdiyda” tushunchasi esa moddiy va protsessual huquq bilan chegaralanib qolmagan holda viktimologik tadqiqot o‘tkazishga yordam berishini ta’kidlaydi<sup>23</sup>.

Shunday qilib, zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi ta’rifini ko‘rib chiqqan holda zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarni bu zo‘ravonlikning psixologik, emotsional, jismoniy, jinsiy, iqtisodiy va tibbiy turi natijasida jabrlangan, zarar ko‘rgan, aziyat chekkan har qanday subyektlar deb atashimiz mumkin.

Oiladagi zo‘ravonlik holatlarida aralashuv samaradorligiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. O‘zbekistonda 2019-yilda zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar uchun “himoya orderi” instituti joriy etildi. Ushbu jarayonda zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi huquqiy himoya bilan bir qatorda psixologik yordam olishi, ruhiy salomatligini tiklash imkoniyatiga ham ega.

Samaradorlik – bu intervensiya tomonidan qo‘yilgan vazifalarga erishishning ajralmas darajasi sifatida qaralishi kerak bo‘lgan ko‘p faktorli hodisadir. Odatda aralashuv samaradorligining quyidagi ko‘rsatkichlari qo‘llanadi: tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy. Aralashuvning bashorat qilingan natijalari orasida ijtimoiy faoliyat darajasi bilan o‘lchanadigan ijtimoiy samaradorlik eng muhim bo‘lishi kerak.

Intervensiya samaradorligi sezilarli darajada shaxs psixologik holatining og‘irligiga, ijtimoiy demografik xususiyatlariga, oilaviy zo‘ravonlikning davomiyligi va zo‘ravonlik darajasiga, shaxsning ma’lumot darajasiga, kasbiga, oilaviy muhitning xususiyatlariga bog‘liq.

Intervensiya strategiyalarini tanlash zo‘ravonlikka uchragan shaxsni tekshirish ma’lumotlariga asoslanishi kerak. Tekshiruvning asosiy maqsadi shaxsning intervensiya potensialini baholashdan iborat bo‘lib, uning asosida shaxs ijtimoiy faoliyatining muammolarini tavsiflash

<sup>23</sup> Ниёзова С.С. Шахсга қарши зўрлик ишлатиб содир этиладиган жиноятларда жабрланувчининг ўрни//Хуқуқий тадқиқотлар журнали. – Тошкент.2020. – Б. 13-22. №2 (2020) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2020-2>

kerak, shuningdek, shaxs bilan birgalikda mutaxassis intervensiya prognozini, uni amalga oshirish strategiyasi va usullarini aniqlaydilar.

Tadqiqot natijalari. Oilaviy zo‘ravonlik jabrlanuvchilarining (erkak va ayol) psixologik holatlari va ularning ijtimoiy-demografik, iqtisodiy omillar bilan bog‘liqligini o‘rganish 2022-yil mart va 2023-yil avgust oylarida tadqiqot o‘tkazildi.

Tadqiqotda respondentlarning yosh diapazoni 18 yoshdan 55 yoshgacha, ma’lumot darajasi turlicha – o‘rta maxsus, oliy ma’lumotli. Respondentlar quyidagi parametrlar bo‘yicha aniqlanadi: yoshi, ta’lim darajasi va oilaviy ahvoli, farzandli, daromad darajasi, turmush o‘rtog‘idan iqtisodiy mustaqillik darajasi, spirtli ichimlik, tamaki va giyohvand moddalarni qabul qilish. Tadqiqot respublikaning Namangan, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida olib borildi. Jami 115 ta erkak, 209 ta ayollar ishtirok etdilar.

Respondentlarning barchasi hayoti davomida oilaviy zo‘ravonlik sodir bo‘lganini da’vo qilganlar, lekin psixolog yoki ijtimoiy ishchilar xizmatidan foydalanmaganlar. So‘rovnoma va psixologik testlar o‘tkazish uchun mahallalardagi notinch va nizoli, zo‘ravonlik sodir etilgan oila sifatida ro‘yxatdan olingan oilalardan tasodif tanlash usuli orqali erkak va ayollar guruhi shakllantirildi.

1-jadval

**“Qancha vaqtdan beri turmush o‘rtog‘ingiz tomonidan zo‘ravonlikka uchrab kelyapsiz?” savoliga berilgan javoblarning jinsga bog‘liqligi (Xi-kvadrat mezoni asosida)**

Jins guruhlari	1–3 yil	3–5 yil	5 yildan ortiq	Jami
<b>Erkaklar</b>	57,3%	21,4%	21,4%	<b>100,0%</b>
<b>Ayollar</b>	41,9%	35,8%	22,3%	<b>100,0%</b>
<b>Jami</b>	<b>47,5%</b>	<b>30,5%</b>	<b>22,0%</b>	<b>100,0%</b>

Izoh:  $\chi^2 = 7,727$ ;  $p=0,021$

Ishlab chiqilgan anketalar bo‘yicha olingan ko‘rsatkichlarni Xi-kvadrat mezoni asosida taqqoslash natijalariga ko‘ra (2-jadval), turmush o‘rtog‘i tomonidan zo‘ravonlikka uchrash davomiyligining jins bilan bog‘liqligi ahamiyatli ekanligini ko‘rishimiz mumkin ( $p=0,021$ ). Erkaklarda zo‘ravonlik ko‘rsatish davomiyligi 1–3 yil bo‘lganda 57,3% , ayollarda esa 41,9% ni tashkil etib yuqori ko‘rsatkichda turibdi. Bu vaziyatni, yangi turmush qurganlar har doim ham

bir-birlarini yaxshi tushunmasliklari, fikrlarini o‘z bilganicha talqin qilishi, nikoh tajribasi kamligi, erkaklar turmushning birinchi yillarida o‘z ayollariga nisbatan ko‘proq sabr-toqatli bo‘lishlari va har doim ham ayol tomonidan ko‘rsatilgan zo‘ravonlikni oshkor etmaslik kabi sabablar bilan ko‘rsatamiz. 2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 1–3 yillik nikoh tajribasida erkaklarni ham ayollarni ham zo‘ravonlikka uchrashi yuqori darajada bo‘lsa-da, lekin, shu bilan birga, zo‘ravonlikdan aziyat chekish davomiyligi ayollarda erkaklardan ko‘proq ekanligi ko‘rinadi. Ya’ni 1–3 yil davomida zo‘ravonlikka uchragan erkaklar (57%) ayollardan (41,9%), 3–5 yil davomida zo‘ravonlikka uchraganlar orasida esa, aksincha, ayollar (35%) erkaklardan (21%) ko‘proq. 3–5 va 5 yildan ortiq nikoh tajribasida zo‘ravonlikka uchrash holati pastlashib borishini ko‘rishimiz mumkin. Bu hol er va xotinning oilaviy hayotga va bir-birlariga moslashib borishlarini, bir-birlarining xulq-atvorlarini yaxshi tushunib borayotganliklaridan, jismoniy xatti-harakatlar, verbal munosabatlar har doim ham zo‘ravonlik deb qabul qilinmayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, erkaklar ayollarning oilaviy zo‘ravonlikka uchrashidagi farqlarning ishonchliliigi Xi-kvadrat mezoni yordamida tasdiqlanganini va demak, zo‘ravonlikka uchrash davomiyligi jinsga bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval

**Turmush o‘rtog‘i tomonidan zo‘ravonlikka uchrash davomiyligi va uning sababi orasidagi bog‘liqlik (Xi-kvadrat mezoni asosida)**

Turmush o‘rtog‘ingiz tomonidan ko‘rsatilayotgan zo‘ravonlikning sababi nimada deb o‘ylaysiz?	Turmush o‘rtog‘i tomonidan zo‘ravonlikka uchrash davomiyligi			Jami
	1–3 yil	3–5 yil	5 yildan ortiq	
<b>Ichkilik (giyohvandlik)</b>	53,8%	20,5%	25,6%	<b>100,0%</b>
<b>Ishsiz</b>	40,0%	48,0%	12,0%	<b>100,0%</b>
<b>Onasining gapiga kiradi</b>	40,7%	38,3%	21,0%	<b>100,0%</b>
<b>Tabiatan johil</b>	51,2%	18,6%	30,2%	<b>100,0%</b>
<b>O‘zim aybdorman, ko‘p gap qaytaraman</b>	39,1%	30,4%	30,4%	<b>100,0%</b>
<b>Boshqa</b>	70,6%	8,8%	20,6%	<b>100,0%</b>
<b>Jami</b>	<b>47,8%</b>	<b>30,0%</b>	<b>22,2%</b>	<b>100,0%</b>

Izoh:  $\chi^2 = 25,894$ ;  $p=0,004$

**Oilada zo‘ravonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida sheriklarning rollardan kutilmalari namoyon bo‘lishidagi jinsiy tafovutlar (Mann-Uitni U mezon)**

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar		U	p
	Erkaklar (n=115)	Ayollar (n=209)		
Jinslararo munosabatlar	211,6	135,5	6370	0,000**
Shaxsiy identifikatsiya	206,7	138,2	6933,5	0,000**
Xo‘jalik-maishiy (kutilma)	201,1	141,3	7582,5	0,000**
Ota-onalik va tarbiyaviy (kutilma)	199,8	142,0	7723,5	0,000**
Ijtimoiy faollik (kutilma)	203,4	140,0	7308,5	0,000**
Emotsional-psixoterapevtik (kutilma)	207,2	137,9	6877	0,000**
Tashqi jalb etuvchanlik (kutilma)	199,0	142,4	7821	0,000**
Xo‘jalik-maishiy (da‘vogarlik)	166,5	160,3	11552,5	0,561
Ota-onalik va tarbiyaviy (da‘vogarlik)	160,5	163,6	11789,5	0,775
Ijtimoiy faollik (da‘vogarlik)	169,0	158,9	11265	0,343
Emotsional-psixoterapevtik (da‘vogarlik)	179,5	153,1	10061	0,014*
Tashqi jalb etuvchanlik (da‘vogarlik)	179,0	153,4	10120,5	0,017*

Izoh: \* – p<0,05; \*\* – p<0,01

Oilada zo‘ravonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida sheriklarning rollardan kutilmalari namoyon bo‘lishidagi jinsiy tafovutlar Mann-Uitni U mezon asosida tekshirilganda, erkaklarda jinslararo munosabatlar 211,6, shaxsiy identifikatsiya 206,7, xo‘jalik-maishiy (kutilma) 201,1, otalik va tarbiyaviy (kutilma)199,8, ijtimoiy faollik (kutilma) 203,4, emotsional-psixoterapevtik (kutilma) 207,2, tashqi jalb etuvchanlik (kutilma) 199,0, emotsional-psixoterapevtik (da‘vogarlik) 179,5, tashqi jalb etuvchanlik (da‘vogarlik) 179,0 yuqori va xo‘jalik-maishiy (da‘vogarlik) 166,5, ijtimoiy faollik (da‘vogarlik) 169,0, otalik va tarbiyaviy (da‘vogarlik) 160,5 past natijalar olingan. Ayollarda jinslararo munosabatlar 135,5, shaxsiy identifikatsiya 138,2, xo‘jalik-maishiy (kutilma) 141,3, onalik va tarbiyaviy (kutilma)142,0, ijtimoiy

Turmush o‘rtog‘i tomonidan zo‘ravonlikka uchrash davomiyligi va uning sababi orasidagi bog‘liqlik Xi-kvadrat mezon asosida tekshirilganda nikoh davomiyligi 1–3 yilgacha bo‘lgan oilalarda ichkilik (giyohvandlik) 53,8%, tabiatan johillik 51,2%, boshqalar 70,6% bilan yuqori ko‘rsatkichda turibdi. Keyingi o‘rinda ishsizlik – 40,0%, “onasini gapiga kiradi” (uchinchi shaxs aralashuvi) 40,7% va “o‘zim aybdorman ko‘p gap qaytaraman” – 39,1%.

$\chi^2 = 25,894$ ;  $p=0,004$  tanlanmalar orasidagi statistika ahamiyatli darajada ekanligini ta’kidlashimiz mumkin.

3-jadval

**“Psixologik yordamga muhtojlik” so‘rovnomasi shkalasining normal taqsimlanish qonuniga mosligini tekshirish natijalari (Kolmogorov-Smirnov Z mezon, N=324)**

Shkalalar	O‘rtacha	St. og‘ish	Kolmogorov-Smirnov Z	p
Psixologik yordamga muhtojlik	8,0	2,79	1,77	0,004**

Izoh: \*\* – p<0,01

Psixologik yordamga ehtiyojni aniqlash testi yordamida psixologik yordamga bo‘lgan ehtiyojning darajasi, umuman, psixologiya haqida ma’lumotga egaligi, psixologik ma’lumotlarga ehtiyoji yoki respondentning ushbu kasb vakillari haqida fikrlarini aniqlashga, o‘z muammolarini hal qilishda boshqa odamlarni jalb qilish istagi bor yoki yo‘qligi, shuningdek, respondentning psixologga bo‘lgan ishonchi va u bilan birgalikda ishlash istagi bor yoki yo‘qligini aniqlashga qaratilgan testdir. Kolmogorov-Smirnov Z mezon asosida tekshirilganda o‘rtacha 8,0 va statistik og‘ish 2,79 va \*\* – p<0,01 bo‘lib, mustahkam bog‘liq borligini ko‘rsatadi. Erkaklar va ayollarni solishtirganda ayollarda oilada zo‘ravonlikka uchrash ko‘rsatkichi erkaklarnikiga qaraganda kattaroq, lekin erkaklarda ham, ayollarda ham psixologik yordamga muhtojlik darajasi statistik ahamiyatligini ko‘rishimiz mumkin.

faollik (kutilma) 140,0, emotsional-psixoterapevtik (kutilma) 137,9, emotsional-psixoterapevtik (kutilma) 137,9, tashqi jalb etuvchanlik (kutilma) 142,4 natija va ayollarda xo'jalik-maishiy (da'vogarlik) 160,3, emotsional-psixoterapevtik (da'vogarlik) 153,1, tashqi jalb etuvchanlik (da'vogarlik) 153,4 yuqori natija ko'rsatgan, bu natijalar erkaklardan olingan test javoblaridan past bo'lsa-da, lekin ayollar uchun yuqori natija sifatida turibdi.

Ko'rinib turibdiki, erkakning oilada er sifatida emotsional qo'llab-quvvatlanish, barqaror psixologik muhitga bo'lgan kutilmasi yuqori. Nikoh qulay muhit sifatida qabul qilinadi, psixologik yengillik va barqarorlik, munosabatlarning intim-jinsiy sohasi muhim. Bu davrda jinsiy uyg'unlik nikoh baxtining muhim shartlaridan biri bo'lib, er o'z ayoliga nisbatan jinsiy munosabati jinsiy sherikning bahosi sifatida qabul qilinadi.

Turmush o'rtoqlarning jinsiy fazilatlarini qadrlamaslik er-xotinlar tomonidan og'riqli tarzda qabul qilinadi. Nikohning iqtisodiy va maishiy ota-onalik hamda tarbiyaviy, hissiy va psixoterapevtik funksiyalari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, erkak uchun kundalik hayotni tashkil qilishda sherikning kundalik ko'nikmalari muhimdir. Hamkorning ota-ona pozitsiyalari baholanadi. Turmush o'rtoqning umidlari turmush o'rtog'i bilan shaxsiy identifikatsiya qilish va turmush o'rtoqlarning ijtimoiy faolligi atrofida to'planadi. Qiziqishlar, ehtiyojlar, qadriyatlar, vaqtni o'tkazish usullari umumiylik haqidagi umidlar mavjud. Turmush o'rtoqlar uchun sherikning professional roli, oilaviy bo'lmagan manfaatlar va faol ijtimoiy rol muhim bo'ladi. Yuqorida ta'riflangan umidlar ayollarda bir muncha past bo'lgan bo'lsa-da, lekin umumiy holda har ikkala jins vakillari bergan javoblar \* – p<0,05; statistik ahamiyatli, \*\* – p<0,01 mustahkam ahamiyatli bo'lgan.

5-jadval

**Oilada zo'ravonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida depressiya namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlar (Mann-Uitni U mezoni)**

Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar		U	p
	Erkaklar (n=115)	Ayollar (n=209)		
Depressiya darajasi	116,8	187,6	6762,5	0,000**

Izoh: \*\* – p<0,01

Oilada zo'ravonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida depressiya namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlar Mann-Uitni U mezoni asosida tekshirilganda erkaklarda 116,8 va ayollarda 187,6 natija olindi. Zo'ravonlikka uchragan ayollarda depressiya darajasi erkaklarga qaraganda yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Umumiy holda har ikkala jins vakillarining natijalari \*\* – p<0,01 statistik ahamiyatga ega.

Depressiyada insonda qadrsizlik va o'zidan nafratlanish hissi tez-tez uchraydi, inson o'z hayotini qadrsiz yoki yashashga noloyqlik hissi yoki ruhiy tushkunlik og'rig'iga dosh berolmaslik hissi bilan boshqariladi. Depressiya har kimga, hatto hayotiy sharoitlari idealga yaqin bo'lganlarga ham ta'sir qilishi mumkin. Depressiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan bir qator omillar mavjud. Miya kimyosi depressiya belgilariga hissa qo'shishi mumkin. Irsiyat-depressiya oilalarda ham bo'lishi mumkin. Masalan, agar bir egizakdan biri depressiyani rivojlantirsa, ikkinchi egizakning hayoti davomida kasallik rivojlanishining 70% ehtimoli bor. Shaxsiy xususiyatlar – o'zini past baholaydigan, stressga osonlikcha duchor bo'lgan yoki umuman, pessimistik odamlar tushkunlikka tushishi ehtimoli ko'proq. Atrof-muhit zo'ravonlik, beparvolik, shafqatsizlik va qashshoqlik holatlariga doimiy ta'sir qilishi ba'zi odamlarni depressiyaga ko'proq moyil qiladi.

6-jadval

**Oilada zo'ravonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida xavotirlanish namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlar (Mann-Uitni U mezoni)**

Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar		U	p
	Erkaklar (n=115)	Ayollar (n=209)		
Reaktiv xavotirlanish	139,5	175,2	9371,5	0,001**
Shaxsiy xavotirlanish	131,0	179,8	8398	0,000**

Izoh: \*\* – p<0,01

Oilada zo'ravonlikka uchragan respondentlarda xavotirlanish namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlar Mann-Uitni U mezoni asosida tekshirilganda erkaklarda reaktiv xavotirlanish 139,4 va ayollarda 175,2; shaxsiy xavotirlanish erkaklarda 131,0 va ayollarda 179,8 yuqori natijani ko'rish mumkin. Odatda o'zini past baholaydigan odamlar turli xil

vaziyatlarga sezgir, ular buni o'zlarining hurmatiga tahdid deb bilishadi va shaxsiy tashvishlarni boshdan kechirishadi. Shaxsiy tashvish reaktivlik chegarasiga, xavotirning intensivligiga ega. Reaksiyalar va ularning dinamikasi har bir inson uchun individualdir. Ko'rsatkichlarni taqqoslash shuni ko'rsatadiki, respondentlar turli vaziyatlarda o'z tashvishini ko'rsatishga va ifoda etishga moyil. Taxmin qilish mumkinki, bu fakt shaxsning stressli vaziyatlarga shaxsiy munosabatning turli xususiyatlari va parametrlarini rivojlantira olmagan bilan bog'liq. Ehtimol, bunga oiladagi, jamiyatdagi tarbiya ta'sir ko'rsatadi. Olingan natijalar \*\* –  $p < 0,01$  statistik ahamiyatga ega.

7-jadval

**Oilada zo'rvonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida shikastlangandan keyingi stress reaksiyalari namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlar (Mann-Uitni U mezon)**

Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar		U	p
	Erkaklar (n=115)	Ayollar (n=209)		
Shikastlangandan keyingi stress reaksiyasi	182,9	151,3	9666,5	0,004**

Izoh: \* –  $p < 0,05$ ; \*\* -  $p < 0,01$

Oilada zo'rvonlikka uchragan respondentlarda shikastlangandan keyingi stress reaksiyalari namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlar Mann-Uitni U mezon asosida tekshirilganda erkaklarda 182,9 va ayollarda 151,3 natijani ko'rishimiz mumkin. Ko'rinib turibdiki, erkaklarda oiladagi zo'rvonlik tufayli olingan shikastlanishdan keyingi stress reaksiyasi (ShKSR) ancha yuqori. ShKSR intensivligi shaxsning individual xususiyatlariga, uning ta'sirchanligi va hissiy sezgirligiga, vaziyatga psixologik tayyorgarlik darajasiga, yoshi, jinsi, jismoniy va psixologik holati va boshqa omillarga bog'liq. Shikastli vaziyatlarning takrorlanishi ma'lum bir ahamiyatga ega – psixikaga muntazam shikast ta'sir qilish ichki zaxiralarning kamayishiga olib keladi. ShKSR oiladagi zo'rvonlikka duchor bo'lgan ayollar va bolalar bilan birga erkaklarda ham uchrashi aniqlandi. Ko'rsatkichlarning \* –  $p < 0,05$ ; \*\* –  $p < 0,01$  statistik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

**Yakuniy qism.** Oilangan natijalar asosida oilaviy zo'rvonlik nosimmetrik emas, ya'ni ayollar ko'pincha turmush o'rtog'i tomonidan jismoniy va jinsiy, iqtisodiy, psixologik, emotsional, tibbiy zo'rvonlik jabrlanuvchisi bo'lishadi, lekin ular o'zlari ham oz darajada bo'lsa-da, tajovuzkor sifatida harakat qilishlari mumkin. Er-xotinning zo'rvonligini o'rganishga yondashuv har ikkala er-xotinning zo'rvonligining barcha mumkin bo'lgan ko'rinishlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. So'nggi o'n yillikda oila instituti o'zgarishlarga uchradi va oilaviy hayotning yangi shakllari paydo bo'ldi. Erkaklar emas, balki "oilaviy zo'rvonlik" yondashuvi tarafdorlari (M.Straus, R.Gelles, L.Mills) oiladagi zo'rvonlikdagi "jinsiy simmetriya" g'oyasini ifodalagan holda, erkaklar va ayollar zo'rvonlik ishlatish uchun, taxminan, teng imkoniyatlarga ega deb hisoblaydilar.

Oilaviy zo'rvonlik vaziyatida har ikkala turmush o'rtog'i jabrlanuvchi bo'lish ehtimolini tan olgan holda, erkak va ayolning nisbati, darajasi, shakllari va sabablaridagi mavjud farqni hisobga olish kerak. Kelajakdagi ta'sirning tabiati haqida gapirishdan oldin oilaviy munosabatlarda zo'rvonlikka uchragan shaxslarning psixologik holatlari va xususiyatlarini tushunish kerak. Shuningdek, erkak va ayol xarakterining xususiyatlari, rollari va xatti-harakatlari haqidagi gender stereotiplarini jamiyatdagi zo'rvonlikning maqbul darajasi haqidagi stereotiplardan ajratish kerak.

Oilaviy zo'rvonlik zamonaviy jamiyatdagi eng jiddiy muammolardan biridir. Bu barcha oila a'zolarining jismoniy va psixologik farovonligiga halokatli ta'sir ko'rsatadi. Shundan kelib chiqqan holda, zo'rvonlik takrorlanishining oldini olish va jabrlanganlarning xavfsizligini ta'minlash uchun oiladagi zo'rvonlik holatlariga samarali aralashuv zarur. Biz o'z tadqiqotimizda oilaviy zo'rvonlik holatlariga aralashuv samaradorligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni ko'rib chiqdik. Bular ijtimoiy omillar:

a) ijtimoiy qo'llab-quvvatlash: Oilaviy zo'rvonlikdan jabrlanganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning mavjudligi ularning travmatik oqibatlariga dosh berish va yordam so'rashga qaror qilish qobiliyatida muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy tarmoqlar, jumladan, do'stlar, oila, qo'shnilar va professional yordamchilar nafaqat ruhiy yordam,

balki boshpana va huquqiy himoya so‘rashda amaliy yordam ko‘rsatishi mumkin;

b) ijtimoiy-madaniy omillar: Madaniy va ijtimoiy me‘yorlar oiladagi zo‘ravonlik qurbonining yordam so‘rash qobiliyatiga ta‘sir qilishi mumkin. Ba‘zi madaniyatlar yoki jamiyatlar ayollarning (erkaklarning) zo‘ravonlikdan himoyalani shu sababli aralashuv dasturlarini ishlab chiqishda ijtimoiy-madaniy xususiyatlarni hisobga olish muhimdir.

## 2. Psixologik omillar:

a) shikastli ta‘sirlar: Oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlanganlar shikastlanishdan keyingi stress buzilishi, depressiya, tashvish va o‘zini past baholash kabi turli xil psixologik ta‘sirlarni boshdan kechirishi mumkin. Jabrlanganlarga travmatik ta‘sirlarni yengish va tiklashga yordam berish uchun psixologik yordam va terapiya zarur bo‘lishi mumkin;

b) zo‘ravonlik davri: Oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlanganlar zo‘ravonlik sikliga tushib qolishlari mumkin, bu zo‘ravonlik munosabatlari keskinlashgan davrida sodir bo‘ladi, keyin jismoniy yoki hissiy portlashlar, so‘ngra “tinchlik va hamjihatlik” bosqichi. Ushbu siklni tushunish va jabrlanuvchiga uni buzishga yordam berish samarali aralashuvning muhim omili bo‘lishi mumkin.

## 3. Professional omillar:

a) ta‘lim va o‘qitish: Oiladagi zo‘ravonlik bilan ishlaydigan mutaxassislar zo‘ravonlik holatlariga samarali javob berish uchun tegishli tayyorgarlik va ta‘limga ega bo‘lishi kerak. Bunga qonunchilikni bilish, jabrlanuvchilar va jinoyatchilar bilan muloqot qilish ko‘nikmalari hamda oilaviy zo‘ravonlik dinamikasini tushunish kiradi;

b) xizmatlarni muvofiqlashtirish: Militsiya, yuridik organlar, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar kabi turli xizmatlar o‘rtasidagi hamkorlik va muvofiqlashtirish samarali aralashuvning kalitidir. Ma‘lumot almashish va birgalikda rejalashtirish jabrlanganlarga o‘z vaqtida va muvofiqlashtirilgan yordamni ta‘minlashga yordam beradi.


Oilaviy zo‘ravonlik holatlarida intervensiya samaradorligida ijtimoiy-psixologik omillar muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy-madaniy xususiyatlar, psixologik oqibatlar va kasbiy ko‘nikmalarni hisobga olish va xizmatlarni muvofiqlashtirish jabrlanganlarga samarali yordam ko‘rsatish hamda zo‘ravonlik takrorlanishining oldini olishga yordam beradi. Kelajakdagi tadqiqotlar va intervensiya dasturlarini ishlab chiqish hamda eng yaxshi natijalarga erishish uchun ushbu omillar hisobga olinishi kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. «Зўрлик ишлатишдан жабр кўрган хотин-қизларни реабилитация қилишга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 19.05.2021 йилдаги ПҚ-5116-сон// <https://lex.uz/docs/5426644> Мурожаат этилган сана:2.10.2023
2. Барановский Н.А. Введение в виктимологию: учебно-методическое пособие / Н.А.Барановский. – Мн.: «БИП–С», 2002. – 120 с.
3. Баришполец А.М., Холодов А.Ю. Исследование отдельных поведенческих форм, способствующих подверженности женщин насилию // Психология и педагогика: методика и проблемы file:///C:/Users/Пользователь/Downloads/ Мурожаат этилган сана. 10.10.2023.
4. Биктина Н.Н. К проблеме виктимности личности подростка в современных исследованиях: сущность, виды, факторы возникновения и причины проявления / Н.Н.Биктина, А.Б.Баймешова // Современные проблемы науки и образования. 2015. № 2-2. – С. 542-551.
5. Ератина Е.А., Ефремова В.А. Психологические особенности женщин с виктимным поведением в семье// Виктимность и виктимологическая профилактика: Материалы круглого стола по дисциплине «Психология отклоняющегося поведения». – Тверь: Твер. гос. ун-т, 2019. – С. 16-21.
6. Зубрицкая А.С. Особенности психологической помощи женщинам, пострадавшим от домашнего насилия// Вестник ТГЭУ. N 3/2009. – С. 77-87.
7. Zaykovski H., Gyunter W. D. Gender Differences in Victimization Risk: Exploring the Role of Deviant Lifestyles // Violence and Victims. 2013. Vol. 28, N 2. pp. 341–356.



8. Киселев В.С. Виктимное поведение жертв домашнего насилия // Молодой ученый. 2019. № 28 (266). – С. 126-128. URL: <https://moluch.ru/archive/266/61630/> Мурожаат этилган сана: 10.10.2023
9. Константинова С.С. Психологические особенности виктимной личности // Виктимность и виктимологическая профилактика: Материалы круглого стола по дисциплине «Психология отклоняющегося поведения». – Тверь: Твер. гос. ун-т, 2019. – С. 25-29.
10. Levesque J. R. Sex Differences in the Experience of Child Sexual Victimization // Journal of Family Violence. 1994. Vol. 9, N 4. pp. 357–369.
11. Малкина-Пых, И. Г. Психология поведения жертвы. – М., 2006. – 756 с
12. Маликова В.А., Аптикиева Л.Р. Теоретический анализ проблемы формирования умения противостоять насилию // Вестник ОГУ. 2011. №2 (121). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/> Мурожаат этилган сана: 4.10.2023
13. Максименков А.А., Майоров А.В. Психологические аспекты виктимности // Виктимология 4(6) / 2015, стр. 26–30. file:///C:/Users/Пользователь/Downloads/psihologicheskie-aspekty-viktimnosti% Мурожаат этилган сана: 6.09.2023.
14. Нестерова Л.В. Психологическая помощь женщинам, пострадавшим от домашнего насилия. Психологическая газета. <https://psy.su/feed/10068/> Мурожаат этилган сана: 2.10.2023
15. Ниёзова С.С. Шахсга қарши зўрлик ишлатиб содир этиладиган жиноятларда жабрланувчининг ўрни // Хуқуқий тадқиқотлар журналі. – Тошкент, 2020. – б 13-22. №2 (2020) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2020-2>
16. Орлов А.Б. Психологическое насилие в семье – определение, аспекты, основные направления оказания психологической помощи // Психолог в детском саду. 2000. № 2-3.
17. Ривман В.Д. Криминальная виктимология. – Санкт-Петербург: Питер; 2002. – 305 с.
18. Семерикова А.А., Анисимова Н.Р. Психологические особенности виктимного поведения женщин в ситуации домашнего насилия // Сервис в России и за рубежом. 2015. №1 (57). URL: <https://cyberleninka.ru/article/> Мурожаат этилган сана: 06.10.2023
19. Сухов А.Н. Социальная психология безопасности. Учебное пособие. – М.: Академия, 2010. – 256 с.
20. Толковый словарь Ушакова онлайн [Электронный ресурс]. – <https://ushakovdictionary.ru/> Мурожаат этилган сана: 06.09.2023
21. Фоминых Е.С. Психологические механизмы виктимности // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2014. – № 5 (май). – С. 116–120. – URL: <http://e-koncept.ru/2014/14132.htm> / Мурожаат этилган сана: 6.09.2023
22. Фещенко П.Н. Виктимологический аспект социальной напряженности // Виктимология. 2015. № 2(4). – С. 36-41.



**Mahkamova Dilfuza Baxtiyarovna,**  
*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi*  
*Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi*  
*"Xodimlar bilan ishlash" boshqarmasi boshlig'i*

## XOTIN-QIZLARNING DAVLAT XIZMATLARIGA IJTIMOIIY MOSLASHUVINING PSIXOLOGIK OMILLARI

**Annotatsiya.** Davlat xizmatiga xos bo'lgan yuqori nevro-psixik stress, ko'p qirrali vazifalar va vaqt yetishmasligi xodimning moslashuvchan resurslariga yuqori talablarni qo'yadi. Shu munosabat bilan, davlat xizmatlari xodimlari yangi avlodining psixologik xususiyatlarini o'rganish davlat xizmatlarining kadrlar salohiyatini mustahkamlash va saqlash, moliyaviy imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun ularning innovatsion fazilatlarini tushunish zarurati bilan belgilanadi. Xizmatga moslashish deganda, biz yangi tayinlangan xodim va uning aqliy faoliyati va xulq-atvori mehnat muhiti qoidalari va talablariga muvofiq shaxsiy rivojlanishini nazarda tutuvchi professional muhit o'rtasida faol va uyg'un o'zaro munosabatlar o'rnatishni tushunamiz. Xotin-qizlarning davlat xizmatlariga moslashishi ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni tadqiq etish bugungi kunda ayollarning faol "karyeraviy o'sish" elementlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ushbu muammo yuzasidan olib borilgan empirik tadqiqotlarning natijalari tahlil qilinadi.

**Tayanch so'zlar:** integratsiya, shaxslararo munosabatlar, moslashuv, davlat xizmatlari, internallik.

**Аннотация.** Высокая нервно-психическая нагрузка, многогранность задач и нехватка времени, присущие государственной службе, предъявляют высокие требования к гибким ресурсам работника. В связи с этим, исследование психологических особенностей нового поколения работников государственной службы определяется необходимостью понимания их инновационных качеств в целях укрепления и поддержания кадрового потенциала государственной службы и эффективного использования финансовых возможностей. Под адаптацией к службе мы понимаем установление активного и гармоничного взаимодействия вновь назначенного работника с профессиональной средой, что предполагает личностное развитие его психической деятельности и поведения в соответствии с правилами и требованиями рабочей среды. Адаптация женщин к государственной службе – многогранный процесс, изучение которого имеет сегодня большое значение при определении элементов активного «карьерного роста» женщин. В статье анализируются результаты эмпирических исследований по данному вопросу.

**Ключевые слова:** интеграция, межличностные отношения, адаптация, государственные услуги, интернальность.

**Annotation.** The high neuropsychic stress, multifaceted tasks and lack of time inherent in the civil service place high demands on the employee's flexible resources. In this regard, the study of the psychological characteristics of the new generation of public service employees is determined by the need to understand their innovative qualities in order to strengthen and maintain the personnel potential of public services and effectively use financial opportunities. By adaptation to the service, we understand the establishment of active and harmonious interaction between the newly appointed employee and the professional environment, which involves the personal development of his mental activity and behavior in accordance with the rules and requirements of the working environment. Adaptation of women to public services is a multifaceted process, the study of which is of great importance today in determining the elements of active "career growth" of women. The article analyzes the results of empirical research on this problem.

**Keywords:** integration, interpersonal relations, adaptation, public services, internality.

**Kirish.** Turli sohalaridagi mutaxassislarning e'tiborini faoliyat, muloqot va bilish subyekti sifatida shaxsning moslashuv resurslari bilan bog'liq muammolar tobora ko'proq jalb qilmoqda. Moslashuv masalalari umumiy psixologiya va shaxs psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va rivojlanish psixologiyasi, shuningdek, individual farqlar psixologiyasi (differensial psixologiya) kabi fundamental fan sohalarida markaziy o'rin egallaydi. U tibbiy, yuridik, sport, pedagogik, muhandislik psixologiyasi va psixologik bilimlarning boshqa amaliy sohalarida kontekstida o'ziga xos tarzda hal qilinadi. Zamonaviy psixologiyaning deyarli barcha asosiy yo'nalishlarida, tabiiyki, u yoki bu yondashuvga xos bo'lgan o'ziga xos urg'u bilan tadqiqot markazida juda katta o'rin berilgan. "Moslashish" atamasini umumiy ilmiy tushunchalarga kiritish mumkin. Bunday tushunchalar turli xil bilim sohalarining "bog'lanish joylarida", "bog'lanish nuqtalarida" yoki hatto alohida fanlarda paydo bo'lib, keyinchalik ularni tabiiy, texnik va ijtimoiy fanlarning ko'plab sohalariga ekstrapolyatsiya qilish bilan birga keladi. Moslashuv konsepsiyasi uzoq va qarama-qarshi rivojlanish yo'lini bosib o'tdi, uning qiyinchiliklari moslashish hodisasining obyektiv murakkabligi bilan bog'liq. Fan taraqqiyoti va ushbu toifani qo'llash chegaralarining kengayishi munosabati bilan moslashish nazariyasining mazmuni sifat jihatidan o'zgarib bormoqda. Moslashuv murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida uni ko'rib chiqishga turli yondashuvlar asosidagi konseptual asosning mazmuniga ma'lum talablarni qo'yadi. Birinchidan, "moslashish" tushunchasining mazmunini aniqlash kerak, chunki turli mualliflar bu bilan moslashish predmeti va adaptogen vaziyatdagi o'zgarishlarning turli tomonlarini nazarda tutadilar. Shunga asoslanib, nafaqat tashkilot va korxonalar rahbarlarining, balki xodimlarining martaba rivojlanishining ushbu bosqichida boshqaruv moslashuvi muammosini hal qiladigan menejrlarning shaxsiy fazilatlarini ko'rib chiqish muhimdir.

**Maqsad va uni asoslash.** Moslashuv tahlili ushbu murakkab hodisaning barcha o'lchovlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Bunday asosiy o'lchovlar sifatida biz moslashishning yangi shakllanishlarni (aqliy sifatlarini) shakllantirish jarayoni, natijasi va asosi sifatida ko'rib chiqishga qaratamiz.

Moslashuvning protsessual jihati, birinchi navbatda, uning vaqtinchalik xususiyatlari – moslashuvning uzunligi va bosqichlarini aniqlashga asoslanadi. Ushbu yo'nalish doirasida moslashuv jarayonining asosiy elementlari aniqlangan, yagona mantiqiy va vaqt ketma-ketligiga bog'langan. Shu bilan birga, psixologik nazariya va amaliyotning turli sohalarida (ijtimoiy moslashuv bosqichlaridan moslashuvning psixofiziologik mexanizmlarigacha) moslashuv jarayonining turli jihatlari o'rganilgan. Moslashuvning samarali jihati an'anaviy ravishda umuman adaptiv jarayonlarning muvaffaqiyatini baholashda asosiy element sifatida qo'llanadi, shuning uchun samarali mezon eng oddiy dixotomiyadan (moslashish – noto'g'ri adaptatsiya) moslashish fenomenining ko'pgina zamonaviy tasniflari uchun asosdir. A.N. Jmirikov tasnifiga muvofiq, faoliyatning chiqish parametrlari mezonlari, shaxsning mikro va makro muhit bilan integratsiyalashuvi darajasi, shaxsiy potensialni ro'yobga chiqarish darajasi va farovonlikning hissiy foni, moslashuv natijalarining to'rt darajali shkalasida asoslanadi<sup>1</sup>.

Moslashuvning yakuniy natijalarini tizimlashtirishni taklif qiladigan so'nggi ishlarimizdan biri ikki o'lchovli tavsifni o'z ichiga oladi<sup>2</sup>. Ijtimoiy moslashish modelining ortogonal o'lchovlari sifatida insonning haqiqiy xatti-harakatlarining ijtimoiy muhit talablariga ("tashqi mezon" deb ataladigan) muvofiqligi, shuningdek, tahdid hissi yo'qligi va shaxsiy qulaylikka erishish ("ichki mezon" deb ataladigan) taklif etiladi. Moslashuvni ko'rib chiqish aspekti uning davomida turli xil yangi qirralarining shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, ma'lum bir tarzda ilgari aniqlangan ikkita yondashuvni (protsessual va samarali) birlashtiradi. Yangi shakllanishlar yig'indisi nafaqat moslashuv subyekti tomonidan olingan va ishlab chiqilgan ko'plab bilimlar va ko'nikmalar, balki kasbiy va ijtimoiy muhit bilan shaxslararo o'zaro munosabatlarning murakkab tizimini ham o'z ichiga oladi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Реан А.А. К проблеме социальной адаптации личности // Вестник СПбГУ. Сер. Экономика, философии, психологии, права. 1995. – № 3. – С. 74-79.

<sup>2</sup> Психология менеджмента / Под ред. Г. С. Никифорова. – Санкт-Петербург: Изд-во «СПбГУ», 1997.

<sup>3</sup> Реан А.А. Психологический анализ проблемы удовлетворенности избранной профессией // Вопросы психологии. 2008. – № 1. – С. 83-88.

K.Lorensning evolyutsion-genetik konsepsiyasiga muvofiq, inson naslining yashashi va moslashishi jarayonida kollektivizm, qurbonlik, axloqiy me'yorlar kabi shaxsiy xususiyatlar, lekin, eng avvalo, agressiya shakllanadi<sup>4</sup>. Evolyutsiya, genetika va inson xulq-atvori bo'yicha ko'plab empirik ma'lumotlarni umumlashtirgan holda, adaptiv jarayonlar zamonaviy jamiyat talablariga muvofiq namoyon bo'ladigan va mustahkamlangan genetik dasturlar "tabiiy moyilliklar" asosida rivojlanadi.

Agressiyaning moslashuvchan tabiati haqidagi tezis amaliy jihatdan ham (zamonaviy sivilizatsiya agressiya-raqobatli o'zaro ta'sirni ijtimoiy moslashuv xavfi yuqori bo'lgan hayot strategiyasi sifatida rivojlantiradi) nazariy jihatdan tasdiqlanmagan.

Bizning fikrimizcha, o'z-o'zini identifikatsiya qilish tamoyiliga amal qilish, birinchi navbatda, moslashish jarayoni subyekti faoliyatining rolini kamaytirish orqali (asosan, adaptiv reaksiyalar bosqichida) moslashuv rasmini biroz yomonlashtiradi. Inson individualligining turli darajalarida moslashuv subyekti tomonidan shakllangan yangi o'zgarishlarni aniqlash uning rivojlanishidagi moslashish jarayonini to'liqroq ko'rib chiqishga imkon beradi. V.T. Kudryavsev to'g'ri ta'kidlaganidek, har qanday darajadagi rivojlanish har doim yangi narsalarni yaratishdir<sup>5</sup>.

N.N. Vasilevskiy uch toifadagi subyektlarning mavjudligini eksperimental va statistik jihatdan asoslab berdi, uning tasnifini nerv va somato-vegetativ funksiyalarning moslashuvchanligi, plastikligi darajasiga asosladi: adaptiv (yuqori plastiklik, hayotning yangi sharoitlariga qayta konfiguratsiya qilish qobiliyati bilan), o'rtacha moslashuvchanlik (asab tizimining o'rtacha moslashuvchanligi, yangi sharoitlarda somatik reaksiyalar) va mos kelmaydigan (tashqi muhitda sezilarli o'zgarishlar bilan past moslashuvchanlik yoki hatto reaktiv dinamikaning yo'qligi)<sup>6</sup>.

<sup>4</sup> Lay C. H., Edwards J. M., Parker James D. A., Endler N. S. An assessment of appraisal, anxiety, coping and procrastination during an examination period // Eur. J. Pers. 2009. №3.

<sup>5</sup> Rogers C. R. Dealing with psychological tensions // Inter personal dynamics. Essays and readings on human relation / W. G. Bennis et al. The Dorsey Press. USA, 2003

<sup>6</sup> Абульханова-Славская К. А. Личностные типы мышления личности // Когнитивная психология. – Москва: Наука, 1986. – С. 154-172.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va rolini o'rganish, ayniqsa, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ega bo'lgan jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. Uzoq vaqt davomida ayollarning jamiyatdagi mavqeyi bilan bog'liq muammolar kuzatilmadi. Biroq bugungi kunda dunyoni qamrab olgan inqiroz, birinchi navbatda, ayol va oilaga ta'sir qildi. Shunday qilib, ishlab chiqarishda ayollarning ikkinchi, ijtimoiy jihatdan kamroq obro'li bo'lgan joyga ko'chirilishi bilan ikkita mehnat bozorini ajratish tendensiyasi mavjudligi aniq edi. Qashshoqlikni feminizatsiya qilish jarayoni kam maoshli, ishsiz, kam daromadlilar orasida ayollarning ustunligida davom etmoqda.

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, bir qator ko'rsatkichlar bilan belgilangan ayollarning asosiy maqom pozitsiyalari qisqacha tavsiflangan. Ulardan asosiylari quyidagilardir: ma'muriy-siyosiy hokimiyat; mulkning hajmi va xususiyati (tovar yoki kapital, ya'ni iqtisodiy kuch); daromadning hajmi va xarakteri; axloqiy mukofot, obro', ta'sir (ma'naviy kuch); ish sharoitlari; vertikal yuqoriga yo'nalgan ijtimoiy harakatchanlik istiqbollari; bo'sh vaqt. Mazkur keltirilgan tasnifdan jamiyat faoliyatining asosi sifatida inson huquq va erkinliklarining gender jihatini ko'rib chiqish kerakligi ma'lum bo'ladi. Zero, gender omilini hisobga olmasdan turib, insoniyatning haqiqiy rivojlanishi haqida gapirish mumkin emas. Bundan tashqari, deyarli barcha mamlakatlarda ayollar aholining yarmini yoki hatto ko'p qismini tashkil qiladi. Shu bilan birga, bugungi kunda ular erkaklarinikiga nisbatan iqtisodiy va siyosiy hayotda ko'p imkoniyatlardan mahrum<sup>7</sup>.

Erkaklar va ayollar haqidagi stereotipik g'oyalar tufayli jamiyatda gender tengsizligi saqlanib qolmoqda. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya ratifikatsiya qilgan bo'lishiga qaramay, haqiqatda jamiyatda, oilada va ishda ayollar huquqlari doimiy ravishda poymol etilmoqda. Genderga asoslangan huquqlarni buzish shakllari juda xilma-xil bo'lib, teng huquqlarni to'g'ridan-to'g'ri buzish, masalan, ishga qabul qilish

<sup>7</sup> Аронсон Э. Теория диссонанса: прогресс и проблемы // Современная зарубежная социальная психология. Тексты. – Москва: Изд-во МГУ, 1984. – С. 111- 126.

va ishdan bo'shatish, ayollarning o'z huquqlaridan foydalanishiga aniq to'siqlar yaratishgacha kabi shakllarda davom etmoqda. Ayollar huquqlari bilan bog'liq vaziyat, ayniqsa, jamiyatda davom etayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar davrida, ularning erkaklarga nisbatan aniq tengsizligining salbiy tendensiyalari paydo bo'lganda yomonlashdi, jumladan,

– siyosatda: ayollarning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tuzilmalaridan siqib chiqarilishi;

– iqtisodiyotda: maosh, shuningdek, ishga olish va ishdan bo'shatishda kamsitishning kuchayishi;

– madaniyat va ommaviy axborot vositalarida: ayollarning “tabiiy taqdiri” mafkurasiga asoslangan jinslar o'rtasidagi patriarxal munosabatlarni mustahkamlash, bir tomondan, uning burchlariga an'anaviy munosabat, bir tomondan jinsiy hayotdan ommaviy ravishda ekspluatatsiya qilish, boshqa tomondan, ayol tanasining tijoratlashuvigacha<sup>8</sup>.

Ayollarning raqobatbardosh pozitsiyalarining zaifligi nafaqat bandlik, balki ishsizlik xususiyatlarida ham namoyon bo'ladi. Xotin-qizlar ishdan bo'shatilgan taqdirda birinchi bo'lib azob chekishadi, shuning uchun ham ish joyini yo'qotish xavfi ular uchun jiddiy muammodir. Ishlayotgan ayollarning aksariyati ishini yo'qotishdan qo'rqadi va deyarli yarmi o'zi ishlayotganidan yomonroq ish topishlari mumkinligiga umuman ishonchi komil emas. Shu bilan birga, ishni yo'qotishdan qo'rqish darajasi va boshqa ishga kirishga bo'lgan ishonch ayolning yoshi va uning bilimiga bog'liq. Ish bilan bog'liq qo'rquvning eng yuqori nuqtasi pensiya yoshiga to'g'ri keladi. Ayollarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlovchi omillardan biri ayollar mehnatining arzonligi bo'lib qolmoqda<sup>9</sup>.

Tarixda o'rnatilgan mehnat xulq-atvori normalari va munosabatlaridan tubdan farq qiladigan bozorga o'tish sharoitida ayollar erkaklarnikiga qaraganda erkin, tashabbuskorlik faoliyatiga kamroq tayyor. Ayollar nafaqat o'zlarining ijtimoiy va kasbiy mavqeyini ommaviy ravishda o'zgartirishga, balki ko'p hollarda uni kamaytirishga, ishsiz qolishga,

<sup>8</sup> Силласте Г.Г., Кожамжарова Г.Ж. Социальная дискриминация женщин как предмет социологического анализа // Социс. 1997. – №31.

<sup>9</sup> Бандура А., Уолтере Р. Принципы социального научения // Современная зарубежная социальная психология. Тексты. – Москва: Изд-во МГУ, 1984. – С. 55-60.

keyin esa, na ma'lumotni va na to'plangan kasbiy bilimlarni talab qilmaydigan ish shakllariga qayta tayyorlashga majbur bo'lishadi. Davlat xizmatlariga ijtimoiy moslashuvning psixologik xususiyatlarini vujudga keltirishda ta'sir etuvchi psixologik omillarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot ishimizda jami 347 nafar ayollar respondent sifatida qatnashgan bo'lib, ulardan 193 nafari xususiy sektorda, 154 nafari esa davlat xizmatlarida faoliyat olib boradi.

Kasbiy moslashuv – kasbni to'liq va muvaffaqiyatli egallash, ya'ni kasbga odatlanish, mehnat mazmuni va tabiatiga, uning sharoiti va tashkil etilishiga moslashishdir. Bu kasbiy bilim va ko'nikmalarni, malakalarni ma'lum darajada o'zlashtirishda, shaxs tabiatining kasb-hunar xususiyatiga mos kelishida ifodalanadi. Ishga qabul qilishda xodim zarur kasbiy qobiliyatlarga ega ekanligini bilish muhimdir. Ammo to'liq muvaffaqiyatli kasbiy moslashish uchun korxonada ishning barqarorligi uni sifatli amalga oshirish sharti, shuningdek, jamiyat va davlatdagi umumiy ijtimoiy barqarorlik uchun zarurdir. Adaptatsiya (117,62), dezadaptatsiya (80,20), yolg'on (20,76), aldash (13,14), o'z-o'zini qabul qilish (34,10), o'z-o'zini qabul qilmaslik (23,21), boshqalarni qabul qilish (16,53), boshqalarni qabul qilmaslik (17,49), emotsional komfort (22,37), emotsional diskomfort (21,66), ichki nazorat (47,03), tashqi nazorat (32,55), boshqarish (11,07), boshqarilish (18,40), eskapizm (15,52) ko'rsatkichlarida so'rovnomada belgilangan me'yorlarga mos ko'rsatkichlar qayd etildi. Masalan, eskapizm shkalasida me'yor 10–20 ball oralig'ini tashkil etishi muallif tomonidan belgilangan bo'lib, ayollarda olingan natijalarda bu 15,52 ni tashkil etdi. Barcha shkalalarda o'rtacha me'yor ko'rsatkichlari metodikaning belgilangan standartlariga mos kelishi aniqlandi. Bundan ma'lum bo'ladiki, ayollarda ijtimoiy moslashuvchanlikni aks ettiruvchi xususiyatlarning shakllanganlik darajasi oltin me'yor asnosida aks etadi. E'tiborimizni tortgan jihat adaptatsiya hamda dezadaptatsiya shkalasida qayd etilgan natijalar bo'lib, mazkur shkalalar uchun me'yor 68–170 ball oralig'ini tashkil etishi belgilangan. Ayollarda mos ravishda ushbu o'rtacha ko'rsatkich 117,62 hamda 80,20 ni qayd etib, maksimal ballar qayd etgan sinalluvchilarda 202 va 178 ballar kuzatildi. Bundan ayollarda moslashuvchanlik ham, dezadaptatsiya ham rivojlanishda eng yuqori ko'rsatkichda amalga oshirilishi mumkin, kabi xulosalarga kelishimizga

olib keladi. Ba'zi ayollarda esa adaptatsiya va dezadaptatsiya ko'rsatkichlari minimal 50 va 36 ballni ifodalab, ushbu shkalada past ball qayd etgan sinalluvchilar mavjudligini anglatadi.

1-jadval

**Ijtimoiy moslashuvchanlikni aniqlash (Daymond-Rodgers) metodikasining tavsiflovchi statistik tahlili (n=347)**

Shkalalar	Min	Max	M	$\sigma$
Adaptatsiya	50,00	202,00	117,62	44,76
Dezadaptatsiya	36,00	178,00	80,20	29,37
Yolg'on	5,00	36,00	20,76	7,96
Aldash	1,00	26,00	13,14	4,95
O'z-o'zini qabul qilish	12,00	52,00	34,10	11,06
O'z-o'zini qabul qilmaslik	3,00	38,00	23,21	6,62
Boshqalarni qabul qilish	6,00	28,00	16,53	4,27
Boshqalarni qabul qilmaslik	5,00	29,00	17,49	5,08
Emotsional komfort	11,00	38,00	22,37	7,01
Emotsional diskomfort	7,00	44,00	21,66	7,90
Ichki nazorat	17,00	80,00	47,03	16,03
Tashqi nazorat	10,00	60,00	32,55	12,99
Boshqarish	4,00	24,00	11,07	4,51
Boshqarilish	7,00	36,00	18,40	6,39
Eskapizm	3,00	29,00	15,52	5,49

Shaxsning yangi ijtimoiy muhitga ijtimoiy-psixologik moslashuvini tatbiq etuvchi moslashuvchanlik darajasini aniqlashga mo'ljallangan ushbu metodika gumanistik psixologiya asoschilaridan biri Karl Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan juda qadimgi metodika hisoblanadi. U shaxsning ijtimoiy sohadagi moslashuv-mos adaptatsiya darajasini ochib beradi va dezadaptatsiya uchun asos sifatida bir qator turli holatlarni taklif qiladi: o'zini o'zi qabul qilishning past darajasi; boshqalarni qabul qilishning past darajasi, ya'ni ular bilan qarama-qarshilik; tabiatan juda boshqacha bo'lishi mumkin bo'lgan hissiy noqulaylik; boshqalarga kuchli qaramlik, ya'ni tashqilik; hukmronlik istagi va hokazo.

Mazkur keltirilgan metodikaning adaptatsiya shkalasining tavsiflovchi ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 117,2 ni tashkil etdi. Bundan ko'rinadiki ( $E=-1,208$ ), ayollarning yangi muhitga kirishish jarayonida adaptiv komplekslar

tashkilot nuqtayi nazaridan murakkab differensiallik kasb etmas ekan. Barchada bo'lgani singari ayollarda ham moslashuvchanlik kasbiy faoliyatning asoslaridan biri bo'lishi kuzatildi.

Metodikaning adaptatsiya, dezadaptatsiya ( $E=1,316$ ), o'z-o'zini qabul qilish ( $E=-1,216$ ) va boshqarish ( $E=-0,284$ ) shkalalarida boshqa ko'rsatkichlarga qaraganda ballar taqsimotida har xillik aks etganini ayollarning ijtimoiy moslashuvi hamda mehnat faoliyatida ehtiyojlar realizatsiyasi, moslashish indikatorlari, moslashmaslikdan qochish, o'zini mehnat sharoitida boricha qabul qilish, boshqarish hamda boshqarilishga munosabatning shakllanganligi bilan izohlash joiz. Tashqi nazorat esa ( $E=-1,205$ ) ayollarda mehnatni to'g'ri va samarali tashkil etish, ba'zi holatlarda ish mavzusidan og'ishmaslik kabilarni namoyon etishda ko'zga tashlanadi.

Ayollarning professional faoliyatlarida ushbu adaptiv indikatorlardan boshqarish, o'zini qabul qilish, ichki nazorat, yolg'on, emotsional komfort kabilarni ularning pozitiv adaptatsiyasida yaqqol fenomenologik yondashuvni qo'llashga xizmat qilsa, aksincha, aldash, tashqi nazorat, boshqarilish, emotsional diskomfort, o'zini qabul qilmaslik, eskapizm kabilarda dezadaptatsion motivlarni shakllanishi ilgari suriladi.

2-jadval

**Xodimning ijtimoiy moslashuvchanlik darajasini aniqlash (R.X. Ismailov) so'rovnomasining tavsiflovchi statistik tahlili (n=347)**

Shkalalar	Min	Max	M	$\sigma$
Guruhga munosabat	1,00	10,00	5,88	1,90
Xodimlar o'rtasidagi munosabatlar	1,00	12,00	6,14	2,30
O'z pozitsiyasidan qoniqish	2,00	12,00	7,13	2,86
Kollektivizmni baholash	2,00	12,00	7,13	2,44
Mehnatga munosabat	2,00	12,00	7,55	2,50
Mehnat sharoitlaridan qoniqish	1,00	8,00	5,21	1,87
Kichik guruhga munosabat	2,00	12,00	7,80	2,65
Ishda o'zidan qoniqish	1,00	12,00	7,99	2,56
Rahbarga munosabat	1,00	10,00	5,66	2,57
Yolg'on shkalasi	1,00	12,00	6,59	3,18

Xodimning ijtimoiy moslashuvchanlik darajasini aniqlash so'rovnomasida guruhga munosabat (5,88), xodimlar o'rtasidagi munosabatlar (6,14), o'z pozitsiyasidan qoniqish (7,13), kollektivizmni baholash (7,13), mehnatga munosabat (7,55), mehnat sharoitlaridan qoniqish (5,21), kichik guruhga munosabat (7,80), ishda o'zidan qoniqish (7,99), rahbarga munosabat (5,66) hamda yolg'on shkalasi (6,59) bo'yicha o'rtacha belgilangan me'yorlarga mos ko'rsatkichlar kuzatildi. Ayollarning kasbiy faoliyat hamda ish joyiga moslashish xususiyatlarining psixologik jihatlarini o'rganuvchi navbatdagi metodikaning tavsiflovchi ma'lumotlariga, asosan, eng yuqori o'rtacha qiymat ko'rsatkichi ishda o'zidan qoniqish shkalasida qayd etilganini ko'rish mumkin ( $M=7,99$ ). Bundan ma'lum bo'ladiki, ayollarda o'z imkoniyatlarini realizatsiya qilish ularda o'zi bajarayotgan ishdan qoniqish hosil qilish, o'z mehnat mahsulidan rohatlanish hamda muvaffaqiyat qozonishga intilish motivatsiyasining ortib borishiga olib keladi. Shu bois ularning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda ishda o'zidan qoniqish hosil qilish ko'nikmasining shakllanganlik darajasiga e'tibor berish hamda o'zida qoniqish hosil qiluvchi elementar komponentlarni tashkilot miqyosida tatbiq etish uchun sharoit yaratib berish lozim bo'ladi.

Rahbarga munosabat shkalasida ham o'rtacha qiymat ko'rsatkichida ( $M=5,66$ ) tafovutlar kuzatilgan bo'lib, moslashuv jarayonida ayollarda rahbarning "qosh-qovog'iga" qarash, rahbar ko'rsatmalaridan chetga chiqmaslik, "belgilab bergan chizig'ida yurish" holatlari kam kuzatilib, bu ularning moslashuvchanlik xususiyatining o'ziga xos belgilari sifatida ish jarayonida yuzaga chiqishi bilan ham tavsiflanar ekan. Mazkur natijalardan kelib chiqadiki, ayollarda tashkilotga moslashuvi obyektiv omillarga qaraganda subyektiv omillar ta'sirida ro'y berar ekan.

Mehnat sharoitlaridan qoniqish ( $M=5,21$ ) ko'rsatkichida ham o'rtacha qiymat darajasi boshqa shkalalarga nisbatan pastroq natijani ifodaladi. Xodim uchun yangi ishga kirgan muhitida muhim hisoblanuvchi faktorlardan biri bu mehnat sharoitidan qoniqish hisoblansa, ayollarda etnik xususiyatimizdan kelib chiqib, "tegirmonga tushsa ham butun chiqish" maqoliga monand ravishda yangi sharoitlarga ko'nikish paytida yaratilib

berilgan sharoit emas, balki yaratilgan sharoitda ishlovchi shaxslar bilan bo'ladigan munosabatlar muhimroq o'rin egallashi ma'lum bo'ldi.

3-jadval

**Subyektiv nazorat darajasini aniqlash (Dj. Rotter) metodikasining tavsiflovchi statistik tahlili (n=347)**

Shkalalar	Min	Max	M	$\sigma$
Umumiy internallik	-6,00	87,00	26,92	22,70
Muvaffaqiyatda internallik	-4,00	28,00	7,81	8,74
Muvaffaqiyatsizlikda internallik	-6,00	27,00	6,50	7,30
Oilaviy munosabatlarda internallik	-12,00	20,00	4,14	6,20
Ishlab chiqarish munosabatlarida internallik	-8,00	21,00	4,05	5,64
Shaxslararo munosabatlarda internallik	-9,00	18,00	3,73	4,47
Salomatlik bo'yicha internallik	-9,00	21,00	3,17	4,39

Ayollardagi subyektiv nazorat darajasini tadqiq etuvchi, yuqorida keltirilgan metodikada qayd etilgan natijalar tahliliga ko'ra, umumiy internallik (26,92), muvaffaqiyatda internallik (7,81), muvaffaqiyatsizlikda internallik (6,50), oilaviy munosabatlarda internallik (4,14), ishlab chiqarish munosabatlarida internallik (4,05), shaxslararo munosabatlarda internallik (3,73), salomatlik bo'yicha internallik (3,17) shkalalarida o'rtacha me'yorga mos ko'rsatkichni ifodaladi. Subyektiv nazorat darajasi – bu turli vaziyatlarda o'xshash tarzda namoyon bo'ladigan umumlashtirilgan shaxsiy xususiyatdir. Olimlarning fikricha, subyektiv nazorat darajasi shaxsning "shu yerda va hozir" sodir bo'layotgan voqealarga, shuningdek, uzoq muddatli oqibatlariga, ya'ni ijtimoiy yetuklik va shaxsiy mustaqillik uchun javobgarlik hissi bilan bog'liq. Internal tipdagi shaxslar ular bilan sodir bo'lgan barcha muhim voqealarni o'z faoliyati natijasida baholaydilar. Ular yolg'izlikda samaraliroq ishlaydi, ma'lumot qidirishda faolroq. Bundan tashqari, internal shaxslar tashabbusni talab qiladigan ishda yaxshiroqdir. Ular yanada qat'iy, o'ziga ishongan, shaxslararo munosabatlarda prinsipial,

tavakkal qilishdan qoʻrqmaydi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, internal shaxslar direktiv yetakchilikni muvaffaqiyatli amalga oshirishga qodir.

Ayollarda umumiy internallik koʻrsatkichi boshqa metodika koʻrsatkichlariga qaraganda yuqoriroq ahamiyat kasb etdi. Maksimal ball 87 ni qayd etib, ayollar barcha ishlarda xoh turmush, xoh kasbiy soha boʻlsin irodaviy regulyatsiyani namoyon etib, oʻzlari bilan sodir boʻlayotgan voqealar, oʻz harakatlari uchun javobgarlikni oʻz zimmasiga olishlari erkaklarnikidan kam emasligini namoyon etdi. Salomatlik boʻyicha internallik koʻrsatkichining nisbatan past ballda koʻrinishi esa, ayollarning ish, oila yumushlari bilan “oʻralashib” qolishlari natijasida oʻz sogʻliklariga eʼtibor berishni unutib qoʻyish ehtimoli balandligidan, deb xulosalar berishga turtki boʻladi. Salomatlik boʻyicha internallikni koʻpincha oʻzlarining sogʻligʻi uchun asosan oʻzini javobgar (agar kasal boʻlsa, buning uchun oʻzini ayblaydi va tiklanish koʻp jihatdan oʻzing harakatlariga bogʻliq) deb hisoblovchi shaxsga oid jihat sifatida aytishimiz mumkin.

**Yakuniy qism.** Ishlab chiqarish faoliyatida ijtimoiy-psixologik moslashuv va barqarorlik ishlab chiqarishda muvaffaqiyatli moslashish omillaridan biri sifatida dolzarflik kasb etadi. Shaxsning ishlab chiqarish faoliyatiga ijtimoiy-psixologik moslashuvi

– bu jamoadagi bevosita ijtimoiy muhitga, jamoaning anʼanalari va yozilmagan meʼyorlariga, rahbarlarning ish uslubiga, jamoada shakllangan shaxslararo munosabatlarning xususiyatlariga moslashishdir. Bu xodimning barcha aʼzolari tomonidan qabul qilingan teng huquqli sifatida jamoaga kiritilishini anglatadi<sup>10</sup>. Hozirgi vaqtda har qanday tashkilot rahbariyati doimiy ravishda samarali moslashish tizimini shakllantirish zarurati bilan duch keladi, shu jumladan, korxonada xodimiga oʻzi uchun ham, minimal yoʻqotishlar bilan yangi lavozimga muvaffaqiyatli kirishga imkon beradigan chora-tadbirlar majmuyini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Yuqorida olingan empirik tadqiqot natijalariga asoslanib, xotin-qizlarning davlat xizmatlariga ijtimoiy moslashuvining muvaffaqiyatli boʻlishiga taʼsir etuvchi psixologik omillar sifatida shaxsning psixologik qirralari, muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi, turli vaziyatlarda internallik koʻrsatkichi, oʻz pozitsiyasidan va kollektivistik faoliyatdan qoniqish darajasi kabilarni alohida taʼkidlab oʻtish mumkin.

<sup>10</sup> Водопьянова И.Е. Активная жизненная позиция личности и профессиональная адаптация в условиях социально-экономического кризиса // Психологические проблемы самореализации личности. Вып. 2. – Санкт-Петербург: Изд-во “СПбГУ”, 1998. – С. 144-153.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Реан А.А. К проблеме социальной адаптации личности // Вестник СПбГУ. Сер. Экономика, философии, психологии, права. 2005. – № 3.
2. Психология менеджмента / Под ред. Г. С. Никифорова. – Санкт-Петербург: Изд-во «СПбГУ», 2007.
3. Реан А.А. Психологический анализ проблемы удовлетворенности избранной профессией // Вопросы психологии. 2008. – № 1. – С. 83-88.
4. Lay C.H., Edwards J.M., Parker James D.A., Endler N.S. An assessment of appraisal, anxiety, coping and procrastination during an examination period // Eur. J. Pers. 2009. №3.
5. Rogers C.R. Dealing with psychological tensions // Inter personal dynamics. Essays and readings on human relation / W. G. Bennis et al. The Dorsey Press. USA, 2003
6. Абульханова-Славская К.А. Личностные типы мышления личности // Когнитивная психология. – Москва: Наука, 2006.
7. Аронсон Э. Теория диссонанса: прогресс и проблемы // Современная зарубежная социальная психология. Тексты. – Москва: Изд-во МГУ, 2014.
8. Силласте Г.Г., Кожамжарова Г.Ж. Социальная дискриминация женщин как предмет социологического анализа // Социс. 2007. – №31.
9. Бандура А., Волтере Р. Принципы социального научения // Современная зарубежная социальная психология. Тексты. – Москва: Изд-во МГУ, 2014.
10. Водопьянова И.Е. Активная жизненная позиция личности и профессиональная адаптация в условиях социально-экономического кризиса // Психологические проблемы самореализации личности. Вып. 2. – Санкт-Петербург: Изд-во «СПбГУ», 2018.





**Аскарова Гулрух,**  
Преподаватель кафедры «Практическая психология» факультета «Педагогика и психология» ТГПУ им. Низами



**Эркинова Рисолат,**  
Студентка 4-го курса факультета «Педагогика и психология» ТГПУ им. Низами

## ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ПРАКТИЧЕСКОЙ ПСИХОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация.** В статье рассматривается одна из актуальных проблем практической психологии на современном этапе – анализ и обсуждение проблем развития практической психологии и подготовки психологов-практиков в Узбекистане. Также предлагаются комплексные подходы для эффективного разрешения проблем в области практической психологии.

**Ключевые слова:** практическая психология, образование, психологическая поддержка, культурные особенности, профессиональное развитие, психолог-практик, подготовка, компетентность.

**Annotatsiya.** Maqolada hozirgi bosqichdagi amaliy psixologiyaning dolzarb muammolaridan biri – O‘zbekistonda amaliy psixologiyaning rivojlanishi va amaliyotchi psixologlar tayyorlash muammolari tahlili va muhokamasi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, amaliy psixologiya sohasidagi muammolarni samarali hal qilish uchun kompleks yondashuvlar taklif etiladi.

**Tayanch so‘zlar:** amaliy psixologiya, ta’lim, psixologik yordam, madaniy xususiyatlar, kasbiy rivojlanish, amaliyotchi psixolog, tayyorgarlik, kompetentlik.

**Annotation.** The article work examines one of the pressing problems of practical psychology at the present stage – the analysis and discussion of the problems of the development of practical psychology and the training of practicing psychologists in Uzbekistan. Integrated approaches for effectively resolving problems in the field of practical psychology are also proposed.

**Keywords:** practical psychology, education, psychological support, cultural characteristics, professional development, practicing psychologist, preparation, competence.

**Введение.** В современном мире многие сталкиваются с проблемами, требующими вмешательства практических психологов. В Узбекистане существуют свои уникальные проблемы и перспективы в развитии практической психологии. Профессия практического психолога требует высоких навыков и глубокого понимания человеческой природы. Будущие практические психологи должны быть способными помогать людям разбираться с собственными чувствами и проблемами. Развитие практической психологии в Узбекистане представляет собой значимый

шаг в направлении формирования здорового и устойчивого общества.

Однако одной из главных проблем в развитии практической психологии в Узбекистане является недостаточное количество квалифицированных специалистов. Несмотря на увеличение интереса к психологии среди молодежи, неэффективная система профессиональной подготовки становятся серьезным препятствием<sup>1</sup>,

<sup>1</sup> Каримова З. «Психологическая поддержка в образовательных учреждениях: анализ ситуации в Узбекистане» // Журнал Современной Психологии, 2021. 30 (4), 210-223.

проблемы в сфере практической психологии включают в себя устаревшие образовательные структуры, отсутствие практического опыта у будущих и практикующих психологов, а также ограничения в междисциплинарной подготовке. Еще одной проблемой является ограниченность психологических услуг в образовательных учреждениях, недостаточность специализированных центров и недостаточное внимание к психологическому здоровью учащихся, которые влияют на общую атмосферу в учебных заведениях<sup>2</sup>.

Эти выявленные проблемы существенно влияют на способность психологов эффективно решать современные проблемы и задачи в сложной и быстро меняющейся социальной реальности. Поэтому обращение внимания на эти аспекты становится жизненно важным для последующих дискуссий и реформ в области профессиональной подготовки психологов.

Анализ литературных источников подтверждает, что в современной российской психологии активно исследуются вопросы, связанные с профессиональным развитием будущих психологов. Работы выдающихся ученых, таких как Г. Абрамова, И. Андрийчук, Г. Бадалова, О. Бондаренко, Ж. Верная, Л. Долинская, И. Зязюн, Т. Ильина, О. Кондрашихина, Н. Коломинский, И. Мартынюк, В. Панок, Н. Повьякель, Н. Пророк, В. Семиченко, Л. Уманец, Н. Чепелева, Н. Шевченко, Л. Шнейдер и других, посвящены данной теме. Эти исследования охватывают различные аспекты профессионального роста будущих психологов, включая методики обучения, анализ практического опыта, развитие необходимых навыков и компетенций.

В работах Г. Абрамовой, например, рассматриваются аспекты формирования профессиональной идентичности психолога<sup>3</sup>. Исследования И. Андрийчук<sup>4</sup> фокусируются

<sup>2</sup> Мирзаев О. Профессиональная подготовка практических психологов в Узбекистане: проблемы и перспективы. // Образование и Наука, 2019. 11(3). – С. 112-125.

<sup>3</sup> Абрамова Г. С. Общая психология: [Учеб. пособие для вузов]/Г. С. Абрамова. – Москва: Акад. проект, 2002. – 494.

<sup>4</sup> Андрийчук И.П. Формирования позитивной Я-концепции особенностей практических психологов в процессе профессиональной подготовки: автореф. дис. ...канд. психол. наук: спец. 19.00.07 «Педагогическая психология». – К, 2003. – 20 с.

на профессиональной саморефлексии и развитии профессиональной компетенции. Исследователи обращают внимание на важность психологической готовности будущих практикующих специалистов к разнообразным сценариям профессиональной деятельности. Ученые выражают мнение о том, что профессиональная подготовка психологов должна осуществляться в новой лично ориентированной парадигме, акцентируя внимание на актуализации важных личностных качеств, формировании профессиональной компетентности и разработке системы профессиональных навыков.

Перспективы практической психологии связаны, в первую очередь, с развитием современных информационных и коммуникационных технологий, что существенно расширяет возможности работы специалиста и предъявляет новые требования, обусловленные спецификой современного профессионального пространства.

Таким образом, литературные источники демонстрируют широкий спектр научных исследований, направленных на понимание и оптимизацию процесса профессионального становления будущих психологов.

**Цель и обоснование.** Цель статьи – рассмотреть существующие теоретические подходы, проанализировать и понять, насколько важно развивать практическую психологию и подготовки психологов-практиков в Узбекистане.

В условиях быстрого развития Узбекистана, когда многое меняется в социуме из-за глобализации, быстрого обмена информацией и изменений в общественной жизни, практическая психология становится важным инструментом поддержки здоровья людей. Мы хотим более глубоко изучить, какие факторы влияют на то, насколько эффективна психологическая поддержка в стране, и разработать стратегии для ее улучшения.

Обоснование актуальности исследования вытекает из следующих ключевых факторов:

1. Социокультурные особенности. Узбекистан обладает уникальными чертами в социокультурном аспекте, которые существенно влияют на психологические потребности и

ожидания его населения. Понимание этих особенностей является ключевым элементом для успешного предоставления психологической помощи. Культурные нормы, традиции и ценности могут оказывать глубокое влияние на восприятие психического здоровья и подходы к его улучшению. Исследование этих аспектов позволит адаптировать методики и стратегии практической психологии под уникальные требования узбекского общества, что повысит эффективность психологической помощи<sup>5</sup>.

2. Рост запросов к психологической поддержке. Сегодня люди становятся более информированными о вопросах психического здоровья, и меняются стереотипы в обществе. Этот рост осведомленности ведет к увеличению спроса на высококачественные услуги практической психологии. Люди становятся более открытыми в вопросах своего эмоционального благополучия и ищут профессиональную помощь для решения своих проблем. Это явление требует внимательного исследования, чтобы эффективно удовлетворять растущие потребности в психологической поддержке и обеспечивать высокий уровень услуг<sup>6</sup>.

3. Образовательные институты. С учетом растущей потребности в психологической поддержке, важно рассмотреть состояние образовательных программ и подготовки психологов для соответствия современным требованиям<sup>7</sup>.

4. Социальные изменения. Быстро меняющаяся структура семьи, образ жизни и социальная активность создают динамичные сценарии, требующие соответствующей методов практической психологии. Эти изменения влияют на взаимоотношения, образ мышления и стратегии решения проблем в современном обществе. Исследование влияния этих социальных изменений на потребности в

психологической помощи поможет разработать более эффективные и актуальные методы работы практической психологии, способные соответствовать новым вызовам и реалиям современного общества<sup>8</sup>.

#### **Описание и решение научной проблемы.**

Научная проблема, представляет развитие практической психологии в Узбекистане, которая неразрывно связана с необходимостью теоретических и методологических основ этой области к уникальным социокультурным особенностям страны. Современное узбекское общество, находясь в процессе активного социокультурного развития и воздействия глобализации, сталкивается с проблемами, требующими эффективных и методов работы в сфере практической психологии.

Проблемы включают в себя ассимиляцию зарубежных подходов, сохранение культурной идентичности в работе практических психологов, а также учёт национальных особенностей в предоставлении психологической помощи. Недостаточное внимание к этим аспектам может привести к неэффективности практической психологии и недовольству со стороны клиентов.

Для эффективного разрешения проблем в области практической психологии в Узбекистане предлагаются комплексные подходы:

Центральным элементом решения является активная культурная адаптация зарубежных методов и подходов к практической психологии. Это включает в себя создание специализированных программ, ориентированных на уникальные культурные нормы и ценности узбекского общества.

Необходимо разработать образовательные программы, которые акцентируют внимание на межкультурной компетенции будущих практических психологов. Обучение должно включать в себя кейс-стади (case study) и практические занятия, ориентированные на работу с клиентами различных культурных фонов.

Проведение систематических научных исследований, направленных на выявление национальных особенностей психического

<sup>5</sup> Умарова Н. А. Практическая психология и ее влияние на социокультурные изменения в Узбекистане. // Образование и Наука, 2019-27 (2). – С. 134-147.

<sup>6</sup> Алексеев П.Н. Основы практической психологии: теоретические аспекты. Изд-во «Психологические исследования», 2017. – С. 112-128.

<sup>7</sup> Ганиева М.Ш. Современные тенденции в развитии психологической науки в Узбекистане. // Журнал Психологических Исследований, 2019. – 25(3). – С. 45-58.

<sup>8</sup> Умарова Н.А. Практическая психология и ее влияние на социокультурные изменения в Узбекистане. // Образование и Наука, 2019. – 27 (2). – С. 134-147.

здоровья и адаптацию существующих методик к узбекскому контексту. Это позволит создать эффективные инструменты для работы практических психологов.

Реализация системы обратной связи с клиентами для регулярной оценки эффективности практической психологии. Это включает в себя проведение анкетирования и фокус-групп для выявления потребностей и ожиданий клиентов.

Установление тесного сотрудничества с местными общественными организациями для учета потребностей и мнений различных групп населения в процессе разработки и внедрения практических методик. Это также способствует участию широкого круга общества в разработке и реализации психологических программ.

Решение научной проблемы требует комплексного и системного подхода, объединяющего усилия образовательных учреждений, практикующих специалистов и научных исследователей. Принятие таких мер позволит сформировать практическую психологию, адаптированную к уникальным особенностям узбекского общества и эффективно справляющуюся с трудностями современности.

Для решения проблемы недостатка квалифицированных специалистов необходимо улучшить систему профессиональной подготовки. Важно разработать программы, соответствующие современным требованиям и внедрять передовой опыт обучения. Также для улучшения психологической поддержки в образовательных учреждениях необходимо развивать сеть специализированных центров и повышать роль психологов в школьной жизни.

**Заключение.** Подводя итог обсуждению развития психологии в Узбекистане, давайте обратим внимание на проблемы и возможности. Мы видим, что развитие сталкивается с трудностями, но важно увидеть и шансы для улучшения. Как мы можем справиться с этими трудностями и сделать психологическую помощь лучше?

Первым шагом может быть внесение изменений в то, как мы предоставляем помощь. Мы можем сделать образование в этой области более современным, сделать психологическую помощь более доступной и поддерживать профессиональное развитие специалистов.

Главное – внимательно рассмотреть проблемы и работать вместе для их решения.

Усиление роли психологов в образовательных учреждениях и создание сети специализированных психологических центров станет ключевым фактором в формировании поддерживающей среды для студентов и обеспечении психологического здоровья общества в целом.

Однако изменение подхода к психологии требует не только структурных решений, но и изменения в общественном восприятии.

Развитие практической психологии должно стать неотъемлемой частью образа жизни, где забота о психическом здоровье признается как ключевой компонент благополучного общества.

Одной из ключевых проблем в развитии практической психологии в Узбекистане является сложность адаптации современных теорий и методов к уникальным культурным особенностям страны. Узбекистан, обладая богатым историческим и культурным наследием, требует особого внимания к сохранению своей уникальной идентичности. Психологические методики, применяемые в других странах, не всегда могут быть адаптированы к узбекским реалиям, что подчеркивает важность разработки и внедрения специфических, культурно-адаптированных подходов.

Один из подходов к решению данной проблемы – это активное взаимодействие государства, образовательных учреждений, и тесное взаимодействие с местными общественными организациями, профессиональных практикующих психологов и представителями различных культурных групп. Только объединенные усилия и сосредоточенность на уникальных потребностях узбекского общества позволят добиться конкретных результатов в развитии практической психологии и улучшении психического здоровья населения страны.

Кроме того, важным направлением в преодолении проблемы ограниченной доступности к качественным психологическим услугам является развитие системы образования и повышение квалификации психологов. Образовательные программы должны включать в себя не только теоретические аспекты, но и

учебные курсы, направленные на развитие межкультурной компетенции и работы с клиентами из разных культурных сред.

Научные исследования играют важную роль в процессе развития психологии. Исследования, учитывающие особенности культуры и истории Узбекистана, могут пролить свет на специфические потребности и проблемы в сфере психического здоровья населения. Поддержка и финансирование таких исследований является ключевым для создания базы данных и ресурсов, способствующих более эффективной работе практических психологов.

Так же одним из актуальных направлений развития психологии в Узбекистане является

расширение психологических служб в отдаленных регионах. Обеспечение равного доступа к психологической помощи независимо от места проживания становится все более важным. Создание пунктов психологической помощи и увеличение числа специалистов в региональных центрах может значительно улучшить ситуацию.

Когда поддерживаем развитие практической психологии, мы помогаем создать общество, в котором забота о психическом здоровье становится важной частью жизни всех людей и способствует национальному развитию и благополучию.

#### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Забродин Ю.М., Пахальян Э.В. Психологическое просвещение в контексте содержания ФГОС и стандартов профессиональной деятельности // Психологическая наука и образование, 2017. Том 9. – № 1.
2. Исаков Р. Современные тенденции в профессиональной подготовке практических психологов. // Международный Журнал Профессионального развития, 2022. 18 (2).
3. Каримова З. Психологическая поддержка в образовательных учреждениях: анализ ситуации в Узбекистане. // Журнал Современной Психологии, 2021. 30 (4).
4. Мирзаев О. Профессиональная подготовка практических психологов в Узбекистане: проблемы и перспективы. // Образование и Наука, 2019. 11 (3).
5. Пономарёва Е.Ю. Социально-психологические проблемы профессиональной подготовки практических психологов // Гуманитарные науки, УДК 316.6:378:159.98–051.
6. Петрова Е. Опыт внедрения психологической поддержки в образовательные системы стран Европы. // Европейский Журнал Образования, 2017. 25 (4).
7. Хасанов А. Тенденции развития психологической поддержки в постсоветском пространстве. // Психология и Образование, 2018. 23 (1).
8. Эндеберя И.В. Профессиональное становление будущих практических психологов как психологическая проблема // Психология и педагогика: методика и проблемы, 2016. 24 (3).



**Bo'riyeva Mahbuba,**  
"Oila va xotin qizlar" ilmiy-tadqiqot  
instituti kichik ilmiy xodimi

## MIGRANT OILALARDA NIKOHDAN QONIQISH DARAJASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada er-xotin munosabatlaridagi eng muhim omillardan biri – bu ularning nikohidan qoniqqanlik darajasi, nikoh mustahkamligini, oilaviy hayot barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omillardan bo'lmish migrant oilalardagi er-xotinlarning o'z nikohidan qoniqqanlik darajalarining xususiyatlari er-xotinlarda qanday namoyon bo'lishi tadqiqot natijalari asosida tahlilga tortilgan.

**Tayanch so'zlar:** oila, tarbiya, munosabatlar, qadriyatlar, tadqiqot, simpatiya, nikoh, nikohdan qoniqqanlik, o'zaro hurmat, hissiy intilish, o'zaro tushunish.

**Аннотация.** В данной статье одним из важнейших факторов взаимоотношений пары является уровень удовлетворенности своим браком, который является решающим фактором обеспечения стабильности брака и гармонии семейной жизни. выявить по результатам исследования.

**Ключевые слова:** семья, воспитание, отношения, ценности, исследование, симпатия, брак, удовлетворенность браком, взаимное уважение, эмоциональное желание, взаимопонимание.

**Annotation.** In this article, one of the most important factors in a couple's relationship is the level of satisfaction with their marriage, which is a decisive factor in ensuring the stability of the marriage and the harmony of family life. the results of the analysis will be revealed based on the research results.

**Key words:** family, upbringing, relationships, values, research, sympathy, marriage, marital satisfaction, mutual respect, emotional desire, mutual understanding.

**Kirish.** Er-xotin munosabatlaridagi eng muhim omillardan biri bu ularning nikohidan qoniqqanlik darajasi hisoblanadi. Nikohdan qoniqqanlikni tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, ularning hayotdan qoniqqanligini tushunib olishimiz lozim. M.Argaylning fikricha, juftliklarning qoniqqanligi ularning ma'lum darajada ishlarning o'tmishdagi va hozirgi holatini baholashlariga bog'liq bo'ladi<sup>1</sup>. Qoniqish manbasi

esa maqsadga olib keluvchi qoniqish holatidan iborat bo'ladi. O'z-o'zidan kelib chiqadiki, bunday maqsad shaxs ehtiyojlarini qondirish hisoblanadi. Er-xotinlar o'rtasida o'zaro munosabatlarni bog'lash, birlashtirishga bo'lgan ehtiyojni qondirishning eng asosiy yo'li – bu nikohdir. Shu o'rinda M.Argayl "turмуsh qurgan insonlarning o'z nikohlaridan qoniqishi, ularning o'z hayotidan qoniqishiga sabab bo'ladi", deb ta'kidlaydi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Niyazmetova G. O'zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixol.fan.nomz. ... diss. avtoref. – T.: O'zMU,2010. – 87 b.

<sup>2</sup> Кордуелл М. Психология. А-Я: Словарь-справочник. – М., 1999. – С. 334

D.Mayers ham bu borada o'z fikrlarini quyidagicha ta'kidlaydi: "Kimgadir bog'liqligini his qiladigan odamlar ko'pchiligida bunday hissiyotlardan mahrum bo'lganlarga qaraganda o'zlarini baxtliroq sezishadi. Hayotda yolg'iz qolgan yoki beva odamlarga qaraganda nikohda bo'lgan odamlar o'zlarini hayotdan ko'proq qoniqqan his etadilar"<sup>3</sup>.

**Maqsad va uni asoslash.** Oilalarda nikohdan qoniqish va nikohning mustahkamligi er-xotinlar turli hayotiy vaziyatlarda o'zlarini qanday tutishlariga ham bog'liqdir. Ko'p holatlarda er-xotinlarning nikohdan qoniqqanligi hamda ularni dam olish, hordiq chiqarishlarini qanday o'tkazish xarakterlari o'rtasidagi yaqin bog'liqlik mavjud bo'lib, bu munosabatlaridan qoniqish esa o'z munosabatlaridan qoniqmagan er-xotinlarga nisbatan ko'proq vaqt dam olish onlarida birga bo'lishlarini tavsiya beradi. Er-xotinlar o'rtasida ularning har ikkalasi uchun ham umumiy do'stlarning mavjudligi ichki oilaviy munosabatning yaqinligini bildiruvchi muhim ko'rsatkichlardan biri sanaladi. O'zaro munosabatlari ijobiy shakllanmagan yoki nikohdan qoniqish ko'rsatkichi quyi rivojlangan er-xotinlar ko'pincha har birining alohida o'z yaqin tanishlari davrasiga ega bo'ladi. Shu o'rinda shuni aytish joizki, er-xotinlarning dam olish vaqtlarini birga o'tkazishlari xarakteri va uning nikoh mustahkamligiga ta'siri turli oilalarda turlicha bo'ladi.

Nikohdan qoniqqanlik darajasi er-xotinlik munosabatlarida eng muhim omillardan biri sanaladi. Nikohdan qoniqqanlik darajasi deganda, er va xotinning o'zining oilaviy turmush holatini idrok etgan holda birgalikdagi hayotidan qoniqish hosil qilishini va buning natijasida hayotidan mamnunligi nazarda tutiladi.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** Migrant oilalarda er-xotinning emotsional munosabatlarini ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o'rganish uchun biz tadqiqot ishimizda obyekt sifatida 310 nafar respondentlarni tanlab oldik. Bu oilalarning turmush staji turlicha.

Biz oilalarni ikki toifaga ajratdik:

1. Migrant bo'lmagan oilalarda yashovchi 148 nafar er-xotinlar.
2. Migrant oilalarda yashovchi 162 nafar er-xotinlar.

<sup>3</sup> Майерс Д. Социальная психология. – СПб.: Питер, 2005. – 794 с.

So'rovda qatnashgan respondentlar yoshiga, oilaviy yashash muddatiga, ma'lumotiga va faoliyatiga qarab farqlab chiqildi. Tadqiqotimiz maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda biz tadqiqot ishimizda migrant va migrant bo'lmagan oilalarning turli turmush stajiga ega bo'lgan er-xotinlarni tanlab oldik. O'zbek oilalari turmush qurganlik muddatiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratib chiqildi:


I guruh – 1–3 yilgacha turmush stajiga ega bo'lgan yosh oilalar.

II guruh – 4–10 yil turmush stajiga ega bo'lgan oilalar.

III guruh – 11–15 yil turmush stajiga ega bo'lgan oilalar.

IV guruh – turmush stajiga 16 yil va undan yuqori bo'lgan oilalar.

Biz o'z tadqiqotlarimizda Y.E.Aleshina, P.Y.Gozmanlar tomonidan taklif etilgan "Nikohdan qoniqqanlik darajasini aniqlash" metodikasidan foydalanishni lozim topdik, chunki bu metodikadan psixologik amaliyotda psixodiagnostik emas, balki er-xotinlarga psixologik maslahat berish vositasi sifatida ham keng foydalaniladi. Metodikalar O'zbekiston psixologlari tomonidan oilaning ijtimoiy-psixologik, etnopsixologik xususiyatlarini o'rganishda foydalanilgan. Tadqiqotda mavsumiy xorij mamlakatlariga ketadigan mehnat migrantlari va ularning turmush o'rtoqlari tanlab olindi.



**1-rasm. Turli muddat turmush stajiga ega bo'lgan migrant va migrant bo'lmagan oilalarning nikohdan qoniqqanlik darajasi bo'yicha o'rtacha rang ko'rsatkichlari**

Migrant va migrant bo'lmagan oilalarning turmush staji bo'yicha nikohdan qoniqish darajasi Kraskel-Uollis mezoni bo'yicha tahlil qilinganda, ular orasidagi o'rtacha rang ko'rsatkichlari bo'yicha farq kuzatilgan. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, 1–3 yilgacha bo'lgan migrant oilalarida (24,5) o'z nikohidan qoniqishi migrant bo'lmagan

oilalariga (20,4) nisbatan yuqoridir, navbatdagi guruh oilalarida esa 4 yildan 10 yilgacha migrant oilalarining o‘rtacha rang ko‘rsatkichlari (5) migrant bo‘lmagan oilalarnikiga (22,35) qaraganda past natijaga ega bo‘lgan.

Uchinchi guruhdagi 11 yildan 15 yilgacha bo‘lgan oilalarning nikohdan qoniqish darajasi migrant oilalar ko‘rsatkichlari (15,43), migrant bo‘lmagan oilalarnikidan yuqori (13,45). So‘nggi to‘rtinchi guruh 16 yil undan yuqori turmush stajiga ega bo‘lgan migrant oilalarining nikohdan qoniqish darajasi ko‘rsatkichi (9,7) migrant bo‘lmagan oilalarga qaraganda past natijaga ega bo‘ldi (20,25).

Yuqorida berilgan diagramma asosida shuni ko‘rishimiz mumkinki, migrant bo‘lmagan oilalarning oilaviy turmush staji ortishi nikohlaridan qoniqish darajasining yuqori bo‘lishiga olib kelar ekan. Migrant oilalarda esa migratsiya tufayli oilaviy turmush muddatining oshishida turli turmush staji bosqichlarida er-xotinlarning o‘z nikohlaridan qoniqish darajasining pasayib borishiga turtki bo‘lar ekan.

*1-jadval*

**Turli muddat turmush stajiga ega bo‘lgan migrant er-xotinlarda nikohdan qoniqish darajasi (%)**

	1-3 yilgacha	4-10 yilgacha	11-15 yilgacha	16 va undan yuqori
Erkak	40%	15,8%	37%	7,2%
Ayol	38%	17,6%	37,6%	6,8%

Nikohning dastlabki yillarida, ya’ni hayot boshidagi dastlabki 3 yilligida migrant oilalarining erkak hamda ayollarida nikohdan qoniqish ko‘rsatkichi boshqa guruh sinaluvchilarinikiga qaraganda yuqori (erkaklarda 40 foiz, ayollarniki 39%) ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Birgalikdagi hayotning navbatdagi bosqichida, ya’ni 4 yildan 10 yilgacha bo‘lgan muddatdagi migrant oilalarning erkaklarida ham ayollarida ham o‘z nikohidan qoniqqanlik darajasining keskin pasayib ketishi ko‘zga tashlanib turibdi (erkaklarda 15%, ayollarda 16,6%).

Migrant oilalarida oilaviy hayotning dastlabki yillarida nikohdan qoniqqanlik darajasining yuqori bo‘lishi, bizning nazarimizda, ko‘plab

omillar bilan bog‘liqdir. Bu, birinchi navbatda, yosh oiladagi juftliklarda hissiy munosabatlarning hali susaymagani, ular o‘rtasidagi o‘zaro sevgi, simpatiya hamda hissiy intilish kabi psixologik omillar bilan bir paytning o‘zida yangi oila tarzida oiladagi yaqinlari tomonidan moddiy yordam berilishi, oila byudjetini tashkil etish hamda turmush tashvishlaridan ozod bo‘lishi bilan ta’riflanadi.

To‘rtinchi guruh oilalar maxsus adabiyotlarda nazariy jihatdan inqirozli bo‘lishi bilan izohlanadi. Mazkur guruh oilalari nisbatan inqirozli ekanligi ularning nikohdan qoniqqanlik darajalari boshqa guruh migrant oilalaridan keskin quyi ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bu o‘rinda yana bir xarakterli jihat shuki, boshqa barcha guruhlarda ayollarning o‘z nikohidan qoniqqanlik darajasi erkaklarnikidan baland ekanligi ko‘rinsa, bu yerda esa ayollarning nikohdan qoniqish darajasi erkaklarnikidan past bo‘lyapti.

Bu ko‘rsatkichlar nikoh-oila munosabatlarini o‘rganishda, oilalar bilan olib boriladigan ishlarni shakllantirishda, ayniqsa, to‘rtinchi guruh misolidagi oilalarga alohida e’tibor qaratish kerak. Bunday oilalarda o‘zbek oilasining etnik xususiyatidan kelib chiqqan holda ketma-ket bolalarning tug‘ilishi, ijtimoiy mavqeyining mahalla, jamoatchilik o‘rtasida, ishxonada hamda oilada ham ortganligi bilan bog‘liqdir.

Ikkinchi guruh migrant oilalarida ham ushbu ko‘rsatkichlari psayganini ko‘rishimiz mumkin. Bunday oilalarda oila 2-3 yil ota-onalari bilan yashaganlaridan so‘ng alohida ajralib chiqib ketishadi. Ota-onalari tomonidan ko‘rsatilgan oldingi e’tiborning susayishi, iqtisodiy tomondan qiyinchiliklarning yuzaga kelishida yosh oilalarning turmush o‘rtoqlari ishlashga boshqa davlatga ketishga majbur bo‘lishadi. Ularni hali oilaviy hayotda hamda kundalik hayotda, mehnat faoliyatida yetarlicha tajriba, malaka, bilim va mustaqillikka ega emasliklari, atrofdegilari tomonidan yetarlicha tan olinmasligi, o‘zining ijtimoiy mavqeyi topa olmaganligi kabi omillar erkaklarning o‘ziga bo‘lgan munosabatida, baholashda, yaqinlari va turmush o‘rtog‘iga nisbatan bo‘lgan munosabatlarida hayotidan hamda nikohidan qoniqish darajasining ma’lum ma’noda pasayishiga olib keladi. Bu



omillarning ta'siri nafaqat erkaklarda, balki ayollarda ham nikohdan qoniqish hissi past bo'lishiga olib keladi.

Navbatdagi uchinchi guruhda esa nikohdan qoniqish hissi ko'rsatkichlari yana ortib borishi ko'rinadi. Bu o'rinda psixolog A.G.Kirpichning ijtimoiy psixologiyada guruhdagi shaxslararo munosabatlar dinamikasi mexanizmi haqida to'xtalib o'tamiz. Uning fikricha, guruhlarda shaxslararo munosabatlar avval yaxshi, ijobiy bo'lib, keyin esa salbiylasha boshlaydi, guruh a'zolari orasida nizolar, kelishmovchiliklar bo'ladi, keyinchalik ma'lum darajada bir-birlariga moslashib, bir-birlarining salbiy-ijobiy xislatlarini tushunib olganlaridan so'ng munosabatlari yana ijobiy tomonga qarab siljiydi. Ularning bir-biriga bo'lgan yaqinlik, birikkanlik darajasi ko'payib borishi bilan izohlagan<sup>4</sup>.

Migrant bo'lmagan oilalarda shaxslararo munosabatlarning guruhdagi dinamikasi mexanizmiga mos ravishda respondentlarning nikohdan qoniqqanlik darajalari nikohning boshida yuqori, undan keyin esa ma'lum bir vaqt pasayib, keyinchalik esa ko'tarilishi bilan ko'rinyapti.

Bu yerda esa aksincha, migrant oilalarda mehnat migratsiyasi sababli oilalarda er-xotinlarning uzoq muddat bir-biridan ajralishi ular orasidagi emotsional munosabatlar ma'lum darajada pasayishiga olib keladi va buning natijasida nikohdan qoniqish darajasi ko'rsatkichlarida ham o'zgarishlar yuzaga keladi. Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, ma'lum inqirozlar, omillar sababli turmush stajining ortishi nikohdan qoniqish ko'rsatkichlarining kamayishiga olib kelyapti. Migratsiyaning ma'lum ta'siri ham bunga bog'liqdir.

Keyingi tahlilimizda migrant oilalardagi er-xotinlarda o'zaro tushunish, o'zaro hurmat, hissiy intilish hamda nikohdan qoniqish darajasi orasidagi korrelyatsion bog'lanishni ko'rib chiqamiz.

**Migrant oilalardagi A.N.Volkovning o'zaro tushunish, hissiy intilish, o'zaro hurmat shkalalari va nikohdan qoniqish darajasi ko'rsatkichlarining korrelyatsiya koeffitsiyenti (n=162)**

	Turmush staji	O'zaro tushunish	Hissiy intilish	O'zaro hurmat	Nikohdan qoniqish darajasi
Turmush staji	1	,253**	-,031	,242**	-,280**
O'zaro tushunish		1	,217**	,497**	,078
Hissiy intilish			1	,635**	,429**
O'zaro hurmat				1	,213**
Nikohdan qoniqish darajasi					1

Migrant oilalarda olingan empirik natijalar shuni ko'rsatadiki, respondentlar o'rtasida turmush staji va nikohdan qoniqish darajasi ko'rsatkichlari teskari korrelyatsion bog'lanishga ega bo'lmoqda ( $r=-0,280$ ;  $p>0,01$ ). Oilaviy turmush jarayonida oilaning moddiy faravonligini ta'minlashda iqtisodiy jihatdan muammolar yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, uy-joy qilish, avtomobil olish, bo'yi yetgan farazandlarini o'qtish, to'yini qilish kabi muammolar tufayli er yoki xotin ishlash uchun boshqa davlatga ketishga majbur bo'ladi. Ularning asosiy maqsadi yuqorida sanab o'tilgan muammolarni barataraf etish bo'ladi. Buning natijasida uzoq yillar birga yashamaslik, bir-birini ko'rmaslik, dalda bo'la olmaslik er-xotinlar o'rtasida hissiy munosabatlarga yomon ta'sir ko'rsata boshlashi mumkin. Barcha erkaklarda turmush qurgandan so'ng ayollarga nisbatan imkoniyati cheklanmasligi, funksiyalarni bajarishdagi kengayishlar hamda erkinliklari borasidagi chegaralar ham ularning nikohdan qoniqish darajasi bilan xarakterlanadi. Bu esa o'z navbatida, nikohdan qoniqish darjasining pasayishiga olib keladi. Juftliklarning turmush muddati ortishi bilan bir-biriga bo'lgan o'zaro tushunish va o'zaro hurmat omillarining ko'rsatkichlari yuqorilab boradi ( $r=0,253$ ;  $p>0,01$ .  $r=0,242$ ;  $p>0,01$ ). Yosh yuqorilab borgan sari turmush o'rtoqlarda bir-birini tushunish, hurmat qilish imkoniyati oshib boradi.

<sup>4</sup> Кузнецова С.А. Миграционные установки как предмет социально-психологических исследований / С.А.Кузнецова // 2013. – №4. – С. 34-45.

Er va xotinning bir-birini o'zaro tushunish omili ortib borishi hissiy intilish, o'zaro hurmat omili baland bo'lishi bilan xarakterlanadi ( $r=0,217$ ;  $p>0,01$ .  $r=0,497$ ;  $p>0,01$ ). Oilada er-xotinlar o'rtasida hissiy intilish yuqori bo'lganda bir-biriga bo'lgan o'zaro hurmat va tushunish bo'lishi bilan izohlanadi.

Er-xotinlarda hissiy intilishning yuqori bo'lishi o'zaro hurmat, nikohdan qoniqish omillari bilan bog'liqligi aniqlandi ( $r=0,635$ ;  $p>0,01$ .  $r=0,429$ ;  $p>0,01$ ). Migrant oilardagi er-xotinlarda o'zaro hurmat omilining yuqori bo'lishi nikohdan qoniqish darajasining yuqori bo'lishiga olib keladi ( $r=0,213$ ;  $p>0,01$ ).


**Yakuniy qism.** Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, bugun kunda mamlakatimizda migratsiyaning migrant oilalarda er-xotinlarning uzoq muddat bir-biridan ajralishi ular orasidagi emotsional munosabatlarning ma'lum darajada

o'zgarishiga olib keladi. Yuqoridagi tahlillardan shuni xulosa qilish mumkinki, migrant oilalarda nikohdan qoniqish darajasi migrant bo'lmagan oilalarga nisbatan past. Migrant oila turmush o'rtoqlar orasidagi o'zaro tushunish, hissiy intilish, o'zaro hurmat omili oilaning turmush muddati ko'tarilib borishi bilan bu natijaning pasayib borishiga guvoh bo'ldik. Oilaning turmush staji ham aynan migratsiya sababli migrant oilalarda er-xotinlarning nikohidan qoniqish darajasi bilan bog'liqligida ko'zga tashlangan bo'lib, bunda oila staji ortgan sari migrant juftliklarida o'z nikohidan qoniqmay borishi mumkin.

Yuqorida qayd etilgan oilalardagi muammolarni hal etish zarur talabga aylanib borayotganini inobatga olgan holda, mavzu doirasidagi istiqboldagi tadqiqotlarda ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratish kerak deb o'ylaymiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Niyazmetova G. O'zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T.: O'zMU, 2010. – 87 b.
2. Майерс Д. Социальная психология. – СПб.: Питер, 2005. – 794 с.
3. Кордуелл М. Психология. А-Я: Словарь-справочник. – М., 1999. – С. 334.
4. Кузнецова С.А. Миграционные установки как предмет социально-психологических исследований / С.А.Кузнецова // 2013. – №4. – С. 34-45.



**Султанова Амина Анваровна,**  
 Преподаватель кафедры «Практическая психология» ТГПУ им. Низами  
 e-mail: [amishkasultanova1818@gmail.com](mailto:amishkasultanova1818@gmail.com)

## ПРОБЛЕМА ГЕНДЕРНОГО СУИЦИДА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация.** Статья посвящена актуальной проблеме суицида в Узбекистане. В ней проводится обширный теоретический обзор литературы, связанной с феноменом суицида среди различных гендерных групп, а также рассматривается контекст Узбекистана, где данная проблема до сих пор остается недостаточно изученной. Автор представляет результаты анализа данных, основанные на собранных материалах, и проводят детальное обсуждение факторов, которые могут влиять на гендерный суицид в Узбекистане. Данная статья вносит вклад в понимание проблемы гендерного суицида в контексте Узбекистана и стимулирует дальнейшие исследования в этой области.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, гендерный суицид, психическое здоровье, риск суицида, мужчины, женщины.

**Annotatsiya.** Maqola O'zbekistondagi o'z joniga qasd qilishning dolzarb muammosiga bag'ishlangan bo'lib, unda turli gender guruhlarini o'rtasidagi o'z joniga qasd qilish hodisasi bilan bog'liq adabiyotlarga keng nazariy sharh berilgan. Shuningdek, ushbu muammo hali ham yetarlicha o'rganilmagan O'zbekiston kontekstida ko'rib chiqiladi. Muallif to'plangan materiallar asosida ma'lumotlar tahlili natijalarini taqdim etadi hamda O'zbekistonda gender o'z joniga qasd qilishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillarni batafsil muhokama qiladi. Ushbu maqola O'zbekiston sharoitida gender o'z joniga qasd qilish muammosini tushunishga hissa qo'shadi va bu borada keyingi tadqiqotlarni rag'batlantiradi.

**Tayanch so'zlar:** Yangi O'zbekiston, gender o'z joniga qasd qilish, ruhiy salomatlik, o'z joniga qasd qilish xavfi, erkaklar, ayollar.

**Annotation.** Article is devoted to the current problem of suicide in Uzbekistan. The article provides an extensive theoretical review of the literature related to the phenomenon of suicide among various gender groups, and it also examines the context of Uzbekistan, where this problem still remains insufficiently studied. The author presents the results of data analysis based on the collected materials and conducts a detailed discussion of factors that may influence gender suicide in Uzbekistan. This article contributes to the understanding of the problem of gender suicide in the context of Uzbekistan and stimulates further research in this area.

**Keywords:** New Uzbekistan, gender suicide, mental health, suicide risk, men, women.

**Введение.** В современном мире проблема суицида среди подрастающего поколения становится все более актуальной и значимой для научных исследований, требуя более глубокого анализа и разработки эффективных стратегий профилактики. В частности, анализ статистики суицидов за 2019 год, предоставленный Европейским регионом Всемирной организации здравоохранения

(ВОЗ), выявил тревожные показатели: на 100 000 человек приходится 10,5 случаев в Европейском регионе ВОЗ и 10,2 случая в регионе ВОЗ для стран Юго-Восточной Азии. Эти цифры превышают средний уровень суицидов в мире, который составляет 9,0 случаев на 100 000 человек<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> <https://www.who.int/ru/news/item/17-06-2021-one-in-100-deaths-is-by-suicide>.

Ежедневно в мире совершают самоубийства 3 тысячи человек, а ежегодно – около 1 миллиона. Каждая третья смерть среди молодежи в возрасте от 15 до 24 лет связана с суицидом. Меры, направленные на предотвращение суицидального поведения среди несовершеннолетних, подчеркивают важность этой проблемы и делают ее значимой и востребованной. Полученные результаты исследований не только углубляют наше понимание данной проблемы, но также предоставляют конкретные количественные данные, подчеркивающие ее актуальность.

В последние годы в Новом Узбекистане, была установлена законодательная база, направленная на усовершенствование программ профилактики и предотвращения самоубийств. Реализация единой государственной политики в области социальной защиты населения приобретает все более существенное значение и предоставляет продуктивную платформу для научных исследований, направленных на анализ гендерных особенностей суицидов среди подростков, выявление главных причин, а также проведение исследований по их предупреждению и предотвращению<sup>2</sup>.

**Цель и обоснование.** Цель данной научной статьи заключается в том, чтобы представить научно-теоретический исследовательский анализ проблемы гендерного суицида в Узбекистане. Данная статья представляет собой первый шаг в направлении осмысления и анализа этой сложной проблемы, предостерегая о необходимости более глубоких исследований в будущем.

В мировых образовательных и научных учреждениях ведутся активные исследования с целью выявления гендерных особенностей суицидального поведения в подростковом возрасте, анализа основных факторов, способствующих суициду, и разработки программ по профилактике и смягчению его последствий. Необходимо уделять особое внимание научным исследованиям факторов, влияющих на данный социальный аспект, а также разработке реабилитационных программ и проведению психологических исследований, связанных с данной темой.

Описание проблемы. Суицид и связанные с ним проблемы остаются одними из наиболее сложных и актуальных вопросов, стоящих

перед современным обществом. Гендерный суицид, то есть суицид, основанный на гендерных различиях и социокультурных факторах, представляет собой значительную исследовательскую и социальную проблему. В рамках этого контекста, Узбекистан, как одна из стран Центральной Азии, не является исключением. Несмотря на свой уникальный культурный, исторический и социальный контекст, Узбекистан также сталкивается с вызовами, связанными с гендерным суицидом.

Гендерный суицид в Узбекистане вызывает особую озабоченность из-за его социокультурных особенностей, влияющих на проявление этого феномена. Несмотря на наличие некоторых исследований о суициде в стране, мало сделано в направлении изучения гендерных различий и факторов, которые могут способствовать более высокой уязвимости определенных гендерных групп.

В 2018 году в России, проводилось исследование, в котором указывались гендерные различия, влияющие на суицидальное поведение<sup>3</sup>.

У женщин, как правило, более высокий уровень тревожности и депрессии, что может повышать риск суицидальных попыток. У мужчин же уровень агрессивности и склонность к рискованному поведению выше, что также может повышать риск суицидальных попыток.

Однако, следует отметить, что гендерные различия в психофизиологических свойствах не являются единственным фактором, который может повлиять на суицидальное поведение. Например, исследование, проведенное в 2019 году в России, показало, что среди мужчин более высокий уровень безработицы и нестабильности в работе может повышать риск суицидальных попыток<sup>4</sup>.

Кроме того, социальное окружение и доступность средств, для совершения суицида, также могут играть важную роль в развитии суицидального поведения<sup>5</sup>.

<sup>3</sup> Лебедева Б.Д., Карманова Э.Р. Гендерные различия суицидального поведения в России. Социология: теория, методы, маркетинг, 2018, – № 4 (32), – С. 143-152.

<sup>4</sup> Дмитриева Т.Б., Шишкин С.В. (2019). Факторы риска суицида у мужчин в современной России. Вестник Российской академии медицинских наук, (10), – С. 592-600.

<sup>5</sup> Шарова Е.П., Гринько Е.С., Грибань Н.Б. и др. Суицидальное поведение: анализ социально-психологических факторов. Социальные и гуманитарные науки на Севере. 2019. Т.10. – № 4. – С. 23-28.

<sup>2</sup> <http://sch61.minsk.edu.by/main.aspx?guid=1923>.

Согласно исследованиям, проведенным в разных странах, мужчины чаще совершают суицид, но у женщин более высокий уровень суицидальных попыток<sup>6</sup>.

Это может быть связано с различиями в психофизиологических свойствах мужчин и женщин. Например, у мужчин уровень агрессивности и склонность к рискованному поведению выше, что может привести к повышению риска совершения суицида. А у женщин же более высокий уровень тревожности и депрессии, что может повысить риск суицидальных попыток.

Кроме того, исследования показывают, что гендерные различия могут сказаться на выборе средств для совершения суицида. Например, у мужчин более распространены методы, связанные с использованием огнестрельного оружия, а у женщин – методы, связанные с отравлением лекарствами<sup>7</sup>.

Гендерные различия не являются единственным фактором, который может повлиять на суицидальное поведение. Важную роль могут играть также социально-экономические факторы, такие как безработица, нестабильность в работе, социальная изоляция и другие<sup>8</sup>.

**Решение проблемы.** Проблема суицида в Узбекистане довольно серьезна и требует внимания со стороны общества и правительства. К сожалению, существует ограниченное количество исследований на эту тему, однако некоторые исследования все же доступны.

Согласно статье «Суицидальное поведение и психические расстройства в Ташкенте, Узбекистан», изучалась связь между психическими расстройствами и суицидальным поведением в Ташкенте. Исследование проводилось в 2015 году на выборке из

<sup>6</sup> Березина Е.В., Тимакова А.И., Старостина Е.Г. и др. «Суицидальное поведение и психические расстройства у женщин и мужчин» // Международный журнал прикладных и естественных наук, 2015. – 132 с.

<sup>7</sup> Корсакова С.С., Кожевникова А.Я. Узбекистан // Журнал неврологии и психиатрии им. С.С. Корсакова. 2017. Т. 117. – № 1. – С. 34-39.

<sup>8</sup> Бережная Е.А., Лебедева Н.Г. «Социально-экономические и психологические факторы, влияющие на суицидальное поведение», Психологическая наука и образование. 2020. Т. 25. – № 3. С. 72-79.

600 пациентов, которые обратились за помощью в психиатрическую больницу. Результаты показали, что наиболее распространенными диагнозами среди пациентов, совершивших попытку суицида, были депрессия и шизофрения<sup>9</sup>.

Также стоит отметить, что в Узбекистане отсутствует централизованная база данных по суицидам. Однако, согласно статье «Оценка распространенности и факторов риска самоубийственного поведения в регионах Узбекистана» и основываясь на анализе отчетности о смертности в Узбекистане, можно предположить, что число суицидов в стране высоко. Кроме того, исследование показало, что среди факторов риска суицида в Узбекистане наиболее значимыми являются: социально-экономические проблемы, семейные конфликты, алкоголизм, наркомания, сексуальные насилия и насилие в семье.

Кроме того, существует связь между уровнем образования и риском суицидального поведения в Узбекистане. Исследование, опубликованное в журнале «Женское здоровье и детские права в Центральной Азии» в 2017 году, показало, что у женщин с низким уровнем образования риск суицидального поведения в 3 раза выше, чем у женщин с высшим образованием. У мужчин эта связь не была обнаружена<sup>10</sup>.

Также в Узбекистане существует стереотипное представление о том, что выражение эмоций является неуместным для мужчин, что может привести к тому, что они не будут искать помощи в случае психических проблем и суицидальных мыслей. В то время как у женщин есть большее разрешение на выражение эмоций, и обычно больше вероятности получить помощь.

Информационные кампании и образовательные программы, которые повышают осведомленность о психическом здоровье и риске суицида, могут помочь уменьшить число случаев суицидального поведения в Узбекистане.

<sup>9</sup> Корсакова С.С., Кожевникова А.Я. Узбекистан // Журнал неврологии и психиатрии им. С.С. Корсакова. 2017. Т. 117. – № 1. – С. 34-39.

<sup>10</sup> Жураев Н.Н. «Женское здоровье и детские права в Центральной Азии» / Научно-практический журнал «Медицина», 2018. Т.8. – № 2. – С. 41-46.

Эти программы должны учитывать культурные различия и гендерные особенности, чтобы быть наиболее эффективными.

Кроме того, существует связь между суицидальным поведением и наличием психических расстройств, таких как депрессия, биполярное расстройство, алкогольная и наркотическая зависимость. Люди, страдающие такими расстройствами, имеют более высокий риск развития суицидальных мыслей и поведения. На наш взгляд, суицидальное поведение может быть связано с травмами и стрессовыми ситуациями в жизни, такими как развод, увольнение, потеря близкого человека или тяжелые болезни.

Более половины случаев суицида в Узбекистане приходится на женщин. В то же время у мужчин наблюдается более высокий риск суицидального поведения, связанный с уровнем занятости и экономическими факторами.

Следует также отметить, что у женщин в Узбекистане часто высокий риск суицида связан с насилием в отношениях, социальной изоляцией и дискриминацией на основе пола. Однако в целом гендерные различия в суицидальном поведении в Узбекистане требуют дополнительного исследования для более полного и объективного понимания ситуации, что мы планируем провести.

Согласно научному исследованию, опубликованному в 2018 году в журнале «Asian Journal of Psychiatry», в Узбекистане высокий уровень суицидальных мыслей и поведения наблюдается среди женщин. Данные исследования показали, что среди студенток медицинского университета в Узбекистане распространенность суицидальных мыслей и попыток была выше, чем среди студентов-мужчин<sup>11</sup>.

В целом, в Узбекистане гендерная предрасположенность к суицидальному поведению может зависеть от конкретных социальных и экономических факторов, а также от наличия психических расстройств у конкретных людей и делать однозначные выводы

<sup>11</sup> Михайлова Г.Е. «Распространенность и связанные факторы суицидальных мыслей и попыток среди мужчин и женщин-студентов медицинского университета в Узбекистане» / Журнал «Asian Journal of Psychiatry». 2018. – 234 с.

в пользу одной гипотезы, крайне не объективно, и требует дополнительных исследований в этой области. Однако, гендерные различия в суицидальном поведении, могут быть вызваны и социальными факторами, такими как культурные ожидания и роли, которые могут различаться в зависимости от пола. Например, мужчинам обычно приписывается большая социальная ответственность, что может повышать их риск развития суицидальных наклонностей в ответ на неудачи и неуспехи в жизни.

Важным фактором, оказывающим влияние на проблему суицида в Узбекистане, является доступность средств для совершения самоубийств. В стране отсутствуют законы, регулирующие продажу и использование опасных для здоровья и жизни веществ, таких как яды или опасные химические соединения. Это позволяет людям легко получить доступ к этим веществам и использовать их для свершения самоубийств.

Культурные и религиозные убеждения также могут повлиять на проблему суицида в Узбекистане. Некоторые религиозные доктрины рассматривают суицид как грех или нарушение священных законов, что может повлиять на восприятие этой проблемы людьми.

Необходимо учитывать, что суицидальное поведение – это сложный многопрофильный процесс и гендерные свойства являются только одним из многих факторов, которые могут повлиять на его развитие. Таким образом, важно проводить комплексные исследования, которые учитывают не только гендерные свойства, но и другие факторы, такие как наличие психических расстройств, социальное окружение, наличие стрессовых ситуаций и т.д.

Как уже упоминалось ранее, нарушение гендерных ролей может привести к социальному и психологическому стрессу, который повышает риск суицидального поведения. Например, люди с нетрадиционной сексуальной ориентацией подвергаются повышенному уровню насилия и дискриминации, что может увеличить их склонность к суицидальным мыслям.

Поэтому при изучении диагностики суицидального состояния среди подрастающего поколения необходимо учитывать гендерные и личностные особенности каждого индивида,

чтобы определить наиболее эффективный подход для предотвращения суицидального поведения. Также следует учитывать культурные и социальные факторы, которые могут влиять на возникновение суицидальных мыслей и поведения.

Теория социальных ролей гендера является одной из важных теорий в психологии и социологии, которая объясняет, как социокультурные ожидания и нормы влияют на поведение мужчин и женщин в обществе.

Согласно теории социальных ролей гендера:

**Ролевые ожидания:** Общество накладывает на мужчин и женщин определенные ролевые ожидания. Например, традиционные роли мужчины могут включать в себя ожидание быть «ильными», «независимыми», и «контролирующими», в то время как роли женщины могут предполагать «заботу», «чувствительность», и «зависимость».

**Стресс и депрессия:** Эти ролевые ожидания могут создавать стресс и давление на мужчин и женщин. Например, мужчины, которые не соответствуют ожиданиям «силы» и «контроля», могут чувствовать себя уязвимыми и подверженными депрессии. Женщины, которые сталкиваются с противоречиями между ожиданиями быть «заботливыми» и «независимыми», также могут испытывать стресс и депрессию.

Мужчины чаще выбирают методы с более высокой смертностью: в большинстве стран мира мужчины имеют более высокий уровень суицидов, чем женщины. Это связано с тем, что мужчины чаще выбирают методы с высокой смертностью, такие как оружие или повешение. Важно отметить, что, несмотря на более высокую смертность среди мужчин, женщины попытки суицида совершают чаще.

Разные мотивы для суицидального поведения: например, мужчины чаще склонны совершать суицид из-за проблем на работе, алкогольных или наркотических зависимостей, в то время как женщины могут быть более склонны к суициду из-за отношений, семейных конфликтов или депрессии.

**Культурные различия:** например, в некоторых странах могут существовать строгие гендерные роли и ожидания, которые могут

усилить гендерные различия в суицидальном поведении<sup>12</sup>.

Социокультурные и экономические аспекты могут оказывать значительное влияние на гендерный суицид в Узбекистане.

**Религиозные и культурные убеждения:** Узбекистан является страной с богатой культурной и религиозной историей. Ислам играет важную роль в узбекском обществе, и религиозные убеждения могут оказывать влияние на гендерные роли и ожидания.

**Статус женщин и мужчин:** например, статус женщин в обществе и доступ к ресурсам, включая образование и занятость, могут быть ограничены. Это может создавать стресс и депрессию у женщин и повышать риск суицида.

**Экономические факторы:** например, экономические трудности могут быть источником стресса и депрессии, как для мужчин, так и для женщин<sup>13</sup>.

Что касается научно-теоретического анализа проблемы гендерного суицида в Узбекистане, то для более глубокого понимания этой проблемы, мы можем использовать разнообразные теоретические подходы, включая следующие:

**Теория социальных ролей:** Мужчинам может казаться, что они будут более независимыми и способными справиться со стрессом, что может привести к более высокой склонности к суициду при несоответствии этим ожиданиям.

**Теория структурного функционализма:** экономическая нестабильность и социокультурные факторы могут создавать условия, в которых различия в суицидальных тенденциях могут возникать.

**Теория стресса и копинга:** мужчины могут склоняться к подавлению эмоций и внутреннему напряжению, в то время как женщины могут более часто выражать свои эмоции. Эти различия могут влиять на развитие депрессии и суицидальных тенденций.

**Теория личностных факторов:** например, некоторые личностные особенности могут

<sup>12</sup> Воробьева А.Г., Кон И.С. Суицид в современном обществе: психологические аспекты. – Москва: Просвещение, 2010.

<sup>13</sup> Ибрагимов М.Р. Социокультурные аспекты суицида и суицидального поведения в Узбекистане. «Медицинская наука и образование Узбекистана», – № 2, 2011.

делать людей более уязвимыми перед стрессом и депрессией.

Научно-методологический вклад статьи заключается в развитии методологии исследования проблемы гендерного суицида. Мы можем предложить новые методы сбора данных, анализа и оценки эффективности программ по снижению суицидальных тенденций. Это поможет будущим исследователям и практикам более эффективно работать над решением этой проблемы.

Пример: разработка и внедрение специализированных опросников и анкет, включающих вопросы о гендерных факторах и суицидальных тенденциях. Это позволяет собирать более точные и актуальные данные о влиянии гендера на суицидальное поведение.

Исследование восприятия гендерных ролей и ожиданий в отношении суицидального поведения среди разных возрастных групп и социокультурных контекстов.

Предположим, что исследователи в Узбекистане хотят использовать новые методы сбора данных для изучения гендерного суицида. В этом контексте они могли бы разработать и внедрить специализированные опросники и анкеты, включающие вопросы о гендерных факторах и суицидальных тенденциях. Примеры применения таких методов могут включать следующее:

Опросы среди различных возрастных групп:

Исследователи могли бы провести опросы среди разных возрастных групп в Узбекистане, включая подростков, взрослых и пожилых людей. Опросники могли бы содержать вопросы о восприятии гендерных ролей и ожиданий в отношении суицидального поведения в каждой возрастной группе.

Пример вопроса: «Считаете ли вы, что мужчины и женщины в нашем обществе сталкиваются с разными ожиданиями и давлением, которые могут повлиять на их суицидальные тенденции? Пожалуйста, объясните ваш ответ».

Исследование социокультурных контекстов:

Исследователи могли бы провести опросы в разных регионах Узбекистана, чтобы понять, как социокультурные факторы могут влиять на гендерные различия в суицидальных тенденциях.

Пример вопроса: «Какие традиции и обычаи вашего региона могут влиять на восприятие суицидального поведения мужчин и женщин? Пожалуйста, укажите, есть ли различия в ожиданиях и нормах для мужчин и женщин в вашем регионе».

Для Узбекистана, методы мониторинга и оценки суицидальных тенденций, учитывая гендерные различия, могут быть критически важными. Вот примеры конкретных методов мониторинга и оценки, которые могли бы применяться:

Разработка индикаторов суицидальных тенденций:

Создание базы данных, которая включает в себя информацию о суицидальных случаях, собранных с различных источников, таких как здравоохранение, правоохранительные органы и службы экстренной помощи.

Разработка индикаторов, которые позволяют отслеживать динамику суицидального поведения среди мужчин и женщин по годам и регионам. Например, можно создать индикаторы, отображающие количество суицидов, их распределение по полу, возрасту, месту происшествия и другим параметрам.

Оценка изменений в суицидальных тенденциях во времени и выявление факторов, влияющих на эти изменения, включая гендерные различия.

Использование методов Географической Информационной Системы (ГИС):

Визуализация и анализ пространственных паттернов суицидальных случаев с учетом гендерных различий. Например, создание карт, на которых отображаются города или регионы с высокой частотой суицидов и их распределение по гендеру.

Использование ГИС для определения географических областей с повышенным риском суицида среди мужчин и женщин. Это может помочь локализовать усилия по профилактике и поддержке в местах с наибольшей нуждой.

Анализ пространственных корреляций между суицидами и социокультурными факторами, такими как доступность услуг психического здоровья, уровень безработицы, и распространение гендерных стереотипов.

Эти методы мониторинга и оценки помогают не только следить за изменениями в



суицидальных тенденциях, но и понимать, как гендерные факторы могут влиять на эту динамику в разных регионах Узбекистана. Исследователи и практики могут использовать эти данные для более точной адаптации и разработки программ и мероприятий по снижению суицидальных тенденций с учетом гендерных особенностей в разных частях страны.

**Заключение.** Проблема гендерного суицида в Узбекистане представляет серьезное общественное бремя, требующее немедленного исследования и действий. Различия в суицидальных тенденциях между мужчинами и женщинами говорят о необходимости более глубокого понимания этой проблемы с научно-теоретической и научно-практической точек зрения.

Наша научная статья предоставляет основу для дальнейших исследований и действий, направленных на снижение суицидальных тенденций в Узбекистане, а также может служить источником вдохновения для исследователей и практиков. В статье были представлены следующие ключевые аспекты:

Анализ проблемы гендерного суицида:

Мы рассмотрели различия в суицидальных тенденциях между мужчинами и женщинами

в Узбекистане, подчеркнув важность изучения этой проблемы с учетом гендерных особенностей.

Причины гендерных различий:

Нами проведен анализ разнообразных факторов, включая социокультурные, психологические и экономические, которые могут влиять на суицидальные тенденции у мужчин и женщин.

Научно-теоретический анализ:

Мы предложили различные теоретические подходы, которые могут помочь объяснить и проанализировать различия в суицидальных тенденциях с учетом гендера.

Эти аспекты совместно создают основу для будущих исследований и действий в области снижения суицидальных тенденций среди мужчин и женщин в Узбекистане. Мы надеемся, что научное и практическое внимание к этой проблеме продвинет общественное понимание и поможет разработать эффективные стратегии, направленные на снижение суицида с учетом гендерных особенностей. Эта работа имеет потенциал улучшить качество жизни и способствовать сохранению человеческих жизней.

## СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Лебедева Б.Д., Карманова Э.Р. Гендерные различия суицидального поведения в России // Социология: теория, методы, маркетинг. – 4 (32), 2018.
2. Дмитриева Т.Б., Шишкин С.В. Факторы риска суицида у мужчин в современной России // Вестник Российской академии медицинских наук, (10), 2019.
3. Шарова Е.П., Гринько Е.С., Грибань Н.Б. и др. «Суицидальное поведение: анализ социально-психологических факторов. Социальные и гуманитарные науки на Севере». Т.10. – № 4, 2019.
4. Березина Е.В., Тимакова А.И., Старостина Е.Г. и др. Суицидальное поведение и психические расстройства у женщин и мужчин // Международный журнал прикладных и естественных наук, 2015. – 132 с.
5. Корсакова С.С., Кожевникова А.Я. Узбекистан // Журнал неврологии и психиатрии им. С.С. Корсакова. – 2017. – Т.117. – № 1.
6. Бережная Е.А., Лебедева Н.Г. Социально-экономические и психологические факторы, влияющие на суицидальное поведение // Психологическая наука и образование. Т. 25. – № 3, 2020.
7. Корсакова С.С., Кожевникова А.Я., Узбекистан // Журнал неврологии и психиатрии им. С.С. Корсакова. – Т.117. – № 1, 2017.
8. Жураев Н.Н., «Женское здоровье и детские права в Центральной Азии», Научно-практический журнал «Медицина. – Т.8. – № 2, 2018.
9. Михайлова Г.Е. Распространенность и связанные факторы суицидальных мыслей и попыток среди мужчин и женщин-студентов медицинского университета в Узбекистане // Журнал «Asian Journal of Psychiatry». – 2018. – 234 с.



**Khodjayeva Dilnovoz Djumoyevna,**  
*Doctoral student of the Department of Psychology  
of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  
e-mail: 027@gmail.com*

## PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS WITH ACADEMICLY TALENTED STUDENTS

**Annotation.** The article examines the psychological features of the organization of the educational process among academically gifted students. This study aims to provide insight into effective instructional strategies and methods to support the development of academically gifted individuals while recognizing their unique needs and characteristics.

**Keywords:** academically talented students, educational process, individualized instruction, differentiated curriculum, socio-emotional support, cognitive development, motivation.

**Annotatsiya.** Maqolada akademik iqtidorli o'quvchilarda o'quv jarayonini tashkil etishning psixologik xususiyatlari o'rganiladi. Akademik iqtidorli shaxslarning o'ziga xos ehtiyojlari va xususiyatlarini tan olgan holda, ushbu tadqiqot samarali ta'lim strategiyalari va ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlar haqida tushuncha berishga qaratilgan.

**Tayanch so'zlar:** akademik iqtidorli o'quvchilar, o'quv jarayoni, individual ta'lim, tabaqalashtirilgan o'quv dasturi, ijtimoiy-emotsional qo'llab-quvvatlash, kognitiv rivojlanish, motivatsiya.

**Аннотация.** В статье рассматриваются психологические особенности организации учебного процесса у академически одаренных студентов. Это исследование призвано дать представление об эффективных учебных стратегиях и методах поддержки развития академически одаренных личностей, одновременно признавая их уникальные потребности и характеристики.

**Ключевые слова:** академически одаренные студенты, образовательный процесс, индивидуализированное обучение, дифференцированный учебный план, социально-эмоциональная поддержка, когнитивное развитие, мотивация.

**I**ntroduction. Academically gifted students have exceptional abilities and potential that set them apart from their peers. These students demonstrate advanced cognitive abilities, a strong appetite for intellectual challenges, and a high capacity for learning. Recognizing and developing their unique talents is essential to providing them with appropriate educational support and maximizing their development. It is very important to understand the psychological basis of their learning and development in order to effectively

organize the educational process for academically gifted students.

This article is aimed at studying the psychological features of the organization of the educational process in academically gifted students. By examining the cognitive, motivational, and social-emotional dimensions of their learning, this study seeks to illuminate effective strategies and interventions that can optimize their learning experience. Understanding the psychological characteristics of academically gifted students is

important for educators because it allows them to design and implement customized instructional methods that meet their unique needs.

Organization of the educational process for academically gifted students requires abandoning traditional teaching methods. A single approach is not enough to develop their extraordinary abilities and stimulate their intellectual growth. Instead, educators should adopt a multidimensional perspective that takes into account the individual characteristics, strengths and challenges of these students. It is important to provide an optimal learning environment that supports their cognitive, motivational and social-emotional development<sup>1</sup>.

This article is based on psychological theories and research designed to provide insight into the effective practices of organizing the learning process in academically gifted students. It explores the importance of individualized education, differentiated curriculum and social-emotional support in meeting their unique needs. By understanding the psychological underpinnings of learning, educators can design learning experiences that promote intellectual engagement, challenge and well-being. In particular, this article aims to contribute to the ongoing efforts to identify and develop the potential of academically gifted students. By examining the psychological underpinnings of their teaching process, teachers can gain valuable insights into effective strategies and interventions. This understanding helps create an educational environment that supports the growth, development and well-being of academically gifted students and allows them to reach their full potential.

**Literature analysis and methods.** In the research various psychological factors has been examined that influence the learning and development of gifted students. These include theories of intelligence, creativity, intrinsic motivation, flow, mastery orientation, self-regulation, and optimal challenge (Dai et al., 1998; Csikszentmihalyi et al., 1993; Dweck, 1986). Scholars have also proposed instructional models tailored to the cognitive and social-emotional needs of gifted students (Renzulli, 1994; Tomlinson, 1999). However, there is limited

<sup>1</sup> Geake J.G., & Gross M.U. (2008). Teachers' negative affect toward academically gifted students. *Gifted Child Quarterly*, 52(3), 217-231.

synthesis of the full psychological foundations of the educational process for academically gifted students. This study aims to synthesize the findings in this field. A comprehensive review of the relevant literature was conducted to study the psychological foundations of the organization of the educational process in academically gifted students. A systematic search was conducted using academic databases, scientific journals and books focused on the topic of gifted students and their educational needs. The search included research and theories in the fields of gifted education, educational psychology, cognitive psychology and social-emotional development<sup>2</sup>.

The analysis of the literature is aimed at identifying the main psychological factors affecting the educational experience of academically gifted students. Special attention was paid to cognitive development, motivation and social-emotional well-being as the decisive dimensions of effective organization of the educational process. The analysis also examined instructional strategies and interventions offered and studied in the context of academically gifted students.

**Methods.** This article uses a qualitative approach to synthesize and analyze the existing literature. Basic research, theories, and empirical studies were reviewed and examined to obtain relevant information on the psychological foundations of the educational process for academically gifted students. The analysis aims to identify common themes, theoretical frameworks and practical implications emerging from the literature. The process involved several stages. First, a comprehensive search was conducted using relevant keywords such as "academically gifted students", "educational process", "psychological factors", "cognitive development". The search was defined based on inclusion and exclusion criteria that included scientific articles and publications published in the last decade<sup>3</sup>.

Selected studies were then critically reviewed and analyzed to identify recurring themes and

<sup>2</sup> Gubbins E.J., Housand B., Oliver M., Schader R., & De Wet C. (2007). The John Hopkins Talent Search: Evaluation of a long-term research project on development of academic talent. *Gifted Child Quarterly*, 51(2), pp. 119-137.

<sup>3</sup> Rogers K.B. (2007). Lessons learned about educating the gifted and talented: A synthesis of the research on educational practice. *Gifted Child Quarterly*, 51(4), pp. 382-396.

patterns. Theoretical frameworks related to cognitive development, motivation, and social-emotional well-being were examined to understand their applicability to the educational context of academically gifted students. Empirical studies were explored to gain insight into effective instructional strategies and interventions that have shown positive outcomes for academically gifted students.

The results of the literature review were synthesized and organized thematically to inform further discussion on the psychological underpinnings of educational organization. The identified themes and theoretical frameworks were used as a basis for proposing effective strategies and interventions to meet the unique needs of academically gifted students. In general, the literature analysis and methods used in this article provide a comprehensive understanding of the psychological foundations of the organization of the educational process for academically gifted students. By synthesizing and analyzing the existing literature, this study aims to contribute to the field of gifted education and inform educators and practitioners about effective strategies to support the growth, development and well-being of academically gifted students in educational settings. aimed at providing information<sup>4</sup>.

**Discussion:** In this study, the psychological characteristics of the organization of the educational process in academically gifted students were studied. Key factors and strategies for supporting academically gifted students were identified by reviewing the literature on gifted education, educational psychology, cognitive psychology, and social-emotional development. The discussion focuses on three main aspects: cognitive development, motivation and social-emotional well-being.

**Cognitive development:** academically gifted students often demonstrate advanced cognitive abilities and rapid learning rates. Providing them with intellectually stimulating and challenging content is critical to optimizing their learning experience. Differentiated learning and curriculum can be used to meet their individual learning needs. This includes offering advanced coursework, enrichment of activities, and independent research

<sup>4</sup> Spicker H.H., Southern W.T., & Davis, B. I. (1987). The rural gifted child. *Gifted Child Quarterly*, 31(4), pp. 155-157.

and exploration of opportunities. By tailoring instruction to their cognitive abilities, academically gifted students can engage in deep learning, critical thinking and problem solving, promoting their intellectual growth.

**Motivation:** Motivation plays an important role in the learning process of academically gifted students. Intrinsic motivation, characterized by a genuine interest and enjoyment of learning, is often observed in these students. Teachers can tap into this intrinsic motivation by providing autonomy, choice and opportunities for self-direction. Personalized learning plans and projects that match students' interests and goals that can increase their motivation and engagement. Furthermore, recognizing and celebrating their achievements through feedback, recognition and challenging tasks can further enhance their motivation and pursuit of academic excellence<sup>5</sup>.

**Socio-emotional well-being:** Academically gifted students may face unique social-emotional challenges due to factors such as perfectionism, high expectations and social isolation. It is important to create a supportive and nurturing environment that promotes their social-emotional well-being. Teachers can facilitate peer collaboration, group projects and mentoring opportunities to foster social connections and a sense of belonging. Instruction in stress management, resilience, and goal setting can help students cope with pressures related to their academic performance. Additionally, developing a growth mindset and promoting a positive academic identity can contribute to their overall well-being and self-esteem.

**Integration of findings:** The results of this study show the need for a comprehensive approach to the educational process of academically gifted students. By considering the interrelationship between cognitive development, motivation and social-emotional well-being, educators can design holistic and personalized learning experiences. Individualized instruction that focuses on students' cognitive abilities, personalized curriculum that develops their intrinsic motivation, and social-emotional support that promotes well-being

<sup>5</sup> Renzulli, J. S. (2002). Reexamining the role of gifted education and talent development for the 21st century: A four-part theoretical approach. *Gifted Child Quarterly*, 46(1), 35-44.

can create an optimal learning environment for academically gifted students.

In addition, technology can play an important role in supporting academically gifted students. Online learning platforms, virtual simulations and data analysis tools provide access to advanced content, interactive learning experiences and independent research opportunities. Collaboration tools and online communities can facilitate connections with like-minded people and experts. By effectively integrating technology, educators can enhance the educational experience of academically gifted students and provide them with the resources and opportunities necessary for their continued growth and success. In conclusion, it can be said that the psychological foundations of the organization of the educational process in academically gifted students require serious attention to cognitive development, motivation, social-emotional well-being. By understanding and addressing these factors, educators can create a supportive and challenging learning environment that nurtures the unique abilities and potential of academically gifted students. Effective strategies and technology integration can further enhance their learning experience and contribute to their long-term success<sup>6</sup>.

**Results.** Cognitive development: The literature review showed that academically gifted students demonstrate advanced cognitive abilities in various domains. Their extraordinary thinking skills, memory capacity and problem-solving skills contribute to their intellectual superiority. Research has consistently highlighted the importance of differentiated instruction to meet their cognitive needs. Advanced coursework, enrichment activities and independent research projects have been found to stimulate their cognitive development and intellectual growth.

Motivation: The analysis identified intrinsic motivation as the main characteristic of academically gifted students. They showed genuine interest and enjoyment in learning through their curiosity and eagerness to intellectually challenge themselves.

<sup>6</sup> Subotnik R.F., Olszewski-Kubilius P., & Worrell F.C. (2011). Rethinking giftedness and gifted education: A proposed direction forward based on psychological science. *Psychological Science in the Public Interest*, 12(1), 3-54.

Personalized study plans tailored to their individual interests and goals have been found to significantly increase their motivation and engagement. Feedback, recognition, and challenging tasks also had a positive effect on their motivation, fostering a strong desire for academic excellence.

Socio-emotional well-being: academically gifted students face unique social-emotional challenges that can affect their well-being. A literature review revealed that perfectionism, high expectations and social isolation are common problems experienced by students. However, research has highlighted the importance of creating a supportive and nurturing environment to meet their social-emotional needs. Peer collaboration, group projects, and mentoring opportunities are found to foster social connections and a sense of belonging. Instruction in stress management, resilience, and goal setting were identified as valuable strategies to enhance their social-emotional well-being.

#### Integration of findings:

The integration of the conclusions shows that an integrated approach is crucial in organizing the educational process for academically gifted students. By considering the interrelationship between cognitive development, motivation and social-emotional well-being, educators can create holistic and adaptive learning environments. Individualized instruction based on cognitive abilities, personalized curriculum tailored to students' interests and goals, as well as social-emotional support contribute to their overall development and well-being.

In addition, the analysis highlighted the potential of technology in supporting academically gifted students. Online platforms, virtual simulations and data analysis tools were identified as valuable resources for providing advanced content and interactive learning experiences. Collaboration tools and online communities have also been found to facilitate connections with like-minded peers and professionals, enhancing the educational experience of academically gifted students.

Although these results are based on a comprehensive review of the literature, further empirical research is needed to confirm and extend these findings. Future research may examine the effectiveness of specific instructional strategies and

interventions in promoting cognitive, motivational, and social-emotional development of academically gifted students<sup>7</sup>.

In general, the results show that when organizing the educational process of academically gifted students, attention should be paid to their cognitive development, motivation and social-emotional well-being. By understanding and addressing these factors, teachers can create optimal learning environments that nurture their unique abilities and support their overall growth and well-being.

**Conclusion.** In this study, the psychological foundations of the organization of the educational process in academically gifted students were studied. A comprehensive review of the literature produced key findings on the cognitive development, motivation and social-emotional well-being of academically gifted students, providing valuable insights for educational practitioners and researchers.

The results of the literature review highlight the importance of recognizing and meeting the unique needs of academically gifted students. Their advanced cognitive abilities require a differentiated education and curriculum that provides intellectual challenges and opportunities for growth. By tailoring instruction to their abilities, teachers can support their intellectual development and develop deep learning, critical thinking and problem-solving skills.

It was found that internal motivation is an important motivational factor among gifted students. Personalized learning plans tailored to their individual interests and goals have been shown to increase their motivation and engagement. Teachers can support their motivation by providing feedback, recognition and challenging tasks that encourage a sense of accomplishment and academic excellence.

Social-emotional well-being has emerged as an important aspect of the educational process for academically gifted students. They may experience social-emotional issues such as perfectionism, high expectations and social isolation. Creating a supportive and nurturing environment is critical to addressing these issues. Peer collaboration,

group projects and mentoring opportunities can foster social connections and a sense of belonging. In addition, instruction in stress management, resilience and goal setting can help academically gifted students cope with pressures related to their abilities.

The integration of findings emphasizes the importance of an interdisciplinary approach to the learning process of academically gifted students. By considering the interrelationship between cognitive development, motivation and social-emotional well-being, educators can design holistic and personalized learning experiences. Individualized instruction, personalized learning plans and social-emotional support contribute to their overall development, growth and well-being.

In addition, technology can play an important role in supporting academically gifted students. Online platforms, virtual simulations and collaboration tools provide access to advanced content, interactive learning experiences and opportunities to connect with peers and experts. Effective technology integration can enhance their learning experience and provide them with resources and opportunities for continued growth and success.

In conclusion, it can be said that the psychological basis of organizing the educational process of academically gifted students requires careful consideration of their cognitive development, motivation, social-emotional state. By understanding and addressing these factors, educators can create supportive, challenging and inclusive learning environments that nurture the unique abilities and potential of academically gifted students. Findings from this study contribute to the field of gifted education and provide practical insights for educators and practitioners focused on enhancing the educational experience and well-being of academically gifted students. Further research and empirical studies are recommended to confirm and extend these findings, ultimately informing evidence-based practices in the field.

<sup>7</sup> Simonton D.K. (2009). Talent and genius: The Fuzziness of the nature–nurture relationship, and why it matters to research on expertise. *Perspectives on Psychological Science*, 4(5), 587-591.

**REFERENCES**

1. Geake, J. G., & Gross, M. U. (2008). Teachers' negative affect toward academically gifted students. *Gifted Child Quarterly*, 52(3), 217-231.
2. Gubbins, E. J., Housand, B., Oliver, M., Schader, R., & De Wet, C. (2007). The John Hopkins Talent Search: Evaluation of a long-term research project on development of academic talent. *Gifted Child Quarterly*, 51(2), 119-137.
3. Rogers, K. B. (2007). Lessons learned about educating the gifted and talented: A synthesis of the research on educational practice. *Gifted Child Quarterly*, 51(4), 382-396.
4. Spicker, H. H., Southern, W. T., & Davis, B. I. (1987). The rural gifted child. *Gifted Child Quarterly*, 31(4), 155-157.
5. Renzulli, J. S. (2002). Reexamining the role of gifted education and talent development for the 21st century: A four-part theoretical approach. *Gifted Child Quarterly*, 46(1), 35-44.
6. Subotnik, R. F., Olszewski-Kubilius, P., & Worrell, F. C. (2011). Rethinking giftedness and gifted education: A proposed direction forward based on psychological science. *Psychological Science in the Public Interest*, 12(1), 3-54.
7. Simonton, D. K. (2009). Talent and genius: The Fuzziness of the nature–nurture relationship, and why it matters to research on expertise. *Perspectives on Psychological Science*, 4(5), 587-591.



**Raximova Xusnora,**

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

e-mail: [rahimovaxusnora@gmail.com](mailto:rahimovaxusnora@gmail.com)

## SHAXSDA MODDIY YETISHMOVCHILIK HISSINING ONTOGENEZ XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Insonning ontogenez xususiyati shaxsning hayotidagi barcha jabhalariga tegishli bo‘lib, maqolada shaxsda moddiy yetishmovchilik hissining ontogenez xususiyatlari tahlili yoritilgan. Shuningdek, uning jamiyat va shaxsiy hayotdagi roli va jamiyat bilan bo‘ladigan muloqotiga ta‘sirining ontogenez doirasidagi barcha izlanishlar hamda moddiy yetishmovchilik insondagi psixologik holatlarga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmasligi, shu orqali shaxs o‘zida moddiy yetishmovchilik hissini yuzaga keltirishi haqida so‘z yuritilgan. Shaxs ontogenezidagi holatlarini tushunishini turli chet el olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar isbotida ko‘rib, uni xulosalashga va bu tadqiqotlar shaxs ontogenezi inson hayotida qanchalik muhimligini ko‘rsatish maqsad qilingan.

**Tayanch so‘zlar:** moddiy yetishmovchilik hissi, ehtiyoj, inson faoliyati, ontogenez, kam ta‘minlanganlik, ijtimoiylashuv, bola fiziologiyasi, og‘zaki xotira, vizual xotira.

**Аннотация.** Характеристика онтогенеза человека распространяется на все стороны жизни человека, в статье рассматривается анализ особенностей онтогенеза чувства материального недостатка у человека. Также все исследования о его роли в обществе и личной жизни и влияния на общение с социумом, а также все исследования в рамках онтогенеза, и о том, что материальный недостаток не влияет на психологическое состояние человека, тем самым создавая у человека ощущение материальной нехватки, говорят, приносит. Понимание состояний онтогенеза личности базируется на данных исследований, проведенных различными зарубежными учеными, и имеет целью их обобщить и показать, насколько важен онтогенез личности в жизни человека.

**Ключевые слова:** чувство материального недостатка, нуждаемость, деятельность человека, онтогенез, бедность, социализация, физиология ребенка, вербальная память, зрительная память.

**Annotation.** The characteristic of human ontogeny applies to all aspects of a person's life, and the analysis of the characteristics of the ontogeny of the feeling of material lack in a person is covered in the article. Also, all the researches about its role in society and personal life and its impact on communication with society, as well as all the researches within the framework of ontogeny, and the fact that material lack does not affect the psychological conditions of a person, thereby creating a feeling of material lack in a person. it is said to bring. The understanding of the states of the ontogeny of the individual is based on the evidence of research conducted by various foreign scientists, and it is aimed to summarize it and show how important the ontogeny of the individual is in human life.

**Keywords:** feeling of material lack, neediness, human activity, ontogenesis, poverty, socialization, child physiology, verbal memory, visual memory.

**Kirish.** Dunyoning barcha mamlakatlarida Kasosiy muammolardan biri moddiy yetishmovchilik bo‘lib kelmoqda. Shu o‘rinda bizning mamlakatimizda ham ushbu muammoga turli xil yo‘llar bilan yechim topishga harakat qilinmoqda. Insonning dunyoviy bilimlaridagi katta

yutuqlari bugungi kundagi samarali vositalar bilan boyitilgan ishlab chiqarish, shaharsozlik, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy sohalarning barcha darajalarida o‘z aksini topmoqda. Turli xil kombinatsiyalarning insonlar turmush tarziga o‘zaro ta‘siri inson taraqqiyoti tuzilishining yuqori darajasiga mos



keladi<sup>1</sup>. Insonning moddiy yetishmovchilikni his qilishida, albatta, ontogenez davrining rivojlanishini ko'rishimiz mumkin, chunki barcha psixologik holatlar va xususiyatlar insonning ona qornida rivojlanishidan boshlanadi.

**Maqsad va uni asoslash.** Insonning moddiy yetishmovchiligi uning ona qornida rivojlanishidan boshlanadi va keyinchalik uning hayotdagi mavqeyi tug'ilishidan boshlab berilgan psixologik bilimlar asosida belgilanadi. Tug'ilish bu har bir inson hayotining muhim voqeasi bo'lib, bir dunyoni boshqasidan ajratib turuvchi ma'lum chegara deb olsak ham bo'ladi. Postnatal davrda onaning tanasidan jismoniy ajralish bilan bog'liq bolaning turmush tarzida tub o'zgarishlar yuz beradi: bu nafas olishning yangi turi (bolaning o'pkasi faollashadi), yangi usul oziq-ovqat, yangi harorat sharoitlari va boshqalar. Shuning uchun fiziologik nuqtayi nazardan yangi tug'ilgan chaqaloqlik davri ekstrauterin tasvirga moslashish sodir bo'lgan o'tish davri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, insonning moddiy yetishmovchilikning bevosita ontogenez davri bilan chambarchas bog'liqligini ko'rish mumkin.

**Ilmiy mummoning tavsifi va yechimi.** Ilmiy mummoning tavsifi va yechimiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ko'pgina olimlar va izlanuvchilar bu muammoga turlicha yondashuvni amalga oshirishgan.

Insonning faoliyati, xulq-atvori, xatti-harakati hayvonlarnikidan tubdan farq qiladi, ularni tarkib toptirish mutlaqo boshqa asosga quriladi. Masalan, bolaning ovqatlanishi, xatti-harakati, qoshiqdan foydalanish, maxsus ajratilgan joyda o'tirish, ovqat yeyish qurolini ishlata olish uning tabiiy ehtiyojlari tufayli yuzaga kelgan deb e'tirof etish haqiqatdan uzoq fikr, chunki uning negizida yotuvchi mexanizmlarning siri tushuntirib berilmagan. O'z-o'zidan ma'lumki, tabiiy ehtiyojni qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi shart emas, insonda uyquga ehtiyoj tug'ilsa, u holda hech qanday yumshoq o'ringa, divanga talab sezilmaydi, charchagan odam duch kelgan joyda o'z ehtiyojini qondiraveradi. Madaniy xatti-harakatlar, odatlarning insonda vujudga kelishi ijtimoiy tarbiyaning ta'sirida tabiiy ehtiyojlarni qondirishning vositasi va sharti sifatida gavdalanib, qurollar va buyumlar ularning

<sup>1</sup> Ананев Б.Г. "Человек как предмет познания" (Ананев Б.Г. "Man as subject of knowledge"). – Ленинград, 1969.

tarkibiy qismiga aylana boshlaydi. Bunday xatti-harakatlar shaklini keltirib chiqaruvchi asosiy manba tub ma'nodagi ehtiyoj emas, balki uni qondirishning jamiyat taraqqiyoti talab qilgan qoidalari, usullari, kamolotni taqozo etuvchi madaniy ko'nikmalar hisoblanadi. Jamiyatning taraqqiyot bosqichlariga binoan tabiiy ehtiyojlarni qondirishning yangidan yangi, yanada takomillashgan vositalari insoniyat tomonidan yaratilaveriladi va bular ehtiyojlar tarkibi bilan qorishib ketadi. Madaniy va ma'naviy ehtiyojlar to'g'risida ham xuddi shu tarzda o'zgarishlar yuz beradi, shaxsning boshqa kishilar bilan muloqotga kirishishi, bilimlarni o'zlashtirishda texnik vositalardan foydalanishi, nutq va kiyinish madaniyatining o'sishi, ularni qondirishga nisbatan talab darajasining ortishi mazkur ehtiyojlar rivojlanishini ta'minlaydi. Psixologiyada ehtiyojlar rivojlanishining bir necha bosqichlari mavjud ekanini ta'kidlab o'tish zarur. Chunki ehtiyojlar inson ontogenezida paydo bo'lib, to'umrining oxirigacha o'zgarib, takomillashib boradi. Kishilik jamiyatlarida ehtiyojlar bir-biridan ham mohiyat, ham shakl jihatidan tafovutga ega bo'lganidek, yosh davrlariga qarab ular xuddi shunday mezonlar bo'yicha o'zaro farqlanadilar. Bola faolligini rivojlantirishning dastlabki bosqichlaridayoq, biologik jihatdan ahamiyat kasb etuvchi buyumlar, jismlar ustuvorlik xususiyatiga ega bo'lmaydilar, aksincha, ularning inson tomonidan foydalanish usullari ehtiyojlarning omillari tariqasida gavdalanadi. Binobarin, mazkur buyum-aslahalarning ijtimoiy tajribalarini egallashdagi ahamiyati va roli namoyon bo'lishining mexanizmlari sifatida maydonga keladi. Bolalarning xuddi shu yo'sinda egallaydigan xatti-harakatlarining yangi shakllari – bu jamiyat tomonidan ijtimoiy amaliyot vazifalariga munosib ravishda ishlab chiqilgan usullaridan iborat bo'lib, buyumlar bilan shaxsning munosabati tarzida yuzaga keladi, kishining kundalik faoliyati ichidan muhim joy egallaydi. Stol atrofida o'tirish, qoshiq bilan ovqat yeyish, karavotda uxlash, televizor tomosha qilish, o'yinchoq o'ynash, kattalar bilan muomala qilish yuqoridagi fikr mohiyatini yaqqollashtirishga yordam beradi. Ehtiyojni qondirishning vositalaridan foydalanish qoidalari ijtimoiy muomala usullari, faoliyatni amalga oshirishning yo'l-yo'riqlari katta yoshdagi insonlar tomonidan yoshlarga o'rgatiladi. O'z ehtiyojlarini muayyan buyumlar vositasida qondirish va ularni

muayyan faoliyat turiga tatbiq etishning insoniy shakllarini egallashga o'rgatish maxsus mashqlar orqali amalga oshirilib, "Yetuk shaxs – bola" tarzida yuzaga keladi. Demak, bola ehtiyoji qondirilayotgan insoniy shart-sharoitlar ta'siri ostida shaxsning xulq-atvori vositalar ahamiyati bilan emas, balki ularning ijtimoiy qiymati bilan belgilanadi. Ehtiyojlarning qondirilish darajasi uning og'ir yoki yengil ko'chishi shaxsning shakllanishida muhim ahamiyatga ega, shu boisdan ularni qondirish maqsadga muvofiq, oqilona mezonlarga tayanib amalga oshirilsa, ijtimoiy ahamiyati yanada ortadi<sup>2</sup>.

Ergash G'oziyevning fikricha, bolaning ikki-uch yoshlari atrofida motivlari tuzilishi amorfligi bilan ajralib turadi, shuningdek, ularning qat'iy iyerarxiyasi yo'qligi bilan tartibga solinishi namoyon bo'ladi. Bolaning motivlar tizimi bir qator motivlar yig'indisini aks ettiruvchi, o'zaro bir-biri bilan tasodifiy o'rin almashib turish xususiyatiga ega. Motivlar o'zaro o'rin almashganida yagona anglashish darajasidagi nazorat tizimiga bo'ysunmaydi. S.L.Rubinshteyn individning ontogenetik taraqqiyot bosqichi davrida motivlariga quyidagicha psixologik tavsif bergan: "Bevosita bolaga ta'sir etuvchi har bir qo'zg'ovchi ilk bolalik davrida uning o'sishida hukmronlik qiladi. Chunki undagi ichki motivlar mustahkam bo'lmagani sababli har xil vaziyatda bola boshqa qo'zg'ovchi hukmronligiga tobe bo'lib qolishi mumkin. Shundan kelib chiqib, beqaror, kuchsiz va betartib motivlar yuqoridagi xatti-harakatlarga bog'liq bo'ladi. Bolalik beixtiyor intilishining xulq-atvoriga o'z ta'sirini ko'rsatib turadi. O'rganilgan amaliy va nazariy tadqiqotlarga asoslanib, ilk bolalik davridagi individning xulq-atvori, impulsivlik va vujudga kelgan vaziyat xususiyati bilan tavsiflanadi. Bolani o'rab turgan genetik qatlamidagi shakllanish bosqichidagi motivining dinamik asosi – xatti-harakati qo'zg'alishining tor doirasidan tashkil topadi. Chunki shaxs motiv ustanovkalarini uzoq vaqt saqlab tura olmasligi sababli u tez yo'qoladi. Asosiy o'rinni egallovchi qo'zg'alishlarda bola chalg'isa, ular uning yodidan tez ko'tariladi. Turli ehtiyojlarning qondirilishida, affektiv holatlarda, diqqatning chalg'ish jarayonida qo'zg'alish berilgan vaqtdan chetlashadi. Psixologiyaning atrofidagi boshqarishning o'ziga xos vositalari, olib borilayotgan faoliyatni amalga oshirishni

<sup>2</sup> O'sha asar.

ta'minlovchi motivlar shaxs faoliyati qobiliyat darajasining tarkibiy qismini aks ettiradi. Shaxsning intellektual darajasi va bilimlarning yetarli emasligi asnosida kichik bir amaliy tajriba aniq amaliy faoliyat muhitini puchga chiqarishi mumkin. Shaxs biror-bir obyektga yo'naltirilgan faoliyatni, uni yo'naltirish jarayonini yuqori funksiyaga oid qobiliyat bosqichida motivlarni o'z holicha uzoq vaqt xotirasida saqlash imkoniyatiga ega emas. Inson faoliyatining samaradorligini oshirish haqidagi psixologik usulning rolini L.S.Slavina III–IV sinf o'quvchilarida tadqiqot yo'li bilan aniqlab berdi. U qiyin va uzoq davom etadigan faoliyatlarni o'rganish jarayonida uni nisbatan mustaqil va sodda tarkibiy qismlarga ajratib chiqadi hamda ularning har birini alohida nazorat qiladi, binobarin, uni aynan mustaqil faoliyat tizimidagi takomillashuvi va rivojlanishi natijasidagina motivlar strukturasi rivojlanishida namoyon bo'ladi. Xulq-atvor faoliyatining ma'lum maqsadga qaratilishi kichik maktab yoshi tugallanishi bosqichida amalga oshirilib, ixtiyoriy xulq-atvor shakllanishining birinchi davri bo'lib hisoblanadi<sup>3</sup>.

Rus sotsiologi N.Andreyenkova adaptatsiya jarayonini 2 ta katta bosqichda ta'riflaydi. Uning boshlang'ich bosqichi individning ijtimoiy borliq sifatida rivojlanishini ta'minlovchi insonning hayot yo'lini o'z ichiga olib, u shaxs umrining uchdan bir qismini tashkil etadi va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- ilk ijtimoiylashuv (bolalik davri);
- me'yoriy xulqning marginal jihatlarini o'zlashtirish (o'smirlik davriga to'g'ri keladi);
- ijtimoiylashuv sabablarining umumiy namoyon bo'lishi (o'spirinlik va balog'at yoshiga o'tish davriga to'g'ri keladi).

Ikkinchi bosqich – rivojlangan shaxsning jamiyatda faoliyat yuritish davrlarini o'z ichiga olgan hayotiy bosqich. Bu bosqichda shaxs avval mehnatga yaraydigan jamiyat a'zosi sifatida, so'ngra nafaqa yoshidagi inson sifatida o'z o'rniga ega bo'ladi. Ijtimoiylashuvning dastlabki yillarida uning samarliliigi oila, ijtimoiy-psixologik muhit va ota-ona marabbiylik darajasini qanday ado etganiga bog'liq bo'lib, keyingi bosqichlardagi ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarining roliga ta'sirini ko'rsatib boradi.

<sup>3</sup> G'oziyev E. "Umumiy psixologiya" // Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. – Toshkent, 2002. – 121 b.

Uchinchi bosqich – bunga, asosan, mehnat faoliyatidan keyin keksalik gashtini surayotganlar kiradi. Bu davrda shaxs ijtimoiylashuvi davom etadi, sababi endi oldingi davrlarda orttirilgan tajriba keyingilariga uzatiladi va shunga muvofiq shaxs tuzilishida ham o'ziga xos o'zgarishlar sodir bo'ladi. Keksa yoshdagi rivojlanishning o'ziga xoslik xususiyati shundan iboratki, unda individuallashtirish jarayoni sezilarli kechadi. Endi keksa odam nafaqat tashqi ta'sirlarni, balki o'zidagi iqtidor, malaka va orttirilgan hayotiy tajribasi bilan boshqalarga ham tarbiyaviy ta'sir ko'rsata borish asnosida yoshlarga shaxsiy o'rnak ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu jihatdan keksalikning ijtimoiy mohiyati ota-bobolarning o'zlaridagi ijtimoiy tajribani farzandlarga, nabiralarga, mahalladagi yoshlar va boshqa ko'plab insonlarga uzatish bilan shug'ullanishidir va bu Sharq xalqlarida juda e'zozlanadi<sup>4</sup>.

N.Andreyenkovaning ma'lumotlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, inson ijtimoiy muhitda o'zining ontogenez davrini ham moddiy, ham ma'naviy, ham boshqa turli faoliyatlarda rivojlantira oladi.

Inson hayoti mobaynida bajaradigan har bir roli uni o'rab turgan ijtimoiy borliqning normalari, qoidalari, xulq-atvor mezonlarida o'z aksini topgan bo'ladi. Shaxs hayoti davomida haddan ortiq rollarni bajaradi va ularning barchasi ijtimoiylashuv jarayonida munosib o'rin egallaydi. Shu sababli ushbu jarayonda har bir inson o'zining jamiyatdagi o'rnini topishga intiladi va natijasiga ko'ra turli xil mavqega ega bo'ladi. Umumiy olganda, ijtimoiylashuv bosqichida shaxs o'zining "men"ini anglab, uni rivojlantiradi va shakllantiradi<sup>5</sup>.

Jahon tajribalariga nazar soladigan bo'lsak, ko'pgina mavzuga oid tadqiqotlarni uchratishimiz mumkin. Emma Young Britaniya Psixologiya Jamiyatining blogida "nega kam ta'minlangan oilalar farzandlari nafaqat kam rivojlangan, balki ko'p narsaga boshqacha munosabatda bo'lishlarini tushuntiradi". Jahon standartlari bo'yicha "boy" bo'lgan mamlakat uchun Buyuk Britaniyada juda ko'plab kam ta'minlanganlar bor. Ulardan

<sup>4</sup> Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanma / N.Ismoilova, D.Abdullayeva. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. – B. 59-80.

<sup>5</sup> Каримова В. ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИЯ. – Тошкент: "Fan va texnologiya", 2012. – 98 b.

14 million nafari, ya'ni aholining beshdan bir qismi kam ta'minlangan hisoblanadi. 1,5 millioni esa hayot uchun eng zarur narsalarni ham sotib olishga qurbi yetmaydigan kam ta'minlanganlar qatoriga kiradi<sup>6</sup>.

"Bolalar kam ta'minlanganlikni ularning aqliy, jismoniy, hissiy va ma'naviy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhit sifatida qabul qiladi", – deydi UNICEF. Shubhasiz, bu sohadagi psixologik tadqiqotlar, ayniqsa, kam ta'minlanganlik bolalar va kattalarga qanday ta'sir qilishi muhim.

Kam ta'minlanganlikda o'sayotgan bolalar uchun psixologik oqibatlar og'ir. 2009-yilda "Journal of Cognitive Neuroscience" jurnalida chop etilgan tadqiqot 9 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida murakkab idrok uchun muhim bo'lgan miyaning prefrontal korteksi (prefrontal korteks (PFC) ya'ni ichki, maqsadli aqliy harakatlar uchun javobgardir, odatda fikrlash yoki prefrontal sintez deb ataladi) faolligidagi ajoyib farqlarda aniqlanadi va ular faqat ijtimoiy-iqtisodiy holatda farqlanadi. Ko'pgina moddiy yetishmovchilikdagi bolalarning prefrontal korteksining turli testlarga javobi ba'zi insult qurbonlarinikiga o'xshardi. "Ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan pastroq bo'lgan bolalar balog'at yoshida peshona qismida zararlanganlarga o'xshash fiziologik miya xususiyatlarini namoyon etadi", – dedi U.Berkeley psixologiyasi professori va yetakchi tadqiqotchisi Robert Nayt.

Moddiy yetishmovchilikda yashash o'z-o'zini tartibga solish va xulq-atvorda hamda fikrlashda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin (bu moddiy yetishmovchilikdagi bolalar orasida qayd etilgan). "Bu uyg'otuvchi qo'ng'iroq, – deya davom etadi Nayt. – Bu bolalarning moddiy yetishmovchiligi va ularning sog'lig'i bilan bog'liq muammolarga duchor bo'lish ehtimoli ko'p emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning pastligi bilan bog'liq stressli va juda yomon muhit tufayli ularning miyalari to'liq rivojlana olmaydi (muzeylarga kam tashrif buyurish, kitoblarni kam o'qish, ochiq havodagi o'yinlar va sayohatlarni kam tashkillashtirish)".

O'tkazilgan ko'plab boshqa tadqiqotlar kam ta'minlanganlik bolalar miyasiga zarar yetkazishini ko'rsatdi. 2014-yilda Mishel Tin boshchiligidagi tajribalar kam ta'minlangan bolalar orasida og'zaki va vizual xotirada aniq kamchiliklarni aniqladi. Bir yil o'tgach, JAMA Pediatrics jurnalida kam ta'minlangan bolalarda "beqaror miya rivojlanishi"

<sup>6</sup> <https://www.bps.org.uk/2019/12/03/the-psychological-impacts-of-poverty-digested>

qayd etilgan. Frontal va temporal peshona rivojlanishidagi bu kechikishlar matematika va o'qish testlarida sezilarli darajada past ball bilan bog'liq edi. Tadqiqotchilar xotira uchun mas'ul bo'lgan gippokampning rivojlanishiga, ayniqsa, bu bolalar boshdan kechirgan stress ta'sir ko'rsatishini aniqladilar. Bu ta'sir uzoq davom etishi mumkin.

2016-yilda PNASda Gari Evans tomonidan chop etilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bolaligida moddiy yetishmovchilik bo'lgan odamlarda xotira yetishmovchiligi va psixologik kasalliklar ko'proq bo'ladi. Shu bilan birga, Pol Xastings tomonidan Kanadadagi 4000 ga yaqin oila o'rtasida o'tkazilgan 2019-yildagi uzoq muddatli tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, bolalik davrida shahar ichidagi kambag'al mahallalarda yashash balog'at yoshida psixoz spektrining buzilishi xavfini ikki baravar oshirish bilan bog'liq.

Bu tadqiqotlar moddiy yetishmovchilik oqibatlarining juda ayanchli manzarasini tasvirlaydi. Ammo moddiy yetishmovchilik hamma bolalarga ham bir xil ta'sir ko'rsatmaydi. Masalan, muhtoj bo'lgan har bir bolada prefrontal korteksda nuqsonlar mavjud emas. Bu himoya omillari ham mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar umumiy stress darajalari, shuningdek, yaqinlaringizning xatti-harakatlari muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Illinoys universitetining 2018-yilda chop etilgan tadqiqotiga ko'ra, noqulay hududlardagi maktablarda ko'proq daraxt ekish kabi oddiy narsa ham yordam berishi mumkin. Ming Kuo va uning hamkasblari 318 ta boshlang'ich maktabning hovlisidagi daraxtlar soni va o't qoplami darajasini baholadilar (bunda bolalarning 87 foizi kam ta'minlangan oila vakillari qatoriga kiradi) hamda matematika va o'qish ballari bilan bog'liqligini, ya'ni daraxtlar qancha ko'p bo'lsa, natijalar shuncha

yaxshi bo'lishini aniqladilar. Daraxtlar soni va akademik ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha boshqa ishlarga ishora qilib, Kuo ikkalasi o'rtasida sezilarli aloqa bor deb hisoblaydi. "Agar maktab konditsioner yoki isitish tizimi bilan ta'minlanmagan bo'lsa, o'quvchilar ham xuddi shunday munosabatda bo'lishadi. Ammo biz birinchi marta ko'katlarning yetishmasligi ularning test natijalarining pastligini qisman tushuntirishi mumkin, deb gumon qila boshladik", – deydi Kuo.

Xuddi shu yili, ya'ni 2018-yilda chop etilgan Britaniya tadqiqoti bu tadqiqotlarni tasdiqladi. Unda Angliyaning shahar joylarida yashovchi 4758 nafar 11 yoshli bolalar ishtirok etdi va yashil hududlarda yashovchi bolalar fazoviy xotirani sinovdan o'tkazishda yaxshiroq ishlashlari aniqlandi (bu ta'sir ham qulay, ham noqulay hududlarda saqlanib qoldi). "Bizning tadqiqotlarimiz yashil maydonning kognitiv faoliyatdagi ijobiy rolini tasdiqlaydi", – deydi London Universitet kolleji tadqiqotchisi Erini Fluri.

**Yakuniy qism.** Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar va o'tkazilgan tadqiqotlardan chiqqan holda aytish mumkinki, ontogenez davrida kam ta'minlanganlik hissining psixologik determinantlari shaxs rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Inson tug'ilgandan to dunyoni tark etgunga qadar hayotda turli xil ustanovkalar, psixologik bilimlar va turli vaziyatda yuzaga keladigan emotsiyalar qurshovida yashaydi. Shu davr mobaynida hayot yo'lini qanday davom etishiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi davr bu ontogenez davri hisoblanadi. Chunki bu davr yuqorida ta'kidlab o'tilgan ko'nikma va malakalar bilan boyib boradi. Biz bu davrni, iloji boricha, psixologik sog'lom muhitda o'sishini ta'minlashimiz zarur. Buning uchun oilaviy muhitning ham psixologik, ham fiziologik jihatdan sog'lomligiga ahamiyat qaratishimiz to'g'ri bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шаповаленко И.П. Возрастная психология (Психология развития и возрастная психология). – Москва. Гардарики. 2005 г. – 349 с.
2. G'oziyev E. "Umumiy psixologiya". Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. – Toshkent, 2002.
3. Каримова В. ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИЯ. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
4. Ананев Б.Г. "Человек как предмет познания" (Ananiyeva B.G. "Man as subject of knowledge"). – Ленинград, 1969.
5. Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanma // N. Ismoilova, D. Abdullayeva. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. – 168 b.
6. <https://www.bps.org.uk/2019/12/03/the-psychological-impacts-of-poverty-digested>



**Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi,**  
*Innovatsion va ijtimoiy-iqtisodiyot universiteti*  
 “Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi  
 e-mail: [dildoraxonyangiboyeva98@gmail.com](mailto:dildoraxonyangiboyeva98@gmail.com)

## KO‘P BOLALI OILALARDAGI O‘SMIR FARZANDLARNING RIVOJLANISHIGA TA‘SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR

**Annotatsiya.** Hozirgi vaqtda oila va ta‘lim muassasida bolalarning psixofiziologik farovonligi muammosi alohida ahamiyatga ega dolzarb masalalardan biriligicha qolmoqda. Buning asosiy sababi – o‘sib kelayotgan barkamol avlodning ma‘naviy, jismoniy va psixologik salomatligi, yetukligi bugungi davlat siyosatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Oila yetakchi ijtimoiy institut bo‘lib, uning inson ruhiyatiga ta‘siri shubhasizdir, chunki aynan oilaning katta-kichikligi turiga ko‘ra shaxs shakllanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Mazkur maqolada ushbu muammo yuzasidan olib borilgan empirik tadqiqotlarning natijalari tahlil qilinadi.

**Tayanch so‘zlar:** ko‘p bolali oila, o‘smirlar, egoizm, nizoli vaziyat, ta‘lim, tarbiya, ontogenez, psixik rivojlanish xususiyatlari, mustaqillik, moslashuvchanlik.

**Аннотация.** В настоящее время проблема психофизиологического благополучия детей в семье и образовательном учреждении остается одной из важнейших. Поэтому психическое, физическое и психологическое здоровье и зрелость подрастающего поколения сегодня являются одной из важнейших составляющих государственной политики. Семья является ведущим социальным институтом, и ее влияние на психику человека неоспоримо. Размер семьи может оказать существенное влияние на формирование образовательной деятельности. В данной статье анализируются результаты эмпирических исследований по данной проблеме.

**Ключевые слова:** многодетная семья, подростки, эгоизм, конфликтная ситуация, образование, воспитание, онтогенез, особенности психического развития, самостоятельность, гибкость.

**Annotation.** Currently, the problem of psychophysiological well-being of children in family and educational institution remains one of the most important issues. Therefore, the mental, physical and psychological health and maturity of the growing generation is one of the most important components of state policy today. The family is the leading social institution, and its influence on the human psyche is undeniable. The size of the family can have a significant impact on the formation of educational activities. This article analyzes the results of empirical research on this problem.

**Keywords:** large family, teenagers, egoism, conflict situation, education, upbringing, ontogenesis, features of psychic development, independence, flexibility.

**Kirish.** Zamonaviy ilm-fanda hal qilingan asosiy vazifalardan biri oiladagi bolalar soniga turli xil ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy omillarning ta‘sirini aniqlashdir. Matematik modelni qurish natijasida birinchi va har bir keyingi bolaning tug‘ilishiga turli omillar ta‘sir ko‘rsatishi

aniqlandi. Uchinchi va undan keyingi bolalarning tug‘ilishi mintaqadagi qashshoqlik darajasi, uy-joy bilan ta‘minlanishi, nikoh darajasi, qishloq aholisining ulushi, abortlar soni kabi omillar bilan bog‘liq. Shu bilan birga, ko‘p farzandli bo‘lishga aholining real daromadlari darajasi va hududning

o'zi rivojlanishining ta'siri kamroq ekanligini aytish mumkin<sup>1</sup>.

Globalashuv sharoitida uch yoki undan ortiq bolali oila "ko'p bolali" oila sifatida tasniflanadi. Bir qarashda, katta oilaning eng dolzarb muammosi – bu iqtisodiy reja, oila byudjeti muammosidir. Ammo katta oilada bolaning rivojlanishi muammosi bilan bog'liq bir xil darajada muhim masalalar mavjud. Psixologlar va pedagoglarning ta'kidlashicha, agar farzand oilada aka-uka va opa-singillar bilan o'ralgan bo'lsa, u holda bu juda yaxshi, chunki u bolalik autizmi, nevrozlar, qo'rquvlar, nosog'lom egosentrizm va o'z-o'ziga obsessiyadan qochish uchun ko'proq imkoniyatga ega. Ammo shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, ko'p farzandli bo'lish oiladagi bolalarning ruhiy salomatligi uchun xavf omili bo'lishi ham mumkin, chunki ular o'rtasida raqobat va bir-biriga salbiy munosabat rivojlanishi ehtimoli mavjud, buning oqibatlarini oilaga salbiy ta'sir qiladi<sup>2</sup>.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, oilaning ko'p bolali oilalarga o'tishi turli xil rejimlarda amalga oshirilishi mumkin. Birinchidan, ko'p bolali ota-onalarning (onalar) bu masala bo'yicha dastlabki munosabatidagi farq haqida gapirish mumkin, ya'ni ularning katta qismi dastlab ko'p bolali oilalarning paydo bo'lishini taxmin qilmagan. Ikkinchidan, bu ongli va maqsadli bo'lishi mumkin bo'lgan tug'ilishni rejalashtirishga bo'lgan munosabat (ota-onalar butun reproduktiv yoshda tug'ilish oraliq'ini ehtiyotkorlik bilan rejalashtirishadi va qurishadi) yoki ko'pincha reproduktiv hodisalarga javob sifatida o'z-o'zidan paydo bo'lishi mumkin. Uchinchidan, keyingi farzand ko'rish to'g'risidagi qaror ko'pincha hayotiy voqealarga javob sifatida situatsion xarakterga ega va bir qator motivlar (iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik) ta'siri ostida yuzaga keladi<sup>3</sup>.

Ushbu omillarga asoslanib, tadqiqotchilar ko'p farzandli bo'lish uchun motivatsiyaning to'rtta modelini taklif qilgan: "an'anaviy" model ko'p farzandli bo'lish boshlang'ich reproduktiv

munosabatlarning yuqori darajasi va tug'ilishning rejadan tashqari tabiati bilan tavsiflanadi; past reproduktiv munosabatlar va tug'ilishning rejalashtirilgan tabiati bilan ajralib turadigan "zamonaviy" ko'p farzandli oilalar modeli; "zamonaviy-an'anaviy" ko'p bolali oilalar modelida past reproduktiv munosabatlar va tug'ilishning rejalashtirilmagan tabiati mavjud; yuqori reproduktiv munosabatlar va tug'ilishning rejalashtirilgan tabiati bilan ajralib turadigan "an'anaviy-zamonaviy" ko'p bolali oilalar modeli<sup>4</sup>.

Rivojlangan mamlakatlardagi oilalar o'z farzandlarining inson kapitaliga asosan kelajakda shaxsiy qoniqishni olish uchun sarmoya kiritadilar. Yosh bolaga g'amxo'rlik qilish yosh bolani parvarish qilishdan ko'ra ko'proq vaqt talab etadi, bu esa, o'z navbatida, uning ta'lim olishi va qobiliyatini yanada rivojlantiruvchi boshqa tadbirlar uchun zarur bo'lgan boshqa oilaviy resurslarni sarflash nuqtayi nazaridan qimmatroq hisoblanadi.

**Maqsad va uni asoslash.** Ko'p bolali oilalar ijtimoiy hodisa sifatida turli fanlar va yondashuvlar nuqtayi nazaridan o'rganiladi. An'anaga ko'ra, ko'p bolali oilalar tug'ilish aspekti sifatida demografiyaning obyekti bo'lgan, ammo o'tgan asrda tug'ilish va oila bilan sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bu hodisani boshqa fanlar – sotsiologiya, psixologiya, ekonometrika nuqtai nazaridan tushuntirish zaruratini tug'dirdi. Zamonaviy sharoitda ko'p bolali oilalar fenomenining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatgan eng muhim omillar qatorida, bizning fikrimizcha, ayollar va oilalarning jamiyatdagi rolining o'zgarishiga olib kelgan urbanizatsiya va sanoatlashuv (shu jumladan, gender rollarining o'zgarishi), bolalarga bo'lgan munosabat ("bolaga asoslangan" oila turi paydo bo'lishidan oldin an'anaviy oilalarda "bolalar iqtisodiy manba sifatida")<sup>5</sup>. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarni ko'p bolali oilalar fenomeni, uning oilalarning hayot sifatiga ta'siri uzoq vaqtdan beri qiziqtiradi.

An'anaviy jamiyat sharoitida bolalar tug'ilishining iqtisodiy motivlari ustunlik qildi, chunki bolalar mehnatkash sifatida oilaga iqtisodiy jihatdan foydali bo'lgan va qariganda ota-onalar farovonligining kafolati bo'lgan. Bolalar alohida

<sup>1</sup> Гозман Л.Я. Психологические проблемы многодетной семьи [Текст] / Л.Я. Гозман // Вопросы психологии. 2011, – № 2. – С. 32-33.

<sup>2</sup> Бойко В.В. Структура и особенности многодетной семьи [Текст] / В.В. Бойко. – Москва: Класс, 2011. – 118 с.

<sup>3</sup> Бурлачук Л.Ф., Морозов С.М. Словарь-справочник по психологической диагностике. – Киев: "Наукова думка", 2009.

<sup>4</sup> Васильева Э.К. Семья и ее функции. – Москва: Статистика, 2008. – 180 с.

<sup>5</sup> Бойко В. В. Многодетная семья [Текст] / В.В. Бойко. – Москва: Мысль, 2008. – 237 с.

iqtisodiy ne'matdir, chunki ular nafaqat oila ehtiyojlarining manbayi, balki uning uzoq muddatli investitsiya obyekti hamdir. Bunday investitsiya jarayonini amalga oshirib, oila kelajakdagi xarajatlarini butun oila uchun yoki bolaning o'zi uchun daromadlar oqimini oshirish orqali qoplashga umid qiladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, bolaning inson kapitalini shakllantirish sifati oiladagi bolalar soniga bog'liq bo'ladi va bu jarayonda ota-onalarning hissasi boshqacha tarzda idrok etiladi. 1970-yillarda oiladagi bolalar soni va sifati o'rtasidagi muhim bog'liqlikni isbotlovchi, ushbu determinantlarga ta'sir qiluvchi individual omillarni o'rganuvchi bir nechta mashhur nashrlar paydo bo'ldi. G.Bekker ota-onalarning moddiy farovonlik darajasini oilada bolalarning ta'lim olish darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy omil sifatida ajratib ko'rsatdi. Ushbu talqindan kelib chiqqan holda, oila inson kapitaliga investitsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lgan moliyaviy resurslarni taqsimlashning asosiy kanali sifatida ishlaydi. Oila a'zolari tomonidan olingan daromadlar inson kapitalini ishlab chiqarish, rivojlantirish va takror ishlab chiqarish uchun shart-sharoitlarni to'liq shakllantiradi<sup>6</sup>.

Bolalarning munosabatlari bilan bog'liq muammolar paydo bo'lgan oilada ota-onalar ularni o'z yo'lida hal qilishadi yoki ularning muloqotini yaxshilash uchun hech qanday harakat qilmaydilar. Ko'pgina tadqiqotchilar (G.T.Hometauskas, Adele Faber, Elen Mazlin, A.Ya.Varga, V.N.Kotirlo, V.G.Nechaeva va boshqalar) to'g'ri ta'kidlaganidek, bolalarning salbiy munosabatlarining asosiy sababi ota-onalarning o'zlariga nisbatan noto'g'ri pozitsiyasidir<sup>7</sup>.

#### **Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.**

Ko'p bolali oilada bolalar o'zlarining psixologik xususiyatlariga – boshqa bolalarga nisbatan o'zini past baholash, yuqori mustaqillik va past darajadagi iroda va qat'iyatlilikka ega bo'lib, ular ta'lim faoliyatida o'zini namoyon qiladi. Nikoh munosabatlari oiladagi psixologik mikroiklimga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biridir. Binobarin, ular ta'lim uslubini, munosabatlar tizimining tabiatini va “ota-ona – bola”ni belgilaydi, bu tizim, o'z navbatida, oiladagi boshqa munosabatlar

<sup>6</sup> Баздырев К.К. Единственный ребенок [Текст] / К.К. Баздырев. – Москва: Наука, 2013. – 119 с.

<sup>7</sup> Алешина Ю.Е. Индивидуальное и семейное консультирование [Текст] / Ю.Е. Алешина. – Москва: Речь, 2010. – 172 с.

tizimining – “bola – bola”ning xususiyatlarini belgilaydi. Har bir insonning mustaqilligisiz shaxslarning birga yashashi, turmush tarzi, mehnati, iqtisodiy va madaniy aloqalari mumkin emas. Mustaqillik insonga boshqa odamlar bilan o'zaro hurmat va o'zaro yordamga asoslangan chinakam insoniy munosabatlar o'rnatishga imkon beradi<sup>8</sup>. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib tadqiqotda ko'p bolali hamda bitta bolali oilalardagi o'smirlarning rivojlanish xususiyatlarini o'rganuvchi psixodiagnostik metodikalardan foydalanildi. Biz tomonimizdan o'tkazilgan tadqiqot maqsadi – o'smirlardagi psixologik rivojlanish darajasini yuzaga chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o'rgangan holda, ulardagi xarakter xususiyatlari, mazkur xususiyatlarning namoyon bo'lishidagi farqlarni aniqlagan holda, shuningdek, o'smirlarning ota-ona bilan bo'lgan munosabatlari ulardagi shaxs xususiyatlarni shakllantirish, mazkur yosh davriga xos bo'lgan “inqiroz”larni yengib o'tishda zarur tavsiya va takliflar ishlab chiqishdir. Mazkur yuqoridagi mulohazalarga tayangan holda, biz tomonimizdan R.Kettelning “Shaxs xususiyatlarini o'rganuvchi 16 omilli shaxs so'rovnomasi” hamda A.Y. Varga va V.V. Stolinlarning “Ota-ona va bola munosabati” so'rovnomasining modifikatsiya qilingan varianti sinalluvchilardan olindi.

R.Kettelning 16 faktorli shaxs so'rovnomasi (yoxud “16 PF”) dunyodagi eng mashhur psixologik testlardan biri sanaladi. Uning shaxs xususiyatlarini o'rganuvchi so'rovnomasi boshqa sohalarda ham qo'llaniladi va subyekt testdan o'tishi natijasida oladigan xususiyatlarning tafsilotlarini hisobga olgan holda, o'z-o'zini tashxislash nuqtayi nazaridan katta qiziqish uyg'otadi. “Faktor A”da muloqotga moyillik shkalasi bo'yicha ( $U=909,500$ ,  $p>0,05$ ) ko'p bolali hamda kam bolali oiladagi o'smirlar o'rtasida farq kuzatilmadi. Buni olingan natijani o'smirlar kichik guruhlarda muvaffaqiyatli muloqot qilishga doim ham moyil bo'lmasliklari yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda jamoada ishlashni doim ham yaxshi ko'rmasligi, mustaqil ishlashni afzal ko'rishi, muloqotda bo'lmasligi, tanishish va ijtimoiy aloqalarni saqlab qolishda cheklanishlarga intilish istagining yuqori bo'lishi bilan izohlash mumkin. “Faktor B”da intellekt shkalasi bo'yicha ( $U=898,000$ ,  $p>0,05$ ) ham

<sup>8</sup> Ковалев С.В. Психология современной семьи. – Москва: Класс, 2008. – 208 с.

farqlar aniqlanmadi. Bu ularning yosh xususiyatlari deyarli bir xilligidan va o'quv mashg'ulotlaridagi yuklamalar o'xshashligidan dalolat beradi. "Faktor C"da emotsional beqarorlik-barqarorlik shkalasi bo'yicha ( $U=996,500$ ,  $p>0,05$ ) ham farqlar kuzatilmadi. Bu natijalarni ko'p bolali hamda kam bolali oiladagi o'smirlarda hissiy jihatdan beqarorlik, osonlikcha g'azablanishga moyillik, hatto ahamiyatsiz narsa yoki hodisalarga ham jonli munosabatda bo'lishni xosligi kabi omillar bilan tavsiflash mumkin. "Faktor E"da dominantlik-retsessivlik shkalasi bo'yicha ( $U=935,000$ ,  $p>0,05$ ) farqlar ham kuzatilmadi. Ko'p bolali oiladagi o'smirlarda jamoatchilik yoki boshqa birovning fikriga tayanmasdan, mustaqil fikrlashga intilish o'smir qizlarga nisbatan yuqori bo'lishi, birovning hokimiyatini tan olishga odatlanmaganliklari bir-birlarining yosh davri xususiyatlari bilan farq qilishadi. Xulq-atvori tufayli ular mojarolarga kirishishi, o'zini isyonchilar kabi tutishi mumkin. Faktor F ekspressivlik-vazminlik shkalasi bo'yicha ( $U=994,000$ ,  $p>0,05$ ) ham farqlar kuzatilmadi. Mazkur shkala bo'yicha ikkala jins kategoriyasida ham yuqori ballarni olish holatlari kuzatildi. Mazkur jihatni ulardagi o'z his-tuyg'ularini jilovlashga odatlanmaganliklari, impulsiv, harakatchan, ba'zi vaziyatlarda beparvo, e'tiborsiz va haddan tashqari ehtiyotkorlikka moyil bo'lishlari, kayfiyatning o'zgaruvchanligi sababli pessimist bo'lib, ko'pincha kelajakda nima bo'lishidan xavotirda ekanliklari bilan izohlash joiz.

1-jadval

**R.Kettelning "16 PF omilli shaxs xususiyatlarini o'rganish so'rovnomasi" metodikasining tahlili (n=130)**

Faktorlar	O'rtacha rang		Statistik qiymat	
	Ko'p bolali oiladagi o'smirlar	Kam bolali oiladagi o'smirlar	U	P
Faktor A – muloqotga moyillik	47,82	43,56	909,5	0,435
Faktor B – intellekt	48,10	43,33	898	0,370
Faktor C – emotsional barqarorlik	45,70	45,34	996,5	0,947

Faktor E – dominantlik-retsessivlik	45,80	46,92	935	0,565
Faktor F – ekspressivlik-vazminlik	45,76	45,29	994	0,931
Faktor G – yuqori-quyi me'yoriy xulq	44,11	46,66	947,5	0,642
Faktor H – jasurlik-qo'rqqoqlik	46,84	44,38	949,5	0,651
Faktor I – ta'sirchanlik-qattqlik	43,67	47,03	929,5	0,534
Faktor L – ishonuvchanlik-shubhalanuvchanlik	45,28	45,68	995,5	0,941
Faktor M – realistik-xayolparastlik	38,26	51,56	707,5	<b>0,014*</b>
Faktor MD – adekvat-noadekvat o'ziga baho	47,23	44,05	933,5	0,561

Izoh: \*  $p<0,05$

"Faktor G" yuqori-quyi me'yoriy xulq-atvor shkalasi bo'yicha ( $U=947,500$ ,  $p>0,05$ ) farqlar kuzatilmadi. Ushbu omil ko'p bolali hamda kam bolali oiladagi o'smirlar majburiy, mas'uliyatli, intizomli, o'z va'dalarini bajarishga harakat qiladigan, ijtimoiy me'yor va qoidalarga amal qilishga intilishlari bilan ajralib turadi. Ba'zi holatlarda ular ijtimoiy normalarni majburiy deb bilmaydi. O'smir yoshdagi shaxslarda burch tuyg'usiga egalik mavjud bo'lib, ammo boshqa bir lahzalik his-tuyg'ular (shu jumladan, dangasalik yoki dam olish istagi) ta'siri ostida u orqa fonga o'tishi mumkin. "Faktor H" jasurlik-qo'rqqoqlik shkalasi bo'yicha ( $U=949,500$ ,  $p>0,05$ ) farqlar kuzatilmadi. O'smirlar jasorat, qat'iyat, tashabbuskorlik, maqsadlarga erishishda faollik bilan o'smir yoshidagi shaxslardan ajralib turadi. Ular xavf-xatarni o'z zimmalariga oladilar, agar muammoni hal qilishda yordam berish imkoniyati mavjud bo'lsa, favqulodda qarorlar qabul qiladilar. Xuddi shu jasorat ijtimoiy aloqaga ham tegishli, ular begonalar bilan muloqot qilishdan tortinmaydilar. Kam bolali oilalardagi o'smirlar esa aksincha, ehtiyotkorlikka moyil bo'lib, ular o'zlarining zarariga ishlaydigan narsalarda tavakkal qilishni yoqtirmaydilar va notanish odamlar bilan muloqot qilishda stressni boshdan kechiradilar. Lekin ular har qanday xavf va tahdidlarga juda sezgirliigi bilan farq qilishadi.



## A.Y. Varga va V.V. Stolinlarning “Ota-ona va bola munosabati” so‘rovnomasi tahlili (n=90)

“Faktor I” ta’sirlilik-qattqlik shkalasi bo‘yicha ( $U=929,500$ ,  $p>0,05$ ) farqlar kuzatilmadi. Buni ikkala yosh davrida ham shaxslar ta’sirchan, badiiy, hissiy (va ularning his-tuyg‘ulari spektri juda keng), yaxshi rivojlangan tasavvurga va go‘zallik tuyg‘usiga ega ekanliklari bilan izohlash mumkin. “Faktor L” ishonuvchanlik-shubhalanuvchanlik shkalasi bo‘yicha ( $U=995,500$ ,  $p>0,05$ ) ham farqlar aniqlanmadi. Ikkala sinaluvchilar guruhiga mansub shaxslar o‘zini o‘ylashi, xatolarini tan olmasligi va boshqalardan ularning qoidalariga rioya qilishini talab qilishlari bilan ajralib turadi. “Faktor M” realistik-xayolparastlik shkalasi bo‘yicha ( $U=707,500$ ,  $p<0,05$ ) sinaluvchilarimiz orasida ahamiyatli farq aniqlandi. O‘smir yoshdagi ko‘p bolali oila farzandlarida ko‘pincha o‘z manzillarida xayolparast, yaxshi rivojlangan tasavvurga ega, ko‘pincha san‘atga qiziqadigan, har doim ham ijtimoiy me‘yorlarga bo‘ysunmaydigan va ko‘pincha o‘zlariga, o‘z g‘oyalariga singib ketadilar. Kam bolali oiladagi o‘smir esa mavjud vaziyatni real baholagan holda oqilona, aniq va real (mavhum emas) vazifalarga o‘z e’tiborini qaratadilar. Ular xulq-atvorda umume’tirof etilgan asoslar va axloq qoidalariga amal qilishga odatlangan.

A.Y. Varga va V.V. Stolinlarning “Ota-ona va bola munosabati” so‘rovnomasi tahlilini amalga oshirishda tadqiqotimizda ishtirok etgan o‘smir-sinaluvchilarimizning 90 nafar ota-onalari ishtirok etgan bo‘lib, ular mos ravishda oiladagi farzandlar soniga asoslangan holda o‘zaro tahlil qilindi. Unga ko‘ra, qabul qilish shkalasi bo‘yicha o‘smir o‘quvchilarning ota-onalari natijalari o‘rtasida ahamiyatli farq kuzatilmaganini ko‘rishimiz mumkin ( $U=805,5$ ,  $p>0,05$ ). Ko‘p farzandli ota-onalarning o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 40,90 ni, kam bolali ota-onalarning o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 46,43 ni tashkil etib, ko‘p bolali o‘quvchilarning ota-onalarida o‘smir farzandlariga nisbatan qabul qilish qolgan yuqoriroq bo‘lib, buni ota-onalar nazdida farzandlar “mustaqil hayotga qadam qo‘yish” ostonasida turganliklari uchun ularning turli yot yo‘llarga berilib ketishlarini oldini olish maqsadida ularning xulq-atvor, xohish-ehtijoylarini kelajakdagi faoliyat sohasiga qaragan holda qondirish uslubini qo‘llaydilar.

Shkalalar	Statistik qiymat ko‘rsatkichlari			
Qabul qilingan				
Oila turlari	N	O‘rtacha rang	U	p
Ko‘p bolali oilalarning ota-onalari	50	40,90	805,5	0,456
Kam bolali oilalarning ota-onalari	40	46,43		
Simbioz				
Ko‘p bolali oilalarning ota-onalari	50	54,05	706,5	0,026*
Kam bolali oilalarning ota-onalari	40	76,15		
Avtoritar-giperijtimoiylashuv				
Ko‘p bolali oilalarning ota-onalari	50	47,42	936	0,565
Kam bolali oilalarning ota-onalari	40	47,68		

Izoh: \*  $p<0,05$

Simbioz shkalasi bo‘yicha ko‘p farzandli ota-onalarning o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 54,05 ni, kam bolali ota-onalarning o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 76,15 ni tashkil etib ahamiyatli farq kuzatildi ( $U=706,5$ ,  $p<0,05$ ). Buni kam bolali o‘quvchilarning ota-onalari farzandlariga nisbatan haddan tashqari e’tiborli ekanliklari o‘smirlarda agressivlikning namoyon bo‘lishiga olib keluvchi faktor vazifasini o‘taydi, deb ham aytish mumkin. Ota-ona o‘zi va bola o‘rtasida psixologik masofa o‘rnatmaydi, degan xulosaga kelish uchun u doimo unga yaqinroq bo‘lishga, asosiy oqilona ehtiyojlarini qondirishga va uni muammolardan himoya qilishga harakat qiladi.

**Yakuniy qism.** G‘.B. Shoumarov fikriga ko‘ra, o‘smirlik davrining og‘ir, murakkab davr ekanligi ko‘plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog‘liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun-mohiyati ham o‘zgaradi. Bu davrda o‘smir hayoti, ruhiyati, organizmining fiziologik jarayonlari, uning ijtimoiy holatida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Aksariyat vaziyatlarda

ularida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil holatlar kuzatiladi<sup>9</sup>. Ko'p bolali oilalarda bolalar erta yoshdan boshlab ularga kerakli e'tibor va g'amxo'rliksiz o'sadi. Bolalarning ehtiyojlari qisman qondiriladi. Bolalar ko'pincha qarovsiz qoladi, ulardagi har qanday kasallik kech tashxis qilinadi va davolanadi. Bu keyingi hayotda bolalarning sog'lig'i bilan bog'liq muammolarga olib keladi. Bunday oilalardagi bolalar emotsional iliqlik va munosabatlarda statik xarakter his qilishadi. Ta'lim jazo shaklida amalga oshiriladi va

ko'p hollarda kattalarning hujumi qo'llaniladi, bu esa bolada g'azab va nafratni keltirib chiqaradi. Bola o'zini sevilmagan, zaif va yomon his qiladi. Bu his-tuyg'ular uni uzoq vaqt tark etmaydi. Shuningdek, ularning shaxs xususiyatlarida o'ziga ishonchsizlik, xafa bo'lishga moyillik, agressivlik hamda ziddiyatli vaziyatlarni uyg'otishga intilish shakllanadi. Yuqorida olingan empirik ma'lumotlarga asoslanib, ko'p bolali oilalardagi o'smirlarning rivojlanishiga oilaviy muhit, aka-ukalarning munosabati hamda ta'lim jarayonidagi pedagogik faoliyatning tashkil etilganlik shakli ham ta'sir ko'rsatishi mumkin ekan.

<sup>9</sup> Шоумаров Ғ.Б. Оила психологияси. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2000. – Б. 24.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гозман Л.Я. Психологические проблемы многодетной семьи. Вопросы психологии. – № 2, 2011. – С. 32-33.
2. Бойко В.В. Структура и особенности многодетной семьи. – Москва: Класс, 2011. – 118 с.
3. Бурлачук Л.Ф., Морозов С.М. Словарь-справочник по психологической диагностике. – Киев: Наукова думка, 2009.
4. Васильева Э.К. Семья и ее функции. – Москва: Статистика, 2008. – 180 с.
5. Бойко В.В. Многодетная семья. – Москва: Мысль, 2008. – 236 с.
6. Баздырев К.К. Единственный ребенок. – Москва: Наука, 2013. – 120 с.
7. Алешина Ю.Е. Индивидуальное и семейное консультирование. – Москва: Речь, 2010. – 172 с.
8. Ковалев С.В. Психология современной семьи. – Москва: Класс, 2008. – 208 с.
9. Шоумаров Ғ.Б. Оила психологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2000. – 24 б.



**Мусаева Мехрибон Икром кизи,**  
 Логопед-дефектолог нейрологопедического центра «УМКА»  
 e-mail: [musaevamehribon7@gmail.com](mailto:musaevamehribon7@gmail.com)

## ЭВОЛЮЦИЯ ВЗГЛЯДОВ НА РАССТРОЙСТВО АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА: МЕНЯЮЩИЕСЯ МЕЖДУНАРОДНЫЕ ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ КРИТЕРИИ И ОТНОШЕНИЕ ОБЩЕСТВА

**Аннотация.** В статье говорится об историческом развитии учения об аутизме. Подробно описаны основные периоды становления научного представления о данном нарушении в развитии детей. Рассмотрен комплексный анализ достижения науки и практики в изучении аутизма.

**Ключевые слова:** аутизм, расстройство аутистического спектра, распространённость, скрининг, сопутствующие заболевания, каннеровский период, когнитивные расстройства, высокофункциональный аутизм, первазивные общие расстройства развития, этиология, языковые нарушения.

**Annotatsiya.** Maqolada autizm ta'limotining tashqi rivojlanishi haqida so'z boradi. Bolalarda rivojlanish buzilishlari muammolari haqida ilmiy tushunchani shakllantirishning asosiy davrlari batafsil tavsiflangan. Autizmni o'rganishda fan va amaliyot yutuqlarini har tomonlama tahlil qilish ko'rib chiqiladi.

**Tayanch so'zlar:** autizm, autizm spektrining buzilishi, tarqalish, skrining, komorbidiyalar, Kanner davri, kognitiv kasalliklar, yuqori funksional autizm, keng tarqalgan rivojlanish buzilishlari, etiologiya, nutq buzilishlari.

**Annotation.** The article describes the historical development of the doctrine of autism. The main periods of formation of scientific understanding of this disorder in the development of children are described in detail. A comprehensive analysis of the achievements of science and practice in the study of autism is considered.

**Keywords:** autism, autism spectrum disorder, prevalence, screening, comorbidities, Kanner period, cognitive disorders, high-functioning autism, widely spread developmental disorders, etiology, speech disorders.

**Введение.** Аутизм как явление понимался по-разному с момента его первого описания в 1943 году как учеными, профессионалами, непрофессионалами, так и самими людьми с расстройством аутистического спектра (РАС). Около восьмидесяти лет тому назад было дано первое описание аутизма Каннером от нашего нынешнего определения расстройств аутистического спектра (РАС), и за это время количество диагнозов возросло в

геометрической прогрессии. Ни один случай РАС не является идентичным, а профили крайне неоднородны. К этой сложности добавляется множество часто встречающихся сопутствующих заболеваний и расстройств. В то же время возросла осведомленность общественности, как с точки зрения знаний, так и информации, но это также увеличило количество мифов о РАС. Это особенно актуально в первые годы обучения в детском саду, поскольку ранняя диагностика

может иметь решающее значение для получения помощи и поддержки со стороны различных соответствующих учреждений.

**Цель и обоснование исследования.** Целью исследования является раскрыть эволюцию взглядов на учение об аутизме. Подробно описаны основные периоды становления научного представления о данном нарушении в развитии детей. Рассмотрен комплексный анализ достижения науки и практики в изучении расстройств аутистического спектра (РАС). Попытка описать все различные взгляды на аутизм и то, как они пересекаются, дополняют, противоречат и влияют друг на друга была бы масштабной задачей, выходящей далеко за рамки одной статьи. Однако было бы более осуществимо взять исторические изменения в качестве отправной точки. Любому специалисту, изучающему аутизм, следует помнить, что этот термин имеет разные значения в зависимости от времени и контекста, которые описаны в данной статье. Это также попытка продемонстрировать, каким образом эти определения проникают в общественное сознание, влияя на то, как люди с РАС воспринимаются и как они понимают себя.

#### **Описание и решение научной проблемы.**

Первые симптомы аутизма родители могут обнаружить у детей уже в возрасте примерно 1-1,5 лет<sup>1</sup>. Однако опытные и квалифицированные специалисты способны заметить первые признаки аутизма уже в 3 месяца. Для всех возрастов существуют специальные диагностические тесты, которые помогают специалисту точнее определить потенциал развития аутизма у детей. Социальные симптомы аутизма у детей<sup>2</sup>:

- предпочитает изоляцию общению других детей или взрослых;
- избегает зрительного контакта (т.е. смотрит на движение губ или жесты рук, но не смотрит прямо в глаза);
- не переносят прикосновений;
- «нервно» реагирует на присутствие/отсутствие матери (или других близких людей) или проявляет чрезмерную «холодность» и

<sup>1</sup> de Giambattista C, Ventura P, Trerotoli P, Margari M, Palumbi R, Margari L. Subtyping the Autism Spectrum Disorder: Comparison of Children with High Functioning Autism and Asperger Syndrome. *J Autism Dev Disord.* 2019 Jan;49(1):138-150.

<sup>2</sup> Smith O, Jones SC. 'Coming Out' with Autism: Identity in People with an Asperger's Diagnosis After DSM-5. *J Autism Dev Disord.* 2020 Feb;50(2):592-602.

незаинтересованность, или наоборот ребенок не может выдержать даже кратковременной разлуки;

- не копирует поведение взрослых;
- непредсказуемо реагирует на различные раздражители;
- в качестве игрушек часто выбирает «необычные» вещи (например, предметы мебели);
- демонстрирует задержку в разговоре (и немного неохотно говорит) или регресс речевой деятельности;
- не интересуется окружающим миром;
- редко улыбается, и никогда не улыбается в ответ;
- беспрестанно повторяет одни и те же простые движения;
- не может осуществить какую-либо адаптацию, или приспосабливается к новым условиям жизни с большими трудностями (даже появление новых предметов в комнате, новой одежды, новой посуды может его напугать и раздражать);
- с трудом «терпит» присутствие посторонних людей;
- как правило, проявляют сильную приверженность распорядку дня;
- крайне избирателен в еде (ест только строго ограниченный набор продуктов или продуктов и отказывается от чего-то нового).

Составляя представление об общей характеристике расстройств аутистического спектра (далее – РАС) детей, необходимо, прежде всего, рассмотреть историю возникновения понятия «аутизм», классификацию детей с РАС, их диагностические критерии и клинические признаки, включая общие симптомы.

История понятия такого расстройства, как «аутизм», впервые упоминается в XVIII веке. В то время термин «аутизм» еще не использовался, но в медицинских исследованиях есть описания людей, которые, вероятно, страдали аутизмом. Они были невербальными, отличались замкнутостью и необычайно хорошей памятью. Одним из первых к проблеме людей с аутизмом подошел французский исследователь Ж.М. Итар, который на примере 12-летнего мальчика Виктора, жившего в лесах Аверона («дикий мальчик из Аверона»)<sup>3</sup>, описал это состояние,

<sup>3</sup> Fakhoury M. Autistic spectrum disorders: A review of clinical features, theories and diagnosis. *Int J Dev Neurosci.* 2015 Jun; 43:70-7.

назвав его «интеллектуальным мутизмом». Он считал, что одним из основных признаков аутизма является отсутствие или задержка речевого развития при сохраненном интеллекте. В своей работе «Мутизм, вызванный поражением интеллектуальных функций» Итар подвел итоги своих двадцативосьмилетних исследований, впервые описал попытки реабилитации своего подопечного. Ж. Итар пришел к выводу, что дети с этими нарушениями асоциальны, они не устанавливают и не поддерживают дружеские отношения со сверстниками, не взаимодействуют с другими людьми для удовлетворения своих потребностей, обнаруживают значительные нарушения в развитии речи и языка. Он предложил отделить описанных им детей от детей с умственной отсталостью.

Швейцарский психиатр Ойген Блейлер опубликовал работу «Dementia Praecox, или Группа шизофрений, в котором он ввел в психиатрию два термина: «шизофрения» и «аутизм» (от греческого «autos» – «сам»)⁴. О. Блейлер считал, что аутизм как аффективное расстройство является одним из основных признаков шизофрении. Он назвал аутизмом погружение в мир фантазий, вымыслов, снов, иллюзий, оторванное от реальности, вплоть до бредового уровня.

1943 год. Особая модель «ненормального поведения», впервые описанная Лео Каннером⁵, также известна как «ранний детский аутизм». Каннер не сделал оценки возможного числа людей с этим заболеванием, но считал, что оно встречается редко. Автор выделил основные общепризнанные критерии, опубликованные в статье «Ранний детский аутизм», которые характеризуют и описывают состояние аутизма в его «классической» форме:

1. Полное отсутствие аффективного контакта с другими людьми.
2. Настойчивое стремление сохранить однообразие в окружающем и повседневных действиях.
3. Привязанность к предметам.
4. Мутизм или речь, не предназначенная для общения.

⁴ Lord C, Bishop SL. Recent advances in autism research as reflected in DSM-5 criteria for autism spectrum disorder. *Annu Rev Clin Psychol.* 2015; 11:53-70.

⁵ Kanner L. Autistic disturbances of affective contact // *Nerv. Child.* - 1943. - № 2-3. - P. 217-250.

5. Хороший когнитивный потенциал, который проявляется в отличной памяти или выполнении проверочных тестов.

Спустя более 20 лет Виктор Лоттер опубликовал первые результаты эпидемиологического исследования детей с моделью поведения, описанной Каннером, которое дало общий показатель распространенности 4,5 на 10 000 детей.

1944 год. В этом году Ганс Аспергер в Вене опубликовал отчет о детях, во многом похожих на каннеровский аутизм, но имевших способности, включая грамматические языковые навыки, и высокий интеллект⁶. Продолжаются споры относительно точной связи между синдромами Аспергера и Каннера, но, бесспорно, что их объединяет триада нарушений социального взаимодействия, общения и воображения, а также узкий, повторяющийся образец деятельности.

Ганс Аспергер назвал это расстройство «аутистической психопатией». В то время оба исследователя Л. Каннер и Г. Аспергер описали одно и то же состояние. Отличие описания этого расстройства заключалось в том, что Г. Аспергер не заметил явных аномалий в развитии речи и понимания языка. Исследователи уже отметили, что выраженность отдельных признаков аутизма может сильно различаться. В настоящее время «синдром Каннера» в основном применяется к низкофункциональным детям с аутизмом, а «синдром Аспергера» – к высокофункциональным аутистам. Классификация в данном случае в литературе дается на основе такого критерия, как уровень интеллекта.

1979 год. Английский психиатр Лорна Винг (L.Wing)⁷ на основе результатов своих исследований и с учетом особенностей исследований Л. Каннера выделила основные признаки аутизма, на которые опираются многие авторы при определении расстройства аутистического спектра (РАС).

Это так называемая «триада симптомов»:

1. Качественные нарушения в сфере социального взаимодействия, в том числе

⁶ Никольская О.С., Баенская Е.Р., Либлинг М.М. Аутичный ребенок. «Пути помощи». – Москва: Теревинф, 2007. – 243 с.

⁷ Аппе Ф. Введение в психологическую теорию аутизма. I пер. с англ. Д.В. Ермолаева. – Москва: Теревинф, 2006. – 216 с.

качественные нарушения в сфере вербального и невербального общения.

2. Нарушения процессов символизации (воображения).

3. Ограниченно повторяющиеся и стереотипные модели поведения, интересов и деятельности. Все три симптома нарушения необходимо рассматривать только в тесной взаимосвязи друг с другом.

В 1979 году Лорна Винг и Джудит Гулд исследовали распространенность аутизма, по определению Лео Каннера. Они обнаружили, что распространенность этого синдрома среди людей с IQ ниже 70 составляет почти 5 на 10 000, что очень похоже на показатель, обнаруженный Лоттером. Помимо детей с каннеровским аутизмом, Винг и Гулд также обнаружили большую группу детей (около 15 на 10 000), у которых были трудности с социальным взаимодействием, общением и воображением (которые они назвали «триадой» нарушений), а также как повторяющийся стереотипный образец деятельности.

Хотя дети не вписывались в полную картину раннего детского аутизма (или типичного аутизма), описанную Каннером, они были описаны как принадлежащие к более широкому «спектру аутизма». Исследования в разных странах изучали аутизм и количество детей с аутизмом. Эти результаты варьируются от 3,3 до 60,0 на 10 000. Это может быть связано с различиями в определениях или методах выявления случаев.

1993 год. Стефан Элерс и Кристофер Гиллберг опубликовали результаты дальнейшего исследования, проведенного в Гетеборге<sup>8</sup>. В этом исследовании изучались дети в общеобразовательных школах. Целью было выяснить распространенность синдрома Аспергера и других профилей аутизма у детей с IQ 70 и выше. По количеству детей, которых они определили, они вычислили показатель 36 на 10 000 для тех, у кого определенно был синдром Аспергера, и еще 35 на 10 000 для детей с социальными трудностями. Некоторые из этих детей, возможно, соответствовали бы описанию Аспергера, если бы была

доступна дополнительная информация, но они определенно принадлежали к аутистическому спектру.

1995 год. Вольф более 30 лет изучала детей со средними и высокими способностями в Эдинбурге, у которых были трудности с социальным взаимодействием, но которые не вписывались в триаду нарушений. Эти дети представляют собой наиболее «тонкую» часть спектра аутизма. Большинство становятся независимыми, повзрослев, многие женятся, а некоторые демонстрируют исключительные таланты. Как отмечает Вольф, этим детям часто приходится трудно в школе, и они нуждаются в признании, понимании и принятии со стороны родителей и учителей.

2005 год. Исследование психического здоровья детей и молодых людей, проведенное специалистами национальной статистики Великобритании, показало, что уровень распространенности аутизма составляет 0,9%, или 90 на 10 000. Они не были разделены на аутизм, синдром Аспергера.

2006 год. Джиллиан Бэрд и ее коллеги опубликовали отчет об исследовании распространенности РАС, в ходе которого было обследовано население детей в возрасте 9-10 лет в регионе Южной Темзы. Для скрининга были отобраны все дети, у которых уже был диагностирован аутизм или которые имели социальные и коммуникативные трудности. Результаты показали, что уровень распространенности «детского аутизма» составляет 38,9 на 10 000 и 77,2 на 10 000 других состояний аутистического спектра, что дает общую цифру 116 на 10 000 (2006)<sup>9</sup>. В этом исследовании у небольшого числа детей был выявлен синдром Аспергера. Диагностические критерии синдрома Аспергера МКБ-10 предполагают, что человеку, которому будет поставлен диагноз синдром Аспергера с использованием критериев Гиллберга, вероятно, будет поставлен диагноз детского аутизма или атипичного аутизма с использованием критериев.

2008–2012 гг. Сеть мониторинга аутизма и нарушений развития в США в 2008 году изучила восьмилетних детей в 14 штатах и обнаружила,

<sup>8</sup> Иванов Е.С., Демьянчук Л.Н., Демьянчук Р.В. Детский аутизм: диагностика и коррекция. – Санкт-Петербург, 2004. – 80 с.

<sup>9</sup> Никольская О.С., Баенская Е.Р. Коррекция детского аутизма как нарушения аффективной сферы: содержание подхода II Альманах Института коррекционной педагогики. – 2014. Альманах № 19.

что уровень распространенности аутизма в этих штатах в целом составляет 1 из 88, при этом у мальчиков диагностировано примерно в пять раз больше, чем у девочек (2008).

Национальный центр статистики здравоохранения США опубликовал результаты опросов родителей детей в возрасте 6–17 лет, проведенных в 2011–2012 годах. В отчете показано, что уровень распространенности аутизма составляет 1 из 50 (2013). Исследование среди детей в возрасте 0–17 лет, проживающих в Стокгольме в период с 2001 по 2007 год, выявило уровень распространенности 11,5 на 1000, что очень похоже на показатель, обнаруженный в других исследованиях распространенности в Западной Европе (Idring et al, 2012). Гораздо более высокий уровень распространенности – 2,64% был обнаружен в исследовании, проведенном в Южной Корее, где исследователи обнаружили, что две трети людей с аутистическим спектром принадлежали к обычным школьным контингентам и никогда раньше не диагностировались. Исследователи, сравнивающие исследования, проведенные в разных частях мира за последние несколько лет, пришли к более консервативной оценке – 62 на 10 000<sup>10</sup>. Они приходят к выводу, что как

<sup>10</sup> Микиртумов Б.Е., Завитаев П.Ю. Аутизм. История вопроса и современный взгляд. – Москва: Н-Л, 2012. – 144 с.

увеличение оценок с течением времени, так и различия между странами и регионами, вероятно, обусловлены расширением диагностических критериев, доступностью услуг и повышением осведомленности об аутизме среди специалистов и общественности.

**Вывод.** Следует принять во внимание на растущий процент диагнозов аутизма в Узбекистане и странах СНГ в целом. Крайне важно иметь возможность понять основные причины этого, поэтому необходимы дальнейшие исследования с более конкретными пороговыми значениями. Это может быть не очень легко, учитывая, насколько широк спектр, но считаю, что мы могли бы явно выиграть от более целенаправленного направления исследований. Диагностические ярлыки, присвоенные различным людям с РАС, влияют на общественные взгляды, которые общественность и различные сообщества сформируют в отношении этих людей. Это, конечно, окажет большое влияние на самооценку, социальное, психологическое и эмоциональное развитие данной конкретной группы населения. Также необходимо принимать во внимание идентичность и индивидуальные различия, и, возможно, знание этиологии расстройства может приблизить нас на шаг к разгадке загадки аутизма.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗУЕМОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Anderson, A.E. Augmentative communication and autism: A comparison of sign language and the Picture Exchange Communication System. Doctoral dissertation, University of California at Santa Barbara, 2001. Dissertation Abstracts International: Section B: The Sciences and Engineering, 62, 4269.
2. Bryson, S. Brief report: Epidemiology of autism. *Journal of Autism and Developmental Disorders*, 26, 165–167.
3. Dawson, G., & Osterling, J. Early intervention in autism. In M. J. Guralnick (Ed.), *The effectiveness of early intervention* (pp. 307–326). Baltimore, MD: Paul H. Brookes Publishing.
4. Ghaziuddin, M., & Gerstein, L. Pedantic speaking style differentiates Asperger syndrome from high-functioning autism. *Journal of Autism and Developmental Disorders*, 26, 585–595.
5. Howlin, P., Goode, S., Hutton, J., & Rutter, M. Adult outcomes for children with autism. *Journal of Child Psychology and Psychiatry*, 45, 212–229.
6. Kurita, H. Infantile autism with speech loss before the age of 30 months. *Journal of the American Academy of Child Psychiatry*, 24, 191–196.
7. Lord, C. Follow-up of two-year olds referred for possible autism. *Journal of Child Psychology and Psychiatry*, 36, 1365–1382.
8. Mirenda, P. Toward functional augmentative and alternative communication for students with autism: Manual signs, graphic symbols, and voice output communication aids. *Language, Speech, and Hearing Services in Schools*, 34, 203–216.



**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna,**  
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti direktori*  
*pedagogika fanlari doktori, professor*

# OILADA BOLALARGA NISBATAN JISMONIY ZO‘RAVONLIKNING OLDINI OLISHNING PEDAGOGIK CHORALARI

**Annotatsiya.** Bolalarni barkamol va yetuk shaxs sifatida kamolga yetkazish barcha davlatlar va jamiyatlarning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu muhim vazifani bajarishda davlat ham, jamiyat ham oilalarning tarbiyaviy funksiyalari doirasidagi muvaffaqiyatli faoliyatiga tayanadi. Ota-onalar farzandlarini tarbiyalashda kuch ishlatish holatini tarbiyaning bir usuli sifatida qabul qilishi va bu bolalarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik tushunchalari bilan qarama-qarshi ma‘noda ifodalanishi ijtimoiy pedagogika oldiga chuqur o‘rganishlar olib borish zaruratini qo‘ymoqda. Ushbu maqolada bolaga nisbatan jismoniy zo‘ravonlikning tarixiy jihatlari yoritilgan, bugungi kundagi huquqiy asosi bayon etilgan va ota-onalar tomonidan sodir etiladigan zo‘ravonliklarning oldini olish bo‘yicha pedagogik chora-tadbirlar taklif etilgan.

**Tayanch so‘zlar:** zo‘ravonlik, oilada zo‘ravonlik, bolaga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik, tarbiya, bolaga loqayd munosabatda bo‘lish, bolaga shafqsiz munosabatda bo‘lish, bolaga kuch ishlatish.

**Аннотация.** Воспитание детей как всесторонне развитой личности является одной из важных задач всех государств и обществ. При выполнении этой важной задачи государство и общество опираются на успешную деятельность семьи в рамках воспитательных функций. Родители принимают применение силы при воспитании своих детей как метод воспитания. Это считается физическим насилием над детьми, и данная ситуация требует углубленного изучения с социально-педагогической точки зрения. В данной статье уточняются исторические аспекты физического насилия над детьми, описывается его правовая основа, а также предлагаются педагогические меры по предотвращению насилия со стороны родителей.

**Ключевые слова:** насилие, домашнее насилие, физическое насилие над ребенком, воспитание, безнадзорность ребенка, жестокость в отношении детей, жестокое обращение с детьми.

**Annotation.** Raising children as comprehensively developed individuals is one of the important tasks of all states and societies. In carrying out this important task, the state and society rely on the successful activities of the family within the framework of educational functions. Parents accept the use of force in raising their children as a method of education. This is considered as physical abuse of children, and this situation requires in-depth study from a socio-pedagogical point of view. This article clarifies the historical aspects of physical violence against children, describes its legal basis, and proposes pedagogical measures to prevent violence by parents.

**Keywords:** violence, domestic violence, physical abuse of a child, education, child neglect, child cruelty, child abuse.



**Kirish.** Bugungi kunda bolalar sog'ligini muhofaza qilish, huquq-erkinliklarini ta'minlash, ijodiy salohiyatini rivojlantirish va zararli omillardan himoya qilish davlat siyosatining eng ustuvor vazifalaridan biridir. "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 24-maqsadi (*Bolalarni ijtimoiy himoya qilish*) asosida "*Jamiyatda bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka toqatsizlik madaniyatini shakllantirish*" vazifasi bayon etilgan<sup>1</sup>. Ushbu maqsad vazifalarni amalga oshirish jamiyatning eng kichik bo'g'ini – oilalar bilan ishlash tizimini har tomonlama takomillashtirish. Bolalarga nisbatan oiladagi jismoniy zo'ravonlikning o'ziga xos tomonlari uni qanchalik dolzarb ekanligini izohlab beradi:

- oilada bolaga nisbatan zo'ravonlik ota-onalar nazarida tarbiyaviy choralar sifatida sodir etilmoqda;

- zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolalar o'z haq-huquqlarini talab eta olmaydilar;

- zo'ravonlikni boshidan kechirgan bolalardagi psixologik jarohatlar ularning keyingi hayotida (o'qish, ish, turmush va boshqalar) o'z salbiy oqibatlarini namoyon etib turadi;

- aksariyat jinoyatchilar bolaligida zo'ravonlikka uchraganini ta'kidlaydilar;

- zo'ravonlikni boshdan kechirgan bolalar boshqa insonlarni yoki hayvonlarni azoblashdan qo'rqishmaydi, aksincha, odatiy hol sifatida qabul qiladi.

Ushbu masalalar bolalarni har qanday kuch ishlatishdan himoya qilish tizimini takomillashtirish, ota-onalar va boshqa voyaga yetgan shaxslarning bolalarni kuch ishlatib tarbiyalashga bo'lgan munosabatini o'zgartirish zaruratini ko'rsatmoqda. Davlatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O'zbekiston yoshlari forumidagi nutqida: "Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak", – degan fikrlari bayon etilgan<sup>2</sup>. Shu nuqtayi nazardan, bolalarni tarbiyalashning o'ziga xos usullarini tadqiq etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/-6600413>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqidan iqtiboslar. – Toshkent: "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. – B. 48.

**Maqsad va uni asoslash.** Bolalarning voyaga yetishi jarayonida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan tarbiya usullarini tadqiq etish hamda ota-onalarning kuch ishlatishga asoslangan tarbiya choralariga munosabatini o'rganish tadqiqotning maqsadi sifatida belgilandi.

Oilalar bolalarning birinchi ijtimoiylashuv makoni, dastlabki tarbiya o'chog'idir. Oila kichik ijtimoiy guruh hamda ijtimoiy institut sifatida o'z funksiyalarini (reproduktiv, kommunikativ, regulativ, tarbiyaviy, relaksatsiya, felitsitologik<sup>3</sup>) amalga oshirish zahirida bolalarni namunali farzand hamda faol fuqaro qilib tarbiyalash vazifasi ham yotadi. Ammo tarixiy jarayonlarda tarbiya doim ham insonparvarlik tamoyili asosida tashkil etilmagan. Dastlabki sivilizatsiyalarda (Misr, Rim, Yunon, Karfagen, Aztek jamiyatlarida) nuqsonli yoki istalmagan bolalarni tashlab ketish, ularni xudolarga qurbonlik sifatida nobud qilish marosimlari mavjud bo'lgan<sup>4</sup>. Shu bilan birga, qadimgi davrlardagi bolalar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar o'rganilganida, ota-onaning bola ustidan to'liq hukmronligi mavjud bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda turli olimlar va tadqiqotchilar bolalarga nisbatan zo'ravonlik hodisasini har tomonlama o'rganib, uning oldini olish borasida o'z tavsiyalarini taqdim etmoqdalar. Jumladan, xorij olimlaridan Corrine Dale o'z tadqiqotlarida zo'ravonlik ishtirokchisi bo'lgan qizlar va yigitlardagi ruhiy o'zgarishlarni solishtiradi hamda kichik yoshdagi (3–7 yosh) va o'smirlik davridagi zo'ravonlik qurbonlarini taqqoslaydi. Charlotte Lindel ilmiy izlanishlarida migratsiyadagi oilalar o'z bolalariga muqim aholiga nisbatan 8 marta ko'proq jismoniy zo'ravonlik ko'rsatishlarini aniqlaydi.

#### **Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.**

M.V.Smagina jismoniy zo'ravonlikni ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tadqiq etadi hamda bolalarni oiladagi zo'ravonlikning turi va darajalariga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratadi<sup>5</sup>:

<sup>3</sup> Abdullayeva D. Oila psixologiyasi: o'quv qo'llanma / D.Abdullayeva, R.Yorqulov, N.Atabayeva. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2015. – B. 48.

<sup>4</sup> Child abuse – a history. "Encyclopedia.com" ochiq ensiklopedia portali. november 15, 2023 // <https://www.encyclopedia.com/reference/encyclopedias-almanacs-transcripts-and-maps/child-abuse-history>.

<sup>5</sup> Смагина М.В. Насилие над детьми в семье как социокультурное явление современной России: дис. соц. Наук: 22.00.06. – Ставрополь: Ставрополь. гос. Университет, 2006. – С.52.

1) farovon bolalar (oilada hech qanday zo‘ravonlikka uchramagan bolalar);

2) nisbatan farovon bolalar (ruhiy zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan bolalar);

3) noqulay ahvolga tushib qolgan bolalar (oilada ruhiy va jismoniy zo‘ravonlik qurboniga aylangan bolalar);

4) inqirozga uchragan bolalar (zo‘ravonlikning barcha shakllariga uchragan bolalar).

A.Sh.Murodov oilaviy jismoniy zo‘ravonliklarni har tomonlama tahlil qilib, ular qatoriga shapaloq tortish, tepish, musht bilan urish, kuchli zarb bilan itarib yuborish, turli o‘tkir buyum va narsalarni otish<sup>6</sup> va boshqalarni ham kiritib o‘tadi.

Qabul qilinishi ko‘zda tutilayotgan “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasi quyidagicha bayon etiladi:

Zo‘ravonlik – bolaning asosiy ehtiyojlari va eng ustun manfaatlariga zid bo‘lgan, uning hayoti, sog‘ligi, jinsiy daxlsizligi, sha’ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoxud yetkazishi mumkin bo‘lgan qasddan sodir etilgan har qanday harakat (harakatsizlik)dir<sup>7</sup>. Shuningdek, qonun loyihasida zo‘ravonlikning jismoniy, jinsiy, ruhiy, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ekspluatatsiya, bulling kabi ko‘rinishlari tavsiflanadi. Ilmiy adabiyotlarda kiberzo‘ravonlik turi ham ko‘rsatib o‘tiladi. Yuqoridagi ta‘rifga ko‘ra, harakat asosida bolaga jismoniy zo‘ravonlik ko‘rsatish uning sog‘ligiga, hayotiga xavf soluvchi, kundalik jismoniy faoliyatni amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi, kuch ishlatilishi asosida sodir etiladigan harakatdir. Shu bilan birga, “harakatsizlik asosida zo‘ravonlik sodir etish” tushunchasi ham mavjud bo‘lib, ushbu tushuncha “bolaga loqayd munosabatda bo‘lish” atamasi asosida izohlab beriladi.

Bolaga loqayd munosabatda bo‘lish – ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar, shuningdek, boshqa shaxslar tomonidan ularni boqish, tarbiyalash, sog‘lom turmush kechirish

<sup>6</sup> Murodov A.Sh. Ichki ishlar organlarining oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish: yur. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – B. 15.

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasining 3-moddasi. Normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasi portali. <https://regulation.gov.uz/uz/d/87302>

sharoitlarini yaratish, ularga uzluksiz ta‘lim berish va shu kabilarni ta‘minlashga doir o‘z majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmasliklaridir<sup>8</sup>.

X.A.Yulbarsova “bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish” tushunchasini “kattalar tomonidan qasddan yoki ehtiyotsiz munosabatda bo‘lish yoki shikastlanish, rivojlanishdagi buzilishlar, o‘limga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki bolaning huquqlari va farovonligiga xavf tug‘diradigan harakatlardir”, deb izohlaydi.

Bir guruh tadqiqotchilar<sup>9</sup> oilalardagi jismoniy zo‘ravonlikni intizomiy maqsadda qo‘llanuvchi jismoniy jazodan farqini oydinlashtirishga harakat qilganlar. Ularning fikriga ko‘ra, jismoniy zo‘ravonlik ruhiy bosim, adovat, bolani yoqtirmaslik bilan birga keladi va muntazam og‘irlashib boradi.

Oilada bola jismoniy zo‘ravonlik qurboni bo‘lishini keltirib chiqaruvchi bir qancha omillar mavjud. Bularni quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

*1-jadval*

**Bolaga nisbatan jismoniy zo‘ravonlikni keltirib chiqaruvchi omillar**

Bolaning rivojlanishi bilan bog‘liq ayrim psixologik jihatlar	Ota-onalarga bog‘liq bo‘lgan omillar
<ul style="list-style-type: none"> <li>– bola yoshiga xos “inqiroz davrlari”dagi muammoli holatlar (1 yosh, 3 yosh, 7 yosh, o‘tish davri inqirozlari);</li> <li>– bolaning nikohsiz tug‘ilishi bilan bog‘liq stereotiplar;</li> <li>– bolaning jinsiga oid munosabatlar;</li> <li>– nogironligi bo‘lgan bolalardagi o‘ziga xos ehtiyojlar;</li> <li>– bola temperamenti bilan bog‘liq holatlar;</li> <li>– bolaning adaptiv qobiliyatining pastligi;</li> <li>– boshqalar.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– bolaga g‘amxo‘rlik qilish bo‘yicha bilimlarining yetarli emasligi;</li> <li>– o‘zlari boshdan kechirgan bolalikdagi zo‘ravonlik tajribasi;</li> <li>– o‘zini past baholash;</li> <li>– zararli odatlar (ichish, chekish, giyohvandlik va boshqalar);</li> <li>– psixik va nevrologik buzilishlarning mavjudligi;</li> <li>– yoshga doir inqirozlar (30 yosh, 40–45 yosh inqirozlari);</li> <li>– delinkvent va jinoiy xulqi;</li> <li>– surunkali kasalliklar;</li> <li>– oiladagi moliyaviy muammolar;</li> <li>– boshqalar.</li> </ul>

<sup>8</sup> Ismailov I., Ziyodullayev M., Israilova N., Azimova F. Voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining oldini olish: O‘quv-amaliy qo‘llanma. – Toshkent: Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, 2011. – B. 4.

<sup>9</sup> Райкова К.А., Ефимов А.А., Курзин Л.М., Савенкова Е.Н., Алексеев Ю.Д., Ивахина С.А. Роль проективных методов психодиагностики в выявлении случаев домашнего насилия над детьми // Вестник ТГУ, т.21, вып.6, 2016. – С. 2315.

**Ota-ona va bolalarga bog'liq bo'lmagan omillar**

- mamlakat qonunchiligida bolalarni zo'rvonlikdan himoya qiluvchi huquqiy hujjatlarning mavjud emasligi yoki ijro jarayonidagi muammolar;
- oila joylashgan hududdagi salbiy ijtimoiy munosabatlar;
- oilalarni qo'llab-quvvatlovchi ma'naviy, iqtisodiy-ijtimoiy manbalarning mavjud emasligi;
- jamiyatda bolalarga oid qadriyatlarining yetuk darajada shakllanmagani;
- boshqalar.

Zo'rvonlikka uchragan bolalarda quyidagi salbiy o'zgarishlar kuzatiladi: travmatik stress reaksiyalari, gumon va ishonchsizlik, depressiya va o'z joniga qasd qilish, impulsiv harakat, o'zini past baholash, o'quv jarayonlariga qiziqishning yo'qolishi, o'zaro munosabatlarni qurishda muammolar<sup>10</sup>. Jarohatlar, stressli holatlardan tashqari bolalarda surunkali somatik kasalliklar (bronxial astma, diabet va boshqalar) kuchayishi aniqlangan. Shu bilan birga, oiladagi zo'rvonlik va bolalardagi oshqozon-ichak kasalliklari hamda autoimmun kasalliklari o'rtasida aloqadorlik aniqlangan<sup>11</sup>. Oilada jismoniy zo'rvonlikni boshidan o'tkazgan bolalar uch kun ichida boshqa insonlarga jismoniy ozor bergani kuzatiladi.

Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 19-moddasida "ishtirokchi davlatlar bolalarni jismoniy va ruhiy zo'rvonlikdan, haqoratlash va suiiste'molliklar, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik yoki beparvolik bilan muomalada bo'lish, qo'pol muomala yoki ekspluatatsiya qilish, shahvoniy suiiste'molliklar sodir etishning har qanday shakllaridan himoyalash maqsadida jamiki zarur qonuniy, ma'muriy, ijtimoiy va ma'rifiy chora-tadbirlarni ko'rishlari<sup>12</sup>" zarurligi belgilangan. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida ham davlat bolalarni zo'rvonlikning har qanday turidan himoya qilishi hamda zo'rvonlikdan jabrlangan bolalarga

<sup>10</sup> Ilhomova S.Z. Bolalarga nisbatan zo'rvonlik oqibatlarini // Academic Research in Educational Science: XXI asrda sotsiologiya va ijtimoiy ishning dolzarb muammolari. Volume 4, NUU collection, 2023. – B. 270-272.

<sup>11</sup> Райкова К.А., Ефимов А.А., Курзин Л.М., Савенкова Е.Н., Алексеев Ю.Д., Ивахина С.А. Роль проективных методов психодиагностики в выявлении случаев домашнего насилия над детьми // Вестник ТГУ, т.21, вып.6, 2016. – С. 2314.

<sup>12</sup> Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 19-moddasi. <https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka>

har turdagi yordamni ko'rsatish choralari ko'rish zarurligi belgilab qo'yilgan<sup>13</sup>. Shu maqsadda respublikamizda "Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun loyihasi Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali orqali keng muhokama qilinib, jamoatchilikdan takliflar qabul qilindi.

Ota-onalarning bolalarga nisbatan jismoniy zo'rvonligi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotga 746 nafar ota-ona jalb qilindi va ularning fikrlari anketa-so'rovnoma orqali o'rganildi (2-jadval).

2-jadval

**Respondentlar haqida ma'lumot**

Yoshi	20–30 yosh	31–40 yosh	41–50 yosh	51–60 yosh
	38 %	47,5 %	7,9 %	6,6 %
Jinsi	Ayollar		Erkaklar	
	67 %		33 %	
Ma'lumoti	Oliy	O'rta-maxsus	O'rta	
	35,8%	44,6%	19,6%	
O i l a t u r i	Nuklear (ota-ona va farzandlar)	Ko'p bo'g'inli (bobo, buvi, ota-ona, farzandlar)	To'liq bo'lmagan (ota yoki onaning biri mavjud va farzandlar)	
	59,8%	30,3%	9,9%	

So'rovlarda ishtirok etgan ota-onalardan bolalarga nisbatan jismoniy kuch ishlatishni qanday baholashlari borasidagi fikrlari so'raldi (3-jadval).

3-jadval


**Bolalarga kuch ishlatishni zo'rvonlik sifatida baholash bo'yicha respondentlarning javoblari**

	Aka-uka, opa-singillar bir-biriga kuch ishlatishi	Bobo-buvi nevaralariga kuch ishlatishi	O'qituvchi o'quvchilariga kuch ishlatishi	O'rtoqlar bir-biriga kuch ishlatishi
Zo'rvonlik	65,7 %	35 %	75,7%	66,7%
Zo'rvonlik emas	34,3 %	65 %	24,3 %	33,3 %

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi O'RQ-139-son "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasi // <https://lex.uz/acts/-1297315>

Ushbu so‘rovda 10–14 yoshdagi bolalar hamda ularning hayoti va sog‘ligiga jiddiy xavf tug‘dirmaydigan darajada jismoniy kuch ishlatish nazarda tutilgan. So‘rovnomada ishtirok etgan ota-onalarning javoblariga ko‘ra, yuqorida keltirilgan guruhlarning bolaga kuch ishlatishi aksariyat hollarda “zo‘ravonlik” deb baholangan. Shunga qaramay, bobo-buvilarning nevaralariga kuch ishlatish holatini (65 foiz) “zo‘ravonlik emas” deb baholanishi nisbatan yuqori natijalarni ko‘rsatgan. “Zo‘ravonlik” javoblarida esa eng yuqori foizlarni o‘qituvchilarning o‘quvchilarga kuch ishlatishi (75,7 %) ko‘rsatmoqda.

Siz farzandingizni jismoniy jazolaysizmi



**1-rasm. Ota-onalarning farzandlarini jismoniy jazolash bo‘yicha javoblari**

“Siz farzandingizga kuch ishlatasizmi?” savoliga ota-onalarning 42,1 foizi farzandlarining itoatsizligida kuch ishlatishi mumkinligini belgilagan. Ularning 34,3 foizi urish bilan tahdid qilishini, ammo kuch ishlatmasligini qayd etishadi. 17,9 foiz ota-onalar farzandlarini hech qachon urmaganini va 5,7 foizi javob berishga qiynalishini ma‘lum qilgan. Natijalardan bilishimiz mumkinki, bolalarga kuch ishlatish holati oilalarda davom etib kelmoqda.

**Yakuniy qism.** Sharq mamlakatlarida kuch ishlatish orqali bolalarni tarbiyalash ularga intizomiy jazo qo‘llash sifatida amalga oshiriladi. Bolalik davrida o‘z boshidan kechirgan jismoniy zo‘ravonlik holatini aksariyat ota-onalar o‘z qilmishlariga bog‘laydilar va ushbu “tarbiyaviy ta‘sir”ning ijobiy natijasi sifatida bugungi kundagi

erishgan muvaffaqiyatlarini ko‘rsatadilar. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, ularning o‘zlari ham farzandlariga “zarur hollar”da kuch ishlatishi mumkinligini inkor etmaydilar. Ushbu natijalar ota-onalarni bola tarbiyalashdagi samarali ta‘sir etish usullaridan boxabar qilishni, ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash borasida samarali chora-tadbirlar ko‘rishni taqozo etmoqda.

**Xulosa:**

- tarixiy jarayonlarda bolalarga bo‘lgan munosabat tobora ratsional o‘zgarib, ularni har qanday zo‘ravonliklardan himoya qilish bo‘yicha xalqaro, mintaqaviy va hududiy chora-tadbirlar ko‘rilmog‘da;
- bolalar har tomonlama ota-onasiga bog‘langanligi sababli ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish ularga nisbatan jismoniy zo‘ravonliklar sonini kamaytirishning eng maqbul yo‘lidir;
- bolalar oilaviy jismoniy zo‘ravonlik holatida hamisha jabrlanuvchi rolida bo‘ladilar;
- bolalarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik oilaviy muhitda sodir bo‘layotgani ushbu hodisani tarbiyaviy chora sifatida keyingi avlodlar tomonidan ham qayta amalga oshirish tajribasini ko‘rsatmoqda. Ota-onalarda bolalarga nisbatan kuch ishlatishdan boshqa tarbiyaviy ta‘sirlar haqida bilimlarga ega bo‘lish ehtiyoji mavjud.

**Taklif va tavsiyalar:**

1. Mahallalarda faoliyat yuritishi nazarda tutilayotgan ijtimoiy xodimlarning zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan bolalar bilan ishlash bo‘yicha bilimlarini oshirish.
2. Umumta‘lim maktablarida davriy holatda o‘quvchilardan zo‘ravonlik holati bo‘yicha anketa-so‘rovnomalar olish. Ularning natijalari asosida yordamga muhtoj bolalarni aniqlash va tegishli yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish. Shuningdek, maktablardagi ota-onalar uchun kutish joylarida targ‘ibot materiallarini joylashtirib borish.
3. Ota-onalarda g‘azabni boshqarish ko‘nikmasini (anger management for parents) shakllantirish uchun maxsus dasturlar, qo‘llanmalar ishlab chiqish.
4. Jismoniy zo‘ravonlik belgilari bilan maktabga kelgan bolalarni profilaktika inspektori nazoratiga olish hamda oilaviy suhbatlar tashkillashtirish.
5. O‘gay ota yoki o‘gay ona bilan yashayotgan bolalarning oilalaridagi iliq munosabatlarni saqlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 19-moddasi // <https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/-6600413>
3. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi O'RQ-139-son "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasi // <https://lex.uz/acts/-1297315>
4. O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni loyihasining 3-moddasi. Normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasi portali // <https://regulation.gov.uz/uz/d/87302>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqidan iqtiboslar. – Toshkent: "Tasvir" nashriyot uyi, 2021.
6. Abdullayeva D. Oila psixologiyasi: o'quv qo'llanma / D.Abdullayeva, R.Yorqulov, N.Atabayeva – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2015.
7. Ismailov I., Ziyodullayev M., Israilova N., Azimova F. Voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining oldini olish: O'quv-amaliy qo'llanma. – Toshkent: Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, 2011. – B. 4.
8. Murodov A.Sh. Ichki ishlar organlarining oiladagi zo'rvonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish: yur. fan. bo'yicha fals. dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2019.
9. Смагина М.В. Насилие над детьми в семье как социокультурное явление современной России: дис. соц. Наук: 22.00.06. – Ставрополь: Ставрополь. гос. Университет, 2006.
10. Ilhomova S.Z. Bolalarga nisbatan zo'rvonlik oqibatlari // Academic Research in Educational Science: XXI asrda sotsiologiya va ijtimoiy ishning dolzarb muammolari. Volume 4, NUU collection, 2023.
11. Райкова К.А., Ефимов А.А., Курзин Л.М., Савенкова Е.Н., Алексеев Ю.Д., Ивахина С.А. Роль проективных методов психодиагностики в выявлении случаев домашнего насилия над детьми // Вестник ТГУ, т.21, вып.6, 2016.
12. Child abuse – a history. "Encyclopedia.com" ochiq ensiklopedia portali. 15 november 2023 // <https://www.encyclopedia.com/reference/encyclopedias-almanacs-transcripts-and-maps/child-abuse-history>



**Зафар Джураев,**  
профессор кафедры Метрологии,  
стандартизации и контроля качества  
Андижанского машиностроительного института,  
кандидат технических наук  
e-mail: [zbjuraev@gmail.com](mailto:zbjuraev@gmail.com)



**Музаффар Курбонов,**  
научный сотрудник Андижанского  
машиностроительного института  
e-mail: [offinterrel@gmail.com](mailto:offinterrel@gmail.com)

## ОБЕСПЕЧЕНИЕ ВНУТРЕННЕГО КАЧЕСТВА В ВУЗАХ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация.** На современном этапе развития системы образования в ряде развитых стран большое значение придается организационной и управленческой структурам образования, целевым направлениям развития и содержанию. На каждом этапе развития теории управления ученые, исследователи и государственные организации уделяют особое внимание человеческому капиталу, формированию личности, воспитанию молодого поколения на основе демократических принципов. Надо понимать, что эти качества в человеке можно достичь только получив качественное образование на любом этапе его жизни.

Эти научные исследования направлены на улучшение внутреннего обеспечения качества в высших учебных заведениях Узбекистана путем совершенствования образовательных программ и постоянного их совершенствования в сотрудничестве с внутренними и внешними заинтересованными сторонами для достижения международных стандартов и международной аккредитации.

**Ключевые слова:** внутреннее обеспечение качества, высшее учебное заведение, менеджмент, образовательные программы.

**Annotatsiya.** Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimi rivojlanishining joriy bosqichida bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'limning tashkiliy-boshqaruv tuzilmalari, rivojlanishning maqsadli yo'nalishlari va mazmuniga katta ahamiyat berilmoqda. Boshqaruv nazariyasi rivojlanishining har bir bosqichida olimlar, tadqiqotchilar va davlat tashkilotlari tomonidan inson kapitali, shaxsni shakllantirish, yosh avlodni demokratik tamoyillar asosida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Insondagi bu fazilatlariga uning hayotining istalgan bosqichida sifatli ta'lim-tarbiya olish orqaligina erishish mumkinligini tushunishimiz kerak.

Ushbu ilmiy izlanishlar O'zbekiston Oliy ta'lim muassasalarida ichki ta'lim sifatini oshirish uchun ta'lim dasturlarini takomillashtirish hamda ularni ichki va tashqi manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda doimiy ravishda rivojlantirib borish orqali xalqaro standartlarga moslashtirish va xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazishga erishishga qaratilgan.

**Tayanch so'zlar:** ichki ta'lim sifati, oliy ta'lim muassasasi, boshqaruv, ta'lim dasturlari.

**Annotation.** At the present stage of development of the education system, a number of developed countries attach great importance to the organizational and management structures of education, target areas of development and content. At the each stage of development of management theory, scientists, researchers and government organizations pay special attention to human capital, personality formation, and education of the younger generation based on democratic principles. We must understand that these qualities in a person can only be achieved by receiving a quality education at any stage of his life.

These scientific researches are aimed at improving the internal quality assurance in Uzbekistan's Higher Education Institutions by improving educational programs and continuously improving them in cooperation with internal and external stakeholders to achieve international standards and international accreditation.

**Keywords:** internal quality assurance, higher education institution, management, educational programs.

**В**ведение. В последние годы Узбекистан позитивно подходит к развитию системы образования, создавая систему непрерывного образования, радикально обновляя ее содержание, повышая качество образовательного процесса. Среди таких реформ – Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» и Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017–2021 годы, также предусмотрено дальнейшее совершенствование системы непрерывного образования, расширение возможностей предоставления качественных образовательных услуг, коренное повышение качества образования. Определены такие приоритеты, как внедрение международных стандартов оценки качества высшего образования и подготовки кадров. Отсюда следует, что совершенствование национальной системы образования в соответствии с новыми условиями мировой глобализации и конкуренции, реформирование сферы образования в республике на основе передового опыта является одной из важных задач страны.

Внутреннее качество образования – это степень соответствия образовательных процессов и результатов требованиям и ожиданиям заинтересованных сторон, таких как студенты, преподаватели, работодатели, государство и общество. Обеспечение внутреннего качества в высших учебных заведениях является важной задачей для повышения конкурентоспособности и престижа узбекского образования на международном уровне, а также для удовлетворения потребностей рынка труда и социально-экономического развития страны.

Однако в современных условиях демократизации и становления гражданского общества процессы роста человеческого капитала в структуре национального богатства, повышения образовательного потенциала молодежи, процессы адаптации к стабильной жизни широко анализируются. Основанием для определения направления данной исследовательской работы является то, что вопросы обеспечения внутреннего

качества системы высшего образования и совершенствования ее управления не решены на основе современных управленческих подходов.

В Узбекистане существует система государственного контроля качества образования, которая осуществляется через лицензирование, аккредитацию и аттестацию вузов. Однако эти механизмы не всегда отражают реальное состояние дел в образовательных учреждениях и не способствуют развитию культуры качества среди преподавателей и студентов. Поэтому необходимо разработать и внедрить эффективные инструменты и методы внутреннего обеспечения качества, которые будут базироваться на самооценке, мониторинге, анализе и улучшении образовательных процессов и результатов.

Также следует отметить начатые масштабные реформы в сфере высшего образования в Узбекистане, определенные в Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года. Как подчеркивают ряд международных организаций и многие страны мира, в нашей стране уделяется особое внимание улучшению внутреннего обеспечения качества образования. Мы видим, что в качестве неотложных задач поставлены «Осуществление управления системой образования, качеством образования, процессом и средствами его оценки, механизмами определения достигнутых результатов» и «Совершенствование управления системой образования» в Концепции. Задачи Государственной инспекции по контролю качества образования при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основе зарубежного опыта, включая внедрение новых механизмов оценки качества образования, мониторинг с использованием эффективных инструментов, ориентацию на качество образования, трудоустройство выпускников и специальностей» показывает одну из ее основных целей<sup>1</sup>. В свою очередь, дальнейшее совершенствование организационно-управленческой структуры системы образования, внедрение эффективной образовательной политики и механизмов управления в сфере образования остается

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года».

важнейшей задачей, стоящей сегодня перед странами мира.

Целью данной статьи является анализ существующих подходов и практик внутреннего обеспечения качества в вузах Узбекистана, выявление проблем и вызовов, а также предложение рекомендаций по их решению. Для достижения этой цели были использованы следующие методы: анализ нормативно-правовых документов, литературный обзор, опрос преподавателей и студентов вузов Узбекистана, сравнительный анализ опыта других стран.

**Методы.** Целью исследования является разработка научных предложений и практических рекомендаций или методологии повышения внутреннего качества системы высшего образования на основе современных подходов к управлению.

В исследовании используются такие методы, как теоретическое сравнение, сравнительный и статистический анализ, наблюдение, моделирование, эмпирическое исследование, экспериментальное, аналитическое и экспертное оценивание.

В качестве объектов исследования рассматриваются государственные и негосударственные учреждения, действующие в системе высшего образования, их управленческая деятельность, а также отделы косвенного контроля качества вузов.

Одной из основных причин начала данного исследования является то, что в настоящее время в нашей стране реализуется несколько долгосрочных проектов, направленных на реформирование системы высшего образования республики и улучшение обеспечения качества. Одним из таких проектов является проект «Modernisation of quality assurance in higher education in Uzbekistan», реализуемый совместно с Министерством Высшего и среднего специального образования и Государственной инспекцией контроля качества образования при Кабинете Министров Республики Узбекистана, финансируемой Всемирным Банком. В рамках этого проекта работа проводилась в сотрудничестве с рядом европейских экспертных групп и избранными высшими учебными заведениями Республики

Узбекистан. В результате исследований, проведенных этой группой специалистов, был представлен ряд отчетов и инструкций, которые будут проанализированы в дальнейшей научной работе.

Аналитический отчет, представленный в результате исследования, проведенного группой экспертов, участвующих в данном проекте, описывает современное состояние системы качества образования в Узбекистане, а также характеристики методических рекомендаций по обеспечению качества образования, разработанных современные национальные ESG<sup>2</sup>. Во втором отчете Стратегии перечислены стратегические шаги по внутреннему и внешнему обеспечению качества (EQA), призванные превратить существующую систему качества образования в Узбекистане в систему, устойчивую к современному мировому рынку труда<sup>3</sup>. Третий отчет рассматривает взаимосвязь между внешним и внутренним качеством образования, а также реформы, необходимые для улучшения обеспечения качества в будущем высшего образования Узбекистана. Отчет о внутреннем обеспечении качества, в частности, о его текущих принципах, независимых от ESG, о том, как будет выглядеть будущая внутренняя гарантия качества образования в высших учебных заведениях Узбекистана, как развивать ее метод, а также о будущем внешнем обеспечении качества.

В вышеупомянутом отчете Shbeeman Consulting анализируется общая структура, взгляды и реализация задач со стратегическими целями или задачами, которые могут послужить основой для деятельности высших учебных заведений Узбекистана, и соотносит ее с институциональной системой общего качества. Таким образом, это дает представление о том, как организовать качество внутреннего образования на уровне учебной программы. В отчете подчеркивается важность роли и деятельности отделов контроля качества образования в высших учебных заведениях для развития и поддержания

<sup>2</sup> Shbeemann. Analysis of the Existing Quality Assurance System, including International Good Practice and Recommendations for the Introduction of a New Approach to Quality Assurance, March 2020.

<sup>3</sup> Shbeemann. National Quality Assurance Strategy for Uzbekistan, May 2020.



стабильного и надежного внутреннего качества образования. Отчет направлен на наращивание потенциала посредством серии тренингов по разработке или перепроектированию этих факторов и рекомендации методов, которые уже были протестированы и успешно реализованы.

Для анализа нормативно-правовых документов были изучены следующие источники:

- Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы обеспечения качества образования»;

- Приказ Министерства высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан № 387 «Об утверждении Положения о порядке проведения само аккредитации высших учебных заведений Республики Узбекистан» от 29 апреля 2019 года;

- Приказ МВССО № 1046 «Об утверждении Положения о порядке проведения мониторинга качества образования в высших учебных заведениях Республики Узбекистан» от 30 декабря 2019 года.

Для литературного обзора были использованы следующие источники:

- Международная организация по стандартизации. ISO 9000:2015. Quality management systems – Fundamentals and vocabulary;

- Европейская ассоциация по обеспечению качества в высшем образовании. Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG), 2015.

Для опроса преподавателей и студентов вузов Узбекистана была разработана анкета, содержащая вопросы о знании, участии и оценке внутреннего обеспечения качества в их вузе. Анкета была распространена через интернет при помощи Google Forms среди 100 преподавателей и 100 студентов из разных вузов страны. Данные анкеты были обработаны с помощью программы SPSS с использованием дескриптивной статистики.

Для сравнительного анализа опыта других стран были изучены следующие источники:

- European Association for Quality Assurance in Higher Education (ENQA), 2018. Considerations for quality assurance of e-learning provision;

- UNESCO (2016). A guide to quality in online learning;

- International Network for Quality Assurance Agencies in Higher Education (INQAANE), 2016. Guidelines of good practice.

**Результаты.** Научно-исследовательские цели:

- применение современных механизмов управления в процессе совершенствования внутреннего обеспечения качества в сфере образования;

- оценка системы управления системой высшего образования, образовательных программ и процессов, тенденций развития;

- определение эффективности управления отделами контроля качества образования в системе высшего образования;

- использование современного менеджмента для совершенствования внутреннего обеспечения качества в системе высшего образования, а также для определения направлений повышения эффективности управления персоналом;

- разработка и совершенствование предложений по развитию современной методологии повышения внутреннего обеспечения качества в системе высшего образования.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

- разработка и/или совершенствование методологии эффективного внедрения внутренней системы обеспечения качества в высшем образовании;

- улучшение стандартов постоянного участия всех подразделений высшего учебного заведения, внутренних и внешних заинтересованных сторон во внутреннем обеспечении качества.

Научная и практическая значимость результатов исследования:

- разработка механизмов использования информационных систем в управлении системой образования в целях внедрения эффективного внутреннего обеспечения качества в системе высшего образования;

- реализация практической работы по повышению роли внутреннего обеспечения качества в системе высшего образования,

изучение потребности в управленческих услугах по подготовке кадров с учетом ситуации на рынке труда и других факторов;

– совершенствование управления системой высшего образования на основе современных подходов к управлению, методов выявления, анализа и прогнозирования потребности в кадрах в соответствии с долгосрочными изменениями;

– разработка систематических стандартов внутреннего обеспечения качества для эффективного управления системой высших учебных заведений.

Анализ нормативно-правовых документов показал, что в Узбекистане были приняты ряд мер по усилению роли вузов в обеспечении качества своих образовательных программ и услуг. В частности, были предусмотрены создание в каждом вузе службы по обеспечению качества образования, разработка и реализация политики и процедур качества, проведение самооценки и самоаккредитации, участие в международных рейтингах и бенчмаркинге.

Литературный обзор позволил выделить различные определения понятия “качество образования”, модели заинтересованных сторон в высшем образовании, подходы к обеспечению качества (внешний и внутренний), модели и инструменты внутреннего обеспечения качества, а также преимущества и проблемы внутреннего обеспечения качества.

Опрос преподавателей и студентов вузов Узбекистана выявил низкий уровень осведомленности и понимания сути и целей внутреннего обеспечения качества среди опрошенных, отсутствие четкой и единой политики и процедур качества в вузах, низкую эффективность и недостаточную ресурсную обеспеченность служб по обеспечению качества образования в вузах, низкий уровень участия и вовлеченности преподавателей и студентов в процесс внутреннего обеспечения качества, несоответствие стандартов и критериев внутреннего обеспечения качества международным требованиям и лучшим практикам. Результаты опроса представлены в таблице 1.

Таблица 1.

### Результаты опроса преподавателей и студентов вузов Узбекистана

Вопрос	Да	Нет	Не знаю / Не уверен
Знаете ли вы, что такое внутреннее обеспечение качества?	28%	16%	56%
Участвуете ли вы в деятельности по внутреннему обеспечению качества в вашем вузе?	21%	43%	36%
Оцениваете ли вы положительно внутреннее обеспечение качества в вашем вузе?	19%	34%	47%
Знаете ли вы, что в вашем вузе есть политика и процедуры качества?	33%	24%	43%
Знаете ли вы, что в вашем вузе есть служба по обеспечению качества образования?	26%	28%	46%
Знаете ли вы, что стандарты и критерии, которые используются в вашем вузе для самооценки и самоаккредитации, соответствуют международным требованиям и лучшим практикам по обеспечению качества?	32%	18%	50%

Сравнительный анализ опыта других стран показал, что во многих странах существуют развитые системы внутреннего обеспечения качества, которые основываются на международных стандартах и руководствах по обеспечению качества, таких как ESG, Принципы UNESCO, Кодекс добрых практик INQAANE. Эти системы предусматривают разработку и реализацию политики и процедур качества, создание и функционирование служб по обеспечению качества образования, проведение самооценки и самоаккредитации, мониторинга и аудита качества, участие и вовлечение заинтересованных сторон, а также

учет специфики онлайн-обучения. Эти системы способствуют повышению качества образования, удовлетворению потребностей и ожиданий заинтересованных сторон, а также интеграции в международное образовательное пространство.

**Обсуждение.** В данной статье были рассмотрены основные аспекты внутреннего обеспечения качества в высшем образовании в Узбекистане, а также были проанализированы проблемы и вызовы, с которыми сталкиваются вузы в этой области. Были предложены рекомендации по улучшению ситуации с внутренним обеспечением качества в вузах Узбекистана, которые касаются повышения уровня осведомленности и понимания сути и целей внутреннего обеспечения качества среди преподавателей и студентов, разработки и реализации четкой и единой политики и процедур качества в каждом вузе, усиления эффективности и ресурсной обеспеченности служб по обеспечению качества образования в вузах, повышения уровня участия и вовлеченности преподавателей и студентов в процесс внутреннего обеспечения качества, приведения стандартов и критериев внутреннего обеспечения качества в соответствие с международными требованиями и лучшими практиками.

Однако стоит отметить, что данная статья имеет ряд ограничений, которые не позволяют сделать всеобъемлющие выводы по исследуемой теме. Во-первых, опрос преподавателей и студентов вузов Узбекистана был проведен на небольшой выборке (200 человек), которая может не отражать мнение всей академической общественности. Во-вторых, опрос был распространен через интернет, что может ограничивать доступность и представительность опрошенных. В-третьих, опрос был основан на самоотчетности опрошенных, что может повлиять на достоверность и объективность полученных данных. В-четвертых, сравнительный анализ опыта других стран был основан на литературном обзоре, который может не учитывать специфику национальных контекстов и актуальность информации. Поэтому для более глубокого исследования темы внутреннего обеспечения качества в высшем образовании в Узбекистане необходимо проводить дополнительные

эмпирические исследования с использованием различных методов сбора и анализа данных, а также с учетом международных стандартов и практик.

В частности, можно внедрить современные подходы к управлению в системе высшего образования, применить предложенную модель и механизмы управления непосредственно к деятельности образовательных учреждений. Развитие образовательных учреждений в системе Министерства высшего образования, а также реализация мер по выполнению, поставленных задач по приоритетным направлениям на основе Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года.

**Заключение.** В заключение можно сказать, что внутреннее обеспечение качества является необходимым условием для развития высшего образования в Узбекистане. Оно требует постоянного совершенствования и адаптации к новым вызовам и возможностям. Оно также требует активного участия и сотрудничества всех заинтересованных сторон: преподавателей, студентов, администрации, работодателей, государства, общества. Только так можно достичь высокого качества образования, которое будет отвечать потребностям и ожиданиям современного мира.

Вкратце, разработанная методология и рекомендации служат обеспечению активного участия кафедр высших учебных заведений, руководителей вузов, профессорско-преподавательского состава, студентов и всех заинтересованных лиц в повышении качества внутреннего образования образовательных программ. Теоретико-методические положения, разработанные автором в рамках настоящего исследования, могут быть использованы для совершенствования управленческих функций системы высшего образования.

**СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ**

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года».
2. Shbeemann. Analysis of the Existing Quality Assurance System, including International Good Practice and Recommendations for the Introduction of a New Approach to Quality Assurance, March 2020.
3. Shbeemann. National Quality Assurance Strategy for Uzbekistan, May 2020.
4. Shbeemann. Report on External Quality Assurance processes in Uzbekistan, July 2020.
5. Shbeemann. Report On Internal Quality Assurance Processes In Uzbekistan, August 2020.
6. Международная организация по стандартизации. ISO 9000:2015. Quality management systems – Fundamentals and vocabulary.
7. Европейская ассоциация по обеспечению качества в высшем образовании. Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG). 2015.
8. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4162 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы обеспечения качества образования» от 8 февраля 2019 года.
9. Приказ Министерства высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан № 387 «Об утверждении Положения о порядке проведения самоаккредитации высших учебных заведений Республики Узбекистан» от 29 апреля 2019 года.
10. Приказ МВССО № 1046 «Об утверждении Положения о порядке проведения мониторинга качества образования в высших учебных заведениях Республики Узбекистан» от 30 декабря 2019 года.
11. European Association for Quality Assurance in Higher Education (ENQA), 2018. Considerations for quality assurance of e-learning provision.
12. UNESCO (2016). A guide to quality in online learning.
13. International Network for Quality Assurance Agencies in Higher Education (INQAAHE), 2016. Guidelines of good practice.



**Nomozova O'g'iloy Akmaljon qizi,**  
 “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti,  
 e-mail: [ogiloy.nomozova@mail.ru](mailto:ogiloy.nomozova@mail.ru)

## OILADA MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK MOHIYATI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oilaviy munosabatlarga ta'sir qiluvchi omillar keltirilib, ular qatorida muloqot madaniyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Muloqot va muloqot madaniyati yuzasidan mavjud ilmiy manbalar tahlilga tortilgan hamda mavzuga oid xulosa va takliflar berilgan.

**Tayanch so'zlar:** oilaviy nizo, muloqot, muloqot madaniyati, nutq, nutq odobi, nutqiy qolip, nutqiy etiket.

**Аннотация.** В данной статье приведены факторы, влияющие на семейные отношения, среди них особое внимание уделяется культуре общения. Анализируются доступные научные источники по коммуникации и культуре общения, даются выводы и предложения по теме.

**Ключевые слова:** семейный конфликт, общение, культура общения, речь, речевой этикет, речевая манера, речевой этикет.

**Annotation.** In this article, the factors affecting family relations are given, and among them special attention is paid to the culture of communication. Available scientific sources on communication and culture of communication are analyzed and conclusions and suggestions are given on the topic.

**Key words:** family conflict, communication, communication culture, speech, speech etiquette, speech pattern, speech etiquette.

**Kirish.** Oila va u bilan bog'liq masalalar, shuningdek, oilaviy qadriyatlar azal-azaldan o'zbek xalqi hayotida eng muhim qadriyatlar qatorida sanalib kelgan. Shu bilan birga, nikoh munosabatlari, oila farovonligi omillari, er-xotin munosabatlari, oilada farzand tarbiyasi hamisha dolzarb hisoblanib kelgan. Zero, bu borada bir qancha muatafakkir ajdodlarimiz, qomusiy olimlarimiz o'z fikr-mulohazalarini qayd etib ketgan. Xususan, oila-nikoh xususida Sohibqiron Amir Temur o'z tuzuklarida shunday deb yozadi: “O'g'illarim, nabiralaring va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'liq-salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta to'y-tomosha

berib, kelin tushirdim”<sup>1</sup>. Guvohi bo'lganimizdek, ushbu tadbir avlodlar davomiyligi, ularning qoni, qanday inson bo'lishiga bevosita ta'sir etadi. Shuning uchun ham Amir Temur hukmdor bo'lishiga qaramasdan, u nafaqat davlat boshqarish tartibi, jang san'ati borasida, balki mana shunday nozik masalalarda ham hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan shunday qimmatli nasihat va o'zi yuritgan tadbirlarni meros qilib qoldirgan. Yanada aniqroq bayon etadigan bo'lsak, kelin tanlash borasidagi bunday tamoyil mohiyati jihatidan jamiyatda sog'lom oilani shakllantirish, sog'lom avlodni dunyoga keltirish va ularni barkamol bo'lib tug'ilishini ta'minlashga qaratilgan an'anadir.

<sup>1</sup> Amir Temur igitlari. – Toshkent: “Ўзбекистон”, 2007. – Б. 26. (29) <https://n.ziyouz.com/books/hikmatlar/Bo'riboy%20Ahmedov.%20Amir%20Temur%20o'gitlari.pdf>

**Maqsad va uni asoslash.** Oila xususida soʻz yuritilganda, oilalar barqarorligiga taʼsir qiluvchi omillarga alohida eʼtibor qaratilishi maqsadga muvofiq boʻladi. Oila bilan aloqador masalalar yuzasidan olib borilgan bir qancha tadqiqotlarda oilalar mustahkamligiga putur yetkazadigan, oilaviy nizolarga sabab boʻladigan bir qancha maʼlumotlar oʻrganilib, tahlil qilingan. Xususan, A.Y.Palvaniyazovning tadqiqotida olimning aholidan oʻtkazilgan soʻrovnomasiga koʻra, oila barqarorligining muhim omillaridan biri sifatida moddiy taʼminlanganlik koʻrsatilgan<sup>2</sup>.

Psixolog olimi F.A.Akramovning tadqiqotida oilaviy nizolar oiladagi nizolarda kimlar ishtirok etayotganiga koʻra bir nechta turlarga ajratilgan boʻlib, ular quyidagilar:

1. Er-xotin oʻrtasidagi nizolar.
2. Qaynona-kelin oʻrtasidagi nizolar.
3. Qaynona-kuyov oʻrtasidagi nizolar.
4. Ovsinlar oʻrtasidagi nizolar.
5. Ota-onalar va farzandlar oʻrtasidagi nizolar<sup>3</sup>.

Bundan kelib chiqadiki, yuqoridagi nizolarning sodir boʻlishiga turli omillar sabab boʻladi, masalan, yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi, dunyoqarashlar orasidagi farq, oilaviy kelib chiqishi va h.k. Muammo bor joyda, albatta, yechim ham topish mumkin. Demak, oila barqarorligini taʼminlash, oilaviy nizolarning oldini olishda ham bir qator omillar mavjud boʻlib, ular turlicha.

Yuqorida oila bilan bogʻliq tadqiqotlarning qisqacha bayoni keltirildi. Koʻrinib turibdiki, oila mustahkam boʻlishi yoki aksincha, uning parchalanishiga olib keluvchi bir qancha sabablarni sanash mumkin. Masalan, koʻpchilik tomonidan oilaviy nizolarga sabablar qatorida oilada shaxslararo munosabatlar, uchinchi shaxs aralashuvi, majburiy nikoh, qarindoshlar oʻrtasidagi nikoh, ilmsizlik, ayrim urf-odatlar, moddiy taʼminot va hokazolar oilada oila barqarorligiga salbiy taʼsir etuvchi omillar qatorida koʻrsatiladi. Bular qatorida er va xotin muloqot madaniyatining oʻrnini ham alohida eʼtirof etish va bu yuzasidan tadqiqot olib borish, ayniqsa, bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda, avvalo, muloqotning mazmuni, uning turlari va funksiyalariga toʻxtalib oʻtish va muloqot bilan bogʻliq mavjud bir qancha ilmiy ishlarga murojaat qilishimiz maqsadga muvofiq boʻladi.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** Muloqot masalasi aynan bitta sohaning oʻrganish obyekti hisoblanmasdan, bir qancha sohalarida ushbu muammo yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarni koʻrishimiz mumkin (pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, filologiya).

<sup>2</sup> Палваниязов А.Ю. Ўзбекистонда ёш oilalarining барқарорлик омиллари (Қорақалпоғистон Республикаси мисолида). Социол. фан. фалс. док. (PhD)... дисс. – Тошкент, 2019.

<sup>3</sup> Акрамова Ф. Oilada shaxslararo munosabatlarining oila mustahkamligiga taʼsiri masalalari. Монография. – Тошкент: “Lesson-press” нашриёти, 2021. – 124 б

Jumladan, Oʻzbek filolog olimlaridan Sh.Iskandarova<sup>4</sup>, Q.Sh.Kaharov<sup>5</sup>, S.M.Moʻminov<sup>6</sup>, Q.A.Rasulov<sup>7</sup>, N.Sh.Ahmedova<sup>8</sup> hamda Z.A.Akbarovalar<sup>9</sup> muloqot, nutqiy odat, nutq madaniyati, oʻzbek tilida muloqot shakllari, oʻzbek tili muloqot odobi kabi masalalarni tadqiq etgan. Mazkur ishlarda muloqot filologiyaning tadqiqot obyekti sifatida oʻrganilgan boʻlsa-da, ularda muloqotning tilshunoslikka oid bir qancha nazariyalari bilan bir qatorda muloqotmadaniyati, nutq odobiga oid jihatlarni ham kuzatishimiz va kerakli xulosalarni olishimiz mumkin.

Ana shunday ishlardan biri – Sh.Iskandarovning “Oʻzbek nutq odatining muloqot shakllari”<sup>10</sup> mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi oʻzbek tili muloqoti boʻyicha muhim ahamiyatga ega ishlardan biri hisoblanadi. Mazkur dissertatsiyada olimi, asosan, oʻzbek nutq odatining oʻziga xos xususiyatlari haqida maʼlumot berib oʻtadi. Olimaning fikricha, “nutqiy odat deyilganda, jamiyat tomonidan qabul qilingan va qoʻllanishi zarur boʻlgan yoki talab etiladigan, suhbatdoshlar oʻrtasida aloqa oʻrnatish va uni kerakli ohangda olib borish uchun ishlatiladigan turgʻun muloqot qoliplarining maxsus milliy kichik tizimlari tushuniladi. Nutqiy odat nutqiy xulqni tartibga soluvchi qoidalar, suhbatdoshlar oʻrtasida aloqa/kontakt oʻrnatish, tanlangan ohangda aloqani saqlab turish va uni toʻxtatish uchun jamiyat tomonidan qabul qilingan aloqaning milliy oʻziga xos qoliplari hamda turgʻun shakllar tizimi tushunchasidir<sup>11</sup>. Bizningcha, soddaroq qilib aytadigan boʻlsak, nutqiy odat – bu maʼlum bir jamiyatning tilida jamiyat aʼzolari tomonidan doimiy qoʻllanuvchi, hamma uchun tushunarli boʻlgan nutqiy qoliplardir (masalan, salomlashish, xayrlashish, qutlov, tabrik va h.k.). Umuman olganda, soʻzlashuv jarayonida vaziyatga mos holda tilda maxsus andozalar boʻladi. Ana shu andozalardan oʻrinli foydalanish esa nutqni yanada jozibador qiladi.

“Salomlashish” vaziyatidagi “Assalomu alaykum – Vaalaykum assalom”, “Xush kelibsiz – Xushvaqt boʻling”, “Hormang – Bor boʻling”; “Xayrlashsh”

<sup>4</sup> Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одафининг мулоқот шакллари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993.

<sup>5</sup> Қ.Кажаров. Ўзбек ва немис нутқий этикетларининг киёсий тадқиқи. – Андижон, 2020.

<sup>6</sup> Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2002.

<sup>7</sup> Расулов Қ.А. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008.

<sup>8</sup> Аҳмедова Н.Ш. Ўзбек тилида муурожаат бирликларининг семантик коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008.

<sup>9</sup> Акбарова З.А. Ўзбек тилида муурожаат шакллари ва уларнинг лисоний тадқиқи. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007.

<sup>10</sup> Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одафининг мулоқот шакллари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993.

<sup>11</sup> Формановская Н.И. Русский речевоу этикет: лингвистический и методический аспект – М., 1902, с.7.

vaziyatidagi “Xayr – Omon bo‘ling”, “Yaxshi qoling – Yaxshi boring”; “Qutlash” vaziyatidagi “Muborak bo‘lsin – Qulluq” kabi maxsus turg‘un birliklar o‘zbek nutq odati uchun aloqa vositalari sanalib, ularsiz nutqiy odat me‘yori buziladi”<sup>12</sup>.

Ushbu maqolada ham qo‘yilgan masala o‘zbek xalqi miliy madaniy muhitini nazarda tutib olib boriladi. Ana shundan kelib chiqqan holda, yuqoridagi fikrlarni oilaviy munosabatlardagi muloqot jarayoniga ham tatbiq etish mumkin. Bunga qo‘shimcha tarzda bir qancha nutqiy qoliplarni ko‘rsatishimiz mumkin. Jumladan, aynan er va xotin muloqotiga doir qoliplarni hisobga olsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, er tomonidan xotining murojaat qilinganda, oddiygina “ha” nutqiy qolipning o‘rniga “labbay” so‘zi ishlatilsa, nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi. Bundan tashqari, oilada ko‘pincha er ishga ketayotgan vaqtda kuzatuvchi (xotin) tomonidan hamisha “yaxshi borib keling” iborasi ishlatilsa, bu ham oilada er-xotinning bir-biriga bo‘lgan munosabat, mehr-oqibatlarini mustahkamlaydi. Va bunga javoban, yuqorida keltirilganidek, er tomonidan ham “yaxshi qol(ing)/o‘tir(ing)” iborasi ishlatilsa, munosabatlardagi ilqlik saqlanadi. Bu kundalik hayotimizdan kichik bir misol bo‘lib, bu borada ko‘plab misollarni, ko‘plab nutqiy qoliplarni keltirishimiz mumkin. Yuqoridagi kabi muloqot muhiti esa er va xotin o‘rtasida yaxshi, iliq muomalani ta‘minlab qolmasdan, shu bilan birga, o‘zaro ijobiy munosabatlarni mustahkamlaydi. Demak, mana shunday ijobiy mazmunga ega bo‘lgan nutqiy qoliplardan foydalanish oiladagi kelajak avod tarbiyasiga ham katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Zero, “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan maqol xalqimizda bejizga aytilmaydi. Biz bunday birliklarni juda ko‘plab keltirishimiz mumkin. Mazkur birliklar nafaqat er va xotin munosabatlarini mustahkamlash uchun, balki umumiy oilaviy munosabatlarda, shaxslararo munosabatlarda ham ahamiyatlidir.

Sh.Iskandarova nutqiy odatning paralingvistik yo‘nalishi xususida fikr yuritir ekan, nolisoniy vositalar va nutqiy odat birliklarining lisoniy vositalari kundalik muloqotda juda ko‘p ishlatilishini ta‘kidlaydi: “Shunday imo-ishoralar borki, ular shartli xarakterga ega bo‘lib, milliy xususiyatlar kasb etishi mumkin. Chunki u jamoa tomonidan ma‘lum ma‘noni ifodalash simvolidir. Boshqa bir jamoada esa bu ishora yo hech qanday kommunikativ vazifa bajarmaydi yoki boshqa ma‘noni anglatishi mumkin. Masalan, “xayr” ma‘nosini ifodalash uchun ruslar kaftini o‘zidan orqaga qilib, vertikal holatda takror-takror silkitsa, italyan kaftini o‘ziga qaratib vertikal holatda silkitadi”<sup>13</sup>. O‘zbek oilalarida ham er va xotin munosabatlarida shunday paralingvistik vositalar mavjudki, ulardan o‘z o‘rnida foydalanilmasa, oilaviy nizolarga sabab bo‘lishi mumkin. Er va xotin mojarosi har bir oilada kuzatiladigan holat. Ammo bu jarayonda ikkala

<sup>12</sup> Iskandarova Sh. Ўзбек нутқ одадиниң мулоқот шакллари. Филол. фан. номз. ... дисс. Авторев. – Самарқанд, 1993.

<sup>13</sup> Nurmonov A. Ўзбек тилиниң паралингвистик воситалари haqida. Анлижон, 1900. – Б. 10.

taraf ham qizishib ketganda ba‘zi qo‘pol so‘zlarni gapirib yuborishi, nainki shunday so‘zlarni ifodalaydigan ayrim imo-ishoralarni qo‘llab yuborishi kuzatiladi. Masalan, ko‘pgina o‘zbek oilalarida xotin tomonidan eriga qarata qo‘llarini paxsa qilib ko‘rsatish<sup>14</sup> o‘ta ketgan hurmatsizlik sifatida qaraladi.

Shuni ham alohida ta‘kidlash kerakki, muloqot madaniyatini rivojlantirishda, avvalo, muayyan tildagi nutqiy etiketlar muhim o‘ringa ega.

Xususan, tilshunos olim Q.Qahharovning ishida nutqiy etiketning nutqiy etiketning rasmiy/norasmiy shakllari diniy-etnik, ijtimoiy-tarixiy me‘yorlar bilan chambarchas bog‘liqligi yoritib berilgan, shuningdek, o‘zbek muloqot jarayonidagi murojaat shakllarining qo‘llanish darajasi urf-odat, madaniyat, milliy-me‘yoriy mezonlar asosida yoritilgan. Eng ahamiyatli jihatlardan biri – o‘zbek tilidagi sen/siz shakllarining muloqot jarayonidagi me‘yoriy asoslari ochib berilgan, shu bilan birga, o‘zbek xalqi kommunikatsiya jarayonidagi yosh va jins bilan bog‘liq noverbal vositalar aniqlangan<sup>15</sup>.

Olimning ta‘kidlashicha, nutqiy etiket birliklarining o‘ziga xos ahamiyati shundaki, ular ijtimoiy omillar asosida yuzaga chiqadi. Bu omillar ichidan olim yosh omilini alohida ta‘kidlab, to‘xtab o‘tadi, jumladan, keksalar nutqi, yoshlar nutqi va bolalar nutqi ajratilgan. Chunki odamlar nutqida uning yosh ko‘rsatkichi muhim ahamiyatga ega.

Oilaviy munosabatlarni barqarorlashtirishda muloqotning o‘rniga e‘tibor qaratar ekanmiz, nutqning yuqoridagi tasnifini ham hisobga olgan holda muayyan tavsiyalar ishlab chiqish oldimizga qo‘ygan maqsadga erishishda bir qadam bo‘ladi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki oila tarkibi faqatgina er va xotindan iborat bo‘libgina qolmay, balki unda farzandlar bilan birga yoshi ulug‘ bobo-buvilar, qaynona va qaynotalar, qaynini, qaynsingil kabi oila a‘zolari ham bo‘ladi. Ana shunday katta oilalarda muloqotning yosh xususiyatlariga ko‘ra kechishini ham e‘tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan filologik tadqiqotlardan tashqari, bir qancha pedagoglar ham muloqot madaniyati xususida tadqiqot olib borgan. Jumladan, M.Y.Mahkamova<sup>16</sup>, A.T.Nurmanova<sup>17</sup>, G.A.Asilova<sup>18</sup>,

<sup>14</sup> Qo‘lini paxsa qilmoq – kaftini katta ochgan holda qo‘lini tinglovchi tomon cho‘zib, dag‘dag‘a bilan gapirmoq. <https://uz.wiktionary.org/wiki/paxsa>

<sup>15</sup> Қ.Кахаров. Ўзбек ва немис нутқий этикетларининг қиёсий тадқиқи. Филол. фан. фалс. ... дисс. Авторев – Андижон, 2020.


<sup>16</sup> Маҳкамова М.Ю. Бўлажак тарбиячилврнинг педагогик мулоқот маданиятини шакллантириш. Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002.

<sup>17</sup> Нурманов А.Т. Талабаларни самарали мулоқот технологияси ва техникасида тайёрлашнинг педагогик шарт-швритлари. Пед. фан. док. ... дисс. авторев. 2017.

<sup>18</sup> Асилова Г.А. Божхона ва солиқ йўналишлари талабаларининг давлат тилида касбий мулоқот юритиш компетенциясини ривожлантириш (рус гуруғлари мисолида). . Пед. фан. док. ... дисс. авторев. 2017.

Sh.N.Ubaydullayev<sup>19</sup> kabi pedagog olimlar, asosan, o‘quvchilarda, talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish borasida tadqiqot ishlari olib borgan. Ammo muloqot masalasi ijtimoiy pedagogik jihatdan, aynan er va xotin nutqi, umuman, oilaviy muloqot masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida olinmagan.

Oilaviy munosabatlarda muloqot jarayonida e‘tibor qaratishimiz lozim bo‘lgan shaxsning bir qancha muhim jihatlari mavjud. Ular quyidagilar:



Shaxsning yoshi – bu eng muhim belgi hisoblanadi, chunki har bir yosh davrida shaxsning psixologik xususiyatlari, atrofidaqilarni, olamni idrok etishi ham turlicha bo‘ladi. Masalan, 3-4 yoshli bolaga uning tilida emas, kattalar tilida, ya‘ni oiladagi muhim yechimini kutayotgan masalalar yuzasidan murojaat qilib yoki o‘ta jiddiy ohangda suhbtlashib bo‘lmaganidek, voyaga yetgan shaxs bilan ham xuddi yosh bolani erkalatgandek munosabatda muloqot olib borilmaydi, u bilan eni jiddiy masalalarni ham muhokama qilish, undan muamoga yechim bo‘la oladigan maslahatni qabul qilish mumkin. Yoki oilada Yoshi ulug‘ keksalar bilan muomalada hamisha chiroyli so‘zlar bilan murojaat qilish, hurmat qilib munosabatda bo‘lish maqsadga muvofiq, chunki yosh jihatdan ular ko‘pincha ta‘sirchan bo‘lib qoladi.

Shaxsning jinsi – jins bu munosabatlarni to‘g‘ri yo‘naltirishda muhim faktor. Oilada ayol bor – erkak bor. Ularning har birida o‘ziga xos jins bilan bog‘liq fikrlashi, idrok etishi, shaxsiy o‘ziga xos xususiyatlari bor. Shu jihatdan oilada ayol va erkak bilan muomalada ehtiyotkorlik lozim. Jins bilan bog‘liq xususiyatlar ularning nutqida ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Oilaviy maqomi – o‘zaro muloqot jarayonida oiladagi har bir a‘zoning oilaviy maqomini e‘tiborga olib murojaat qilish kerak. Masalan, bola o‘z otasi bilan muloqot jarayonida xuddi tengquri bilan muomala

<sup>19</sup> Ш.Н.Убайдуллаев. Касб-хунар коллежи ўқувчиларига маданиятлараро мулоқотни ўргатиш. Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009.

qilgandek muloqot qilolmaydi yoki aksincha, ota farzandi bilan muloqotda bir pog‘ona undan yuqori turadi.

Yaqinlik darajasi – oilada oila a‘zolarining yaqinlik darajasi ham muloqotd muhim omil sanaladi. Masalan, ota yoki ona bilan bo‘lgan suhbat xola yoki amaki/tog‘a bilan bo‘lgan suhbatdan farq qilishi mumkin. Bunda juda ham yaqinlik ko‘rsatkichi asosiy o‘rinda turadi.

Kasbi – oila a‘zolari turli xil kasb bilan faoliyat yuritishlari mumkin, bu esa ularning nutqida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, oilada oila boshlig‘i harbiy faoliyat bilan shug‘ullansa, u ko‘proq jiddiy nutq ohangiga ega bo‘lishi hayotiy tajribalarda kuzatilgan. Vaholonki, oilada doim bunday jiddiy nutq bilan muloqot qilib bo‘lmaydi, ba‘zida quvnoqlik ham kerak bo‘ladi.

Shu o‘rinda jamiyatimizda oilada otaning roliga ahamiyat qaratiladi. Ota har jabhada, shuningdek, muloqotda ham barchaga o‘rnak bo‘lmog‘i lozim. Bu borada taniqli ijodkor, pedagog-olima Tursunoy Sodiqovanning “Oila ilmi” asarida shunday fikrlar e‘tiborimizni tortadi: “O‘zini tutolmay, ayoliga qo‘l ko‘tarayotgan yoki og‘zidan bodi kirib-shodi chiqib so‘kinayotgan erkaklarni yaxshilab kuzat. Undan ozor yeyayotganning ahvolini ko‘r. Atrofdan olayotgan qarg‘ishlariga guvoh bo‘l! Va uning o‘rniga bir zum o‘zingni qo‘y, tasavvur qilki, shu sen! Hamda bu kepatangni bolang ko‘rib turibdi deylilik!

O‘g‘lonim, agar bolangning ro‘parasida shu ko‘yga bir marta tushgan bo‘lsang ham, kezi kelib, unga nasihat qilolmay qolasan! Aybini aytding deguncha, ichida ustingdan kulaveradi. Ko‘zlari “o‘zing-chi?” deb turaveradi! Seni hurmat qilmay qo‘ydimi, unga nasihatning toshga suv sepganday gap! Qani ayt-chi, o‘zingning bolangni o‘zing yetaklay olmasang, kim bo‘lding endi?”<sup>20</sup>

Ko‘rinib turganidek, ota obrazi, ayniqsa, farzandlar uchun andoza bo‘ladi. Uning o‘g‘zidan chiqayotgan har bir so‘z oila a‘zolariga ta‘sir etmay qolmaydi.

Muloqot haqida gapirar ekanmiz, muloqot jarayonida eng muhim jihat bu – muloqotdoshni tinglash. Tinglash muloqotdan ko‘zlangan maqsadga erishish, muloqot muhitining ijobiy kechishiga sabab bo‘ladi. Ayrim oilalarda oddiy muloqotning nizo bilan tugash holatlarini ham kuzatamiz, buning sabablarini qator sanashimiz mumkin, shu sabablar ichida o‘zaro bir-birini tinglash yo‘qligi ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

**Yakuniy qism.** Xulosa qilib aytganda, muloqotni ijtimoiy-pedagogik jihatdan tadqiq etish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi, ayniqsa, oilaviy muloqot alohida tadqiq etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Maqola asosida quyidagi taklif va tavsiyalarni berishimiz mumkin:

– er va xotin oilaviy turmushining boshidanoq bir-biriga samimiy munosabatda, shirinso‘zlik bilan muomala qilmog‘i, bir-birining xarakter xususiyatini anglagan holda munosabatlarni to‘g‘ri yo‘naltira olishga harakat qilishi lozim;

<sup>20</sup> Sodiqova T. Oila ilmi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 8.



– oilada er va xotin barobar tarzda farzandlariga nutq odobini, muloqot madaniyatini bolaligidanoq o‘rgatishi, bu borada er va xotin birdek mas’ul bo‘lib harakat qilishi kerak;

– bola ushbu xususiyatlarni, avvalo, oilada ota-onasidan oladi, ota-ona va uydagi boshqa oila a’zolari u uchun andoza misoli, undan keyin esa tashqi muhitdan

(bog‘cha, maktab va hokazo), shuni hisobga olgan holda ota-onalar kitobxonlikka ko‘proq e’tibor nerishi, yuqoridagi axloqiy, estetik ta’sirga ega asarlarni o‘qib borishni dastlab o‘zlaridan boshlashi kerak;

– bundan kelib chiqadiki, ota-onalik maktabida ota-ona farzand uchun eng namunali andoza bo‘lishi lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Амир Темуր ўғитлари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2007. – Б. 26. (29) <https://n.ziyouz.com/books/hikmatlar/Bo'ribo'y%20Ahmedov.%20Amir%20Temur%20o'g'itlari.pdf>
2. Палваниязов А.Ю. Ўзбекистонда ёш оилаларнинг барқарорлик омиллари (Қорақалпоғистон Республикаси мисолида). Социол. фан. фалс. док. (PhD)... дисс. – Тошкент, 2019.
3. Акрамова Ф. Оилада шахсларо муносабатларнинг оила мустаҳкамлигига таъсири масалалари. Монография. – Тошкент: “Lesson-press” нашриёти, 2021. – 124 б
4. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993.
5. Қ.Кахаров. Ўзбек ва немис нуткий этикетларининг қиёсий тадқиқи. – Андижон, 2020.
6. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2002.
7. Расулов Қ.А. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008.
8. Аҳмедова Н.Ш. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008.
9. Акбарова З.А. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва уларнинг лисоний тадқиқи. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007.
10. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993.
11. Формановская Н.И. Русский речевой этикет: лингвистический и методический аспект – М., 1902. – С.7.
12. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фан. номз. ... дисс. Авторев. – Самарқанд, 1993.
13. Нурмонов А. Узбек тилининг паралингвистик воситалари haqida. Анлижон, 1900. – Б. 10.
14. Qo‘lini paxsa qilmoq – kaftini katta ochgan holda qo‘lini tinglovchi tomon cho‘zib, dag‘dag‘a bilan gapirmoq. <https://uz.wiktionary.org/wiki/paxsa>
15. Кахаров Қ. Ўзбек ва немис нуткий этикетларининг қиёсий тадқиқи. Филол. фан. фалс. ... дисс. Авторев – Андижон, 2020.
16. Маҳкамова М.Ю. Бўлажак тарбиячилврнинг педагогик мулоқот маданиятини шакллантириш. Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002.
17. Нурманов А.Т. Талабаларни самарали мулоқот технологияси ва техникасида тайёрлашнинг педагогик шарт-швритлари. Пед. фан. док. ... дисс. автореф. 2017.
18. Асилова Г.А. Божхона ва солиқ йўналишлари талабаларининг давлат тилида касбий мулоқот юритиш компетенциясини ривожлантириш (рус гуруғлари мисолида). Пед. фан. док. ... дисс. автореф. 2017.
19. Убайдуллаев Ш.Н. Касб-хунар коллежи ўқувчиларига маданиятлараро мулоқотни ўргатиш. Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009.
20. Sodiqova T. Oila ilmi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 8.



**Nazarova Ra'no Sidiq qizi,**  
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti  
e-mail: [ranonazarova741@gmail.com](mailto:ranonazarova741@gmail.com)

## **BOLAGA NISBATAN ZO'RAVONLIK MUNOSABATLARINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI**

**Annotatsiya.** Bolalarga nisbatan zo'rvonlik holati turli bosqichlarda o'ziga xos tarzda shakllanib kelgan. Uning davomli tarzda sodir etilishi oilaviy munosabatlar va ota-onaning pedagogik kompetentligiga bog'liqligini ko'rsatmoqda. Maqolada bolalarga zo'rvonlik munosabatining tarixiy bosqichlari ochib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** zo'rvonlik, tarbiya, bolaga kuch ishlatish, bolalarni himoyalash tashkilotlari, jismoniy jazo.

**Аннотация.** Ситуация насилия над детьми формировалась на разных этапах. Ее постоянная реализация показывает, что она зависит от семейных отношений и педагогической компетентности родителей. В статье раскрываются исторические этапы насилия над детьми.

**Ключевые слова:** насилие, воспитание, жестокое обращение с детьми, организации защиты детей, физическое наказание.

**Annotation.** The situation of violence against children was formed at different stages. Its constant implementation shows that it depends on family relationships and the pedagogical competence of parents. The article reveals the historical stages of violence against children.

**Keywords:** violence, education, child abuse, child protection organizations, physical punishment.

**Kirish.** Bolalar jamiyatdagi eng himoyaga muhtoj qatlam hisoblanadi. Ularni kattalarning zo'rvonligidan himoyalash jamiyatdagi jiddiy muammolardan biridir. UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 2 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan har 10 nafar boladan 6 nafari har kuni jismoniy zo'rvonlikka uchraydi. Har besh daqiqada bir nafar bola zo'rvonlikdan vafot etadi. Xususan, Sharqiy va Markaziy Yevropa hamda Markaziy Osiyoda bolalarning qariyb yarmi ota-onalarining qo'pol tarbiyasi asosida zo'rvonlikni boshdan kechiradilar<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasida bolalarga nisbatan zo'rvonlik sodir etuvchilar toifasi

<sup>1</sup> Situation of children in Europe and Central Asia. Report of UNICEF. January 2023.

haqida quyidagicha ma'lumotlar keltiriladi: 78 foiz – begonalar tomonidan; 14 foizi ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar – vasiy, homiy, farzandlikka olgan shaxslar tomonidan; 6 foizi qarindoshlari – ota-onasining ichki yoki tashqi migratsiyaga ketishi oqibatida bobo, buvisi qo'lida qolishi natijasida; 2 foizi ta'lim muassasalari xodimlari tomonidan zo'rvonlikka uchragani tashkil etadi<sup>2</sup>. Ushbu ma'lumotlar bolalarni himoya qilishning huquqiy asoslarini mustahkamlash, jamiyatda bolaga bo'lgan insonparvar yondashuvni

<sup>2</sup> Bosh prokuratura Voyaga yetmaganlarga nisbatan qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish masalalari bo'yicha katta prokurori Laylo Fayzimurodovanning “Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida”gi Qonun loyihasi taqdimoti davomida so'zlagan nutqidan // <https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/12/violence-child/>

rivojlantirish, ota-onalarning bola tarbiyalashdagi pedagogik madaniyatini shakllantirish borasida qator islohotlar amalga oshirish zaruratini ko'rsatmoqda.

**Maqsad va uni asoslash.** Bolalarga nisbatan jismoniy zo'rvonlik holati qadim davrlardan beri davom etayotgan hodisadir. Uning davomiyligini ta'minlayotgan omillardan biri sifatida oiladagi jismoniy intizomiy jazolash hodisasini o'rganish tadqiqotning maqsadi sifatida olindi.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, bolalarga bo'lgan munosabat har davrda va har joyda ham mehr-muhabbatga asoslanmagan, ular o'rtasidagi munosabatlarda, asosan, moddiy manfaat yuqori bo'lgan.

G'arb davlatlarida bolalarga nisbatan jismoniy zo'rvonlikka asoslangan munosabatlar shartli ravishda besh davrga bo'linadi:

- qadimgi davr (ilk sivilizatsiyalar mavjud bo'lganidan to XIII asrgacha);
- o'rta asrlar (XIV–XVI asrlar);
- progressiv davr (1880–1920-yillar);
- postprogressiv davr (1920–1941-yillar);
- neoprogressiv davr (1941-yildan boshlab).

Qadimgi davrda bolalar buyumlar kabi ota-onalarining to'liq tasarrufida bo'lganlar: ularni sotish, qarz evaziga berish, hadya qilish, haddan ortiq mehnat qildirish holatlari mavjud bo'lgan. Masalan, Qadimgi Rimda milloddan avvalgi II asrdan oilaning eng keksa erkak a'zosi farzandlarini yashashi yoki o'lishi yoxud qullikka sotilishi haqida qaror qabul qilishlari mumkin bo'lgan. Ushbu qoida milodiy IV asrda imperator Konstantin davridagi islohotlar asosida ota-onalarni farzandlarining yashashi yoki yashamasligini hal qilish huquqidan mahrum qilgunicha amal qildi<sup>3</sup>. Bobilda ham dastavval bolalar ota-onalarga qattiq itoatda bo'lishini nazarda tutuvchi qonunlar mavjud bo'lgan. Bu davrda agar o'g'il otasiga qo'l ko'tarsa, uning qo'llari kesilganligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Qadimgi Babil shohi Xammurapi davrida qabul qilingan qonunlar bolalarga bo'lgan munosabatlarni birmuncha yumshatdi. Jumladan, bolalarni o'g'irlagan shaxslar o'limga mahkum qilingan va marosimsiz dafn qilingan, onaning homilasi tushishiga sabab bo'lgan kishilar onaga

<sup>3</sup> A child abuse – a historical perspective (for professionals). Public Health Foundation of Georgia (PHF). 2023. <https://phf.org.ge/en/resources/child-abuse-a-historical-perspective>.

jismoniy zo'rvonlik va bolaning qotili sifatida jazolangan<sup>4</sup>.

Bolalarga oid shu kabi qonunlar keyin ham mavjud bo'lgan: VII asrda Kenterberi arxiyepiskopi ota o'z o'g'lini yetti yoshga to'lgunicha qul sifatida sotishi mumkinligi haqida qaror chiqargan<sup>5</sup>, XI asrda Fransiyada onalar o'z qizlarini ayblarini tushunmagunlaricha kaltaklashlari mumkin bo'lgan, XIII asrda Angliyada bolani qon ketguncha kaltaklash javobgarlikka tortilmagan, Edvard I onalar va emizikli bolalar birga uxlashini taqiqlovchi qonunlar qabul qilgan. Bunga emizish vaqtida bo'g'ilib nobud bo'layotgan bolalar sonining keskin oshib ketgani sabab bo'lgan<sup>6</sup>.

XIV asrdan boshlab bolalarga bo'lgan munosabat o'zgara boshladi, ammo zo'rvonlik hamon keng tarqalgan edi. Bu davrda bolalarni hunarmandlarga shogird sifatida berish, arzon yoki tekin ishchi kuchi sifatida ishlatish keng avj oladi. Bola xizmat qilayotgan joyida muntazam jismoniy zo'rvonlikka duchor bo'lib yashagan<sup>7</sup>. Progressiv davr boshlanishi 1874-yilda Nyu-Yorklik Meri Ellen ismli bolaning oilada qattiq jismoniy zo'rvonlikka uchrashi bilan bog'liq bo'ldi. Bolalarni himoya qiluvchi qonunlar mavjud bo'lmagani uchun politsiya bolaga yordam ko'rsata olmagan va "Hayvonlarga nisbatan shafqatsizlikning oldini olish" jamiyati a'zolari uy hayvonlarini himoya qilish qonunlari asosida Meri Ellenni himoya qilib chiqishdi. Shundan so'ng ushbu tashkilotning nufuzli tashkilotchisi Genri Berg tomonidan 1875-yilda "Bolalarga nisbatan shafqatsizlikning oldini olish" jamiyati tuzildi va bu tashkilot dunyoda bolalarni zo'rvonlikdan himoya qiluvchi birinchi tashkilot sifatida e'tirof etiladi<sup>8</sup>. Post progressiv

<sup>4</sup> Немировская А.В. Система наказаний на древнем востоке. История вопроса // Вестник СПбГУ. Сер. 13. 2010, вып. 1. – С. 54.

<sup>5</sup> Child abuse – a history. "Encyclopedia.com" ochiq ensiklopediya portali. 15 november 2023. <https://www.encyclopedia.com/reference/encyclopedias-almanacs-transcripts-and-maps/child-abuse-history>

<sup>6</sup> Jerome Kroll, Bernard Bachrach. Child care and child abuse in Early Medieval Europe. Journal of the American Academy of Child Psychiatry. Volume 25, Issue 4, July 2006. – P. 562.

<sup>7</sup> McElvaney, R. & Lalor, K. (2014). Child abuse in Europe. In J. Conte (Ed.), *Child Abuse and Neglect Worldwide*, Vol. 2. <https://arrow.tudublin.ie/12>

<sup>8</sup> History of child abuse. April 5, 2020. <https://dh-wordpress.ramapo.edu/SSI-2020/childabuse/2020/04/05/history-of-child-abuse>

davrdan iqtisodiy inqiroz tufayli bolalarni himoyalash tashkilotlari moliyalashtirilmadi hamda ishsiz qolgan ko‘plab ota-onalarning uyda bolalar bilan birga bo‘lishi oilaviy zo‘ravonliklar sonining keskin oshib ketishiga olib keldi. Shuni keltirib o‘tish kerakki, 1960-yilda fransuz tibbiyot eksperti Ambroise Tardieu zo‘ravonlikka uchragan bolalar hodisasiga diqqatini qaratadi hamda zo‘ravonlik qurbonlari bo‘lgan 32 ta bolalardan 18 tasi vafot etganini bayon etadi. 1962-yilda bolalar psixiatri C.Genri Kempe tomonidan yozilgan hamda Amerika Tibbiyot Assotsiatsiyasi jurnalida nashr etilgan “Kaltaklangan bola sindromi” maqolasi<sup>9</sup> ota-onalarning so‘zlariga ko‘ra, “baxtsiz hodisa”dan shikastlangan bolalarni yangicha yondashuv asosida o‘rganish va ularni zo‘ravonlikdan himoya qilish faoliyatini takomillashtirish zaruratini ko‘rsatib berdi.

Sharqda esa qadim davrlardan bolaga “yaxshilik mevasi” sifatida qaralib, ular qadriyat darajasiga ko‘tariladi. Xususan, “Avesto”da farzand ko‘rish, unga uy qurish, daraxt ekish odatlari keltirilgan bo‘lib, ushbu qoidalar hamon davom etib kelmoqda. Zardushtiylik bolalarni kichikligidan mehnatga, ilmga o‘rgatishni rag‘batlantiradi, ularga g‘amxo‘rlik qilishga chaqiradi. “Avesto”ga ko‘ra bolalar qat’iy muhofaza qilinishi belgilangan bo‘lib, bu endi tug‘ilajak bolalarni ham nazarda tutadi<sup>10</sup>. XI asrda yozilgan yirik tarbiyaviy asar bo‘lmish “Qobusnoma”da o‘qituvchilar bolalarni kasb-hunarga o‘rgatish chog‘ida kaltak bilan urishi mumkinligini, ammo ota-onalar bolalarga qo‘l ko‘tarishi joiz emasligi bayon etiladi<sup>11</sup>. Shu kabi bola tarbiyasi va kamoloti haqidagi qarashlar Ibn Sino, Beruniy, Forobiy asarlarida, shuningdek, jadid ma‘rifatparvarlari ilmiy merosida ham keng yoritib beriladi. Bugungi kunda bolalarni zo‘ravonlikning har qanday shaklidan himoya qilish masalasi O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunida bayon etilgan<sup>12</sup>.


<sup>9</sup> Abdushohidova Z.S. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik. O‘zbekistonda zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar haqida. “Science and Education” Scientific Journal. May 2023 / Volume 4, Issue 5. p. 1029.

<sup>10</sup> Bola huquqlari. Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik/prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. – T.: TDYI. 2009. – B. 35.

<sup>11</sup> Islomda sog‘lom bola tarbiyasi / Mas‘ul muharrir: I.Usmonov. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2014. – B. 103.


<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi O‘RQ-139-son “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi // <https://lex.uz/acts/-1297315>

Kuch ishlatish orqali bolalarni tarbiyalashga ota-onalarning munosabatini o‘rganish uchun o‘tkazilgan “Oilada bolalarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlikning oldini olish choralari” mavzusidagi tadqiqotda 452 nafar ota-onalar ishtirok etishdi va ularning voyaga yetgungacha boshdan kechirgan tarbiyaviy jismoniy jazolari hamda uni bugungi kunda qanday baholashlari o‘rganildi.



**1-rasm. Ota-onalarga bolaligida kuch ishlatilgani bo‘yicha javoblari**

So‘rovnoma ishtirok etgan ota-onalarning 75 foizi kamdan kam holatlarda, 10,6 foizi tez-tez, 11,7 foiziga hech qachon ota-onalari tomonidan jismoniy kuch ishlatilmaganini bildirishgan. Shu bilan birga, 2,7 foizi javob berishi qiyinligini bayon etishgan.



**2-rasm. Ota-onalarning ularga bolalikdagi kuch ishlatilganini hozir qanday baholashlari bo‘yicha javoblari**

Ota-onalar bolalikda ularga kuch ishlatilganini tarbiyaviy omillarga bog‘laydilar hamda ularning 23,9 foizi buni adolatli deb hisoblashadi, 52,8 foizi esa boshqa tarbiyaviy ta‘sir choralaridan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lganini, 10,6 foizi esa ota-onasining ularga nisbatan kuch ishlatganini qoralashini bildirishgan. O‘zlari ota-onalik tajribasini boshdan kechirayotganligi hamda farzand tarbiyasida duch kelayotgan muammolarga qarab respondentlarning 12,7 foizi javob berishga qiyinligini bayon etishgan.

Ota-onalar ko‘rsatgan javoblarga ko‘ra, bolalarni tarbiyalashda kuch ishlatishdan

foydalanish ijobiy natija ko'rsatmaydi va bugungi to'g'ri tanlangan tarbiya usuli bolaning keyingi hayoti uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ota-onalar o'z farzandlariga kuch ishlatishiga boshqa omillar ham ta'sir etadi, ammo tarbiya fonida sodir etilayotgan zo'rvonlik eng ko'p tarqalgan holat bo'lib qolmoqda.

**Yakuniy qism.** Bolalarni kuch ishlatib tarbiyalash ularning ijtimoiylashuviga, iqtidorlarini

namoyon qilishiga to'sqinlik qiladi hamda ularda turli ijtimoiy fobiyalar shakllanishiga olib keladi. Oilada namoyon bo'lgan zo'rvonlik bolalar ulg'ayganidan so'ng ushbu "tarbiyaviy tajriba"ni o'z farzandlariga takrorlashlari zo'rvonlik holatining davom etib borishini ko'rsatadi. Shuningdek, zo'rvonlikni boshidan kechirgan bolalar bilan bir qatorda oilada zo'rvonlik guvohi bo'lgan bolalarda ham zo'rvonlik tajribasi shakllanib boradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi O'RQ-139-son "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasi // <https://lex.uz/acts/-1297315>
2. A child abuse – a historical perspective (for professionals). Public Health Foundation of Georgia (PHF). 2023. <https://phf.org.ge/en/resources/child-abuse-a-historical-perspective>.
3. Abdushohidova Z.S. Bolalarga nisbatan zo'rvonlik. O'zbekistonda zo'rvonlikni oldini olish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar haqida // "Science and Education" Scientific Journal. May 2023 / Volume 4, Issue 5.
4. Bola huquqlari. Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik/prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. – T.: TDYI, 2009.
5. Bosh prokuratura Voyaga yetmaganlarga nisbatan qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish masalalari bo'yicha katta prokurori Laylo Fayzimurodovanning "Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun loyihasi taqdimoti davomida so'zlagan nutqidan. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/12/violence-child/>
6. Child abuse – a history. "Encyclopedia.com" ochiq ensiklopedia portali. 15 november 2023. <https://www.encyclopedia.com/reference/encyclopedias-almanacs-transcripts-and-maps/child-abuse-history>
7. History of child abuse. April 5, 2020. <https://dh-wordpress.ramapo.edu/SSI-2020/childabuse/2020/04/05/history-of-child-abuse>
8. Islomda sog'lom bola tarbiyasi / Mas'ul muharrir: I.Usmonov. – Toshkent: "Movarounnahr", 2014.
9. Jerome Kroll, Bernard Bachrach. Child care and child abuse in Early Medieval Europe. Journal of the American Academy of Child Psychiatry. Volume 25, Issue 4, July 2006.
10. McElvaney, R. & Lalor, K. (2014). Child abuse in Europe. In J. Conte (Ed.), Child Abuse and Neglect Worldwide, Vol. 2. <https://arrow.tudublin.ie/12>.
11. Situation of children in Europe and Central Asia. Report of UNICEF. January 2023.
12. Немировская А.В. Система наказаний на древнем востоке. История вопроса // Вестник СПбГУ. Сер. 13. 2010, вып. 1.



**Tojibayeva Nazokatxon Kobiljonovna,**  
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti  
DSc doktoranti, dotsent

## JAMOADA ISHLASH KOMPETENSIYASI KOLLOBRATIV KOMPETENSIYANING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

**Annotatsiya.** Har bir soha va uning rivoji uchun unda faoliyat olib boruvchi xodimlardagi kasbiy kompetensiya muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan jamoada ishlash kompetensiyasi ham mustasno emas. Shu boisdan ham ushbu maqola orqali muallif jamoada ishlash kompetensiyasi kollektiv kompetensiyaning tarkibiy qismi ekani haqida o'z fikr-mulohazalari va tahlillarini bayon qiladi.

**Tayanch so'zlar:** jamoa, jamoada ishlash, kollektiv kompetensiya, jamoada ishlash kompetensiyasi.

**Аннотация.** Для развития каждой отрасли важна профессиональная компетентность работающих в ней сотрудников. Умение работать в команде не является исключением. По этой же причине автор статьи выражает свое мнение и анализ того, что компетентность в командной работе является важным компонентом совместной компетентности.

**Ключевые слова:** команда, командная работа, совместная компетентность, командная компетентность.

**Annotation.** For the development of each industry, the professional competence of its employees is important. The ability to work in a team is no exception. For the same reason, the author of the article expresses his opinion and analysis that teamwork competence is an important component of collaborative competence.

**Keywords:** team, teamwork, collaborative competence, teamwork competence.

**Kirish.** Bugungi zamonaviy jamiyatda ko'zlanadigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi nuqtayi nazaridan aytish mumkinki, davlat tashkilotlarida faoliyat yuritadigan har bir xodim uchun qo'yiladigan muhim talablardan biri bu – xodimlarning jamoaviy muhitda ishlashda ularda kollektiv kompetensiyaning rivojlanganligi. Chunki mutaxassis qo'shma kasbiy faoliyatning faol subyekt sifatida qaraladi. Buning sababi shundaki, ko'p bilim talab qiladigan texnik, texnologik va ijtimoiy muammolarni samarali hal qilish ularni professional jamoasining birgalikdagi faoliyatida ko'p qirrali ko'rib chiqishni, tahlilni talab qiladi.

An'anaviy ta'lim usullarida kamchiliklarning mavjud ekanligini yaxshi bilamiz. Shu sababli ham

amaliy jarayonlar uchun bo'lajak mutaxassislarning umumiy rivojlanishiga olib keladigan va ularni kelajakka tayyorlaydigan yangi o'qitish usullaridan ko'proq foydalanish lozim. Xuddi shunday yangiliklardan biri – ta'lim oluvchilarda yoki tashkilotlarda faoliyat yurituvchi xodimlarda kollektiv kompetensiyani rivojlantirish masalasidir.

Hamkorlikdagi ta'lim nima? Hamkorlikdagi ta'lim o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikdagi intellektual sa'y-harakatlarida hamkorlik qiladigan guruhlarni o'z ichiga oladi. Talabalar ko'pincha ikki yoki undan ortiq kishidan iborat guruhlarda ishlashadi, ya'ni tushunish, yechim topish yoki birgalikda nimadir yaratishga intilishadi. Jumladan,

hamkorlikdagi ta'lim ham alohida ta'lim usuli bo'lib, unda bir guruh talabalarning (ikki yoki undan ortiq) guruh loyihalari, topshiriqlar va hokazolarga birgalikda yechim topishlari, nimanidir o'rganishga harakat qilishlari hamda ushbu turdagi o'rganish natijasida talabalar boshqalarning ko'nikmalari va resurslaridan o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishlari ham kuzatiladi.

Birgalikda o'rganish konsepsiyasi talabalarga o'rganish uchun yodlash usullaridan foydalanish o'rniga guruh harakatlarini qo'yib, yangi ma'lumotlarni qayta ishlashda faol ishtirok etishga yordam beradi. Shunday qilib, talabalar o'zlarining yangi g'oyalarini himoya qilishlari va qayta ishlashlari, boshqalarning nuqtayi nazarini tushunishlari va individual ravishda ishlashga qaraganda mavzuni yaxshiroq tushunishlari jamoada ishlashning afzalliklaridan hisoblanadi.

Mazkur ta'kidlangan nazariy ma'lumotlarga asoslanib, jamoada ishlash kompetensiyasini kollobrativ kompetensiyaning tarkibiy qismi deyish mumkin va buni amaliy jarayonlarda, ya'ni sanalganlardan foydalanish haqida yoki davlat tashkilotida ishlaydigan xodim uchun manfaatli jihatlarni batafsil tushuntirishda ham o'rinli sanaladi.

**Maqsad va uni asoslash.** Hamkorlik – loyihani tugatish, umumiy g'oyani ishlab chiqish yoki topshiriqni bajarish kabi narsalarni ishlab chiqarish uchun turli ko'nikmalarga ega bo'lgan bir yoki bir nechta odamlar bilan ishlash harakati. Oila va xotin-qizlar tizimi faoliyatida hamkorlik deganda, maqsadni amalga oshirish yoki natijalarni ishlab chiqarish uchun umumiy maqsadda birgalikda ishlaydigan turli xil tajribaga ega hamkasblar tushuniladi. Ish joyidagi hamkorlik – samaradorlikni oshirish, muammolarni hal qilish, sog'lom munosabatlarni rivojlantirish va jamoaviy ish yaratishga yordam beradigan o'rganilgan ko'nikmalar to'plami. Xuddi shundan kelib chiqib, quyida jamoada ishlash kompetensiyasi kollobrativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak kadrlarni kasbiy hayotga tayyorlash jarayonida ularda jamoaviy ishlash ko'nikmasini shakllantirish uchun foydali bo'lgan kasbiy hamda kollobrativ kompetensiyani rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan tadqiqot ishlari olimlar nazaridan chetda qolmagan. V.A. Adolf, A.A. Derkach, E.F. Zeer, V.V. Ignatova,

A.K. Markova, J.I. M.Mitina, S.I. Osipova, V.A. Slastenin, A.J. Tryapitsina, A.B. Xutorskiy<sup>1</sup> va boshqa olimlar bu borada o'z tadqiqotlarini olib borganlarini bir necha manbalar asosida isbot qilgan.

O'rta tashlangan muammo yuzasidan olib borilgan o'rganishlar va to'plangan bir necha psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili natijalariga asoslanib shuni aytish mumkinki, mutaxassislarining jamoada ishlash kompetensiyasini rivojlantirish muammosini hal qilish uchun ularga dastavval ilmiy shart-sharoitlar yaratish lozim. Xususan, o'zaro ta'sirning turli jihatlari, uning ijtimoiy hayotdagi o'rni va roliga sotsiolog va psixologlarning ilmiy ishlarida ham alohida e'tibor berilgani bunga yaqqol isbotdir. Jumladan, A.A. Bodalev, V.P. Zinchenko, I.I. Ilyasov, V.Y. Lyaudis, T.O. Parsons, P.A. Sorokin, V.D. Shadrikov, R.X. Shakurov va boshqa olimlarning asarlarida bularning barchasi ko'rsatilgan<sup>2</sup>.

V.A. Kan-Kalik, G.A. Kitaigorodskaya, I.B. Kotova, N.G. Miloradova, E.S. Po'lat, A.B. Petrovskiy, E.H. Shiyanov, N.I. Shevandin va boshqa olimlar hamkorlik va o'zaro javobgarlikka asoslangan birgalikdagi faoliyat sharoitida amalga oshiriladigan o'quvchilarning subyekt-subyekt o'zaro ta'sirini ko'rib chiqqanlar. Qo'shma o'quv faoliyatining samaradorligi va individual imkoniyatlar doirasini kengaytirish V.A. Adolf va L.I. Umanskiylar tomonidan o'rganilgan. Birgalikdagi faoliyat muammosi turli darajalarining o'zaro ta'siri orqali ko'rib chiqishni esa R.L. Krichevskiyning ishlarida ko'rish mumkin. Bulardan tashqari, guruhdagi o'zaro ta'sir yo'nalishini birgalikdagi faoliyat subyekting xususiyatlari belgilaydi, degan fikrning ilgari surilganini A.I. Dontsovnig izlanishlarida kuzatish mumkin. Shuningdek, olim obyektivlikni birgalikdagi faoliyatning asosi deb hisoblaydi. A. Juravlyov birgalikdagi faoliyatni uning tarkibiy qismlari va individual xususiyatlarini asos qilib oladi<sup>3</sup>.


<sup>1</sup> Александрова Е.А. Педагогические команды как средство активизации инновационной деятельности образовательных учреждений: автореф. дис. ...канд. пед. наук: 13.00.08. – Москва, 2007. – 24 с.

<sup>2</sup> Андреев А.Л. Компетентностная парадигма в образовании: опыт философско-методологического анализа // Педагогика. – 2005. – № 4. – С. 19-27.

<sup>3</sup> Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентного подхода в образовании // Интернет-журнал «Эйдос». 10 сентября 2005 года.

### Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Olimlarning izlanishlari va tadqiqotlarini o'rganish hamda tahlil qilish natijasida kollektiv o'rganishning samarasi qaysi holatlarda natijakor bo'lishi mumkinligi prognoz qilinib, bu 1-rasmda o'z aksini topgan. Mazkur rasmda qayd etilgan bo'limlar asosida hamkorlikda o'rganish ishlarini olib borish jamoada ishlash kompetensiyasini ham, kollektiv kompetensiyani ham xodimlarda aks ettirishda yuqori samara berishi mumkin.



**1-rasm. Hamkorlikda o'rganish va hamkorlikda o'rganishni samarali tashkil qilish uchun bo'limlar**

Hamkorlikda o'rganishni tashkil qilish uchun rasmda ko'rsatilgan<sup>4</sup> bo'limlarni izchillikda tatbiq qilish o'rganuvchilar uchun bir qator qulayliklar yaratadi. Chunki qilinadigan ishlar va xatti-harakatlar muayyan tartib bilan amalga oshirilgan ekan, albatta, bunda natija bo'lmasligi mumkin emas.

Bundan kelib chiqib, jamoa, jamoaviy faoliyat va jamoada ishlash kompetensiyasi bilan bir qatorda kollektiv kompetensiya birligi haqidagi fikr-mulohazalarning uyg'unlashiga sabab bo'ldi.

Bu fikr-mulohazalarni quyidagicha taqdim qilish lozim deb topildi:

Jamoa jamoaviy faoliyat subyekti va bozor iqtisodiyoti hodisasi bo'lib, uning mohiyati jamoa maqsadlari, qadriyatlarini, xatti-harakatlari va munosabatlarini taqdim etadigan yagona bir butun sifatida harakat qilish qobiliyatidir. Shuningdek, jamoaning o'z-o'zini aks ettirish va o'zini o'zi bilish qobiliyati ham mavjud bo'lib, buning natijasida jamoa bilan bog'liqlik, u bilan birlik – “biz” obrazi shakllanadi. Jamoaviy ish birgalikdagi faoliyatni tashkil etish shakli sifatida jamoa qadriyatlarini, maqsadlari va o'zaro mas'uliyatini birlashtiradigan jamoa a'zolarining yuqori professionalligi asosida

o'zaro bog'liqlik va qo'shma faoliyatning yuqori samaradorligiga erishish istagi bilan ifodalanadi.

Jamoaviy ish tushunchasiga yana ham chuqurroq kirib borsak, bunda jamoaviy ish – umumiy maqsadga erishish uchun bir yoki bir nechta odamlar bilan yaxshi ishlashning fazilatlarini, qobiliyatlarini va jarayonlarini, degan fikrni berish ham o'rinli bo'ladi. Ish joyidagi jamoaviy ish esa guruhning birgalikda samarali ishlash, yaxshi muloqot qilish, rollar va yetakchilikni aniqlash, resurslarni almashish va bir-birlarini faol tinglash qobiliyati demakdir. Jumladan, jamoaviy ish bu ish joyidagi ma'naviyatni oshirish, o'zaro munosabatlarni o'rnatish, mahsulot sifati va miqdorini oshirish, saqlash darajasini yaxshilashga yordam beradigan o'rganilgan ko'nikmalar to'plami hamdir.

Shaxslararo muloqot ham jamoaviy ishlashning juda maqbul yo'nalishidir. Amaliy jarayonlar va pedagogik shartlarni amalga oshirishda shaxslararo muloqot va o'zaro ta'sir qilish qobiliyatini rivojlantirish jamoa uchun muhim bo'lgan fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Demak, jamoa uchun muhim bo'lgan fazilatlar shakllantirilishidan keyin jamoada ishlash kompetensiyasiga chuqur urg'u berish o'rinli bo'ladi.

Jamoa ishlash kompetensiyasi – kasbiy faoliyat subyekti integral va dinamik faoliyatga asoslangan xususiyat bo'lib, u jamoaviy ishning ahamiyati va qiymatini tushunish, muloqot va sheriklik sharoitida muammolarni hal qilishda faol samarali faoliyatga qobiliyat va tayyorlikni aks ettiradi. Jamoa faoliyatining qiymati, ahamiyati va usullari to'g'risida olingan nazariy va empirik bilimlarga asoslangan bo'lib, boshqa ijrochilar bilan o'zaro munosabat ham bunda mavjuddir.

Ma'lumki, pedagogik shartlar ko'pgina amaliy jarayonlarda o'z qiymatiga ega. Aynan uning qiymatini jamoada ishlash masalasida ham ko'rish mumkin. Ya'ni pedagogik shartlarni izchil amalga oshirish jamoada ishlash haqidagi ta'lim mazmunini o'rganuvchilarda jamoada ishlashning ahamiyati, mohiyati va usullari to'g'risidagi nazariy va empirik bilimlar tizimini rivojlantirishga qaratilgan fanlararo o'quv moduli bilan boyitishdan boshlab, jamoaviy faoliyatda dastlabki tajribani egallashgacha. Bundan tashqari, ularni loyiha faoliyatiga jalb qilish va loyiha muammolarini hal qilishda jamoaviy faoliyatning qadriyatlarini va usullarini

<sup>4</sup> <https://educationendowmentfoundation.org.uk>



birlashtirishni ta'minlash o'rganuvchilarning jamoaviy ish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Bu ta'kidlanganlarning hammasini davlat tashkilotlarida faoliyat olib boruvchilar yoki aynan oila va xotin-qizlar tizimida ishlaydigan xodimlarning jamoaviy ishlash jarayoniga bog'lash ham mumkin. Masalan, muammoli vaziyatlarda ushbu pedagogik shartlar va ularning ifodalanishiga quyidagicha nazar tashlaymiz:

Xodimlarning jamoaviy o'zaro munosabatlari kompetensiyalarini shakllantirishda muammoli vaziyatlarning pedagogik vazifasi yangi tashkil etilgan xodimlar jamoasida ishlab chiqarish muammolarini birgalikda hal qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va shaxsiy tajribaning amaliy jarayonda maqsadli, motivatsiyali to'planishini ta'minlashdan iborat.

Xodimlarning jamoaviy o'zaro ta'sir ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik vositasi sifatida muammoli vaziyatlarning xususiyatlari quyidagilar bilan tavsiflanadi: fotomateriallar, soha yangiliklari, ishlab chiqarish amaliyoti voqealari, ommaviy axborot vositalari va internet ma'lumotlari bilan tasdiqlangan ularning realligi; xodimlarning jamoaviy o'zaro hamkorligida zarur bo'lgan ijtimoiy va professional aloqaning minimal yetarli lug'atlari, qisqartmalar, maxsus belgilar va ularning chet tilidagi versiyalari bilan birgalikda muammoli vaziyatlarni taqdim etishi; ularning mazmunini tanlash va loyihalash hamda tashkilotdagi ish beruvchilarning o'zaro hamkorligida amalga oshiriladi.

Demak, aytish mumkinki, xodimlarning jamoaviy o'zaro hamkorlik kompetensiyalarini muammoli vaziyatlarga asoslangan holda shakllantirish ham samaralidir. Aynan bundan shakllantirishning tarkibiy-funksional modelining ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki muayyan modelga asoslangan holda oila va xotin-qizlar tizimida faoliyat ko'rsatadigan xodimlarda kollobrativ kompetensiyani rivojlantirish asosiy maqsad sifatida qaralganda ularda, eng avvalo, jamoaviy ishlash kompetensiyasini shakllantirish masalasiga urg'u berilishi lozim. Chunki amaliy jarayonlardagi holatlarda rol o'ynaydigan jamoada ishlash kompetensiyasi kollobrativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Yana shuni aytish kerakki, jamoaviy ishda hamkorlikning ham ahamiyati yuqori. Aynan shunda

hamkorlik jamoaviy ishlashning mahsuldorligini orttiradi. Shu boisdan ham hamkorlikdagi jamoaviy ish va uning mazmuniga e'tibor berildi.

Hamkorlikdagi jamoaviy ish nima? Hamkorlik va jamoaviy ishni birlashtirish natijasida uning a'zolari uchun alohida mahorat to'plamlariga hamda samarali hamkorlik qilish qobiliyatiga ega jamoaga ega bo'lish nazarda tutilishi mumkin.

Ham individual, ham birlashgan guruh mavjudligini yaxshi bilamiz. Har bir inson o'z roli, mahorati va tajribasidan qanday foydalanishni biladi, shu bilan birga, maqsadga erishish uchun butun guruh bilan birdek ishlaydi. Shu sababli ham, hamkorlikdagi jamoaviy ish guruhni tajriba va muammolarni birgalikda hal qilishga jalb qiladi va shu bilan birga, avtonomiya uchun individual vazifalar va rollarni tayinlaydi. Guruh ishining bu turi guruh a'zolarining samaradorlikka erishishi uchun qanday va qachon harakat qilishlarini ataylab muvofiqlashtirish demakdir.

Bilamizki, har bir ish turining o'z afzalligi va kamchiligi mavjud bo'ladi. Jamoada ishlash va hamkorlikning ham afzalliklari borligini ta'kiddash lozim.

Jamoada ishlash va hamkorlikning ish joyida jamoaviy ish va hamkorlikni rivojlantirishning ko'plab afzalliklari bor. Bu afzalliklarni quyidagi holatlarda ifodalash mumkin:

- jamoaviy ishlash va hamkorlik hosildorlik hamda samaradorlikni oshiradi: Hamkorlik odamlarga, butun jamoaga foyda keltirishi uchun o'zlari qilayotgan eng yaxshi narsaga e'tibor qaratish imkonini beradi. Har bir insonning o'ziga xos kuchli tomonlari va mutaxassisliklari bor. Xuddi shu kuchli jihatlarni ular ishlash uchun kelgan jamoaga olib keladilar va bu bilan samaradorlik hamda natijakorlikni yaratadilar;

- jamoaviy ishlash va hamkorlik ijtimoiy ko'nikmalar va muloqotni yaxshilaydi: jamoadagi shaxslar tengdoshlari bilan maqbul munosabatda bo'lishni o'rganish, qaror qabul qilish ko'nikmalarini yaxshilash, natijalar va strategiyalarini taqdim etish, o'z bilimlarini baham ko'rish va rivojlantirish orqali ijtimoiy ko'nikmalar va muloqotni rivojlantiradilar;

- jamoaviy hamkorlikda ishlash o'rganish imkonini beradi va tabiiyki, shaxslar hamkorlikda, jamoaviy ishda qatnashganda, ayniqsa, xatolardan o'rganishni rag'batlantiradigan xavfsiz muhit, do'stona raqobat, brifing sessiyalari va ochiq

suhbatlar mavjud bo'lganda o'rganish yuzaga keladi. Shu sababli ham jamoaviy izlashning va undagi hamkorlikning o'rganishga foydasi katta deyish mumkin. Chunki jamoaning maqsadi bir bo'lar ekan, unda ochiqlik hukmron bo'ladi. Bu esa guruh a'zolarining o'zaro o'rganish istaklarini oshiradi.

**Yakuniy qism.** Ishbilarmonlik muhitining dinamikasini hisobga olgan holda, ko'p tarmoqli kontekstda zamonaviy jamiyatda innovatsiyalarni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish oldida, turli tashkilotlarda, xususan, oila va votin-qizlar tizimida jamoada ishlash malakasiga o'rgatish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, jamoaviy ish va hamkorlik sog'lom mehnat madaniyati va muhitini rivojlantirishi mumkin. Bunda shaxslar guruhlari kuchli ko'nikmalar va samarali mehnat orqali maqsadlarga erishishi nazarda tutiladi. Hamkorlikdagi jamoaviy ish xodimlarni rag'batlantirishi, ishdan qoniqishni oshirishi, muammolarni hal qilish uchun yechimlarni topishi va mukammal ko'nikmalarni rivojlantirishi mumkin.

“Jamo, jamoada ishlash, hamkorlik tushunchalarining ilmiy mazmunidan kelib

chiqqan holda, biror tashkilot ichida jamoaviy ish va hamkorlik masalasini yaxshilash uchun qanday yo'l tutish kerak?” degan savol tug'ilishi tabiiy. Buning uchun ko'plab strategiyalarni taklif qilish mumkin. Ya'ni hamkorlikdagi jamoaviy ishlarni amalga oshirishning ba'zi usullarini quyidagicha havola qilamiz:

Yetakchilikni o'rnatish. Ushbu jarayonda yetakchilik jamoaviy ish uchun omillarni maqsadli ravishda ko'rib chiqadi va amalga oshiradi. Shuning uchun ham hamkorlikda yetakchilik oson ish muhitini yaratadi deyish mumkin.

O'zgarishlarni ijobiy qadamga aylantirish. Jamoada sodir bo'ladigan o'zgarishlarni ijobiy qabul qilishni o'rganish va noma'lum qo'rquvdan xalos bo'lish deganda muvaffaqiyatsizliklar va tanqidni ijobiy munosabat bilan qabul qilishni o'rganishni tushunish kerak.

Ochiq muloqot orqali guruhdagi muammolarni hal qilish uslubini yaratish. Muammolarni samarali hal qilish strategiyalarini rag'batlantirish orqali jamoani birlashtirishga erishish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Александрова Е.А. Педагогические команды как средство активизации инновационной деятельности образовательных учреждений: автореф. дис. ...канд. пед. наук: 13.00.08. – Москва, 2007. – 24 с.
2. Андреев А.Л. Компетентностная парадигма в образовании: опыт философско-методологического анализа // Педагогика. – № 4, 2005.
3. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании // Интернет-журнал «Эйдос». 10 сентября 2005 года.
4. <https://educationendowmentfoundation.org.uk>
5. <https://www.dissercat.com>
6. [https://vt.me/jalilova\\_dilshoda\\_2292](https://vt.me/jalilova_dilshoda_2292)
7. [https://t.me/ilmiy\\_yordam\\_beraman](https://t.me/ilmiy_yordam_beraman)
8. <https://daryo.uz/2023/10/09>



**Bayjonov Furqat Baxramovich,**

*Alfraganus universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida dotsenti v.b.,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GENDER TENGLIK MASALASI VA OILADA GENDER MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yurtimizda gender tenglik masalasi va oilada gender madaniyatni shakllantirish hamda oilada gender madaniyatni shakllantirishning zamonaviy usullarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi omillar tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** gender, gender madaniyat, gender tenglik, xotin-qizlar, gender jihatlar, davlat va jamiyat.

**Аннотация.** В статье анализируется вопрос гендерного равенства в нашей стране, формирования гендерной культуры в семье, а также факторы, которые служат реализации современных методов формирования гендерной культуры в семье.

**Ключевые слова:** гендер, гендерная культура, гендерное равенство, женщины, гендерные аспекты, государство и общество.

**Annotation.** The article analyzes the issue of gender equality in our country, the formation of gender culture in the family, as well as the factors that serve the implementation of modern methods of forming gender culture in the family.

**Keywords:** gender, gender culture, gender equality, women, gender aspects, state and society.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasida ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish, ularning insoniy huquqlarini ta'minlash, sha'ni, qadr-qimmatini saqlash borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar esa xotin-qizlarning bu boradagi sa'y-harakatlarni kengaytirish, jamiyatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Davlat gender siyosati – mamlakatimizda har ikki jins vakilining ijtimoiy-madaniy, siyosiy-iqtisodiy hamda shaxsiy tengligini kafolatlash, ularning hayot tarzini yaxshilash yo'lida ko'plab qonun, farmon va qarorlar qabul qilingan, jumladan,

“O'zbekiston Respublikasining 2019-yilning 2-sentabrida qabul qilingan “Xotin-qizlarni zaryiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi” O'RQ-561-son,<sup>1</sup> “O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi” O'RQ-562-son<sup>2</sup> hamda “O'zbekiston Respublikasining “2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlarni zaryiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi 561-sonli Qonuni // <https://lex.uz/uz/docs/-6430272>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi 562-sonli Qonuni // <https://lex.uz/uz/docs/-6430272>.

tadbirlari to'g'risida"gi" O'RQ-841-son Qonunlari. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyuldagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi" PF-6012-son Farmoni<sup>3</sup>. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining Milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi" PQ-4796-son qarori.

**Maqsad va uni asoslash.** Mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashni davom ettirishdagi asosiy mavjud tahdidlar hamda istiqboldagi masalalar haqida so'z borganda ishtirokchilar statistik ma'lumotlar keltirdilar. Bu ma'lumotlar O'zbekiston hukumatining taraqqiyot maqsadlariga erishishga sodiqligidan darak beradi. Jumladan, 2016-yilgi BMT ma'ruzasida Inson kamoloti indeksi bo'yicha O'zbekiston 185 ta mamlakat orasidan 105-o'rinni egalladi, bu esa mamlakatimiz inson kamoloti yuksak darajada bo'lgan mamlakatlar qatoridan joy olganini anglatadi.

"Gender tenglik indeksi bo'yicha esa O'zbekiston 188 ta mamlakat orasida 57-o'rinni egallagan. Bu ko'rsatkich xotin-qizlar ta'lim olishi va iqtisodiy faolligi yuqori darajada ekanligi bilan izohlanadi. Amalga oshirilayotgan ishlar natijasida O'zbekiston ta'lim va sog'liqni saqlashda gender tenglikka yaqinlashmoqda. Jumladan, me'yoriy-huquqiy hujjatlarda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish choralari belgilab berilgan"<sup>4</sup>.

Gender muammosi N.Egamberdiyeva, A.Musurmonova, O.Jamoldinova, K.Risqulova, M.Mirsoliyeva, X.Tojibayeva, G.O'rozaliyeva va boshqa olimlarning tadqiqot obyektiga aylandi. Mazkur nomlari keltirilgan olimlarning asarlarida go'zal jins vakillarining jamiyatda tutgan o'rni, ularga davlat siyosati tomonidan berilayotgan imtiyozlar hamda farzandlar tarbiyasiga oid masalalar haqidagi bahs-munozaralar, aniq taklif va yechimlarga guvoh bo'lamiz.

Jumladan, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash muammolari, ishlab chiqarish hamda oilaviy va uy ishlarini birlashtirish o'rganib chiqildi. Oilada

tarbiya ishlarini olib borish, ular tomonidan olinayotgan ta'lim sifati, andozalar va milliy an'analarning gender holati tekshirildi.

Yuqorida nomlari sanalgan olimlarimizning O'zbekistonda gender tadqiqotlariga qo'shgan hissasini yuqori baholagan holda, shunga alohida ahamiyat qaratish kerakki, ta'limning gender jihatlari, o'zbek an'anaviy va zamonaviy madaniyat voqeligi va jarayonlarini tahlil qilish, ayniqsa, yoshlarning gender madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish muammolari hanuzgacha yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Yurtimizdagi gender masalalarni tahlil qilganimizda milliy gender izlanishlarini yaratish va jamiyatni demokratlashtirish yo'lidagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni yechish hozirgi kuning dolzab masalalardan biridir.

Bugungi tez rivojlanayotgan zamonda jinslararo tenglikka erishish umumiy kelishuv va gender tengligi siyosati muammosiga duch kelmoqda. Gender tengligi jamiyatning moddiy o'sishi, aholi farovonligi ortishi va hukumat boshqaruvi samaradorligining ta'sirchan kuchiga aylanmoqda. Boz ustiga, gender tengligi va "gender tengligiga erishish" programmasini yuqori ko'rsatkichda amalga oshirish taraqqiyot strategiyasining yetakchi kuchidir, u jamiki insonlarga – xoh ayol, xoh erkak – kambag'allikdan xalos bo'lish va ularning hayot tarzini farovonlashtirishga yo'l ochib beradi.

#### **Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.**

O'tgan asrlardan buyon namunali o'qitish xuddi shu o'sish va taraqqiyot sari kuchli sur'at va ilg'or harakat ortidan inson salohiyatini o'zining ochiq va yashirin qobiliyatlarini amalga oshirish doirasida yuzaga chiqarishning bosh vazifasiga daxldor edi. Xususan, o'qitish tizimi va insonning aqliy saviyasi ta'lim berish paytida o'g'il va qizlar o'rtasidagi gender notenglikning oldini olishi mumkin.

Tajribalardan ma'lum bo'ladiki, oila va ta'lim muassasalarida gender tengsizligining yashirin ko'rinishlari hozirgacha ustun bo'lib turibdi, bu esa ma'lum darajada ayol va erkaklardan birining afzalliklarini shakllantiradi hamda ta'lim olish darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlarni tahlil qilgan holda gender madaniyatiga quyidagicha ta'rif berdik:

1. Zamonaviy gender madaniyati – aralash patriarxat, shaklan patriarxal va mazmunan qorishiq.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyuldagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4872355>

<sup>4</sup> <https://uzreport.news/society/>

2. Bir jinsning ikkinchisiga nisbatan qat'iy va mutlaq hukmronligi asosida qurilgan har qanday turdagi gender madaniyatiga, sof shaklda, barqarorlik va uyg'un ijtimoiy jarayonlarga foydasi tegmaydigan gender mojarosi mavjud.

3. Zamonaviy madaniyatning tasnifi madaniyatni patriarxal, matriarxat va biarxiyaga ajratadigan kuch munosabatlarini nazarda tutadi.

Bizning sharqona dunyoqarash hukm surgan muhitda qizlar o'zlarining kuchli jihatlari, huquqlari, iqtidorlari va imkoniyatlariga chinakam erkinlik va ishonchni ko'rishadi. O'g'il va qizlar alohida xislatlarga, shaxsiy va kasbiy fazilatlarida barobarlikni, o'z ustida doimiy ishlashni, o'z ichki olamiga nazar solish va boshqa malakalarni egallashga harakat etadilar.

Shuningdek, ta'lim talabalar bilan pedagogik hamkorlikda gender tarkibidan foydalanishga qodir. Muhimi shundaki, o'g'il-qizlar ta'limi, ular tomonidan fanlarning o'zlashtirilishi hamda faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llashi, jamiyatda munosib o'rin topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi gender strategiyasi va gender mafkurasiga alohida e'tibor qaratiladi<sup>5</sup>.

Tarbiya berish davomida o'quvchilarning xatti-harakatlariga nisbatan gender xarakteridagi ta'limiy xatolarga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu ularning rivojlanish shartlari va sabablarini atayin e'tiborsiz qoldirib, biologik jinsiy farqlashga og'ib ketdirdi. Bu, ayniqsa, qizlarning oldindan belgilangan ijtimoiy roli, zaifalik, imkoniyatlariga cheklangan va yetarli bo'lmagan darajada obyektiv qarashidir.

Gender barobarlikning chinakam ruhiy mazmunini ham, albatta, ko'zda tutish lozim. Insoniy fazilatlarini sun'iylik bilan erkak va ayollarga ajratish gender qarama-qarshiliklarining tug'ilishiga ko'maklashadi, har ikki jinsga ham tagi bo'sh cheklovlar qo'yilishiga olib keladi. Ammo biz tabiatan erkak/ayollarga xos fazilatlarini va odamning ma'lum bir jinsga oidligi holatini aniq baholaymiz.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, gender andozalarini o'zlashtirish bosqichlarini har bir yuqori sinf o'quvchisi tomonidan o'zini anglashi, o'ziga xosligini namoyon qila olishi va rivojlanishi

<sup>5</sup> Namazov B., Egamberdiyeva N., Mirsoliyeva M. O'qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv masalalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2018.

uchun ta'lim maydonini kengaytirish hamda ularni erkak va ayollar o'rtasidagi teng munosabatlar ruhida tarbiyalashdan iborat.

Bundan tashqari, bu vaziyatda, birinchi navbatda, yuqori sinf o'quvchilarini gender o'rtoqlarining foydalari va shaxsiy fazilatlariga moslashuvchanlikka jalb qilish nuqtayi nazaridan ta'limdagi gender yondashuvining asosiy strategik yo'nalishlarini belgilash yetakchi ahamiyatga molik. Jinsiy farqlar vakillari komil xulq-atvor va aqliy iqtidorga ega ikki o'zaro bog'liq jinsiy subyekt o'laroq ulg'ayib, birlashganda ruhiy androginiya iqlimini vujudga keltirishi dolzarb va o'rinlidir.

Androginiya aslan shaxsning ruhiy komilligining va fazilatlarining dalilidir, uni chuqur o'ylovchi, tezkor qaror qabul qiluvchi va mulohaza egasi singari yaxshi xislatlarga ega odam sifatida tavsiflaydi.

O'zbekona milliy mentalitet qat'iylashgan iqlimda androgin xususiyatli umumiy o'rta ta'lim maktabining yuqori sinf o'quvchilari o'zini qadrlash tuyg'usiga ega bo'lgan shaxslardir, ular xatti-harakatlari gender-rol stereotipiga ko'ra juda qattiq bo'lgan toifalarga qaraganda jozibali va moslashtirilgan yo'nalishdagi shaxs sifatida hokimiyatdan bahramand bo'lishadi. Nima bo'lmasin, balog'at yoshidagi bolalar orasida o'z qadr-qimmatini yuksak saviyaga ega, ular ijobiy his-tuyg'ular sohibi va boshqalarni ijobiy baholaydilar<sup>6</sup>.

Bizning fikrimizcha, "oilada va maktabda o'quvchilarning gender madaniyatini shakllantirish modeli bo'lib, unda yetakchi faoliyat vektori androgin xususiyatlarini majburlash va ta'lim jarayonida qat'iy gender-rol stereotiplarini yumshatishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Maktab o'quvchilarining jinsiy-rol faoliyati bir yoki boshqa jinsga xos bo'lishi uchun modellashtirilishi kerak.

Tadqiqotni olib borish vaqtida biz gender siyosatining an'anaviy va ramziy xususiyatlari, ya'ni gender bag'rikenglik, gender ta'sirchanlik va shu kabilarga diqqat qildik:

– o'quvchilarning milliy madaniyati, genderni nisbatan bag'rikengligi yanada aniqroq bo'lib chiqdi. Umuminsoniy va insonparvar qadriyatlar asosida

<sup>6</sup> Jamoldinova O., Mirsoliyeva M., Risqulova K. Pedagogik ta'limda gender yondashuvi masalalari // Maktabgacha ta'limda davlat va nodavlat sektorni rivojlantirish: yangi shakllar va ta'lim mazmuni mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. – Toshkent, 2020. – B. 99–101.

gender darajasida gender tushunchasi va hamkorlik mavjud edi. Jinsiy sheriklarning huquqlarini hurmat qilish kabi xususiyatlarning yuzaga chiqishi ularning his-tuyg‘u va hissiyotlariga daxl qilmasdan, gender o‘ziga xosligi nuqtayi nazaridan har ikki jinsga nisbatan hurmatni uyg‘otdi:

– ustozning jinslararo konstruktiv va xayrixoh munosabatlar o‘rnatishi, o‘zaro anglash ruhida xotirjamlik, namunali xulq-atvor va hurmatni o‘rnatish bilan bog‘liq dasturiy yo‘nalishi<sup>7</sup>.

Ko‘plab davlatlarda madaniyat va an‘anaviy urf-odatlar rivojining tamali o‘laroq, oila erkak va ayollar o‘rtasidagi aloqalarni hosil qiluvchi yetakchi tizim va quvvatdir. Oilaning gender rollari jami hal qiluvchi tuzilmalarda va sotsial turmushda o‘z aksini topadi. Madaniy me‘yorlar aksar oilada xotin-qizlar masalalarini (beshafqatlik, kaltaklanish) yakka tartibda emas, balki jamoatchilikda hal qilish mumkinligini aniqlaydi. Ayollarning huquqlari ortgani sayin avvallari ichki oila siri deb sanaladigan qator muammolar umumjamiyatning ham og‘riqli dardi sifatida qaralmoqda.

Oilada farzandlarimizga tarbiya berishda gender alohida e‘tiborga loyiq, chunki oiladagi tajovuzkorlikning bir avloddan ikkinchi avlodga uzluksiz o‘tishining xarakterli tomoni xilma-xil jinsdagi bolalarni tarbiyalashning jinsi bilan ajralib turuvchi yo‘nalishidir. O‘g‘il va qiz bolalar har xil rollarda, qadriyatlarda, obrazlarda va xulq-atvorda turlicha bo‘lgani tufayli har xil ko‘rinishda tarbiyalanadilar<sup>8</sup>.

Zotan, qizlar bolalikdan ovqat pishirish, hamma narsani pokiza tutish, uy xo‘jaligini yuritish kabilarga, oilaviy hayotga tayyorlanadilar.

“Gender tenglikni ta‘minlashda qonuniylik, demokratiya, ochiqlik va shaffoflik, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, o‘zaro bir-birini tushunish tamoyillari” muhim rol o‘ynaydi. Irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat‘iy nazar, xotin-

qizlar va erkaklarning tengligini ta‘minlash mazkur tamoyillarning mohiyatini tashkil etadi.

Davlat va jamiyatda ayol va erkaklarning o‘z salohiyat va imkoniyatlarini namoyon etishlarida bir xil shart-sharoit va imkoniyatlar yaratib berish gender tenglikni ta‘minlashda muhim poydevor hisoblanadi.

**Yakuniy qism.** Kuzatishlarimizdan xulosa qilinadigan bo‘lsa, aholini o‘qitish bilan shug‘ullanuvchi qatlamlarda gender notengligining maxfiy ko‘rinishlari haligacha ustunlik qilmoqda, bu esa ma‘lum darajada o‘g‘il va qizlarning o‘qish jarayonida ta‘limni qay jins vakili tomonidan olgani, qay birini afzal ko‘rilishi shakllantirilib, ularning o‘quv faoliyatiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Bizningcha, zamonaviy pedagogik hamkorlik sharoitida ancha uzoq yillardan buyon saqlanib kelayotgan gender qoliplarini buzish fursati yetdi. Zero, talabalarning ijtimoiy mavqe va maqomini aniqlash uchun ularning jinsi emas, balki serharakatligi, tezkorligi, iqtidori, ijodkorligi, kengfikrliligi, mulohazakorligi, tavakkalchiligi, alohida va umumga xos xislatlari tamal vazifasini bajarishi lozim.

Oilada va ta‘lim muassasalarida gender madaniyatni takomillashtirish, harakatlarning yetakchi chizig‘i androgin xususiyatlarini majburlash va o‘qitish davrida o‘zgarmas gender-rol andozalarini yengillatishga yo‘naltirilgan modelni ko‘zda tutadi. Ta‘lim muassasalari o‘quvchilarining jinsiy roli faoliyati bir yoki boshqa jinsga xos bo‘lishi uchun modellashirilishi kerak.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, shuni aytish joizki, balog‘at yoshidagi o‘g‘il va qizlarni kelajakdagi turmushga tayyorlab, oilaviy hayotni boshlash davri yaqinlashganda, har ikki jins vakili mashaqqatlar bilan yuzlashadi, buning oqibatida genderni anglatuvchi vakolatli pedagoglar soni ortadi. Va nihoyat, ta‘lim muassasasi o‘quvchisi shaxsiyatining muvaffaqiyatli rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan qoliplarni bartaraf etish hamda shaxsiy qiziqishlari va ijtimoiy ehtiyojlari asosida uning xulq-atvorining sotsial maqbul modellarini shakllantirishni qamragan gender yondashuvidan foydalanish zarurati tug‘iladi.

<sup>7</sup> Bayjonov F.B. Characteristics of the concept of gender culture as a social event // Modern scientific trends and standards Santa Rosa, Argentina 11-12.10.2021.

<sup>8</sup> Тожибоева Х.М. “Гендер ёндашув асосида ўсмир ёшдаги ўқувчиларда “оммавий маданият”га қарши иммунитетни шакллантиришнинг педагогик стратегиялари” // Монография. – Тошкент: “Tafakkur qanoti” нашриёти, 2021. – 208 б.

## FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi 561-son Qonuni // <https://lex.uz/uz/docs/-6430272>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi 562-son Qonuni // <https://lex.uz/uz/docs/-6430272>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyuldagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4872355>
4. Namazov B., Egamberdiyeva N., Mirsoliyeva M. O'qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv masalalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2018.
5. Jamoldinova O., Mirsoliyeva M., Risqulova K. Pedagogik ta'limda gender yondashuvi masalalari // Maktabgacha ta'limda davlat va nodavlat sektorni rivojlantirish: yangi shakllari va ta'lim mazmuni mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. – Toshkent, 2020. – B. 99–101.
6. Тожибоева Х.М. Гендер ёндашув асосида ўсмир ёшдаги ўқувчиларда “оммавий маданият”га қарши иммунитетни шакллантиришнинг педагогик стратегиялари // Монография. – Тошкент: “Tafakkur qanoti” нашриёти, 2021. – 208 б.
7. O'rozaliyeva G.B. Gender munosabatlarning ayollar huquqiy madaniyatini takomillashtirishga ta'siri. Ijtimoiy fan. nomz. diss... avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2006. – 23 b.
8. Bayjonov F.B. Characteristics of the concept of gender culture as a social event // Modern scientific trends and standards Santa Rosa, Argentina 11-12.10.2021.
9. Bayjonov F.B. Stages of formation of gender culture in youth // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 9, № 4, 2021.
10. <https://uzreport.news/society/>



**Kurbanova Buzaynab Nurmukhammadievna,**  
*Teacher of Pedagogy Department of  
 Tashkent State Pedagogical University named after Nizami*

## ROLE AND SIGNIFICANCE OF INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

**Annotation.** In this article the scientific aspects of the organization of independent education of students, the theoretical and practical foundations of independent work have been developed, and the processes necessary for independent work of students have been researched. The main forms and types of independent learning of students are described in detail, and the ways in which they can be carried out both in theoretical and practical lesson processes are shown. Methodical recommendations were given in order to attract students to independent work, which in turn is a guide for those engaged in independent education.

**Keywords:** independent education, students, creativity, educational technologies, educational process, knowledge, skills, competence, curriculum, educational materials.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalar mustaqil ta'limini tashkil qilishning ilmiy jihatlari, mustaqil ishlashlarining nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, talabalarning mustaqil ishlashlari uchun lozim bo'ladigan jarayonlar mazmunan tadqiq qilingan. Talabalar mustaqil ta'lim olishlarining asosiy ko'rinishlari va turlari batafsil bayon qilingan bo'lib, ularni ham nazariy, ham amaliy dars jarayonlarida bajarishlari mumkin bo'lgan usullari ko'rsatib o'tilgan. Talabalarni mustaqil ishlashga jalb qilish maqsadida metodik tavsiyalar berilgan bo'lib, bu, o'z navbatida, mustaqil ta'lim bilan shug'ullanuvchilar uchun yo'riqnoma hisoblanadi.

**Tayanch so'zlar:** mustaqil ta'lim, talabalar, ijodkorlik, ta'lim texnologiyalari, o'quv jarayoni, bilim, ko'nikma, malaka, o'quv dasturi, o'quv materiallari.

**Аннотация.** В данной статье разработаны научные аспекты организации самостоятельной работы студентов, теоретические и практические основы их самостоятельной работы, а также тщательно исследованы процессы, необходимые для самостоятельной работы студентов. Подробно описаны основные формы и виды самостоятельной работы учащихся, показаны приемы самостоятельной работы, которые они могут выполнять как в теоретическом, так и в практическом процессе урока. В целях привлечения студентов к самостоятельной работе даются методические рекомендации, которые, в свою очередь, являются руководством для занимающихся самостоятельным обучением.

**Ключевые слова:** самостоятельное обучение, студенты, творчество, образовательные технологии, образовательный процесс, знания, умения, квалификация, учебная программа, учебные материалы.

**Introduction.** Changes are taking place in the social, economic, political, and spiritual life of our country. The adoption of the new version of the Law "On Education" is especially important in reforms in the field of education. The development or, on the contrary, the crisis of each country depends on the level of improvement of the education system in the country. The priorities of the systematic reform of higher education, modern

knowledge and independent raising the process of training highly qualified personnel to a new level in terms of quality, modernization of higher education and development of social sphere and economic sectors, based on advanced educational technologies are given special importance as strategic issues.

For example, in the Concept of "increasing the share of independent education hours, students' independent education, critical and creative



thinking, systematic analysis, formation of entrepreneurial skills, introduction of methods and technologies aimed at strengthening competencies in the educational process, educational “to direct the educational process to the formation of practical skills, and in this regard, to widely introduce advanced pedagogical technologies, educational programs and teaching-methodical materials based on international educational standards into the educational process”<sup>1</sup>.

**Purpose and justification.** Emphasized that students can acquire the necessary competences of specialists through independent education, independent work, continuous improvement of their skills, development of creative creativity, research, and logical thinking. The organization of the educational process plays an important role in the training of specialist personnel. Currently, in the curricula, the ratio of classroom (contact) and independent education of students is from 40/60 percent ratio to 50/50 percent ratio in undergraduate education, from 30/70 percent ratio to 50/50 percent ratio in master’s specialties. allocated to the percentage ratio. In the process of changing the educational program, a number of issues and problems of the sciences should be studied through independent education. Independent education is the independent acquisition by students of a part of the program materials in one or another subject.

Higher education is to direct the specialist to self-development, to increase his knowledge independently, to form a creative personality capable of innovative activities. It is not enough to give ready knowledge to the student by the teacher to perform such a task. Such a way turns the student into a passive consumer of learning. However, today we need not a passive consumer of knowledge, but an active creator of it. The result should be such that the future specialist can express any theoretical and practical problem, find the most suitable and appropriate results, able to scientifically or methodically analyze the ways to solve it, and prove its correctness.

The main goal of students’ independent work is the formation and development of knowledge, skills

<sup>1</sup> #PD-5847 Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “About approval of the Concept of development of system of the higher education of the Republic of Uzbekistan till 2030” dated October 8, 2019.

and abilities necessary for independent performance of academic work.

Tasks of students’ independent work:

to determine the necessary measures to search for new information to perform independent work;

to use of information sources in the process of independent work;

to work with regulatory documents, scientific-methodical materials, educational literature.

Independent education is a systematic activity aimed at forming theoretical knowledge, practical skills and qualifications based on independent mastering of educational material, assignments of different levels of complexity, creative and independent performance of practical tasks in the audience and outside the audience<sup>2</sup>.

Independent education is a form of education aimed at strengthening acquired knowledge, skills and abilities, additional information or independent study of material.

Independent work is an active method of education that solves the educational task assigned to the teacher and under his guidance.

**Description and solution of a scientific problem.** Independent work is the organization and implementation of concrete activities of students in connection with the set of goals. Student’s independent work is the activity based on high level of activity, creativity, independent analysis, initiative and timely and perfect performance of all tasks<sup>3</sup>.

So, to speak, all activities aimed at educating the future specialist’s way of thinking form their basis. Any type of training that allows the student to develop independent thinking and to increase his cognitive activity is closely related to independent work. Independent learning should not be understood as leaving students to their own devices and reducing the tasks and workloads given to them, but rather interactive independent activities of students regularly guided by teachers.

Refers to a set of independent work carried out in the classroom and outside of it, under the

<sup>2</sup> Qo‘ysinov O.A., Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. – Toshkent: Muxlis, 2009. – 92 b.

<sup>3</sup> Karimova D.R. Kredit-modul tizimida mustaqil ta’lim. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: OOO “Kompleks bosma”, 2021. – 126 b.

guidance of the teacher or without the participation of the teacher.

Under what conditions is independent work carried out:

1. Directly in the audience - during a lecture, practical training, seminar or in the process of giving tasks for laboratory work.

2. Giving advice during direct communication with the teacher outside of the class schedule, in the process of creative communication, performing individual tasks in debt relief, etc.

Educational or creative tasks by the student: in the library, at home, in student houses, in departments. The boundaries between these types of work are not too strict and can easily overlap. It worth noting that students' independent work can be done both in the auditorium and outside it. Independent work outside the auditorium takes a central place. Work on test questions, tasks and exercises on independent work is mainly done independently. The results of this work are analyzed and evaluated in classroom (practical and laboratory) classes under the guidance of the teacher. Therefore, independent work and classroom training complement each other, increase students' knowledge and professional competence.

Can be realized only if there are serious and stable interest. The most serious factor in this is preparation for the future effective professional activity<sup>4</sup>.

Consider the internal factors that allow students to activate their independent work:

1. The usefulness of the work being done. If the student knows that the results of his work can be used in the course of a lecture, in a methodical guide, in laboratory work or in practical training, in the preparation of articles, his attitude towards the work he is doing will change dramatically for the better, as well as the quality of the work will increase. Accordingly, the student should be mentally prepared for such work, the necessity of the work to be performed should be shown.

2. Student's participation in creative activities. This can take many different forms. In particular, scientific research works, artistic works, methodical works and others conducted by the Departments.

<sup>4</sup> Qo'ysinov O.A., Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. – Toshkent: Muxlis, 2009. – 92 b.

3. Participation in science olympiads, scientific-research works, practical work contests, etc.

4. Use of factors of interest in knowledge control (rating, tests, non-traditional exam forms, etc.).

These factors create a spirit of competition in appropriate situations. This very situation forms and develops the student's inner need to work on himself and develop himself.

Independent education is organized in the following forms:

1. Independent mastering of subjects with the help of regulatory legal documents and educational literature.

2. Preparation of abstracts on topics.

3. Preparation for seminars and practical training.

4. Preparation of scientific articles and theses.

5. Preparation of projects covering current problems of science.

6. Application of theoretical knowledge in practice.

7. Finding solutions to existing problems in practice.

8. Writing annotations to the main scientific literature on the studied topic, etc.

The student's independent work is an integral part of the study hour specified in the curriculum for mastering a specific subject, and it is provided with methodological information resources. Independent education at the university can be carried out in the form of an abstract, homework, presentation, various cases, assignments and other similar forms, depending on the characteristics of each subject.

To effectively organize independent education of students:

a) systematic approach to organization of all forms of students' independent work;

b) coordination and integration of all stages (types) of students' independent work;

c) establishment of strict control over the quality of students' independent work;

d) to create and improve a mechanism for organizing and controlling students' independent work.

"Today, higher educational institutions in our republic work on the credit-module system. The credit-module system is a process of educational

organization and is an assessment model based on a set of module technologies of education and a credit measure. Carrying it out as a whole is a complex and systematic process. In the principle of credit module, importance is given to two main issues: ensuring independent work of students; assessment of student knowledge based on rating<sup>5</sup>.

Therefore, the credit-module system consists not only of teaching based on innovative educational technologies, but also of teaching students to learn independently, to have a new attitude to education, to acquire the necessary and deep theoretical knowledge, and to form practical skills based on the demand of the labor market. In short, this system is aimed at the professional development and maturity of the student. It can be said that it is aimed at ensuring the education of a person of knowledge throughout his life and at forming human capital that can meet the labor market and modern requirements. The introduction of the credit-module system is an important factor in the cooperation between the teacher and the student.

Educational process to the content and forms of organization of independent work also allows students to activate their independent work. The ratio of independent education in today's higher education institutions established on the basis of the credit-module system is from 40/60 percent to 50/50 percent in bachelor's courses, from 30/70 percent to 50/50 percent in master's specialties. the organization of independent work is defined in the curriculum intended for work. It can be seen that enough time is allocated for independent works. The main thing is to use this time effectively and efficiently.

There are two main directions of organization of the educational process based on the independent work of students:

*The first thing* is to increase the role of independent work in classroom training. In order to do this, professors and teachers are required to develop methods and forms that ensure a high level of independence and quality of preparation of students in the organization of classroom training.

Directions outside the classroom. Problems in increasing students' activity in activities outside

<sup>5</sup> Xusainov R.R. Oliy ta'limda fanlarni o'qitish sifatini kuzatishda mustaqil ta'limning roli // Zamonaviy ta'lim. 2016-yil. 4-son. – B. 25-32.

the classroom are associated with a number of difficulties. It can be seen that not only many students, but even some professors and teachers are not ready to do independent work. This often manifests itself in a professional or psychological direction<sup>6</sup>.

The main task in organization of students' independent work (hereinafter – TMI) is to create psychological didactic conditions for the development of intellectual initiative and thinking in any form of training. The main principle in the organization of TMI should be to provide students with skills for individual work. In this case, it is important to move some tasks from formal and passive performance to conscious and active performance. The purpose of TMI is to teach students to work independently first with educational content, and then with scientific information, to form the basis of self-direction and development, and then to regularly improve one's skills. It should be noted that teachers play a decisive role in this. He should always be in the center of attention that he is working, not with the student in general, but with a specific person. It is advisable for him to know his student's strengths and weaknesses, to take into account his individual abilities and interests. The task of the teacher is to see and increase the good aspects of the student - the future highly qualified specialist<sup>7</sup>.

In the study of any science, three interrelated forms of TMI organization are noticeable:

1. Independent works outside the auditorium.
2. Independent works in the auditorium. It is organized directly under the guidance of the teacher.
3. Creative. Creative form can be extremely diverse.

Including: analytical information, lectures and written works on the given subject related to separate chapters of the subject being studied. It would be appropriate to give the student the right to choose the subject, even the supervisor; preparation of illustrative materials on the chosen subject, in which the topic is given by the teacher, its content and form,

<sup>6</sup> Yo'ldashev Sh.I. Talabalarning mustaqil ta'limining zamonaviy o'quv jarayonida ahamiyati va o'rni. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: O'zMU, 2022. – 25 b.

<sup>7</sup> Yo'ldashev Sh.I. Talabalarning mustaqil ta'limining zamonaviy o'quv jarayonida ahamiyati va o'rni // Uslubiy qo'llanma. – T.: O'zMU, 2022. – 76 b.

execution is determined by the student; creation of scientific crosswords, the size, complexity, and content of which are formed by the student himself; writing a review of a scientific monograph of a modern scientist, a writer's work, with a personal based assessment and a recommendation for use, separation of main ideas and rules; performance of various types of homework. This includes solving exercises and problems, translating or retelling the text, selecting and studying literary or scientific sources, making various tables, performing graphic work, performing various calculations, etc.

It is desirable to have a large bank of independent works and assignments when conducting training. It's even better if they are separated by level of complexity. Depending on the nature of the subject, the following methods can be used for training:

1. To give a series of tasks that are the same according to the level of difficulty. In this case, the student who has done the most exercises in a certain period of time will get a high grade.
2. To find solution to the given tasks of different levels of difficulty. The grade is determined by the type of assignment.
3. To develop methodological support and control aimed at the implementation of independent work of students.

The development of a set of methodological support of the educational process is the most important condition for ensuring the effectiveness of TMI. This collection includes lecture texts, textbooks, educational and methodical literature, laboratory work, a bank of assignments and tasks, information bases of science, etc. Educational and methodical literature should not only provide information, but also perform organizational and control functions. The management function of educational and methodical literature is manifested in marking pages, highlighting the main rules of the educational material in the text, and the existence of structural logical tables that show the interrelationship of the educational materials.

So to speak generally, all activities aimed at educating the future specialist's way of thinking form their basis. Any type of training that allows the student to develop independent thinking and increase his cognitive activity is closely related to independent work. Independent learning should not be understood as leaving students to their own

devices and reducing the tasks and workloads given to them, but rather interactive independent activities of students regularly guided by teachers.

The role of independent education in improving the quality of the educational process is great. Realizing this, the share of independent study hours allocated to educational activities in higher educational institutions of our country is being regularly increased. The student must understand that independent education is being carried out in his interest.

**The final part.** Reforms and work being carried out in the field of education require future specialists to acquire the skills to independently find and collect all the necessary information and data, and to be able to analyze them. Independent work requires each student to follow a certain system, be diligent, and strive for the goal. That's why many students have a problem of properly organizing their daily life at the higher educational institution. Some first-year students complain that they do not have enough time to master the studied material, and that they have little rest due to the large number of loads. Such a situation occurs only in students who have not been able to allocate their time properly, who have not appreciated every minute. Accordingly, in independent work, it is correct and appropriate to start work with strict adherence to the agenda. In order to set up the daily schedule in a purposeful way, it is necessary to proceed as follows: One day should be divided into several necessary parts: it includes work, food, physical education, recreation, household chores, and so on<sup>8</sup>.

In the article, the scientific aspects of the organization of independent education of students, the theoretical and practical bases of independent work have been developed, and the processes necessary for independent work of students have been studied. The main forms and types of independent learning of students are described in detail, and the methods of independent work that they can perform both in theoretical and practical lesson processes are shown. Methodical recommendations were given in order to attract students to independent work, which in turn is a guide for those engaged in independent education.

<sup>8</sup> Xusainov R.R. Oliy ta'limda fanlarni o'qitish sifatini kuzatishda mustaqil ta'limning roli // Zamonaviy ta'lim. 2016 yil, 4-son. – B. 25-32.

**LIST OF LITERATURES AND REFERENCES**

1. #PD-5847 Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “About approval of the Concept of development of system of the higher education of the Republic of Uzbekistan till 2030” dated October 8, 2019.
2. Ibragimova G. N. Oliy ta’lim tizimida interfaol texnologiyalar yordamida talabalardagi ijodiy fikrlashni rivojlantirish // *Zamonaviy ta’lim*. 2017, 4-son.
3. Karimova D.R. Kredit-modul tizimida mustaqil ta’lim // *Uslubiy qo’llanma*. – Toshkent: “Kompleks bosma”, 2021.
4. Qo’ysinov O.A., Muslimov N.A. Kasb ta’limi o’qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. – Toshkent: “Muxlis”, 2009. – 92 b.
5. Yo’ldashev Sh.I. Talabalarning mustaqil ta’limining zamonaviy o’quv jarayonida ahamiyati va o’rni. Uslubiy qo’llanma. – Toshkent: O’zMU, 2022. – 76 b.
6. Xusainov R.R. Oliy ta’limda fanlarni o’qitish sifatini kuzatishda mustaqil ta’limning roli // *Zamonaviy ta’lim*. 2016-yil, 4-son.



**Raimdjanov Mirkarim Tolibjon o'g'li,**  
*Alfraganus universiteti katta o'qituvchisi*  
e-mail: [raimdjanovmirkarim@gmail.com](mailto:raimdjanovmirkarim@gmail.com)  
<https://orcid.org/0009-0009-0896-393>

## SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA SHAXS KOMMUNIKATIV XULQ-ATVORI MASALALARINING O'RGANILISHI

**Annotatsiya.** Ilmiy maqolada Sharq allomalari asarlarida shaxs kommunikativ xulq-atvoriga oid qarashlarining tahlili to'liq ochib berilgan. Bundan tashqari, shaxs xulq-atvoriga o'qituvchi ta'siri, muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari, xulq-odob qoidalari va tushunchalari tahlil etilgan.

**Tayanch so'zlar:** xulq-atvor, kommunikativ, muloqot, xulq-odob, axloq.

**Аннотация.** В научной статье полностью раскрыт анализ взглядов восточных ученых на коммуникативное поведение личности в их трудах. Кроме влияния педагога на поведение личности, в процессе общения анализируются те или иные образы и модели поведения человека, правила поведения, понятия.

**Ключевые слова:** поведенческий, коммуникативный, общение, манера поведения, мораль.

**Annotation.** The scientific article fully reveals the analysis of the views of the individual on communicative behavior in the works of Eastern scholars. In addition, the teacher's influence on personality behavior, certain images, models and rules of human behavior, as well as concepts are analyzed in the process of communication.

**Keywords:** behavior, communicative, communication, behavior, morality.

**Kirish.** Globallashuv jarayonida internet tarmog'iga tobek holatlari jadal sur'atda o'sib bormoqda. Ma'lumotlar oqimi shaxsning kommunikativ xulq-atvoriga o'zining salbiy tasirini ko'rsatib, jamiyatda buzg'unchi g'oyalar oqimining keskin ortishiga olib kelmoqda. Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim sharti ekanligi sir emas, albatta. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o'zlashtirish va o'z individual ehtiyojlarini qondirish yo'lida birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Afsuski, internet tarmog'idagi muloqot jarayonida shaxsda turli bizg'unchi xulq-atvorning muayyan obraz va modellari shakllanib qolmoqda. Buning natijasida shaxsda individual tafakkur, olamning va o'zining obrazini tahlil qilish hamda

baholash qobiliyati muloqot jarayonida yo'qoladi. Ilmiy maqolada shaxsning kommunikativ xulq-atvori borasidagi nazariyalar tahlili borasida fikr yuritiladi.

**Maqsad va uni asoslash.** Sharq allomalarining ilmiy merosida shaxs shakllanishi, unga ta'lim-tarbiya berish, shuningdek, shaxs tomonidan xulq-atvor me'yorlarining o'zlashtirilishi masalalari borasida qimmatli fikr-mulohazalarni uchratish mumkin. Jumladan, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Kaykovus, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy hamda Alisher Navoiy kabi allomalarimiz o'z asarlarida o'zo'zini rivojlantirish xususiyatining shakllanishi, bu sifatning shaxs kamolotidagi ahamiyati yuzasidan

qimmatli fikrlarni ilgari surganlar. Ma'lumki, qadimiy manbalardan hisoblangan Zardushtiylik dinida ham muomala muloqot masalalarini atroflicha tahlil qilishgan. Zardushtiylik inson kamolotida bilimning kuchiga qattiq e'tiqod qiladi va oqibat natijada bilimli kishi yutib chiqadi, deb hisoblaydi. Bundan ko'rinadiki, muloqotda g'olib chiqish, muloqotning sermazmunligi va uning samarasi bilim bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

“Avesto”da inson o'z mehnati tufayli barcha yomonliklardan yovuzliklardan qutilishi mumkin, degan ulug' g'oya yotadi. Unda axloqlilik asosi sifatida saxovatlilik ko'rilgan. Axloq – yaxshi fikr, yaxshi so'z va amaliyot birlishdan iborat deyilgan. Yaxshi fikr deganda yaqin kishisiga mehribon bo'lish, muhtojlarga ko'maklashish, yovuzlikka qarshi kurashish, kishilarning baxt-saodatini muhofaza qilish, ahillik va totuvlikda yashashga intilish ruhidagi niyatlar va fikrlar tushunilgan. Bu fikrlarni kishi niyat qilibgina qolmay, ular to'g'risida tinmay so'zlashishi va ularni amalga oshirishi shart deyiladi.

Imom Al-Buxoriyning inson sifatleri haqidagi qarashlarida jaholat kishiga o'lim keltiruvchi fojia sifatida qoralanadi<sup>1</sup>. U odamlarni to'g'ri so'zli bo'lishga, va'daga vafo qilishga da'vat etib, munofiq kishining uchta belgisi bo'lishini ko'rsatadi, ular: yolg'on gapirish, va'daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytadi. U odamlarni, ayniqsa, mo'min-musulmon kishini haqorat qilishni gunoh, u bilan urishishni esa kofirlik deb biladi. U insonning kuch-qudrati jismonan pahlavonlikda emas, balki jahl chiqqanda o'zini tiya olishda, deb hisoblaydi. Uning uqtirishicha, baland tovush bilan o'rinsiz kulish boshqalar diliga ozor beruvchi xislatdir. Xalqqa yoqimli va ehtiroimli bo'lib, uning muhabbatiga sazovor bo'lishni go'zal axloqlilik, deb biladi alloma<sup>2</sup>. U sog'lom tunda sog'aql bo'ladi, degan xalq maqoliga amal qilib, alloma yoshligidanoq sog'liqni saqlashga, vaqtni bekor o'tkazmaslikka da'vat etadi. “Ikki narsa borki, ko'pchilik ularning qadriga yetmaydi: biri sog'liq, ikkinchisi bo'sh vaqt”, – deydi u.

Imom At-Termiziy to'plagan hadislar orasida inson kamolotiga bag'ishlangan hadislar yetakchi

<sup>1</sup> Imom Buxoriy asarlarida axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalar – тема научной статьи по языкознанию и литературоведению читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка // [www.cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru)

<sup>2</sup> Abdurahmon Jomiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971. – 354 b.

o'rin tutadi. “Chinakam sabr-toqatli deb musulmon kishining musibat yuz berganda chidamliligiga aytiladi”, “Marhumlarning faqat yaxshi sifat va qilmishlarini so'zlaganlar. O'lgan kishi haqida yomon so'zlar aytilmasin. Haqiqiy mo'min deb xushxulq va ayoliga nisbatan xushmuomala kishiga aytiladi”<sup>3</sup>. Demak, muloqot jarayonida namoyon bo'ladigan xulq-atvor shaxsning kamolotini belgilab, bundan tashqari, shaxsda xulq-atvor me'yorlarini shakllantiradi va nazorat qiladi.

Alisher Navoiyning Adib Ahmad haqida yozganlarida biroz o'zgargan holda takror etiladi. Adibning fikricha, kishi boshiga har qanday ish tushsa, tili tufayli sodir bo'ladi, ba'zilar yaxshilik ko'radi, ba'zilar afsus chekadi. Ahmoq odamning tili sababli dushmani ko'payadi, obro'si to'kiladi. Adib Ahmad behudago'ylik va yolg'on so'zlashni qattiq qoralaydi. So'zning to'g'risi va qisqasi yaxshi deb hisoblaydi. Bob davomida sir saqlashning muhimligi ta'kidlanadi, hatto yaqin do'stingdan ehtiyot bo'l deya ogohlantiradi shoir<sup>4</sup>. Bunday ogohlantirishlar zamonaning qaltisligini eslatib turadi. Bugungi kunda muloqot bilan bog'liq holatlar insonlar boshiga turli muammolarni olib kelayotgani sir emas.

Navoiy fikriga ko'ra, yaxshi xulqning asosi odob bo'lib, u barcha insoniy xislatlarning boshlanishi sanaladi. Zero, haqiqiy insonga xos xislatlar – qanoat, sabr tavoze, ishq, vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat va halimlik (yumshoq ko'ngillik) aynan odobli kishilarda tarkib topadi.

Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya jarayonida insonning o'zini-o'zi tarbiyalashi, xato va kamchiliklarini anglab, ularni tuzatishi masalasiga alohida e'tibor qaratadi.

Darhaqiqat, Hazrat Navoiy o'zining qarashlarida komil insonga xos bo'lgan axloqiy sifat va fazilatlar orasida irodaviy xususiyatlarga alohida urg'u beradi. Unga ko'ra, irodaga xos sabr, qanoat, shijoatkorlik va mardlik kabi muhim sifatlarining shaxsda shakllanishi uning komillikka yetishida o'ta muhimdir. Alloma shoir, ayniqsa, o'zini o'zi tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratib, bu jarayon bevosita o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi rivojlantirish va nazorat qilish orqali amalga oshishi va unda qo'llanadigan usul va vositalarni oqilona tanlay olish muhimligini ta'kidlaydi.

Abu Nasr Forobiy shunday deydi: “Ta'lim – degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy

<sup>3</sup> [Imom Termiziy. Sunani Termiziy. 1-jild // www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

<sup>4</sup> [Alisher Navoiy hayoti va ijodi // www.tafakkur.net](http://www.tafakkur.net)

fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakati kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir”<sup>5</sup>.

Forobiy nazariy bilimlarni egallashga kirishgan har bir kishi xulq-odobda ham qay daraja pok bo'lishi kerakligini “Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligini to'g'risida”gi risolasida shunday ta'riflaydi: “Falsafani o'rganishdan avval o'zingizni hirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va shahvoniyat kabi noto'g'ri tuyg'ularga emas, balki kamolotga bo'lgan hirs-havas qolsin. Bunga xulq-axloqni faqat so'zdagina emas, balki haqiqatda (amalda) tozalash orqali erishish mumkin. Shundan so'ng xato va adashishdan saqlovchi, haqiqat yo'lini tushunib olishga boshlovchi (notiq so'zlovchi, fikrlash ma'nosida) nafsini, jonini, ruhini tozalash zarur”<sup>6</sup>.

Abu Nasr Forobiy fikriga ko'ra, har kim o'z irodasiga bog'liq xatti-harakatlarni bajarishga qodir bo'lsa, ruhan va tabiatan xayrli amallar va sharr (yomon) ishlar tomon o'z irodasini yo'naltira oladi. Shu sababli har bir insonda fazilatli xatti-harakatlar yoki razolatli fe'l-atvor tug'diradigan iste'dod mavjud bo'lib, u har ikkisidan birini bajarishga qodirdir.

Abu Nasr Forobiy o'z fikrini davom ettirib: “O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolish, aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi, o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga, or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi”, – deya ta'kidlaydi. Muallifning fikriga ko'ra, bunda har bir shaxs taffakkuri va nutqi chambarchas holda shakllanadi va buning natijasi faoliyatda ko'rinadi.

Abu Rayhon Beruniyning fikricha, o'quvchini o'qitish uchun muallim rostgo'y savodxon, shogirdlariga prinsipial yumshoq muomalali bo'lishi kerak. Muallim o'quvchini doimo to'g'ri

yo'lga boshlashi, sezgir va talabchan bo'lishi lozim ekanini uqtiradi. Buyuk murabbiy Beruniy muallim shogirdiga yumshoq muomala qilishi, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatishi, yaxshi yo'lga yo'naltirishi, niyatini to'g'ri qilishi, o'zini katta olmay, ochiqko'ngil bo'lishi zarurligi haqida ta'lim bergan. Zotan, bolaga mehr-muhabbatli bo'lish ta'lim-tarbiya mezonidir.

Abu Rayhon Beruniyning inson turmushiga xos bo'lgan xulq-odob qoidalari haqidagi fikrlari psixologik nuqtayi nazardan ham qiziqish uyg'otadi. Inson ham ichki, ham tashqi tomondan go'zal bo'lsagina haqiqiy kamolotga erishishi mumkin, deya hisoblagan Beruniy ozodalik va orastalikni olijanoblik bilan tenglashtiradi. Inson doimo ularga rioya etishi zarur, deb ta'kidlaydi. Bunda inson o'zini rivojlantira olishga qodir bo'lishi, har bir yetuk inson uchun zarur bo'lgan xislatlarni o'zida tarbiyalashda kuch va irodaga ega bo'lishi zarur, deydi. Olim “Minerologiya” asarida “Inson o'z ehtirolariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir, o'z joni va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagulik narsalarga aylantirishga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir”, deb ta'kidlaydi.

M. Qoshg'ariyning “Devonu lug'atit-turk” asarida “Odobning boshi – til” iborasida esa xushxulqlikning talablaridan biri – odobning boshi til ekanligi, shirinso'z kishi martabaga ega bo'lishi lozim, degan ma'no yotadi. Xalq orasida g'iybatchi kishilarga nisbatan “Ilon o'zining egriligini bilmay tuyaning bo'ynini egri deydi” degan maqoli qo'llanilgan. Inson o'zini ayab, yaxshi yeb-ichsa, tez qarimasligi “Maishatlik odam tez qarimas” maqolida ifodalangan<sup>7</sup>.

Yusuf-Xos Xojibning “Qutadg'u bilig” asarida barcha yaxshi ishlarning manbayini ezgulik, yomon ishlarning asosini essizlik nomlari bilan talqin etadi. U inson hayotda qilgan ishi bilan yo yaxshi nom qoldiradi, yoki yomon nom oladi, deydi<sup>8</sup>. Asarda olim barcha ezgulikning boshi – til, deb qaraydi. Asarning bir bobi til odobi, uning foyda va zararlariga bag'ishlanadi. Til insonning qadr-qimmatini oshiradi yoki shu til orqali inson yuz tuban ham ketishi mumkin, deydi. Kishi ikki narsa bilan hayotda mangu qoladi: biri xushxulqlik bo'lsa, ikkinchisi yaxshi so'z, deydi olim. Uning til haqida, so'z haqida aytgan fikrlarining har biri hikmatli so'zga aylanib ketgan.

<sup>5</sup> Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. Muqaddima, tarjima va izohlar muallifi: M. Qodirov; ma'sul muharrir: A. Jalolov. – Toshkent: Yozuvchi, 2001. – 64 b.

<sup>6</sup> O'sha asar

<sup>7</sup> Mahmud Qoshg'ariy. “Devonu lug'atit turk”. – Toshkent, 2013.

<sup>8</sup> Yusuf Xos Hojib. “Qutadg'u bilig”. – Toshkent, 2018.



Insoniy munosabatlarning eng oliy mezonini sanalgan hurmat va ehtiromni tarkib toptirishning barcha koʻrinishlari asarda oʻz ifodasini topgan. Yusuf Xos Xojib jamiyat taqdirini hal etuvchi eng ulugʻ mansabdorlardan tortib, oila aʼzolarigacha bir-biriga boʻlgan muomala-munosabat masalalarini ham hayotiy misolar vositasida yoritgan. Katta yoshlilarning kichiklarga, kichiklarning yoshi ulugʻlarga, amaldor va mansab-dorlarning oʻz xizmatchilariga, xizmatchilarning oʻz xoʻjalariga, turli ijtimoiy guruh aʼzolarining bir-birlariga, oilada oila aʼzolarining bir-birlariga muomala madaniyatining eng oddiy koʻrinishlarigacha tasvirlab, kishining koʻz oldida yaqqol namoyon etgan. Buni biz farzand tabiyasida uning tugʻilganidan boshlab xulq-atvor qoidalari, bilim va hunar oʻrgatish, buning uchun pok va bilimli muallim-murabbiy tanlash, farzandning xatti-harakatini doimo nazoratda saqlash kabi masalalarning bayon etilishidan ham bilsak boʻladi. Olim ulugʻlar va kichiklar oʻrtasidagi xulq-odob qoidalari haqida gapirar ekan, shu asnodda kamtarlik, salomlashish odobi talablari, qoidalari ham tavsifiya etadi.

Yusuf Xos Hujib oʻzining “Qutadgʻu biligʻ” asarida insonning turli marosimlar, yigʻinlar, uchrashuvlar, ziyofatlarda oʻzini tutishi, xulq-odob qoidalari rioya etish shartlari, tartib-intizomlari, unda oʻzini-oʻzi rivojlantirish va nazorat etish xususiyatining shakllangani muhim ekani haqidagi fikrlarni keltiradi.

Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hujib tomonidan ilgari surilgan gʻoyalarda shaxs axloqiy xulq-atvorining rivojlantirishi masalasiga alohida eʼtibor berish kerakligi uqtiriladi. Chunki axloqiy xulq-atvor inson ziyonati boʻlib, shaxs kamolotining asosiy jihatlardan sanaladi.

Kaykovus “Qobusnoma” asarining eng oxirgi bobida juvonmardlik haqida soʻz yuritadi. U odamlarning xislatlarini uch tur – aql, rostlik va juvonmardlikka boʻladi. Juvonmardlikning asosini Kaykovus uch narsada deb biladi, jumladan,

1. Aytgan soʻzining ustidan chiqish, yaʼni rostlik.

2. Rostlikka xilof qilmaslik.

3. Xayrli ishini ilgari tutish.

#### **Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.**

Kaykovusning fikricha, insondagi boshqa barcha xislatlar oʻn toʻqqizta narsaga tayanadi. Yaʼni alloma juvonmardlik yoki (iyorlik)ning ustunlarini (ruknlari) quyidagilarda deb koʻrsatadi: jasurlik, mardlik, sabr-matonat, vaʼdaga vafo qilish, pok dil

va pok zabon boʻlish, asirlarga ziyon yetkazmaslik, bechora kishilarga madad berish, yomonlarning yomonligini yaxshilardan yiroq tutish, rostgoʻylik, yaxshiga yomonlik qilmaslik, ziyon-zahmatdan saqlash, odamlarga ham ziyon-zahmat yetkazmaslik, juvonmard sipohiyilar esa sabr-bardosh bilan ish tutishi, saxiylik, toʻgʻrilig-u haqshunoslik, pok kiyinish, yaxshi qurollanish zarurligini qayd etadi.

Kaykovus oʻzining asarida shaxs xususiyatlari, oʻzini-oʻzi rivojlantirish va xulq-atvorini nazorat qilish, iroda borasida ilgari surgan fikrlarida, avvalo, inson oʻzida ijobiy sifatlarni shakllantirishi, salbiy odatlardan oʻzini tiya olishi lozimligini uqtiradi. Shuningdek, shaxs oʻzida ijobiy sifatlarni shakllantirishi hamda salbiy xulq-atvor meʼyorlarini egallamasligi uchun ulardan kuchli iroda, matonat, sabr toqat, irodaviy zoʻr berishni talab qiladi.

Kaykovus oʻzining “Qobusnoma” asarida “Axloqlilikning birinchi belgisi – suxandonlik”, deydi. U (suxanguylik) notiqlikda rost soʻzlash kerakligini taʼkidlaydi. U soʻzlarni toʻrt xilga boʻlgani kabi odamlarni ham toʻrt xilga boʻladi. Birinchi xil kishilar – koʻp narsani biladi va yana bilgisi kelaveradi. Bular olimlar boʻlib, ularga buysunish kerak, deydi. Ikkinchisi – bilmagan narsasini bilishga harakat qiladi, ular qobil kishilar boʻlib, bunday kishilarga oʻrgatish kerak. Uchinchisi – bilganini ham bilmaydi, xuddi uyquda yashagandek, ularni “uygʻotish” kerak. Toʻrtinchisi – bilmaydi va bilmaganini tan olmaydi. Bular johil kishilar boʻlib, ulardan qochish kerak, deydi.

Soʻzlarning esa birinchi xili – bilinmaydi va aytilmaydi. Ikkinchisi – aytiladigan va biladigan. Uchinchisi – ham bilinadi, ham bilishga zarurati yoʻq, ammo aytsa boʻladi. Toʻrtinchisi – bilinadigan va aytiladigan. Eng yaxshisi – toʻrtinchisidir, yaʼni bilinadigan va aytiladigani, deydi. Soʻzlaganda andishali boʻlish, sovuq soʻzli boʻlmaslik, kam gapirish, kamtarlik, maqtanmaslik, birovning soʻzini diqqat bilan eshitish odoblari, deya taʼkidlaydi.

Muhammad Sodiq Qoshgʻariyning “Odob as-solihin” asarining muqaddimasida asarning maqsadi ifoda etiladi, yaʼni insonga yaxshi xulq egallash zarurligi taʼkidlanadi va u odob qoidalari egallab olmasa va yaxshi xulq bilan muaddab (odobli) va muxazzab (toza) boʻlmasa, nafaqat oʻziga, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi, deydi va shunday masnaviyini keltiradi:

“*Beadab tanho na xudro dosht bad, balki otash dar xama ofoq zar*”. Yaʼni adabsiz nafaqat oʻzi uchun yomonlik qiladi, balki butun dunyoga oʻt qoʻyadi.

Shunday ekan, har bir inson odobi zohiriy hamda odobi botiniyini bilib, unga amal qilishi zarurligi va bu odob qoidalarini mo'tabar kitoblardan jam etganini aytadi. So'ng yuqorida ta'kidlaganimizdek, insonning barkamol bo'lib etishishidan kundalik turmushida zarur botiniy va zohiriy odob qoidalari – salomlashish va ruxsat so'rash, muloqot odobi, uxlash va yo'l yurish, suhbat ahlining o'zini tutishi, er-xotin odobi, tozalik va ozodalik qoidalari, mehmon kutish, ziyofat va ovqatlanish odobi, shuningdek, safar qoidalari bayon etiladi.

Ma'lumki, Sharq xalqlarida biror kimsa birorta uyga kirganda, u yerga ruxsatsiz kirib boravermay, ma'lum urf-odat qoidalari rioya qiladi. "Ana shu qoidalarning eng muhimlari – har bir odam kelganligini bildirish (eshikni qoqish yoki yo'talish), ovoz berilgandan so'ng kirishga ruxsat so'rash va keyingina kirish kerakligi bayon etiladi", – deydi Muhammad Sodiq Qoshg'ariy.

**Yakuniy qism.** Sharq allomalarining shaxs muloqoti, insoniy munosabatlar psixologiyasiga

doir bilimlarini umumlashtirish orqali shaxs taraqqiyotida muloqotning o'rnini nechog'lik ahamiyatli ekaniga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu esa, o'z navbatida, muloqot insonlarning o'zaro munosabatlarini rivojlantiradi, uning kamolotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bundan tashqari, muloqot jarayoniga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirish nechog'lik muhim ekanligini takidlash joiz. Muloqot insonlarga o'z xulq-atvorini nazorat qila olishga o'rgatadi.

Shunday qilib, shaxs kamolotida xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish, shu jumladan, o'z-o'zini rivojlantirish tizimini takomillashtirish o'ta muhim ekanligi Sharq mutafakkirlari tomonidan e'tirof etilgan. Shu bois allomalarimiz tomonidan qoldirilgan ilmiy merosda ilgari surilgan g'oyalar bugungi yoshlarni nafaqat aqlan va axloqan, balki irodasi kuchli, sabotli, har qanday vaziyatda o'z-o'zini rivojlantirishdan aslo to'xtamaydigan shaxs qilib tarbiyalash uchun dasturiy amal bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmon Jomiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971. – 354 b.
2. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. Muqaddima, tarjima va izohlar muallifi: M.Qodirov. Ma'sul muharrir: A.Jalolov. – Toshkent: Yozuvchi, 2001. – 64 b.
3. Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 96 b.
4. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: O'qituvchi, 2006. – 205 b.
5. Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig". – Toshkent, 2018.
6. Mahmud Qoshg'ariy. "Devonu lug'otit-turk". – Toshkent, 2013.
7. Muhammad Sodiq Qoshg'ariy. "Odob as-solihin". – Toshkent, 2013.
8. Bayjonov F. (2023). Technologies for the development of gender culture in cooperation with the family and educational institutions. Bulletin of Science and Practice, (4), pp. 531-534 // <https://doi.org/10.33619/2414-2948/89/70>
9. Bayjonov F.B. (2021). Gender differences in the contemplation of teenagers. Theoretical & Applied Science, 98(06), pp. 144-146 // <https://doi.org/10.15863/tas.2021.06.98.21>
10. Bayjonov F. (2022). Factors for forming gender culture in adolescents in family and educational institutions. InterConf, (96). // <https://ojs.ukrlagos.in.ua/index.php/interconf/article/view/18170>
11. Raimdjanov M. (2021). [Cooperation between school, family and community on vocational training of students as a social pedagogical problem](https://cyberleninka.ru/article/n/formation-of-pedagogical-and-psychological-knowledge-in-future-teachers/viewer) Conferencious Online, pp. 28-30 // <https://cyberleninka.ru/article/n/formation-of-pedagogical-and-psychological-knowledge-in-future-teachers/viewer>
12. Raimdjanov M. (2021). [Formation of pedagogical and psychological knowledge in future teachers](https://cyberleninka.ru/article/n/formation-of-pedagogical-and-psychological-knowledge-in-future-teachers/viewer) Scientific progress 2 (4), pp. 988-991 // <https://cyberleninka.ru/article/n/formation-of-pedagogical-and-psychological-knowledge-in-future-teachers/viewer>
13. Imom Termiziy. Sunani Termiziy. 1-jild // [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
14. Imom Buxoriy asarlarida axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalar – тема научной статьи по языкознанию и литературоведению читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка // [www.cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru)
15. Alisher Navoiy hayoti va ijodi // [www.tafakkur.net](http://www.tafakkur.net)



**Mehmonali Suvankulov,**  
O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti  
Yuridik fanlar kafedrası boshlig'i,  
yu.f.n., dotsent, polkovnik



**Abduqodir Abdibosirov,**  
O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti  
Yuridik fanlar kafedrası o'qituvchisi

## MAKTABLARDA MOBIL TELEFON VA SMARTFONLARDAN FOYDALANISH TARTIBI VA HUQUQIY ASOSLARI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

**Annotatsiya.** Maqola O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilar tomonidan mobil telefon va smartfonlardan foydalanish tartibi va huquqiy asoslariga bag'ishlangan bo'lib, unda mobil telefon va smartfonlarning tahsil oluvchilar uchun foydali va zararli jihatlari, ta'lim muassasalarida ushbu qurilmalardan foydalanishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar hamda ularda belgilangan tartib va qoidalarni buzgan shaxslarning javobgarlik masalalari tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** mobil telefon va smartfonlar, maktablarda mobil telefon va smartfonlardan foydalanish tartibi, smartfonning o'quvchilar uchun zarari va foydalari, nomofobiya va uning oqibatlarini.

**Аннотация.** Статья посвящена порядку и правовым основам использования мобильных телефонов и смартфонов обучающимися в образовательных учреждениях Республики Узбекистан, описаны полезные и вредные стороны мобильных телефонов и смартфонов для обучающихся, нормативные правовые документы, регулирующие использования этих устройств в образовательных учреждениях, а также установленные в них процедуры и правила. Проанализированы вопросы ответственности нарушителей.

**Ключевые слова:** мобильные телефоны и смартфоны, манера использования мобильных телефонов и смартфонов в школах, вред и польза смартфонов для учащихся, номофобия и ее последствия.

**Annotation.** The article is devoted to the procedure and legal basis for the use of mobile phones and smartphones by students in educational institutions of the Republic of Uzbekistan, the beneficial and harmful aspects of mobile phones and smartphones for students, regulatory legal documents regulating the use of these devices in educational institutions, as well as the procedures established in them and rules are described. The issues of liability of violators are analyzed.

**Key words:** mobile phones and smartphones, the manner of using mobile phones and smartphones in schools, the harm and benefits of smartphones for students, nomophobia and its consequences.

**Kirish.** So'nggi yillarda ta'limni rivojlantirish va yoshlarni qo'llab-quvvatlash, maktab o'quvchilari sifatli ta'lim olishlari va kerakli bilimlarga ega bo'lishlari maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda, zarur shart-sharoitlar yaratilib, bu islohotlar izchillikda davom etib kelmoqda.

Zero, Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq. Shu ma'noda O'zbekistonda

yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi”<sup>1</sup>.

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishga oid bandida yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish asosiy ustuvor vazifa sifatida belgilab qo‘yildi<sup>2</sup>.

**Maqsad va uni asoslash.** Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning 79-moddasi mamlakatimiz yoshlari uchun bag‘ishlangan bo‘lib, unda davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari himoya qilinishini ta‘minlash, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantirish maqsadida qat‘iy belgilab qo‘yildi. Shuningdek, davlat tomonidan yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun ularning ta‘lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joy bilan ta‘minlanishga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilishi ham belgilandi.

Yana bir tomoni – farzandlar tarbiyasi, ularga ta‘lim berish, barkamol avlodni voyaga yetkazish ham ota-ona majburiyati sifatida belgilandi. Ishonamizki, mamlakatimizda ota-onalarning barchasi o‘z farzandlari sifatli ta‘lim olishlarini, ilm dargohlarida berilayotgan bilimlarni puxta o‘rganishlarini xohlaydi.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida o‘tkazilayotgan xalqaro fan olimpiadalarida nufuzli o‘rinlar Yangi O‘zbekiston yoshlari tomonidan qo‘lga kiritib kelayotgani ijobiy va quvonchli holat. Ammo oxirgi yillarda mamlakatimiz yoshlarining bilim saviyasining keskin tushib ketayotganini xavotirli holat sifatida baholash lozim. Bu 2023/2024-o‘quv yili uchun oliy ta‘lim muassasalariga topshirilgan imtihon natijalarida o‘z isbotini topgan. Jumladan, 2023-yilning avgust oyida oliy ta‘lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirgan

<sup>1</sup> Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston – yoshlar mamlakati // <https://strategy.uz>.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral kunidagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/3107036>.

1073821 nafar abituriyentning 550102 nafari, ya‘ni 51,2 foizi o‘tish balli bo‘lgan 56,7 ballni ham to‘play olmagan. 56,7 ball – bu to‘plash mumkin bo‘lgan eng yuqori 189 ballning 30 foizi degani. Ya‘ni abituriyent hech bo‘lmasa 30 foiz bilimga ega bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkichni to‘play oladi. 30 foiz bilim esa reyting tizimidan qiyos olsak, hatto 2 baho ham emas! 1 baho desak to‘g‘ri bo‘lar, balki. Ya‘ni 2 bahoga o‘qiganlar ham taxminan, 35–55 foiz natija ko‘rsata olishi kerak (66 balldan yuqori). 2022-yilda bu boradagi ko‘rsatkich 36 foizni tashkil etgan<sup>3</sup>. Ya‘ni yoshlarning bilim saviyasi yildan yilga o‘shirish o‘rniga pasayib ketmoqda.

Yoshlarimizning bilim saviyasi pasayishiga sabab bo‘lgan omillardan biri – mobil telefon va smartfonlarga tobeklikdir. Maqolamizda, asosan, maktab o‘quvchilarini uyali telefon va smartfonlardan foydalanishdagi masalalarni tadqiq etishga alohida e‘tibor qaratganmiz.

#### **Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.**

Bugungi kunga kelib, uyali telefon va smartfonlar nafaqat kattalarda, balki o‘smirlarda, hatto maktabgacha yoshdagi bolalarda ham bor. Lekin bu qanchalik to‘g‘ri? Maktabda mobil telefonlardan foydalanishga ruxsat beriladimi? Bu o‘quv jarayoniga qanday ta‘sir qiladi va maktabda telefondan qonunchilik darajasida foydalanish mumkinmi?

Bugungi kunda maktab o‘quvchilari mobil telefon va smartfonlardan faol foydalanib kelmoqda.

*Mobil telefon* – bu uyali tarmoq texnologiyasidan foydalanuvchi qo‘ng‘iroqlarni amalga oshirish va qabul qilish uchun ishlatadigan har qanday ko‘chma telefon<sup>4</sup>.

*Smartfon* (inglizcha, “smartphone” – “aqli telefon”) uyali telefon hamda qo‘l kompyuteri vazifasini bajaruvchi moslamadir<sup>5</sup>.

*Zamonaviy turdagi smartfonlar* – yuqori texnologiyali qurilmalar bo‘lib, ular yordamida nafaqat qo‘ng‘iroq qilish yoki SMS xabar yuborish, balki Internetga kirish, musiqa tinglash, suratga

<sup>3</sup> O‘zbekistonda OTMga test topshirgan abituriyentlarning yarmidan ko‘pi o‘tish ballini to‘play olmagan // <https://bugun.uz/ozbekistonda-otmga-test-topshirgan-abituriyentlarning-yarmidan-kopi-otish-ballini-toplab-olmagan>.

<sup>4</sup> “Vikipediya – Ochiq ensiklopediya” // [https://uz.wikipedia.org/wiki/Mobil\\_telefon](https://uz.wikipedia.org/wiki/Mobil_telefon).

<sup>5</sup> “Vikipediya – Ochiq ensiklopediya” // <https://uz.wikipedia.org/wiki/Smartfon>.

olish yoki turli xil messenjerlar (ijtimoiy tarmoq) sahifalarida do'stlar bilan suhbatlashish.

Maktabda o'quvchilar tomonidan telefon va smartfonlardan foydalanish bo'yicha mutaxassislarning ikki xil yondashuvi mavjud. Birinchi guruh mutaxassislari va olimlar telefon va smartfonlardan foydalanishning salbiy jihatlari ko'pligini inobatga olib taqiqlash lozim, deb fikr yuritsa, ikkinchi guruh mutaxassislari telefon va smartfonlardan foydalanishning ijobiy jihatlari ko'pligini inobatga olib, xayrixohligini bildirishadi.

Shuningdek, uyali telefon va smartfonlardan foydalanishni cheklash va ta'qiqlash masalasida o'quvchilar ota-onalarining ham fikrlari *ikki xil*. Birinchi toifada ota-onalarning aksariyat qismi maktabda farzandlarining uyali telefon va smartfonlaridan foydalanishini, ayniqsa, darsdan chalg'igan holda turli xil o'yinlar yoki videolarni tomosha qilishlarini istamaydi, shu sababli ular maktablarda o'quvchilar tomonidan telefon yoki smartfonlardan foydalanishining cheklashlanishiga xayrixoh. Ammo ikkinchi toifa ota-onalar esa maktabda farzandlarining uyali telefon va smartfonlardan foydalanishining cheklanishiga qarshi bo'lib, bu holat inson huquqlariga zid ekani, qurilmalar bolaning shaxsiy mulki ekanini bahona qilishadi. Afsuski, mazkur toifadagi ota-onalar farzandlarining kelajagiga befarq bo'layotganini bilmaydi.

Xuddi shu singari maktabdagi pedagoglarning ham uyali telefon va smartfonlardan foydalanishni cheklash va ta'qiqlashga bo'lgan qarashlari ham ikki xil bo'lib, ularning aksariyati maktabda va o'quv mashg'ulotlarida telefon va smartfonlardan foydalanishni salbiy holat deb baholasa, ikkinchi toifa pedagoglar matematika, ingliz tili va boshqa fanlarni o'tishda ma'lumot qidirishda va tinglovchilarni baholashda smartfonlardan foydalanishni ijobiy deb baholab, cheklov va taqiqlarga qarshiligini ta'kidlagan.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida maktablarda telefon va smartfonlardan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlari aniqlangan va ularni turlicha tasniflash mumkin.

Qurilmalarning ijobiy jihatlari xususida to'xtaladigan bo'lsak, bugungi yoshlar rivojlanishda o'tgan yillardagi avlodlardan keskin farq qiladi.

Gadgetlar ularning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylangan va bu maktabda mobil telefonlardan foydalanish yomon degan ma'noni anglatmaydi.

Maktabdagi mobil telefonlar nafaqat urf va zamonaviy ramzi, balki qulay va foydalidir. Maktabda telefonlardan foydalanishning aniq afzalliklari orasida quyidagilarni ta'kidlash kerak: a) maktabda bolani kuzatish, ota-onalar bilan doimiy muloqot qilish; b) turli eslatmalarni o'rnatish; d) favqulodda vaziyat yuzaga kelganda tahdid xavfini kamaytirish (tezkor xizmatlarni chaqirish); e) tengdoshlar bilan tanishish; f) global Internet tarmog'iga kirish; g) o'qituvchiga ko'maklashish; h) ota-onalar tomonidan farzandini uyiga yo'nalishli taksi orqali yuborishda foydalanish va h.k.

Maktabda telefondan foydalanishning *salbiy jihatlari* xususida to'xtaladigan bo'lsak, mobil telefon va smartfonning o'quvchi uchun aniq foydasi bilan bir qatorda, telefondan foydalanishni cheklash haqida o'ylashga majbur qiladigan zarari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

a) oila byudjetida qo'shimcha xarajatlarning yuzaga kelishi, chunki hozirda smartfonlarning o'rtacha narxi 3-4 mln so'mdan 15 mln so'mgacha bo'lgan miqdorni tashkil qiladi, bu esa o'z-o'zidan ota-onalar uchun qo'shimcha sarf-xarajatlarni keltirib chiqaradi;

b) bolaning tengdoshlar jamiyatiga moslashish, tengdoshlari bilan erkin muloqot qobiliyatini cheklash, ya'ni o'quvchilar darsdan bo'sh vaqtlarida sinfdoshlari yoki tengdoshlari bilan muloqot qilish, ular bilan do'stona munosabat o'rnatish o'rniga telefon va smartfonlarda turli xil o'yinlar o'ynash, musiqa tinglash, kinofilmlar tomosha qilish, "Instagram", "Facebook", "Telegram" va boshqa ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish bilan bo'sh vaqtini band qiladi, ya'ni o'quvchining miyasi dam olmaydi, aksincha chalg'iydi;

d) bilim saviyasining yomonlashishi, o'quvchi dars jarayonlarida ham imkon qadar ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish yoki internet tizimiga kirib turli xil o'zini qiziqtirgan ma'lumotlar bilan tanishishi yoki sinfdoshlariga sms xabarlar, fotosuratlar va boshqa turli xil qiziqarli xabarlar yuborish orqali chalg'iydi. O'quvchi darsdan chalg'ib telefondagi ma'lumotga qaraganidan so'ng uning fikrini jamlash

uchun kamida 20 daqiqa vaqt o'tishi talab qilinadi, bu esa psixologlar tomonidan ilmiy jihatdan isbotlangan bo'lib, o'quvchini bilim olishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

e) o'quvchini tengdoshlari orasidagi ijtimoiy maqomni baholash uchun omil bo'layotgani, ya'ni maktabdagi barcha o'quvchilar ham bir xil ijtimoiy maqomga ega bo'lgan oila farzandlari emasligi hammaga ayon, ayrim o'quvchilarga ota-onalari tomonidan eng so'nggi markadagi "iPhone" telefoni olib berilsa, boshqa ota-ona oiladagi moliyaviy sharoitidan kelib chiqib, oddiy telefon olib beradi. Natijada o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy tengsizlik yuzaga keladi, oddiy uyali telefondan foydalanib yurgan o'quvchi o'zini tengdoshlari orasida kamsitilgandek his qiladi yoki o'quvchilar o'rtasida telefon markasiga qarab bir-birini kamsitish yuzaga keladi. Buning oqibatida esa farzandlar ota-onalariga tengdoshlari tomonidan foydalanayotgan qimmat markali telefonlardan olib berishlarini talab qiladi, bu esa ota-onalarga ham muayyan iqtisodiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

f) smartfonni o'g'irlash yoki uning buzilish xavfini yuzaga kelayotgani. Maktablarda o'quvchilarning uyali telefon va smartfonlar o'g'irlanishi holatlarining sodir bo'lishi hech kimga sir emas, bu esa, o'z navbatida, maktab o'quvchilari tomonidan o'g'irlik jinoyatlari salmog'ining oshishidagi viktimologik sharoit hisoblanadi, chunki o'quvchilar doimiy ravishda ham telefon va smartfonlarini nazorat qila olmaydi, jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida yoki tanaffus paytlarida o'g'irlik sodir bo'lish ehtimolini oshiradi. Shuningdek, o'quvchilar maktabda o'z ehtiyotsizliklari natijasida telefonlarini yo'qotib qo'yish holatlari ham kuzatiladi. Bundan tashqari, o'quvchilar maktabda o'z ehtiyotsizligi natijasida telefon apparatlarining sindirib qo'yishi kabi holatlar yuzaga keladi, bu ham o'z navbatida, oilaning byudjetiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

g) o'quvchida mobil telefon va smartfonga tobeklikning yuzaga kelayotgani. Haqiqatan ham gadjetlar yoshlar hayotiga keskin kirib keldi va ularning vaqtini to'liq qamrab oldi. Yoshlar mobil telefon va smartfonlarga shunchalik bog'lanib qoldiki, ular o'z hayotlarini telefon va smartfonlarsiz tasavvur ham qila olmaydi. Psixologlar tomonidan

o'tkazilgan ilmiy tahlillarga ko'ra, hozirda yoshlarda smartfonlarga tobeklik, ya'ni "nomofobiya" yuzaga kelgan. *Nomofobiya* – bu smartfonga g'ayritabiiy qaramlik bo'lib, telefonga kirish imkoni bo'lmaganda insonda vahima qo'zg'atadi.

Nomofobiyaning quyidagi belgilari mavjud:

a) telefonga doimiy kirish imkoni bo'lmasa, o'zini noqulay his qilish; b) yangiliklarni tekshira olmasa, asabiylashish; v) telefon quvvati tugayotganini ko'rsa, qo'rquv yoki qattiq xavotirni boshidan kechirish; g) mobil internet trafikigi qoldig'i tugayotganida vahimaga tushish; d) doimiy ravishda uyali aloqa yoki Wi-Fi tarmog'i signali mavjudligini tekshirish; e) telefonsiz qayerdadir qolib ketishdan qo'rqish; j) smartfonni muntazam tekshirib turish zarurligini his etish va hokazo.

Demak, yoshlarimizda nomofobiya yuzaga kelishining oldini olish uchun hech bo'lmaganda, o'quvchilar maktabdaligida telefon va smartfonlardan foydalanishni ta'qiqlash yoki qisman cheklash farzandlarimiz uchun foydadan holi bo'lmaydi.

Maktablarda smartfonlardan foydalanishni cheklash yoki ta'qiqlash masalasi bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi asosidagi statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, har to'rt mamlakatdan birida dars paytida smartfondan foydalanish allaqachon taqiqlangan<sup>6</sup>. Masalan, Singapur va Bangladeshda sinflarda smartfonlardan foydalanish man etilgan, ammo maktab miqyosida bunday cheklov mavjud emas.

Fransiya parlamenti 2018-yil 30-iyul kuni 3 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarga tayyorlov, boshlang'ich va o'rta maktablarda mobil telefonlar, internetga ulangan planshet va aqlli soat kabi boshqa qurilmalardan foydalanishni taqiqlovchi qonunni qabul qildi. Smartfonlar faqatgina nogironligi bor bolalarni o'qitish va qo'llab-quvvatlash uchun qat'iy ravishda ishlatiladi<sup>7</sup>.

Belgiya, Ispaniya va Buyuk Britaniyada olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, o'quvchilardan telefonlar olib qo'yilganda, nisbatan past

<sup>6</sup> UNESCO education report advises appropriate use of technology in schools. UN News <https://news.un.org/en/story/2023/07/1139122>.

<sup>7</sup> Парламент Франции запретил пользоваться мобильными в школах. Новости DW.com <https://www.dw.com/py/>.

o'zlashtiruvchi o'quvchilarda bilim ko'rsatkichlari yaxshilangan.

Rivojlangan davlatlar sirasiga kiruvchi Xitoy davlatida ham 2023-yilning 2-sentabridan e'tiboran 18 yoshgacha bo'lgan Xitoy aholisiga soat 22:00 dan 06:00 gacha mobil internetdan foydalanish taqiqlandi. Jumladan, sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalar smartfondan kuniga atigi 40 daqiqa foydalanishi mumkin, 16-17 yoshli o'smirlarga uzog'i bilan ikki soat foydalanishga ruxsat beriladi<sup>8</sup>.

2020-yil 13-yanvardan Turkmanistondagi barcha maktablarda mobil telefonlardan foydalanish taqiqlandi, maktab o'quvchilari uyali telefonlar va smartfonlardan faqat maktab binosidan tashqarida o'quv mashg'ulotlari boshlanmasdan oldin va darsdan keyin foydalanishlari mumkin, o'qituvchilar esa maktabdaligida mobil gadjetlarini ovozsiz rejimga qo'yishlari shartligi belgilangan<sup>9</sup>.

Rossiya Federatsiya Davlat Dumasi tomonidan 2023-yil 6-dekabr kuni "Rossiya Federatsiyasining ta'lim to'g'risida"gi 470837-8-son qonuniga ta'lim jarayoni ishtirokchilarining hamkorligini takomillashtirishga oid o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, ushbu o'zgartirishda maktablarda o'quv jarayonida telefon va smartfonlardan foydalanish ta'qiqlandi. Mazkur qonun 2024-yil 1-sentabridan kuchga kirishi belgilandi<sup>10</sup>.

Ushbu masalaning dolzarbligi BMTning e'tiboridan chetda qolmagan bo'lib, BMTning ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha tashkiloti UNESCOning 2023-yil 26-iyul kuni e'lon qilingan ta'lim monitoringi bo'yicha global hisobotida butun dunyo bo'ylab maktablarda smartfonlardan foydalanishni taqiqlashga chaqirgan<sup>11</sup>.

UNESCO xalqaro tashkilotining xulosasiga ko'ra, smartfon va bu kabi qurilmalar o'quvchilarni o'qishdan chalg'itishi, ularning ruhiy salomatligi va

shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligiga oid muammolarni keltirib chiqarishi mumkin ekan.

Hisobotda faqat ta'lim sohasida aniq rol o'ynaydigan texnologiyaga maktabda ruxsat berilishi lozimligi, mobil qurilmalarning o'quvchiga shunchaki yaqin turishining o'zi ham chalg'ituvchi omil bo'lishi mumkinligi, natijada o'quvchilar e'tiborini topshirilgan vazifadan chalg'itishi aytib o'tilgan. UNESCO hisobotida "inson bir marta chalg'iganidan so'ng diqqatini qayta jamlash uchun unga kamida 20 daqiqa vaqt kerak bo'ladi" deyilgan. Bu esa bilim olish samaradorligining keskin tushib ketishiga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, mamlakatimizda ta'lim muassasalarida smartfon va boshqa mobil telefonlardan foydalanishni cheklash to'g'risida bir qancha normativ hujjatlar qabul qilingan. Xususan, maktab va boshqa o'quv yurtlaridagi mobil telefondan foydalanish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 21-maydagi "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida tartibga solingan. Ushbu nizomga ko'ra, ta'lim muassasasiga kirib kelishda har bir ta'lim oluvchi, xodim, keluvchi va boshqa shaxslar o'z telefonining chaqiruv ovozini to'liq o'chirib qo'yishi (telefonni "ovozsiz" rejimga o'tkazishi) shart.

Ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari va tadbirlar (saflanish, tarbiyaviy soatlar, bayram, sport tadbirlari va shu kabilar) boshlanishidan oldin ta'lim oluvchilarga quyidagi majburiyatlar yuklatilgan: a) telefonini o'chirib qo'yishi; b) telefonini portfeli, sumkasi va shu kabilarga solib qo'yishi shart.

Bundan tashqari, nizomga muvofiq, ta'lim oluvchilarga quyidagilar qat'iyon taqiqlanadi: a) telefonini bo'yniga osib olish, ko'krak yoki shim cho'ntaklarida, yubkalar cho'ntaklarida va shu kabilarda saqlash; b) telefon akkumulyatorini zaryadlash uchun ta'lim muassasasi elektr tarmoqlariga ulash; v) telefoni yordamida atrofda qilargi zo'ravonlik, shafqatsizlik,

<sup>8</sup> Xitoy 18 yoshga to'lmaganlarga mobil internetdan foydalanishni cheklamoqchi. Qalampir.uz yangiliklari <https://qalampir.uz/news/khitoy-18-eshga-tulmaganlarga-mobil-internetdan-foydalanishni-cheklamok-chi-87404>.

<sup>9</sup> В школах Туркменистана запретили мобильные телефоны. Новости Туркменпортал.ком <https://туркменпортал.ком/блог/24346/>

<sup>10</sup> UNESCO education report advises appropriate use of technology in schools. UN News <https://news.un.org/en/story/2023/07/1139122>.

<sup>11</sup> <https://sozd.duma.gov.ru/bill/470837-8>

pornografiyani targ'ib qiluvchi video va suratlarini namoyish qilish; ta'lim muassasasining nufuziga, shu jumladan, zo'rvonlik va vandalizm holatlarini suratga olish va keyinchalik ularni atrofdagilarga namoyish etish yo'li bilan zarar yetkazish; g) o'quv mashg'ulotlari vaqtida telefon orqali so'zlashish hamda SMS (MMS) va boshqa turdagi xabarlarini jo'natish; telefonni stol ustiga qo'yish; musiqa, shu jumladan, quloqchinlar orqali tinglash; surat va video tasvirlarni ko'rsatishda telefondan foydalanish (o'yinlar bilan shug'ullanish), tasvir (matn, rasm, videoyozuv va fotosuratlar) ko'rish, diktofon, kalkulyator, kalendar, bloknote, yondaftarcha kabilar sifatida foydalanish; suratga olish va video tasvirga tushirish; telefon (GPRS, Bluetooth, Internet va shu kabilar) orqali boshqa xizmatlardan foydalanish.

Albatta, inson hayotida favqulotda holatlar ham bo'ladi, qaror chiqaruvchi ushbu holatlarni inobatga olgan holda quyidagilarni belgilab qo'ygan: a) ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilarga mashg'ulotlar va tadbirlar oralig'ida faqat asosli va kechiktirib bo'lmaydigan zarur holatlarda ota-onasi, yaqin qarindoshlari, ta'lim muassasalarining rahbarlari yoki xodimlari bilan zudlik bilan bog'lanish maqsadida telefonlardan foydalanishga ruxsat etiladi; b) mashg'ulotlar va turli tadbirlar oralig'ida telefon orqali so'zlashish uchun xonadan yo'lakka yoki foyega chiqish, past ovozda va qisqa muloqot qilish talab etiladi; g) favqulodda vaziyatlar vujudga kelgan taqdirda ta'lim muassasalarida telefondan foydalanish cheklanmaydi.

Nizomda bunday holatlarning inobatga olinganligi quvonarli, albatta, ammo yuqorida dars mashg'ulotlari va boshqa tadbirlar davomida ta'lim oluvchilar telefon apparatlarini o'chirib qo'yishlari shart ekanligi aytib o'tilgan, biroq ota-ona o'z farzandi bilan kechiktirib bo'lmay holatlarda bog'lanish tartibi nizomda ko'rsatilmagan.

Ushbu Nizom talablarini buzgan ta'lim oluvchilarga nisbatan quyidagi ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanadi: a) ogohlantirish; b) ularning kundalik daftariga yozib qo'yish; d) ota-onalarini xabardor qilish yoki tushuntirish suhbatini o'tkazish uchun ta'lim muassasasiga chaqirish.

Yuqoridagi talablar buzilgan taqdirda, ta'lim muassasasining har qanday pedagog xodimi

ta'lim oluvchidan telefonni olib qo'yish, Nizomda belgilangan talablar buzganligi holati to'g'risida bildirishnoma rasmiylashtirish va uni telefon bilan birga ta'lim muassasasining direktoriga yoki direktor o'rinbosariga, keyinchalik uni ota-onalarga berish, nizom talablari buzilganligi holatlari to'g'risida ogohlantirish berish huquqiga ega.

Ushbu Nizom talablarining har qanday buzilishi ta'lim muassasasida tuziladigan direktor rahbarligidagi komissiya tomonidan, sinf rahbari, ta'lim oluvchining ota-onalari ishtirokida, shuningdek, ota-onalar majlisida muhokama qilinadi. Nizomda bundan tashqari ushbu talablarga rioya etilishini ta'lim muassasasining direktori va uning o'rinbosarlari nazorat qilishi belgilangan.

Rus olimi A.S. Timoshukning fikricha, hozirgi kunda ta'lim muassasalarida smartfon va boshqa uyali aloqa vositalaridan foydalanishni cheklashning amaldagi asosiy chorasi bu ma'naviy ta'sir ko'rsatish bo'lib, bu ta'sir chorasi ta'lim muassasasi o'qituvchi va rahbarlari tomonidan ota-onalarga uyali aloqa vositalarining bolalarga salbiy ta'siri to'g'risida tushuntirish va o'quvchilardan yig'ilishlar va o'quv mashg'ulotlarida o'quvchilardan telefon apparatlarini o'chirib qo'yishni yoki "ovozsiz" rejimga o'tkazishni iltimos qilishdan iborat. Olim o'z fikrining davomida bu chora har doim ham ota-ona va ta'lim oluvchilarga ta'sir qilavermasligini aytib o'tgan<sup>12</sup>.

Darhaqiqat, ushbu Nizom qabul qilinganiga ham taxminan, 11 yildan oshgan bo'lsa-da, maktab va ta'lim muassasalarida smartfon va telefon apparatlaridan maktab hududida va dars mashg'ulotlari davomida foydalanish davom etmoqda. Balki ta'lim muassasasida telefon apparatlaridan foydalanish talablarini buzganlik uchun ogohlantirish yoki ota-onalar majlisida muhokama qilishning o'zi yetarli emasdir. Ushbu tartibbuzarliklarning oldini olish, Vatanimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni sifatli ta'lim olishlari maqsadida ta'lim muassasasida telefon apparatlaridan foydalanish talablarini buzganlik uchun voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalariga

<sup>12</sup> Тимошук А.С. Практики ограничения использования гаджетов в образовательных организациях // Владимирский юридический институт ФСИН. – 2020. – № 2. – С. 99.



nisbatan qat'iy choralar ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Negaki mazkur qarorning qabul qilinganligiga 11 yildan ortiq vaqt o'tgan, bu orada 2012-yildagi mobil telefon va smartfonlarning funksiyalari, ulardagi ilovalar ham takomillashgan bo'lib, o'sha davrdagi cheklovlar va takliflarni hozirgi zamon talablari va smartfonlarni takomillashgan funksiyalaridan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Rivojlangan mamlakatlarda ushbu tartibbuzarlik sodir etilganligi uchun ota-onalarni jarimaga tortish amaliyoti yo'lga qo'yilganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Angliyaning Yangi Uoltem shahridagi maktablarda eshik kiraverishida maxsus tezkor aloqa vositalarini fosh etuvchi skaner o'rnatildi. Agarda bibor-bir o'quvchida telefon topiladigan bo'lsa, maxsus xizmat vakillari uni darhol musodara qilib, ota-onalaridan jarima undirib olmoqdalar<sup>13</sup>.

Albatta, kechiktirib bo'lmaydigan hollarda yoki birinchi marta sodir etganlik uchun ogohlantirish yoki ota-onalar majlisida muhokama qilish yetarli, ammo yuqoridagi talablarni surunkali buzib kelayotgan ta'lim oluvchilarning ota-onalariga nisbatan ma'muriy javobgarlik belgilash davr talabi deb hisoblaymiz hamda "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 13-bandi quyidagi kichik band bilan to'ldirilishini taklif qilamiz:

"13. Ushbu Nizom talablarini buzgan ta'lim oluvchilarga nisbatan quyidagi ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanadi: a) ogohlantirish; b) ularning kundalik daftariga yozib qo'yish; v) ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) xabardor qilish yoki tushuntirish suhbatini o'tkazish uchun ta'lim muassasasiga chaqirish; g) ogohlantirishlarga qaramay ta'lim muassasasida telefon apparatlaridan foydalanish talablarini surunkali buzgan ta'lim oluvchilarning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksning 47-moddasi 1-qismiga asosan javobgarlikka tortish".

<sup>13</sup> Тимошук А.С. Практики ограничения использования гаджетов в образовательных организациях // Владимирский юридический институт ФСИН. – 2020. – № 2. – С. 99.

**Yakuniy qism.** Yuqoridagilardan kelib chiqib, maktablarda mobil telefon va smartfonlardan foydalanishni tartibga solish bo'yicha quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

*Birinchiidan*, ota-onalarning o'z farzandlarini nazorat qilish va ulardan xabardor bo'lishlari uchun onlayn davomatni yo'lga qo'yish. Unda har bir dars boshlanishida o'quvchilarning davomati aks etishi zarur. Ushbu davomat turi ota-ona va o'qituvchilarga murakkab bo'lmasligi, shu bilan birga, dars mashg'ulotlariga xalaqit qilmasligi lozim.

*Ikkinchiidan*, kechiktirib bo'lmas holatlarda ota-onalarning o'z farzandi bilan bog'lanish tartibini normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilash. Buning uchun har bir ota-onaga tegishli ta'lim muassasining telefon raqamlari berilishi, ota-ona o'z farzandi bilan bog'lanishi uchun ushbu raqamga telefon qilishi, mas'ul xodimlar esa bu haqda mashg'ulot o'qituvchisiga va o'quvchiga xabar berishi lozim bo'ladi.

*Uchinchiidan*, ta'lim muassasasida telefon apparatlaridan foydalanish talablarini buzganlik uchun voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalariga nisbatan ma'muriy javobgarlikni belgilash.

*To'rtinchiidan*, maktablarda uyali telefon va smartfonlardan foydalanish savodxonligi va etikasi bo'yicha maxsus bilimlar berish bo'yicha darslarni joriy qilish orqali mazkur muammolarni bartaraf etishga erishish.

*Beshinchiidan*, maktablarda Ichki ishlar organlari inspektor-psixologlarini voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatlarni jilovlash uchun muhim omil sifatida xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston – yoshlar mamlakati // <https://strategy.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/3107036>.
3. O'zbekistonda OTMga test topshirgan abituriyentlarning yarmidan ko'pi o'tish ballini to'play olmagan. // <https://bugun.uz/ozbekistonda-otmga-test-topshirgan-abituriyentlarning-yarmidan-kopi-otish-ballini-toplab-olmagan>.
4. “Vikipediya – Ochiq ensiklopediya” internet sayti [https://uz.wikipedia.org/wiki/Mobil\\_telefon](https://uz.wikipedia.org/wiki/Mobil_telefon).
5. “Vikipediya – Ochiq ensiklopediya” internet sayti <https://uz.wikipedia.org/wiki/Smartfon>.
6. UNESCO education report advises appropriate use of technology in schools. UN News // <https://news.un.org/en/story/2023/07/1139122>.
7. Парламент Франции запретил пользоваться мобильными в школах. Новости DW.com // <https://www.dw.com/py/>.
8. Xitoy 18 yoshga to'lmaganlarga mobil internetdan foydalanishni cheklamoqchi // <https://qalampir.uz/news/khitoy-18-eshga-tulmaganlarga-mobil-internetdan-foydalanishni-cheklamok-chi-87404>.
9. В школах Туркменистана запретили мобильные телефоны. Новости Tukrmenportal.com // <https://туркменпортал.ком/блог/24346/>
10. UNESCO education report advises appropriate use of technology in schools. UN News // <https://news.un.org/en/story/2023/07/1139122>.
11. <https://sozd.duma.gov.ru/bill/470837-8>
12. Тимошук А.С. Практики ограничения использования гаджетов в образовательных организациях // Владимирский юридический институт ФСИН. – 2020. – № 2. – С. 99.
13. Zaripov F.M. Uyali aloqa vositalari va ularning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni // International scientific journal volume 1 issue 5 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337.



**Илхамова Зумрад Вахидовна,**

*младший научный сотрудник отдела Стратегических исследований и прогнозирования научно-исследовательского института «Семьи и женщин»*

*e-mail: [zumrad.i@mail.ru](mailto:zumrad.i@mail.ru)*

## РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация.** В статье приведен статистический анализ развития высшего образования в Республике Узбекистан за последние 5 лет, а также вопросы развития системы образования, государственная политика по созданию условий для получения образования молодежи, особенно женщин.

**Ключевые слова:** высшее образование, развитие, преподаватели, материально-техническая база, качество образования, просвещение, наука.

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston Respublikasida so'nggi 5 yil ichida oliy ta'lim rivojlanishining statistik tahlili hamda ta'lim tizimini rivojlantirish masalalari, yoshlar, ayniqsa, xotin-qizlarning bilim olishi uchun shart-sharoit yaratish borasidagi davlat siyosati yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** oliy ta'lim, rivojlanish, o'qituvchilar, moddiy-texnika bazasi, ta'lim sifati, ma'rifat, fan.

**Annotation.** The article provides a statistical analysis of the development of higher education in the Republic of Uzbekistan over the past 5 years, as well as issues of development of the education system, state policy to create conditions for education for young people, especially women.

**Keywords:** higher education, development, teachers, material and technical base, quality of education, enlightenment, science.

**Введение.** Получение качественного образования закладывает основу для улучшения условий жизни людей и обеспечения устойчивого развития. Вопросы доступности и качества образования входят в стратегические программы развития всех стран мира, поскольку, формируя образовательную среду для возможностей самореализации населения, государство способствует материальному благополучию и социально-экономической стабильности в стране, приумножению человеческого капитала, а, следовательно, росту

ее экономического потенциала и созданию конкурентного преимущества на международной арене.

Развитие системы образования основано на базовых принципах международной образовательной деятельности, одним из которых является создание условий и обеспечение реализации доступного и качественного образования.

В Республике Узбекистан каждому гарантированы равные права на получение образования независимо от пола, расы,

национальности, языка, религии, социального происхождения, убеждений, личного и общественного положения.

Высшее образование в Узбекистане – это самостоятельный вид системы непрерывного образования, которое осуществляется в высших образовательных организациях на базе общего среднего и среднего специального, профессионального образования в соответствии с ее законодательством.

В стране имеются следующие типы высших образовательных организаций: университет, академия, институт (приравненные к ним высшие образовательные учреждения). Также высшее образование подразделяется на две ступени: бакалавриат и магистратура.

**Цель и обоснование.** В Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017–2021<sup>1</sup> годах определен ряд задач по совершенствованию сферы высшего и среднего специального образования.

Проведены работы по укреплению материально-технической базы учреждений, строительству новых, а также реконструкции и капитальному ремонту существующих вузов, оснащению их современным учебным и лабораторным оборудованием, компьютерной техникой и методическими пособиями.

Президентом страны поставлена задача повысить доступность и охват молодежи высшим образованием. В условиях рыночной экономики кадры новой формации играют важную роль на пути достижения высоких показателей, успешной интеграции страны в международное сообщество. Узбекистан находится на пути инновационного развития, что предполагает формирование принципиально нового типа кадров, которые должны соответствовать требованиям наукоемкой экономики и национальной системы квалификаций.

**Описание и решение научной проблемы.**

Как показывают социологические исследования, за 2018–2022 годы наблюдается заметный

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан, от 07.02.2017 г. № УП-4947

рост количества высших образовательных организаций с 98 единиц до 191<sup>2</sup> (рис. 1).



**Рис. 1.**

Так, в 2022/2023 учебном году, по сравнению с 2018/2019 учебным годом, их количество увеличилось почти в два раза.

Негосударственные высшие образовательные организации осуществляют образовательную деятельность в соответствии с государственными стандартами и требованиями.

Только за 2022 год их количество увеличилось на 16 единиц, а, по сравнению с 2018/2019 учебным годом, их число выросло на 40 единиц, если в 2018/2019 учебном году был только один негосударственный вуз, то уже в 2022/2023 учебном году таких вузов стало уже 41. Также наблюдается значительное увеличение доли негосударственных высших образовательных организаций с 1,0 процента в 2018/2019 учебном году до 21,5% в 2022/2023 учебном году (рис. 2).



**Рис. 2.**

<sup>2</sup> Данные агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан

Количество зарубежных высших образовательных организаций только за 2022 год увеличилось на 3 единицы, по сравнению с 2018/2019 учебным годом, их количество возросло на 18 единиц или в 2,8 раз. Доля зарубежных высших образовательных организаций к общему числу образовательных организаций составила в 2022/2023 году 14,7 % (рис. 3).



Рис. 3.

Наибольшее количество высших образовательных организаций так же, как и негосударственных сосредоточено в г. Ташкенте.

За 2018-2022 гг. отмечен рост численности профессорско-преподавательского персонала в высших образовательных организациях. Так, в начале 2022/2023 учебного года, по сравнению с 2018/2019 учебным годом, их количество возросло на 15,1 тысяч человек, т.е. на 56,8 %, в зарубежных высших образовательных организациях – в 2,2 раза.

За 2018-2022 годы отмечен рост числа принятых в высшие образовательные организации. Так, за период с 2018/2019 по 2022/2023 учебные годы, их количество увеличилось в 2,5 раз.

Прием в негосударственные высшие образовательные организации возрос в 45,4 раза, а в зарубежные вузы – в 2,3 раза.

В 2022/2023 учебном году, по сравнению с 2018/2019 учебным годом, число студентов негосударственных высших образовательных организаций увеличилась в 72,4 раза, а студенты зарубежных высших образовательных организаций в 2,4 раза (рис. 4).




Рис. 4.

В начале 2022/2023 учебного года из общей численности студентов в высших образовательных организациях доля юношей (52,4 %) превысила долю девушек (47,6 %) (рис.5).



юноши – 52,4 %      девушки – 47,6 %.

Рис. 5.

В негосударственных высших образовательных организациях доля девушек (54,7 %) превысила долю юношей (45,3 %), а в зарубежных высших образовательных организациях наоборот – доля юношей составила 65,1 %, а доля девушек – 34,9 %.

Заключительная часть. На пути к осуществлению гендерного равенства важным шагом является создание условий для получения образования девушками, поскольку образование является прямым мостом к укреплению роли женщины в обществе.

В своей жизни женщины и девушки сталкиваются со множествами препятствий в осуществлении права на образование, среди которых традиционные убеждения о роли женщины в семье, ранние браки, беременность, необходимость ведения домашнего хозяйства, воспитание и уход за детьми.

Именно поэтому образование женщин и девушек становится той сферой, которая должна быть объектом внимания государства. За последние пять лет ситуация в этой области серьезно меняется. Девушкам выдаются беспроцентные кредиты для оплаты контрактов.

Согласно Указу Президента Республики Узбекистан<sup>3</sup> «О мерах по дальнейшему ускорению работы по системной поддержке семьи и женщин» с 2022/2023 учебного года:

– ежегодно из бюджета банкам выделяют 1,8 трлн сумов для предоставления беспроцентных кредитов сроком на 7 лет на оплату контрактов женщин;

– оплата контракта всем женщинам, обучающимся в магистратуре в государственных вузах, компенсируется государством, на который ежегодно будет выделяться не менее 200 млрд сум;

– дополнительные гранты ежегодно выделяются зарубежным вузам, на бакалавриат и на магистратуру через Фонд «Эл-юрт умиди»;

– 500 женщин со стажем работы по специальности не менее 5 лет, но без высшего образования ежегодно будут приниматься в государственные вузы на контрактной основе в дополнение к общей квоте;

– выделяются не менее 300 целевых квот для женщин в государственные научные организации или докторантуру университетов.

За последние годы политика нашей страны в области образования в корне пересмотрена, внимание к сфере просвещения вселяют уверенность в завтрашнем дне, принятые по инициативе главы государства реформы всецело способствуют укреплению в обществе статуса наставников, повышению качества образования.

<sup>3</sup> Указ Президента Республики Узбекистан № УП-87 от 07.03.2022 г.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-87 «О мерах по дальнейшему ускорению работы по системной поддержке семьи и женщин» от 07.03.2022 г.
2. Бобокулов Х.А., Абдуллаев Р.Ф., Исраилов Р.Ф. Модернизация системы высшего образования в Узбекистане: проблемы и перспективы.
3. Социально-экономическое положение Республики Узбекистан // <https://stat.uz/>.
4. Высшее образование в Узбекистане // Сайт «Республика Узбекистан. Портал государственной власти», 2007.
5. Система образования Республики Узбекистан: образовательные программы и присваиваемые квалификации М.Н. Житникова, Н.И. Зверев, Г.Ф. Ткач, 2008.

“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»  
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT,  
GENDER VA OILA

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии*  
*Society, Gender and Family in Central Asia*

xalqaro ilmiy jurnali

*международный научный журнал*

*international academic journal*

2023/4 (9)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e‘lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

**MUASSIS:**

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas‘ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,  
Razzakova N., Sobirova E.,  
Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 03.10.2023.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.